

Umurzok ALIBEKOV

SIRDARYO VOHASIDA ETNIK JARAYONLAR



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

UMURZOK ALIBEKOV

**SIRDARYO VOHASIDA ETNIK
JARAYONLAR**

O'QUV QO'LLANMA

**TOSHKENT
"TA'LIM PRINT"
2026**

UO'K:94(075)

KBK:63

A49

Alibekov U.

Sirdaryo vohasida etnik jarayonlar [Matn]: o'quv qo'llanma / Alibekov U. – Toshkent: TA'LIM PRINT, 2026. – 204 b.

Mazkur o'quv qo'llanma Sirdaryo vohasida yuz bergan etnik jarayonlarning tarixiy taraqqiyoti, bosqichlari va zamonaviy ko'rinishlarini yoritishga bag'ishlangan. Unda qadimgi davrlardan to mustaqillik yillarigacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy va demografik o'zgarishlar, ko'chmanchi va mahalliy aholining o'zaro ta'siri, shuningdek, Mirzacho'l hududining o'zlashtirilishi jarayonida yuzaga kelgan etnik tarkib tahlil etiladi. Qo'llanma 6022030 – Tarix bakalavriat yo'nalishi talabalari, magistrantlar hamda mintaqaviy etnografiya bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma 60220300 – Tarix bakalavriat yo'nalishi o'quv rejasi hamda fan dasturi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mustaqil ilmiy izlanishlar uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Mas'ul muharrir:

U.S. Abdullayev – tarix fanlari doktori, professor, Andijon davlat texnika instituti

Taqrizchilar:

F.E. Toshboyev – tarix fanlari doktori (DSc), professor, Jizzax davlat pedogogika universiteti

B.M. Ubaydullayeva – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Milliy universiteti

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Guliston davlat universiteti rektorining 2026 yil 07-yanvardagi 02-O-sonli buyrug'iga asosan nashr etildi.

ISBN

© Alibekov U., 2026.

© "TA'LIM PRINT", 2026.

MUQADDIMA

Sirdaryo vohasi qadimdan Markaziy Osiyoning eng qadimiy va sermahsul vohalaridan biri hisoblanadi. Geografik jihatdan Zarafshon, Farg'ona va Mirzacho'l oralig'ida joylashgan ushbu hudud tarix davomida turli etnik guruhlar, madaniyatlar va siyosiy tuzilmalar to'qnashuviga guvoh bo'lgan. Arxeologik, tarixiy va antropologik manbalar asosida o'rganilganda, Sirdaryo vohasida kechgan etnik jarayonlar ko'p bosqichli, murakkab va dinamik tarzda kechganligini ko'rish mumkin.

Dastlabki davrlarda bu hududda dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi mahalliy eroniy guruhlar yashagan bo'lsa, mil. avv. ming yillikning oxiri va milodiy birinchi ming yillikning boshlaridan boshlab, dasht zonalaridan turkiy tilli ko'chmanchi qabilalar — xususan saklar, massagetlar va keyinchalik qangli va ushunlar voha tomon siljib, o'zaro etnik aloqalarni shakllantira boshlagan. Bu aralashuv o'z navbatida Sirdaryo vohasining etnik xaritasida eroniy-turkiy sintezning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

O'rta asrlar davrida esa arab bosqinlari va islom dini ta'siri ostida yangi etnik-sivilizatsion shakllanish boshlangan. Arablar tomonidan olib borilgan siyosiy va diniy islohotlar mahalliy elatlar madaniyatiga singib, yangi musulmon o'zbek jamiyati shakllanishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, XI–XII asrlardan boshlab Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida turkiy etnoslar mavqeining kuchayishi kuzatildi. Turkiy urug' va qabilalar tobora kengroq hududlarni egallab, mahalliy aholiga singib borar, natijada o'zbek etnosining shakllanish jarayoni Sirdaryo vohasida aniq ko'rinishga ega bo'la boshlagan.

XIII asrda yuz bergan Chingizxon bosqini Sirdaryo vohasining demografik tarkibiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Ko'plab mahalliy aholi qatliomga uchragan, qolganlari esa yangi mo'g'ul zodagonlari hukmronligi ostida yashagan. Ammo bu bosqin uzoq muddat davom etmay, XIV–XV asrlarga kelib, Amir Temur davrida vohada nisbiy

siyosiy barqarorlik ta'minlandi va turkiy-etnik guruhlar yana asosiy etnos sifatida ajralib chiqqa boshladi.

XV–XVI asrlarda Shayboniylar bosqini va keyinchalik Buxoro xonligi tarkibida Sirdaryo vohasining ijtimoiy va etnik tarkibi yanada turkiklashdi. Ayniqsa, o'zbek nomi bilan atalgan qabila va urug'larning (boyovut, yuz, qatag'on, mang'it, jaloyir va b.) ko'chirilishi bu hududda o'zbeklashuv jarayonini kuchaytirdi. Shu bilan birga, qozoq-qirg'iz ko'chmanchi elatlari bilan ham chegaradosh bo'lgan vohada ular bilan bo'lgan madaniy va xo'jalik aloqalar ham Sirdaryo vohasining ko'p qirrali etnik tabiatini belgiladi.

XIX asr oxirlarida Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan mustamlaka siyosati natijasida vohaga rus, ukrain, belorus va boshqa slavyan xalqlari ham ko'chirilgan. Bu jarayon voha etnik tarkibiga yangi unsurlarni olib kirdi. Yangi xo'jalik tizimi, yer-suv islohoti, harbiy-mustahkamlanma punktlari va ko'chmanchi aholining joylashtirilishi Sirdaryo vohasida ko'p millatli ijtimoiy tuzilmaning shakllanishiga olib keldi. Bu esa vohaning etnik tarixini yanada murakkablashtirdi.

Xulosa qilib aytganda, Sirdaryo vohasida yuz bergan etnik jarayonlar mintaqaning tabiiy geografik holati, strategik joylashuvi, suv manbalarining mavjudligi, ko'chmanchi va dehqonchilik madaniyati o'rtasidagi uyg'unlik hamda siyosiy hukmronliklar almashinuvi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Uzoq asrlar davomida bu voha turli elatlar, madaniyatlar va til guruhlarini chorrahasi bo'lib xizmat qilgan va bugungi O'zbekiston xalqining shakllanishida muhim poydevor bo'lib qolgan.

1-MAVZU. SIRDARYO VOHASI ETNIK TARIXI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Asosiy savollar:

1. Sirdaryo vohasi tarixini o'rganilishi va muammolari.
2. Sirdaryo vohasida etnik jarayonlar.
3. O'zbekistonning mustaqillik yillarida o'zbek xalqining etnik tarixining o'rganilishi va istiqbollari.
4. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi muammolari.

Tayanch iboralar: mustaqillik, etnogenez, etnik jarayon, milliy o'zlik, tarixiy ong, o'zbek xalqi, davlatchilik, qadimiy meros, madaniy an'analar, etnik tarkib, antropologiya, til va madaniyat, genetik tadqiqotlar, tarixiy geografiya, passionar nazariya, L.N.Gumilyov, Sirdaryo vohasi, arxeologik topilmalar, etnografik tadqiqotlar, migratsiya jarayonlari.

1.Sirdaryo vohasi tarixini o'rganilishi va muammolari.

Sirdaryo vohasi – O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan, qadimdan muhim tarixiy, madaniy va iqtisodiy markazlardan biri hisoblanadi. Bu hududning tabiiy-geografik sharoiti, Sirdaryo bo'yidagi unumdor yerlari, qadimiy sug'orish tizimlari va karvon yo'llarining o'tganligi sababli qadimiy davrlardan boshlab inson faoliyatining markazi bo'lib kelgan. Vohaning qadimiy va o'rta asrlar davridagi tarixini o'rganish Markaziy Osiyo tarixini to'laqonli anglashda muhim ahamiyatga ega. Ammo, Sirdaryo vohasining tarixi to'liq va tizimli o'rganilgan deb bo'lmaydi.

Bugungi Sirdaryo vohasi (Mirzacho'l) qadimgi Baqtriya davlatining chekka chegarasi, Sug'diyona viloyatlari tarkibiga kirgan bo'lib, bu yerda qadimiy qishloq, shahar va qal'alar vujudga kelgan. O'rta asrlar davrida hudud Eftaliylar, Somoniylar, Qarluqlar, Xorazmshohlar va Qoraxoniylar davlatlari, Buxoro amirligi va Qo'qon xonliklari tutash chegara hududlari bo'lib keldi. Bugunga kelib O'zbekiston, Tojikiston davlatlarining tutash hududi bo'lib,

xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati uyg'un hudud sifatida tushunilmog'i sifatida tushunilmog'i lozim. Bu hudud ilk o'rta asrlar davridan boshlab Ustrushona deb nomlana boshlandi. XVI asr ikkinchi yarmida tug'ilib, XVII birinchi yarmi oxirlarida vafot etgan yurtdoshimiz Muhammadyor ibn Arab Qatag'an qalamiga mansub fors tilida bitilgan "Musaxxir al-bilod" asari o'tmishning muhim doir manbalardan sanaladi. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrini yorituvchi bir qancha manba va adabiyotlar mavjudki, shu asarlar qatori "Musaxxir al bilod" ham XVI-XVII asrlarni o'rganuvchi qimmatli manbadir. Manbashunos D. Sangirovaning tahlillariga ko'ra, "Musaxxir al bilod" asarida muallif "tarix kitoblarida "Usro'shona" deb yozilgan" hudud haqida ma'lumotlarni berib o'tadi. Bu hudud ma'muriy jihatdan keng maydonni egallagani bois, uning turli viloyatlari, xususan Jizzax, O'ratepa, Xo'jand, Zomin va boshqa hududlar kirgan bo'lib, demak XVII asrda ham Ustrushona deb nomlangan. XVIII-XIX asrning birinchi yarmida hududda mustaqil davlatchilik belgilari bo'lgan, o'zbek yuzlari asos solgan O'ratepa hokimligi shakllandi. Ustrushona tarixini o'rgangan M. X. Pardayev, F. Toshboyev, A. E. Berdimurodov, B. B. To'ychiboyev, J. I. G'ofurov kabi olimlar "kontakt zona", "retranlyator zona" shuningdek, professor M. Is'hoqov "bufer zona" ma'nosida tahlillarini amalga oshirishgan. Professor T. K. Qosimov, arxeolog T. O. Omonjulovlar esa hududning qadimiy davri tarixini "O'rta Sirdaryo havzasi" nuqtai nazaridan tahlil qilishgan. Tadqiqotchi U. Y. Alibekov davlatchilik nuqtai nazaridan Buxoro va Qo'qon xonliklari tutash hududlari yoki Turkiston, Molguzar tog' tizmalari va Mirzacho'l hududi tarixini o'rgangan. M. T. Xodjiyev, S. Qudratov va B. Samadovlar esa Sirdaryo viloyati nuqati nazaridan o'lka tarixini tahlil etishgan. "O'rta Sirdaryo havzasi" nuqtai nazari bilan qaraydigan bo'lsak, Sirdaryoning o'ng sohili Tosheknt vohasi hududi bilan uyg'unlashib ketadi. Agarda Sirdaryo viloyati nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, Rossiya imperyasi bosqinidan keyingi davrda tashkil qilinib, o'z ichiga Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'istonni qamrab olgan Sirdaryo viloyati bo'lganligini ham inobatga olmog'imiz lozim.

Bugungi kunda barcha fan jabhalaridagi ilmiy tadqiqotlarda Mirzacho'l atamasining keng qo'llanilib kelinayotganligi, zamonaviy urbanistik, demografik, etnologik nuqtai nazaridan fikrimizcha to'g'ri kelmaydi. Sirdaryo va Jizzax viloyati, shuningdek, qo'shni respublikalar tarkibidagi Mirzacho'lning o'zlashtirilgan bir million gektarlik hududida keng dala ekinzorlar, mahallalar, qishloqlar, shaharlar mavjudligi bu hududni garchand cheklangan ma'noda bo'lsa-da Sirdaryo vohasi deb atashga imkon beradi. Bugungi kunda o'zlashtirilgan cho'l hududining asosan Sirdaryo suvlari bilan sug'orilishi bizga mazkur hududni Sirdaryo vohasi deb nomlashimizga dalil bo'ladi. Fikrimizcha, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, geografik va boshqa turli sohalardagi zamonaviy tadqiqot tahlillarida o'zlashtirilgan Sirdaryo va Jizzax hududlarga nisbatan Sirdaryo vohasi temini qo'llanilsa ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lar edi.

Arxeologik topilmalar, ayniqsa Nurtepa, Eski Xovos, Qo'ytosh, Oqtepa kabi yodgorliklar, ushbu vohada mil. avv. I mingyillikdan boshlab yirik madaniy hayot kechganini ko'rsatadi. XX asrning 50-60-yillaridan boshlab Sirdaryo vohasida arxeologik ekspeditsiyalar faoliyat olib bordi. Shuningdek, Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayonida qator yodgorliklar aniqlanib, ularning ba'zilari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Lekin bu ishlar ko'p hollarda qurilish va melioratsiya ishlari bilan bog'liq bo'lib, arxeologik yodgorliklarning katta qismi o'z vaqtida hujjatlashtirilmagan yoki yo'qolib ketgan.

Sovet davrida Sirdaryo vohasining tarixi asosan qishloq xo'jaligi taraqqiyoti, suv inshootlari va meliorativ ishlanmalar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Bu davrda arxeologik va tarixiy manbalarga nisbatan mafkuraviy yondashuv ustuvor bo'lib, vohaning mustaqil tarixiy taraqqiyoti ikkinchi darajaga tushirilgan. O'rta asrlar, islom madaniyati, mahalliy davlatlar tarixiga nisbatan yetarli e'tibor qaratilmagan.

1991-yildan so'ng O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarixshunoslikda yangi sahifa ochildi. Sirdaryo viloyati tarixi ham bu jarayondan chetda qolmadi. Mahalliy tarixchilar, jumladan, Guliston davlat universiteti olimlari tomonidan voha tarixiga doir bir qator

ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Ayniqsa, qadimgi va o'рта asrlar yodgorliklarining topografiyasi, qadimiy chorvachilik, dehqonchilik madaniyati, karvon yo'llari va mahalliy aholi etnik tarkibi borasida yangi qarashlar ilgari surildi.

Sirdaryo vohasi tarixi Markaziy Osiyo madaniyati va davlatchiligi tarixining ajralmas bir qismidir. Bu vohaning o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlari uning tarixiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda Sirdaryo vohasi tarixini chuqur va tizimli o'rganish, mavjud tarixiy manbalarni qayta tahlil qilish va zamonaviy ilmiy metodlarni qo'llash orqali bu yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishish mumkin. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston umumiy tarixshunosligining boyishiga xizmat qiladi.

2.Sirdaryo vohasida etnik jarayonlar.

Tadqiqotchilar Sirdaryo vohasidagi etnik jarayonlarni Mirzacho'lni o'zlashtirishi muammolar bilan bog'liq holda o'rganishga harakat qilganlar. Antropogen va tabiiy ekomuammolar O'zbekiston xalqi etnogenezi va etnik tarixi jarayonlariga qanday ta'sir qilganligini ilmiy misollar asosida tahlil qilish muhim vazifalardan biri bo'lib kelgan. Shuning uchun Sirdaryo vohasida olib borilgan tadqiqotlar bu jarayonlarni yanada chuqurroq anglashga imkon beradi.

Sirdaryo vohasi Markaziy Osiyoning muhim hududlaridan biri bo'lib, uning etnik tarixi ko'plab omillar, jumladan, ekologik va antropogen omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotlarda Sirdaryo vohasidagi etnik jarayonlar, ekologik muammolar va antropogen omillarning bu jarayonlarga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Sirdaryo vohasi O'zbekistonning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Sirdaryo daryosi bilan sug'oriladigan keng tekisliklardan iborat. Hududning iqlimi kontinental bo'lib, yozlari issiq va quruq, qishlari sovuq kechadi. Suv resurslari asosan Sirdaryo daryosidan olinadi, bu esa hududning qishloq xo'jaligi va aholi turmush tarzida muhim rol o'ynaydi.

Ekologik omillar, xususan, suv resurslarining yetishmasligi va qurg'oqchilik, Sirdaryo vohasidagi etnik jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Suv tanqisligi qishloq xo'jaligida salbiy ta'sir ko'rsatib, aholi migratsiyasiga sabab bo'lgan. Bu esa hududdagi etnik tarkibning o'zgarishiga olib kelgan. Masalan, suv resurslarining kamayishi natijasida ayrim qishloqlar bo'shab qolgan yoki aholi boshqa hududlarga ko'chib ketgan.

Inson faoliyati, ya'ni antropogen omillar ham Sirdaryo vohasidagi etnik jarayonlarga ta'sir ko'rsatgan. Sanoat korxonalarining qurilishi, yangi irrigatsiya tizimlarining joriy etilishi va boshqa infratuzilma loyihalari aholi tarkibini o'zgartirgan. Bu jarayonlar natijasida turli etnik guruhlar hududga ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Shuningdek, antropogen omillar ekologik muammolarni keltirib chiqargan, bu esa o'z navbatida aholi salomatligiga va turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Ekologik muammolar, masalan, suv tanqisligi va tuproq sho'rlanishi qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, aholi migratsiyasiga sabab bo'lgan. Bu migratsiya jarayonlari esa hududdagi etnik tarkibning o'zgarishiga olib kelgan. Aholi yangi hududlarga ko'chib o'tishi natijasida turli etnik guruhlar o'rtasida madaniy almashinuv kuchaygan, bu esa yangi etnik shakllanishlarga zamin yaratgan.

Sirdaryo vohasidagi etnik jarayonlar ekologik va antropogen omillar ta'sirida shakllangan murakkab jarayondir. Ekologik muammolar va inson faoliyati hududdagi etnik tarkibning o'zgarishiga, yangi etnik guruhlarning paydo bo'lishiga va madaniy almashinuv jarayonlariga olib kelgan. Kelajakda ushbu jarayonlarni chuqurroq o'rganish va ekologik muammolarni bartaraf etish orqali hududning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

3. O'zbekistonning mustaqillik yillarida o'zbek xalqining etnik tarixining o'rganilishi va istiqbollari.

O'zbekiston mustaqilligi xalqimizga o'z milliy qadriyatlari va tarixini chuqur o'rganish imkonini berdi. Xususan, o'zbek xalqining etnik tarixi, uning shakllanish jarayoni va milliy davlatlilik asoslarini haqqoniy tahlil qilish dolzarb vazifaga aylandi. Tariximizni yangicha yondashuv asosida o'rganish nafaqat ilmiy, balki ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda o'zbek xalqining etnik tarixi va etnogenezi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu borada olimlar tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, haligacha o'z yechimini topmagan muhim masalalar mavjud. Ayniqsa, o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi murakkab ilmiy muammolar qatoriga kiradi. Tarix fanining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida bu mavzuni chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligi sharoitida xalqimizning etnomadaniy jihatdan tiklanishi, milliy o'zligini anglash jarayoni avj oldi. Bu esa, o'z navbatida, ajdodlarimizning murakkab tarixiy yo'lini chuqur o'rganish va xolis baholashni talab qiladi. Shu bois o'zbek xalqi etnogenezini, uning shakllanish jarayonlarini, tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Har bir millatning milliy o'zligini mustahkamlash va taraqqiyot yo'lida oldinga intilishi uchun chuqur tarixiy bilim va etnik jarayonlarning murakkabligini anglash katta ahamiyatga ega. Xalq o'zining milliy ildizlarini, ajdodlarining kimligini bilishga ehtiyoj sezadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston xalqi o'zining etnik tarixi va madaniy merosini o'rganishga yanada chuqurroq kirishdi.

So'nggi yillarda tarixiy ong va etnik xotirani shakllantirish jarayoni jadallashdi. Xalq o'zining qadimiy ajdodlari, ularning kelib chiqishi va etnik tarkibini anglashga intildi. Shu bois Respublikada o'zbek xalqining shakllanish tarixi va etnogenezini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlar yaratildi. Masalan, K. Shoniyozovning *"O'zbek xalqining shakllanish jarayoni"* (Toshkent, 2001), A. Asqarovning *"O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi"*

(Toshkent, 2007) kabi tadqiqotlari bu borada muhim ilmiy manba sifatida xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, respublikaning turli viloyatlarida ham ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, O. Buriyev va M. Usmonovlarni *“O‘zbeklar: etnik tarixi va etnomadaniy jarayonlar”* (Samarqand, 2008), shuningdek, X. Xoliqulov, M. Lapasov va M. Rustamovlarning *“Merosimiz ildizlari”* (Toshkent, 2008) kabi asarlari xalqimizning etnik tarixi va merosini o‘rganishda muhim hissa qo‘shmoqda.

4.O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi muammolari.

Biroq, xalq tarixining asosiy jihatlari, xususan, o‘zbeklarning etnogenezi va etnik tarkibiga oid ba’zi murakkab muammolar hanuz o‘zining to‘liq ilmiy yechimini topgani yo‘q. Ayrim ilmiy yutuqlarga erishilgan bo‘lsa ham, etnik tarixni chuqur o‘rganish uchun yana ko‘plab tadqiqotlar talab etiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yosh avlodni tarixiy haqiqat bilan qurollantirish, ularni ajdodlarimizning boy madaniy va tarixiy merosidan xabardor qilish nihoyatda muhim. Zero, o‘z tarixini bilmagan millat kelajagini ham belgilashda qiynaladi. Shu sababli, tarixiy tadqiqotlar doirasida o‘zbek xalqining kelib chiqishi, etnik tarkibi va shakllanish jarayonini yanada chuqurroq o‘rganish, mavjud ilmiy materiallarni yanada boyitish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mutaxassis olimlar orasida “etnos” tushunchasiga turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar etnosni bir kelib chiqishga ega bo‘lgan odamlar guruhi sifatida talqin qilsa, boshqalar uni umumiy til, madaniyat va hudud asosida shakllangan jamoa deb biladi. Yana bir qarashga ko‘ra, etnos – bu o‘zligini anglash hissi yuqori bo‘lgan odamlar guruhi yoki tabiiy muhit ta’sirida shakllangan ijtimoiy birlik sifatida tushuntiriladi.

Shunday qilib, etnos tushunchasining mazmuni keng bo‘lib, uni faqatgina qabilaviy yoki genealogik tushunchalar doirasida talqin qilish yetarli emas. O‘zbek xalqining etnik tarixi va shakllanish

jarayonini to'g'ri anglash uchun bu masalalarni tizimli yondashuv asosida o'rganish talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, xalqimizning etnik tarixi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, yangi arxeologik va etnografik materiallarni tadqiq qilish hamda milliy o'zlikni anglash jarayonida tarixiy ongini mustahkamlash zarur. Bu nafaqat ilmiy, balki milliy g'urur va tarixiy xotirani tiklash borasida ham muhim qadam bo'ladi.

Mashhur turkshunos olim Lev Nikolayevich Gumilyov etnos masalasida o'ziga xos yondashuvga ega bo'lib, u bu masalani «*passionar nazaryasi*» orqali izohlagan. Uning fikricha, etnos nafaqat jamiyatning ijtimoiy mahsuli, balki biosferadagi noyob va kamdankam uchraydigan tabiiy hodisa sifatida ham ko'rilishi lozim. Gumilyovga ko'ra, etnos tabiiy geografik muhitning ijtimoiy mahsuli bo'lib, uning shakllanishi etnogenez jarayonlariga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, etnos nafaqat oddiy ijtimoiy birlik, balki biologik va tabiiy jihatlarga ham ega bo'lgan murakkab tizim sifatida qaralishi kerak.

Gumilyovning yondashuvida etnos – tarixiy-geografik sharoitlarga bog'liq bo'lgan empirik umumlashmadir. Uning fikricha, etnos jamiyatga xos ijtimoiy birlik emas, balki biogeografik hodisadir. Etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani sababli u tabiiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Etnoslarning rivojlanishi esa ijtimoiy omillar emas, balki tabiiy jarayonlar, geografik muhit va biosferadagi o'zgarishlar bilan belgilanadi.

Gumilyov «*passionar nazariya*» asosida etnogenez jarayonlarini tushuntiradi. Uning ta'kidlashicha, tarixiy jarayonlarda etnoslarni harakatga keltiruvchi asosiy omil – *passionar* shaxslar hisoblanadi. *Passionarlar* – bu jamiyatdagi ilg'or, energiyaga to'la, maqsad sari intiluvchi shaxslar bo'lib, ular millatning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Gumilyovga ko'ra, *passionar* energiya tabiiy mutatsiya jarayonlari natijasida biosferadan kelib chiqadi va jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Passionar shaxslar odatda boylik va mansabga intilmaydilar, balki o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun kurashadilar. Ular jamiyatni oldinga siljituvchi omil bo'lib, tarixiy jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkazadilar. Bunday shaxslarning mavjudligi etnoslarning paydo bo'lishiga va ularning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan Gumilyov passionar shaxslarning harakatlarini millatlarning tarixiy taqdiri bilan bog'laydi.

Gumilyovning passionar nazariyasi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida passionar energiyani ko'rsatadi. Uning fikricha, tarix davomida millatlar aynan passionar shaxslarning harakati natijasida buyuk yuksalishlarga erishgan. Passionar shaxslar jamiyat tinchligini buzadigan va yangi avlodlarni shakllantiradigan asosiy kuch bo'lib, ularning harakati natijasida millatlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va o'z tarixiy o'rnini topadi.

L. N. Gumilyovning fikriga ko'ra, etnoslar tabiiy evolyutsion jarayonlar natijasida shakllanadi va ularning rivojlanishi faqat tinch yo'l bilan kechmaydi. Atrof-muhit bilan doimiy kurash va moslashuv jarayonida odamlar o'zaro birlashishga majbur bo'ladilar. Bu jarayonlarning boshida passionar shaxslar – urug' va qabila sardorlari, jamiyat yetakchilari turadi. Agar bu kabi yetakchilar bo'lmasa, xalq yoki millat o'z-o'zidan shakllanmaydi. Shu sababli, etnos nafaqat tabiiy hodisa, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarning mahsuli hamdir.

Inson o'zi tabiiy mavjudot bo'lishiga qaramay, jamiyat doirasida shakllangan ijtimoiy guruhlariga bo'linadi. Tarixiy taraqqiyot natijasida inson jamiyati ma'lum geografik va ekologik sharoitlarga moslashib, o'ziga xos etnik birliklarni hosil qiladi. Shunday guruhlardan biri etnos bo'lib, u tabiiy va tarixiy jarayonlarning natijasi sifatida shakllanadi. Demak, etnos nafaqat ijtimoiy tuzilma, balki tabiiy va tarixiy omillar ta'sirida tarkib topgan kishilar guruhidir.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Nazariy savollar:

1. Sirdaryo vohasida etnik jarayon tushunchasi qanday izohlanadi?
2. Qadimgi manbalarda Sirdaryo vohasida yashagan asosiy etnik guruhlar qaysilar bo'lgan?
3. Sirdaryo vohasida etnik tarkib shakllanishiga qanday tabiiy va tarixiy omillar ta'sir ko'rsatgan?
4. Qadimgi va o'rta asrlardagi yozma manbalarda Sirdaryo vohasining etnik tarkibi haqida qanday ma'lumotlar uchraydi?
5. Turk, mo'g'ul va fors madaniyati Sirdaryo vohasidagi etnik guruhlarga qanday ta'sir ko'rsatgan?
6. XX asrda Sirdaryo vohasida etnik tarkib qanday o'zgarishlarga uchragan?
7. Sirdaryo vohasida etnik jarayonlarning davrlarga bo'linishi qanday amalga oshiriladi?
8. Etnik migratsiyalar Sirdaryo vohasida qanday demografik o'zgarishlarga olib kelgan?

2. Amaliy savollar:

1. Sirdaryo vohasida yashovchi etnik guruhlarining milliy bayramlari va urf-odatlarini haqida misollar keltiring.
2. Sirdaryo viloyatidagi mahalliy dialektlar qanday xususiyatlarga ega?
3. Mahalliy aholi tarkibida o'zbeklardan tashqari yana qaysi millatlar yashaydi va ular haqida qisqacha ma'lumot bering.
4. Sirdaryo vohasidagi tarixiy yodgorliklar qaysi etnik guruhlarining merosi ekanligini tahlil qiling.
5. Sovet davrida Sirdaryo vohasiga boshqa hududlardan ko'chib kelgan xalqlar qaysilar edi?
6. Etnik guruhlarining Sirdaryo viloyati iqtisodiy hayotiga ta'siri qanday ko'rinishda namoyon bo'lmoqda?
7. Mustaqillik davrida Sirdaryo vohasida etnik siyosat qanday o'zgarishlarga uchradi?
8. Sirdaryo vohasida hozirgi kunda etnik bag'rikenglikni ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

3. Munozarali savollar:

1. Sirdaryo vohasida qadimdan yashagan xalqlarning bugungi kungacha saqlanib qolgan ta'siri seziladimi?
2. Sirdaryo vohasida etnik tarkibning shakllanishida migratsiya jarayonlari muhim rol o'ynaganmi?
3. XX asrda Sirdaryo vohasidagi etnik jarayonlar tabiiy yo'lda rivojlanganmi yoki tashqi kuchlarning ta'siri seziladimi?
4. Mahalliy xalqlarning an'analari va urf-odatlari globalizatsiya sharoitida o'zgarishlarga uchrayaptimi?
5. Etnik tarkibning o'zgarishi ijtimoiy barqarorlikka qanday ta'sir qilishi mumkin?
6. Sirdaryo vohasida milliy ozchiliklarning madaniy merosi yetarlicha o'rganilgan deb hisoblash mumkinmi?
7. Hozirgi kunda Sirdaryo viloyatida etnik muammolar mavjudmi yoki ularning oldini olish choralari yetarlicha ko'rilganmi?
8. Sirdaryo vohasidagi etnik jarayonlarni chuqur o'rganish O'zbekiston tarixini tushunishda qanday ahamiyatga ega?

TEST

1. Sirdaryo vohasida qadimgi davrlarda shakllangan etnik guruhlarining asosiy xo'jalik faoliyati qaysi sohaga oid edi?
 - A) Dengizchilik
 - B) Dehqonchilik va chorvachilik
 - C) Tog'-kon sanoati
 - D) Hunarmandchilik
2. Qaysi tarixiy manba Sirdaryo vohasidagi ko'chmanchi va yarim-ko'chmanchi qabilalar haqida dastlabki ma'lumotlarni bergan?
 - A) "Boburnoma"
 - B) "Avesto"
 - C) "Tarixi Tabariy"
 - D) "Mahmud Qoshg'ariy devoni"
3. Sirdaryo vohasining etnik tarkibiga qaysi qabila yoki elatlarning ko'chib kelishi o'rta asrlar davrida sezilarli ta'sir ko'rsatgan?
 - A) O'g'uzlar

- B) Sarmatlar
- C) Massagetlar
- D) Kimmeriylar

4. Sirdaryo vohasida XX asrda yuz bergan qaysi jarayonlar etnik tarkibga yangicha tus berdi?

- A) Ko'chmanchilar bosqini
- B) Sovetlarning kollektivlashtirish siyosati
- C) Arab istilosi
- D) Chingizxon yurishlari

5. Sirdaryo vohasida yashovchi aholining turli etnik guruhlarini o'rtasidagi madaniy integratsiyaning asosiy belgilaridan biri nima hisoblanadi?

- A) Harbiy ittifoqlar
- B) Diniy ajralish
- C) Aralash nikohlar va tillararo ta'sir
- D) Savdo aloqalarining to'xtashi

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
3. Toshboyev F.E. *Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi*. Toshkent – 2021.
4. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
5. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
6. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. *Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи*. Тошкент. Университет. 1995.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Аминов Б.А. Формирование населения Голодной степи (конец XIX –60 –е гг. XX в.) Авторефер. дисс. к.и.н. –Ташкент: 1970.
2. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
3. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
4. Аширбоева З.К. XIX аср охири - XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Т.ф.н....автореферати. – Тошкент: 2008.
5. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
6. Golden, Peter B. *Central Asia in World History*. Oxford University Press, 2011.

2-MAVZU. ETNIK TARIXNI O'RGANISHDA TABIIY VA ANTROPOGEN OMILLARNING O'RNI

Asosiy savollar:

1. Tabiiy muhit va etnik tarix.
2. Tabiiy ofatlar va ijtimoiy jarayonlar.
3. Samarqand shahrining qayta tiklanishida Turkiston, Molguzar tog' tizmalari va Mirzacho'ldan ko'chirilgan aholining o'rni.
4. Tabiiy va antropogen omillarning o'zaro ta'siri.

Tayanch iboralar. Etnik tarix, tabiiy omillar, antropogen omillar, iqlim o'zgarishlari, migratsiya jarayonlari, geografik sharoit, ekologik omillar, urushlar va bosqinlar, savdo yo'llari, madaniy almashinuv, davlat siyosati, demografik o'zgarishlar, urbanizatsiya, xalqaro munosabatlar, an'anaviy turmush tarzi, etnoslar shakllanishi, milliy identifikatsiya, madaniy meros, arxeologik tadqiqotlar, tarixiy manbalar.

1.Tabiiy muhit va etnik tarix.

Tabiiy muhit – hayot va insoniyat maskanidir. Jamiyatning butun boyliklari inson mehnati bilan yaratiladi, lekin buning bir sharti bo'lib, atrof-muhit bilan uzviy aloqadorlikdadir. Insoniyatning tabiat bilan hamnafaslikda erishgan madaniyatida tabiiy muhitning borlig'i yoki kamchiliklari namoyon bo'ladi. Ekologiya dastlab tabiiy fan hisoblangan bo'lsa, bugungi kunga kelib u ijtimoiy ahamiyat kasb etib, haqiqatda inson haqidagi fan bo'lib qoldi.

Tarixni ikki qismga ajratib: tabiat tarixi va insoniyat tarixi deb qarash mumkin. Biroq insoniyat mavjud ekan, ular o'zaro aloqada bo'lib, ajralmas munosabatdadir. Sivilizatsiyaning o'z-o'zidan rivojlanishi nihoyasiga yetmoqda. Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, umuminsoniy muammoga aylangan. Zamonaviy ekologik muammolar insoniyat oldiga yashab qolish dasturini ishlab chiqish vazifasini qo'ymoqda.

O'zbekiston tarixida ekomuammolarning tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq va tahlil etilishi hamda ilmiy natijalarni keng xalq ommasiga yetkazish ekomadaniyatning rivojlanishiga xizmat qiladi. M. J. Matchanov ekologik xavfni tabiiy va antropogen omillarga ajratib o'rganadi. L. N. Gumilyov esa yer sharida miloddan 15 ming yil avval sahrolar yo'q edi deb ta'kidlaydi. Geograflar yerning sahrolashuvini olovdan foydalanish va antropogen o't ketishi natijasida sodir bo'lgan deb baholaydilar.

Germaniyalik taniqli biolog Bernhard Grzimek o'simliklar dunyosiga yovvoyi hayvonlarni, asosan, echkini xonakilashtirish tufayli katta zarar yetganini ta'kidlaydi. Ekomuammolarda tabiiy omillarni tadqiq etish tarix va etnologiya fanlaridagi muhim yo'nalishlardan biridir. Bunda yerning sovib muzlashi, quyosh faolligining ortishi, suv toshqini, zilzila, yuqumli kasalliklarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyot, demografik va etnik jarayonlardagi o'rni tahlil qilinishi ahamiyatlidir.

2. Tabiiy ofatlar va ijtmoiy jarayonlar.

Hozirgi kunga kelib tabiiy ofatlar yetkazgan zarar ko'plab davlatlarning yalpi ichki mahsuloti miqdoridan bir necha barobar oshib ketmoqda. Shu sababli bu muammo BMT Bosh Assambleyasi kun tartibiga bir necha bor qo'yilgan. Uning 1989-yil 22-dekabrdagi qaroriga ko'ra, 1990–2000-yillar "Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirishning xalqaro o'n yilligi" deb e'lon qilingan.

Iqlimiy o'zgarishlarning ekomuhitga ta'siri esa taniqli geograf olim N. A. Yasamanov hamda tarixchi L. N. Gumilyov asarlarida tahlil qilingan bo'lib, O'zbekiston tarixini o'qitishda Katta muzlik va Kichik muzlik davrlariga alohida e'tibor berilgan.

Amerikalik taniqli tadqiqotchi R. E. Adams va boshqa qadimshunoslar Old Osiyodagi Shumerlar madaniyatining halokatini irrigatsion inshootlar qurilishidagi xatoliklar va sizot suvlari chiqib ketishi uchun drenajlarning yo'qligi bilan bog'laydilar. Mil. avv. III ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoda gullab-yashnagan

dehqonchilik vohalari – Oltintepa va Namozgohtepalarning inqirozi ham xuddi shunday ekologik halokat bilan izohlanadi.

Mil. avv. VI-V asrlarga taalluqli Orol havzasi madaniyatining halokati qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanishdagi noto‘g‘ri siyosat asosiy sabab qilib ko‘rsatiladi. Inson o‘z landhsaftida, ajdodlari yutuqlari asosida yaqinlari uchun ishlaydi. Boshqa etnosning o‘rnashuvi bilan esa ekomuxit buziladi.

Ekologik xavfli vaziyatlarning tabiiy omillari tadqiqotchilar tomonidan turlicha baholanadi. Ayrim olimlar tabiiy ofatlarni geofizik, geologik, gidrogeologik va atmosferaga bog‘liq omillar natijasida yuzaga keladi deb hisoblaydilar. V. N. Burkov va A. V. Shchepkin ekologik xavf omillarini bevosita va bilvosita guruhlariga ajratib, ularning favqulodda ahamiyatini ta‘kidlaydilar. Bu borada T. Tilovov yaqin o‘tmishdagi ko‘plab urushlarning sababini quyosh faolligining oshishida izohlasa, L. N. Gumilyov mo‘g‘ullar bosqini davridagi vayronagarchiliklarning ayrim oqibatlarini zilzila natijasida yuzaga kelgan deb baholaydi.

3.Samarqand shahrining qayta tiklanishida Turkiston, Molguzar tog‘ tizmalari va Mirzacho‘ldan ko‘chirilgan aholining o‘rni.

O‘zbekistondagi ikki-uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan Samarqand, Toshkent, Buxoro, Jizzax kabi shaharlarda yetti-sakkiz bor ekologik halokat yuz bergan bo‘lib, ulardan uch-to‘rttasi tabiiy ofatlar natijasida sodir bo‘lgan. Masalan, XVIII asrda Samarqand va Jizzax shaharlari ekologik ofatga uchrab, keyinchalik qayta tiklangan. XVIII asrning boshlarida qish juda iliq kelgan, yoz esa jazirama issiq bo‘lgan. 1706- va 1711-yillarda bahor erta boshlanib, yoz haddan tashqari issiq kelgan.

XVIII asr 20-yillarining boshlarida (1723-yil) Ashtarxoniylar siyosiy tizimidagi boshboshdoqlikdan foydalanib, qurg‘oqchilikdan aziyat chekkan qozoq feodallari va ko‘chmanchi jo‘ng‘orlar Zarafshon vohasiga bostirib kirib, uni taladilar, natijada aholining turmushi xonavayron bo‘ldi. Yetti yil davom etgan ko‘chmanchilar

hujumi natijasida Samarqand va Buxoro orasidagi yerlar yakson qilindi.

Shu davrda o'lkada seryog'in bahor va qurg'oq yoz bo'lgani oqibatida muzlik davrida tog'larning erishi tufayli ijtimoiy holat ekologik talofat bilan hamohanglik kasb etgan. Zarafshon vohasiga chigirtka bosishi va Darg'om to'gonini suv yuvib ketishi tufayli Samarqand va uning atrofidagi ahvol yanada og'irlashdi. Muhammad Yoqub Buxoriy ma'lumotiga ko'ra, O'lkada shunday ocharchilik yuzaga keldiki, hatto odamlar kannibalizm bilan ham shug'ullana boshladilar.

Shuningdek, turli epidemiyalar, xususan, vabo shahar aholisi orasida tarqalganligi tufayli, ehtimol, Samarqand shahri aholisi boshqa hududlarga ko'chib keta boshlaydi, avvallari gavjum bo'lgan shahar umuman bo'shab qoladi, xarobazorga aylanadi. 1730-yildan boshlabgina Samarqand qal'asiga odamlar qaytib kelib, o'zlariga uy-joy qura boshladilar. Lekin shahar aholisi kamchilikni tashkil etib, u deyarli kimsasiz bo'lganligi tufayli hatto ko'chmanchilar o'z mollarini Registon maydonida boqishardi.

1740-yilda Nodirshoh bosqini paytida Samarqand qal'asida 1000 ga yaqin oila bor edi. Eronliklar bosqinidan so'ng shahardagi hayot deyarli butunlay to'xtadi. Huddi shu davrda Jizzax shahri ma'lum darajada, qadimiy Savot (Kultepa) esa butunlay tanazzulga yuz tutadi.

Sadriddin Ayniy ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro amiri Muhammad Rahimxon "Samarqand muzofotini qo'lga kiritguzamen" deb kelganda (1752-yil boshlarida), «Samarqand shahrida jon egasi yo'q edi... Rabota Xojabandi to'gonini tuzatib Samarqandga suv oqizgan bo'lsa ham, odam yo'qligidan obod bo'lmadi". U Samarqand shahrini tiklashga urinib, Hisorni bosib olgach, ilgari Samarqandda yashagan bir necha oilani Hisordan Samarqandga ko'chirib keldi. Lekin shahar hayoti butunlay tiklanmadi. Samarqand shahridan ko'chib ketgan aholining aksariyat qismi shaharga qaytmadi.

XVIII asrning 70-80-yillarida amir Doniyol va ayniqsa amir Shohmurod aholisi kamayib ketgan markaziy va chegara shaharlarga

qo'shni hududlardan aholini ko'chirish siyosatini yuritishdi. Qo'qon xonligining Xo'jand hokimligiga talonchilik yurishlaridan bezgan O'ratepa, Zomin, Yomqal'a qo'rg'onlari atrofi aholisi Jizzaxga ko'chib, O'rda va uning atrofida Olmachi, Toqchilik, Ravotlik mahallalariga asos solishgan.

Shohmurod XVIII asrning o'rtalarida Samarqand noibi etib tayinlangach, ko'chmanchilar yurishlarini cheklashga erishdi, sug'orish tizimlarini tikladi, madrasalar va masjidlarni ta'mirlab, madrasaga o'qituvchilar tayinladi, aholini Samarqand shahrida yashashga da'vat etdi.

Shohmurod Buxoro amiri taxtiga o'tirishi (1785-1800-yillar) bilan birgalikda Samarqand shahri hokimi ham edi. Amir Shohmurod hukmronligi yillarida Samarqandga atrofdagi shahar-qishloqlardan aholini ko'chirib, shahar mavqeini yuksaltira bordi. Samarqand mahalliy aholisi tarkibiga Urgut, Xo'jand, Xovos, Toshkent, Shahrisabz, Zomin, Yom, O'ratepa atrofidan ko'chirilganlar kelib qo'shildilar. Samarqand Chorsusidagi Toq, Poyqavoq, Shohizinda Qalandarxona va So'zangaron darvozalari ushbu davrda imorat qilindi.

Shahar aholisining assimilyatsiyasi, etnomadaniy aloqalari etnolingvistik o'zgarishlarga olib keldi. Bu haqda etnolog olimi O. A. Suxareva yozishicha: *«Samarqandga tojiklarning alohida guruhlari XVIII-XIX asr boshlarida boshqa joylardan: Xo'janddan, Buxorodan, Urmetondan kelib o'rnashganlar. Shahar mahallalarida Toshkent, Zomin, Xovos va boshqa joylardan kelgan tojiklashgan o'zbeklar ham istiqomat qilishadi».*

XVIII asrning oxiriga kelib Samarqandda 24 ta yangi guzar tashkil etildi. Hozirgi Samarqand shahrida Boyovut ko'chasi bo'lib, fikrimizcha, u XVIII asrning oxirida tashkil topgan 24 ta guzardan biri bo'lgan. Amir Shohmurod tomonidan Samarqandga ko'chirilgan aholi tarkibida Turkiston tog' tizmasi shimolidagi Xo'jand, Xovos, Zomin, Yom, O'ratepa atrofidan ko'chirilgan omma tarkibida o'zbek boyovutlari ham bo'lgan. Huddi Samarqanddagidek, Jizzaxda ham bu davrda yangi mahallalar qo'shni hududlar aholisi hisobiga bunyod

etilgan. Oqqo'rg'onlik, O'ratepalik, Toshkentlik, Xayrobodlik, Xovoslik, G'alcha kabi mahallalar ko'chirish siyosati orqali tashkil topgan.

Jamiyat rivojidagi ekologik muammolarda antropogen omilning o'rni o'tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab keng o'rganila boshlandi. Mustaqillik yillarida ekomuammolarning tarixiy taraqqiyotidagi o'rniga bag'ishlangan bir qancha tadqiqot ishlari olib borildi.

Shuningdek, Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayonida vujudga kelgan ekologik muammolar Z. Ashirboyeva, N. Mirzayeva kabi tadqiqotchilar ishlarida qisman aks etgan. Dehqonchilik madaniyatining shakllanishiga ko'ra, M. Eshmatov *"umumsayyora masshtabidagi oxirgi halokat – neolit inqilobi"* deb hisoblaydi.

Issiq iqlimli yurtlarda sug'orma dehqonchilikda meliorativ tadbirlarga e'tibor bermaslik, ya'ni drenaj, zovurlar qurilmasligi, to'plangan sizot suvlari chiqib ketmasligi tufayli sho'rlanish boshlanib, qadimgi sivilizatsiyalar tanazzulga uchraganligini nazarda tutib, N. A. Yasamanov sug'orma dehqonchilikni *"birinchi ekologik inqiroz"* deb baholaydi.

4. Tabiiy va antropogen omillarning o'zaro ta'siri.

Mirzacho'lga ko'chirilgan rus dehqonlari Sharq tabiatining qonunlarini bilmas edilar, mahalliy sug'orma dehqonchilik va melioratsiyaning ilg'or usullaridan foydalanmadilar. Tarixchi V. O. Klyuchevskiy shunday yozgan edi: *"Yer ustidagi ochiq suvlar bilan yer ostidagi sizot suvlari uzviy bog'liq: birinchisidan oxirgisi oziqlanadi yoki u yo'qoladi"*.

O'zlashtirishning dastlabki yillarida rus dehqonlari hech qanday o'g'itsiz va melioratsiyasiz gektariga 30 sentnergacha paxta hosili olishdi. Suvning umumiy hajmi sug'oriladigan yerlar uchun har bir gektarga 30-40 ming kub metrni tashkil qilgan. Bu esa aqldan ozdiruvchi me'yor edi. Mirzacho'lning dastlabki xo'jayinlari yerning hosildorligini saqlash va oshirish haqida umuman qayg'urmadi, kanal va ariqlarni tozalash ishlari olib borilmadi. Faqat suv berib

turilsa bo'ldi, hosil bo'laveradi, degan qarorga keldilar. Hatto suvdan o'g'rincha foydalanish holatlari kuzatildi, sug'orish asosan ko'p suv oqizish usulida olib borildi.

Natijada sizot suvlari ko'payib, Mirzacho'l yerlari sho'rlana boshladi. Mirzacho'l yerlarining dastlabki tadqiqotchilaridan biri S. F. Ostrovskiy 1907-yildayoq shunday degan edi: *“O'zlashtiriladigan yerlarning barchasini sug'orish mumkin emas. Masalan, suv chiqishi qiyin bo'lgan, juda chuqur va sho'rxok yerlar sug'orilsa, yerning sho'rlanishi yoki botqoqlanishi yuzaga keladi”*.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, ekologik muammolar insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrida boshlangan. Ekomuammolarni tarixiy nuqtai nazardan o'rganishda antropogen va tabiiy omillarga e'tibor qaratish, har qanday tarixiy taraqqiyot bosqichida ularning o'rnini ajratib bilish va tavsiflash, tarixiy mavzularga oid tadqiqotlarda yoritilishi lozim.

Fikrimizcha, atrof-muhitga antropogen omilning ta'siri ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari asosida tadqiq etilishi lozim bo'lib, insonning tabiatdagi faoliyati “inkorni inkor” qonuniyatida namoyon bo'ladi.

Ibtidoiy ovchilik va termachilik jamoalarining taraqqiyoti yuqori paleolit, mustye davrining boshlariga kelib, birinchi ekomuammoga yuz tutadi. Ibtidoiy ovchilar 120 kilometr masofagacha bo'lgan hududdan ov qilib yashashi termachilik mahsulotlarining kamayishiga olib keladi. Yuqumli kasalliklar ko'payadi, odamxo'rlik vujudga keladi, jamoalararo nizolar va urushlar avj oladi.

Ziroatchilik va chorvachilikning kashf etilishi insoniyatning tabiatda mavjudligi va hayotini saqlab qolishiga asosiy omil bo'ldi. Oddiy usulda ishlab chiqarish, motiga dehqonchiligining rivojlanishi natijasida tuproq eroziyaga uchrab bordi, chorvachilik taraqqiyoti tufayli o'simliklar dunyosi zarar ko'rdi. Shu tariqa ikkinchi ekomuammo vujudga keldi.

Aholi o'sish sur'atiga ko'ra ehtiyojlar ortib borishi yangi ishlab chiqarish usullariga asoslangan sug'orma ziroatchilikning kashf etilishiga sabab bo'ldi. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi dastlabki sivilizatsiyalarni shakllantirdi. Shu bilan birga demografik

o'sish, tabiatga antropogen ta'sirning ortishi kuzatildi. Taraqqiyotning turli bosqichlarida ziroatchilik vohalarining sho'rlanishi, cho'llanishi natijasida davlatlar va jamoalar insoniyatning ortib borayotgan ehtiyojlarini dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligi orqali to'la qondira olmay qoldi – natijada uchinchi ekomuammo yuzaga keldi.

Sanoatlashtirilgan ishlab chiqarishga o'tilishi va texnogen taraqqiyot tendensiyasi hozirgi kunga kelib jahon sivilizatsiyasining halokatga uchrashini muqarrar qilib qo'ydi, yoki «insoniyatni navbatdagi umum sayyoraviy inqiroz kutmoqda».

Insoniyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi natijasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida sun'iy mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. XX asrning 1980-1990-yillariga kelib, keng iste'mol tovarlari yetishtirishda gen injenerligi ilmiy yutuqlari asosida «yashil inqilob» davri boshlandi.

Sanoatlashtirilgan sun'iy mahsulotlar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan birga tabiiy xomashyoga bo'lgan talab turmushimizning asosiy zaruriyati maqomini yo'qotmadi.

Mavzu boyicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Tabiiy omillar tushunchasiga qanday hodisalar kiradi va ularning etnos shakllanishiga ta'siri qanday bo'lgan?
2. Antropogen omillar nima va ular etnik tarixda qanday rol o'ynaydi?
3. Etnik guruhlarning tabiiy geografik muhitga moslashuvi qanday tarixiy bosqichlarda namoyon bo'ladi?
4. Iqlim o'zgarishlari etnik migratsiyalarga qanday ta'sir ko'rsatgan?
5. Suv manbalari va yer unumdorligining etnik guruhlarning joylashuviga ta'siri qanday bo'lgan?
6. Antropogen omillarning zamonaviy tarixiy jarayonlarga ta'siri qanday namoyon bo'lmoqda?

7. Qaysi tarixiy davrda tabiiy va antropogen omillar uyg'unlashib, etnik tarkibda keskin o'zgarishlarga olib kelgan?
8. Arxeologik topilmalar orqali tabiiy va antropogen omillarni aniqlash imkoniyati qanday?

Amaliy savollar.

1. O'zbekistondagi qaysi hududda tabiiy omillar etnik shakllanishga kuchli ta'sir ko'rsatganini misol bilan tushuntiring.
2. Biror tarixiy xalqning (masalan, skiflar, saklar yoki massagetlar) etnik shakllanishida iqlimning rolini tahlil qiling.
3. Sirdaryo bo'yida yashagan qadimgi etnik guruhlarining tabiiy muhit bilan bog'liqligini xarita asosida ko'rsating.
4. Antropogen omillar sabab yuzaga kelgan migratsion harakatlarga tarixiy misollar keltiring.
5. O'rta Osiyo vohalarida sug'orish tizimining etnik guruhlar joylashuviga ta'sirini tahlil qiling.
6. Ilgari mavjud bo'lgan etnik guruhlarining antropogen faoliyati bugungi ekologik holatga qanday ta'sir qilgan?
7. Geografik zonalar bo'yicha etnik guruhlar farqlanishini jadvalda ko'rsating.
8. Tabiiy ofatlar natijasida tarixda yuzaga kelgan etnik o'zgarishlar haqida dalillar asosida izoh bering.

Munozarali savollar.

1. Tabiiy omillar antropogen omillarga qaraganda kuchliroq rol o'ynagan deb hisoblash to'g'rimi?
2. Migratsiyalar asosan antropogen sabablar bilan yuzaga keladimi yoki tabiiy sharoitlar sababmi?
3. Etnik tarixda inson omilining ortib borayotgan roli ijobiymi yoki salbiy?
4. Global isish etnik tarixni o'rganishda yangi omil sifatida qaralishi mumkinmi?
5. Tabiiy resurslar uchun bo'lgan kurashlar etnik tarkibga qanday uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi?
6. Antropogen faoliyat tufayli tabiiy muhit o'zgargan joylarda etnik guruhlar barqaror yashay oladimi?

7. Davlat siyosati etnik tarkibdan ko'ra ko'proq antropogen omillarga asoslanadimi?
8. Etnik guruhlarning tabiiy omillarga bo'lgan moslashuvchanligi ularning tarixiy barqarorligini belgilaydimi?

TEST

1. Qaysi omil etnik guruhning joylashuvi, iqlimi va yashash sharoitiga bevosita ta'sir ko'rsatadi?
 - A) Siyosiy omillar
 - B) Tabiiy omillar
 - C) Texnologik omillar
 - D) Tarixiy omillar
2. Quyidagilardan qaysi biri antropogen omil hisoblanadi?
 - A) Daryo toshqini
 - B) Qurg'oqchilik
 - C) Irriqatsiya (sug'orish tizimi) barpo etilishi
 - D) Zilzila
3. Tabiiy omillarning etnik tarixdagi ta'siri qanday asboblardan orqali o'rganiladi?
 - A) Sotsiologik so'rovlar
 - B) Arxeologik va geologik tadqiqotlar
 - C) Matematika modellari
 - D) Harbiy strategiyalar
4. Tabiiy resurslarga boy hududlarda qadimgi davrlarda qanday etnik jarayonlar ko'p kuzatilgan?
 - A) Urbanizatsiya
 - B) Etnik o'zgarishlar va migratsiyalar
 - C) Rivojlanishning pasayishi
 - D) Tilning yo'qolishi
5. Qadimgi etnik guruhlar iqlim sharoitining keskin o'zgarishi natijasida nima qilgan?
 - A) O'zlashtirilgan hududlarda mustahkamlanib qolgan
 - B) Doimiy urush boshlagan

- C) Yangi hududlarga ko'chib ketgan
- D) Yangi tillar yaratgan

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
3. F.E.Toshboyev. *Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi*. Toshkent – 2021.
4. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
5. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
6. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. *Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи*. Тошкент. Университет. 1995.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
2. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
3. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
4. Л.Н.Гумилев. *Этногенез и биосфера Земли*. - Л. 1989.
5. *Голодная степь. 1867-1917. История края в документах*. - М.:Наука,1981. –С.97.
6. Bregel, Yuri. *An Historical Atlas of Central Asia*. Brill, 2003.

3-MAVZU. MIRZACHO'L – SIRDARYO VOHASINING EKOMUAMMOLARI DINAMIKASI

Asosiy savollar

1. Mirzacho'lning shakllanish tarixi.
2. Mirzacho'lning suv resurslari va sugorilishi.
3. Mirzacho'lning o'zlashtirishi natijasida shakllangan ekomuammolar.

Tayanch iboralar. Mirzacho'l, Sirdaryo vohasi, ekologik muammolar, sho'rlanish, sug'oriladigan yerlar, antropogen bosim, yer degradatsiyasi, atmosfera ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, rejalashtirilgan melioratsiya, o'rmonzorlash, bioxilma-xillik, qayta tiklanuvchi resurslar, ekotizim, o'simlik va hayvonot dunyosi.

1.Mirzacho'lning shakllanish tarixi.

Mirzacho'l platosi asosan kaynozoy yotqiziqlaridan tarkib topgan. Bu yotqiziqlar yuzasida loysimon qalin jinslar, tagida esa shag'al qatlamlari uchraydi. Doimiy oqadigan sel-toshqin suvlari natijasida hosil bo'ladigan to'rtlamchi davr yotqiziqlari keng tarqalgan.

Mirzacho'l tuproqlari genetik jihatdan botqoqlik ustiga joylashgan bo'lib, tuproq tarkibidagi denudatsion zarrachalar Qizilqumdan uchirib yoki yuvib keltirilgan qumtuproqdan iborat. Mirzacho'l kaynozoy erasidagi keskin kontinental iqlimning sovuq davrlari bilan almashinishi natijasida bugungi Kaspiy dengizidan to Orol dengizigacha bo'lgan hududdagi qadimgi Tetis dengizi qoldig'ining qurishi natijasida shakllangan.

Markaziy Osiyo mintaqasida shakllanish tarixiga ko'ra, Mirzacho'l Qoraqum va Qizilqum kabi cho'llarga nisbatan yosh bo'lib, mil. avv. I ming yillik davomida O'rta Osiyo tog' tizimiga yaqin vohalardagi gidrogeologik vaziyatning o'zgarishi bilan bog'liq holda rivojlangan. Shu davrga taalluqli manzilgohlar topografiyasi hududda suv tanqisligi sezilganligini ko'rsatadi.

Mil. avv. V-VI asrlardan boshlab ayrim aholi manzilgohlari bo'shab qolgan. Shimoliy So'g'ddagi Nurtepa kabi ayrim yodgorliklar atrofidagi soy suvlari kamayishi natijasida aholi tomonidan tashlab ketilgan.

Mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida Mirzacho'l Turkiston tog' tizmasining shimolidagi tekislik sifatida shakllangan. Mohiyatan, Jettisoy, Sardoba, Sho'ro'zak qadimda Sirdaryo o'zani bo'lgan. Arnasoy esa qurigan dengiz qoldig'i bo'lib, suvi sho'r bo'lib, uning atrofida tuz konlari mavjud edi.

Mirzacho'l bir million gektardan ortiq maydonni egallab, janubda Turkiston tog' tizmasi, janubi-g'arbda Nurota tog'lari, g'arbda Bolato'g' va Pitalito'g', shimoli-g'arbda Qizilqum cho'li, sharq va shimoli-sharqda esa Sirdaryo bilan chegaralangan. Turon pasttekisligi va uning tog' etagida joylashgan chekka qismi – Mirzacho'l suvi oqib chiqmaydigan cho'llar qatoriga kiradi. Tog'lardan tekislik tomon yotqiziq konuslari, tog' etagidagi qiya tekisliklar va daryo vodiylari bo'ylab sizot suvlari (shuningdek, minerallashgan tuzlarning grunt suvlari) oqib keladi.

2.Mirzacho'lning suv resurslari va sugorilishi.

Mirzacho'lning tabiiy suv oqimi yetarli emas: sizot suvlari asosan tuproqdan va o'simliklardan bug'lanishga sarf bo'ladi. Mirzacho'lga janubda Turkiston tog' tizmasidan Bosmadonsoy, Kattasoy, Shahrison, Zominsuv va Sangzor daryolari, g'arbda esa Nurota tizma tog'idan bir qancha soy va jilg'alar qadimda seryog'in yillarda oqib tushgan. Cho'l sug'orilmasdan oldin qancha suv kelgan bo'lsa, shuncha suv sarf bo'lgan va sizot suvlari chuqurligi deyarli o'zgarmagan.

Yer osti suvlari va yer osti qobig'ining sho'r qatlami sug'orishdan oldin ancha chuqur joylashganligi sababli sezilmagan edi. Mirzacho'l yer osti suvlari bu yerga suv chiqarilishidan oldin minerallashgan bo'lib, Mirzacho'lning markaziy qismida 20 metrdan ortiq chuqurlikda, tevarak-atrofida 15-20 metr, Jettisoy, Sardoba,

Arnasoyda 5-7,5 metr, Sho'ruzak massivida esa 2,2-5 metr chuqurlikda joylashgan edi.

XIX asr oxirida amerikalik tadbirkorlarning qutqusi va paxtaga bo'lgan talab tufayli chor Rossiyasi Mirzacho'lga rusiyzabon aholini ko'chirib, cho'lni o'zlashtirishga katta e'tibor berdi va Mirzacho'lning shimoli-sharqiy qismini o'zlashtirish boshlandi. 1872-yilda muhandis N. Ulyanovning loyihasiga ko'ra, dastlabki "Kaufman" kanali qazildi, 1883-1885-yillarda knyaz K. Romanovning mablag'lari hisobiga Iskandar arig'ini qazish ishlari olib borildi. 1885-yilda Bekoboddan Jettisoyga qarab Buxoro arig'i, so'ngra Bekoboddan Sardobaga tomon Kenaz arig'i qazildi.

1893-yilda Nikolay I nomidagi kanal qurilishi bilan Mirzacho'lning deyarli markaziga suv yetib bordi. Ammo chor Rossiyasi o'z maqsadiga erisha olmadi. Xorazm arig'i, O'rinboyariq va boshqa kanallar qurilishi nihoyasiga yetkazilmadi. Muhandislik hisob-kitoblaridagi xatoliklar tufayli kanallarga yetarli suv chiqmay, oqayotgan suv dambalarni buzib, atrof-muhitga zarar yetkazdi. Shuningdek, suvdan noto'g'ri foydalanish natijasida rejalashtirilgan hudud to'liq o'zlashtirilmagan.

3. Mirzacho'lning o'zlashtirishi natijasida shakllangan ekomuammolar.

1911-yilda Mirzacho'lning birinchi navbatda o'zlashtiriladigan yerlarini tadqiq qilgan tuproqshunos olim N. A. Dimo o'rganilgan hududni uchga bo'ldi:

1. sug'orma dehqonchilik uchun qulay yerlar – 47 ming desyatina bo'lib, umumiy maydonning 54% ini tashkil etgan;
2. o'zlashtirish biroz qiyin bo'lgan yerlar – 34 500 desyatina (39%);
3. murakkab meliorativ tadbirlarsiz o'zlashtirish mumkin bo'lmagan yerlar – 6 500 desyatina (7%).

Inson o'z litosferasida ajdodlari yutuqlari asosida yaqinlari uchun ishlaydi. Biroq boshqa etnos vakillarining hududga ko'chib kelishi bilan ekomuhit buziladi. Mirzacho'lga ko'chirilgan rus

dehqonlari Sharq tabiatining qonuniyatlarini bilmas edilar, mahalliy sug'orma dehqonchilik tajribalaridan va ilg'or meliorativ tadbirlardan foydalanishmadi.

O'zlashtirishning dastlabki yillarida rus dehqonlari hech qanday o'g'itsiz va meliorativ tadbirlarsiz paxtadan gektariga 30 sentnergacha hosil oldilar. Suvning umumiy hajmi sug'oriladigan yerlar uchun har gektarga 30-40 ming kub metrni tashkil etgan. Bu aql bovar qilmas norma edi. Natijada sizot suvlari ko'payib, Mirzacho'l yerlarini sho'r bosa boshladi, oqova suvlar tashlangan tabiiy chuqur yerlar botqoq ko'llarga aylandi.

Dastlab botqoq va ko'llar ko'ngilochar joylar bo'lib, baliq va parrandalar ovlanadigan maskanlarga aylandi. Sug'oriladigan yerlarga yaqin joylarda sho'r bosmagan quruq yerlarning ko'pligi tufayli dehqonlar sho'rlangan va botqoqlangan yerlarni tashlab, yangi yerlarni o'zlashtirishga o'tishdi. Oqar suvdan foydalanish qulay bo'lgan davlat yerlarini ko'chirilgan dehqonlar so'roqsiz egallab olishardi.

Rus dehqonlari yangi yerda dastlabki 1-2 yilda ko'p hosil olar edilar, lekin uchinchi yilda bu yer ham sho'rlanib, hosildorlik pasayar edi. Sho'rlangan va botqoqlangan yerlarning ko'payishi va dehqonlarning doimiy ravishda yangi yerlarni egallashga majbur bo'lishi natijasida XX asr boshlarida Mirzacho'lda "ko'chmanchi" dehqonchilik vujudga keldi.

Quruq va yangi haydalgan yerlardan foydalanishda aksariyat hollarda mayda sug'orish tarmoqlari qazilmasdan, katta kanal dambalari buzilib, bostirma usulida suv haydalgan. Natijada unumdor yerlar ishdan chiqqan.

Rossiyaning rus dehqonlarini ko'chiruvchilik siyosatiga vaqtli matbuotda turlicha munosabat bildirilgan bo'lib, masalan, agronom S. V. Ponyatovskiy "Rossiyadan Turkistonga kelib o'rnashgan dehqonlar bu yerda butunlay yangi, o'zlari uchun begona va notanish qishloq xo'jaligi sharoitiga tushadi. O'tish davrida mahalliy aholini choraikor sifatida ishlatib, ulardan foydalanish zarur", deb ta'kidlagan edi.

Shuningdek, *Turkestanskiy kuryer* gazetasida ko'chirilgan rus dehqonlariga o'z davrida haqiqatga yaqin baho berilgan bo'lib, unda: "Ular Rossiyaning qaysidir hududidan ko'chirilmasin, o'zlari uchun yangi bo'lgan qishloq xo'jaligi boshqaruvi sharoitiga duch keladilar. Tuproq tarkibidan bexabar bo'lish bilan birga, g'o'za haqida umuman eshitmaganlar, nafaqat paxta yetishtirishni bilmaydilar, balki dalani sug'orishda suvdan foydalanishni ham uddalay olmaydilar", deb yozilgan.

1906-yilga kelib, har ikkala Volinsk va Obetovanniy qo'rg'onlari butunlay sho'rlanib bo'lgan. Xo'jalik hayotida chorvachilik asosiy o'rinni egallagan, sug'orma dehqonchilik esa umuman yo'q edi. O'sha yilning yozida Mirzacho'l temir yo'li stansiyasidagi aholi qo'rg'oniga ko'chirilgan sibirliklarning 16 oilasidan 13 nafari Mirzacho'lda yashashdan bosh tortib, hududni tark etishgan.

Tashlandiq, botqoq va sho'rlangan hududlarning tabiiy muhiti zararli bo'lib, epidemiyaga sabab bo'luvchi hasharotlarning ko'payishiga hamda yangi ekomuammo va kasalliklarning vujudga kelishiga olib keldi.

1899-yildan o'zlashtirilgan hududlarda ekinlarni chigirtka bosib, hosilni butunlay yo'q qilib yubora boshladi. Buning natijasida aholining turmush sharoitida ocharchilik va qashshoqlik kuchaydi. Chigirtka bosishi sababli 1901-yilda rus dehqonlariga paxtachilikni rivojlantirish uchun beriladigan qarzarlar vaqtincha to'xtatilgan edi. 1906-yilga kelib chigirtkalar biroz kamaydi va ekin maydonlari kengaydi. 1908-yildan boshlab chigirtkalarga qarshi kurash kuchaytirildi va bu jarayon 1911-yilgacha davom etdi.

1903-yilda Mirzacho'l tajriba stansiyasining faoliyatiga oid xabarnomada ta'kidlanishicha, tajriba markazi ochilgandan buyon ko'sak qurti tufayli to'liq hosil olinmagan, Mirzacho'l paxtachiligida yetishtirilgan paxtaning faqat yarmi yig'ib olingan.

1899-yilda Duxovsk qo'rg'onida istiqomat qiluvchi rus dehqonlari bezgak epidemiyasi va chigirtka ofati tufayli Mirzacho'lda yashamasliklari to'g'risida ariza bilan murojaat qildilar. Vatanimiz insoniyatning tadrijiy rivojlanish o'choqlaridan biri bo'lib, bezgak

epidemiyasi chet elliklar uchun xavfli epidemik mintaqa hisoblanardi.

Ma'lumki, Zarafshon vohasi va Farg'ona vodiysi dehqonlari meliorativ ishlarni amalga oshirib, zaxkashlar bunyod qilishgan. Qo'qon va Buxoro shaharlari atrofida bezgak o'chog'i bo'lgan ko'l, ko'lmak va botqoq yerlarga qarshi kurashda zaxkashlar yaxshi natija bergan. Buxoro shahri atrofidagi zaxkashlar inqilobga qadar, keyinchalik Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) davrida ham muntazam tozalanib turgan, bu esa sog'lom tabiatni ta'minlagan.

1913-yil 5-oktabrda Do'stlik kanalining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi va Mirzacho'lning shimoli-sharqiy qismini o'zlashtirish imkoniyati yaratildi. 1914-yilda Mirzacho'lda sug'oriladigan maydonlar 14,5 ming desyatinani tashkil etdi, biroq uni amalga oshirish uchun mehnat rezervlari yetishmasdi.

1914-yilda G. K. Rizenkampni hisob-kitoblariga ko'ra, Mirzacho'lda istiqomat qilayotgan 1300 oiladan 84 tasida erkak ishchilar yo'q edi, 942 oilada esa bittadan erkak ishchi bor edi. 13 ta rus qo'rg'onlariga tegishli 13 128 gektar yerdan 3 823 gektari qarovsiz qolgan edi. Bu hol yerlarning sho'rini yuvish maqsadida suvdan noto'g'ri foydalanishga olib kelgan. Sho'rlanishni kamaytirish maqsadida sholi ekish ko'paygan va ortiqcha suv tabiiy chuqurliklarga, o'zlashtirilmagan yoki tashlab ketilgan yerlarga oqizilgan. Buning natijasida Romanovsk qo'rg'oni suv ichida qolgan.

Ayniqsa, Sardoba botig'idagi katta ko'l hosil bo'lib, dalalar qamishzorlar bilan qoplangan, to'qayzorlar paydo bo'lgan va bezgak chivini ko'paygan. Natijada aholining bezgak bilan kasallanishi ortgan. Sho'ro'zak mintaqasidagi yerlar sho'rlanib, botqoqlanish jarayoni boshlangan.

1914–1915-yillarda qurilgan Saritepa, Sho'ro'zak va Velikoalekseevsk qo'rg'onlarini 1–2 yil ichida aholi tashlab ketdi, chunki barcha yerlarga sho'r bosib, ekilgan ekinlar nobud bo'lgan edi. Sho'rlangan yerlarning qattiq qatlami belkurak bilan ot-aravalarga yuklanib, olib tashlangan.

Mirzacho'l qurigan qadimiy dengiz o'rnida shakllangan bo'lib, sizot suvlari tabiiy oqib ketmaydi. Shu tufayli bugungi kunda voha tuprog'i keskin sho'rlanishga moyil. Hududda sizot suvlarining yig'ilishida asosiy rolni Turkiston va Nurota tog' tizmalarining yer osti oqimlari o'ynaydi. Mustaqillik davridan Turkiston tog' tizmasi old qismida yashovchi aholi tomonidan (O'zbekistonning Jizzax va Zomin, Tojikistonning Istaravshan tumanlarining adirlik qismi) yer osti suvlarini nasos orqali chiqarib tashlab dehqonchilik faoliyati yuritayotganlari tufayli qadim Mirzacho'l hududida sizot suvlari oqimi yanada ko'payishi ehtimoli mavjud.

Mavzu bo'yicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Mirzacho'l-Sirdaryo vohasining tabiiy-geografik xususiyatlari qanday?
2. Ekomuammolar tushunchasi ilmiy adabiyotlarda qanday izohlanadi?
3. Sho'rlanish jarayoni qanday omillar natijasida sodir bo'ladi?
4. Sug'orish tizimlarining noto'g'ri ishlatilishi qanday ekologik oqibatlarga olib keladi?
5. Mirzacho'lda kuzatilgan antropogen ta'sirlarning tarixiy bosqichlari qanday kechgan?
6. Iqlim o'zgarishlari Sirdaryo vohasining qaysi ekologik muammolarini keskinlashtirgan?
7. Ekotizimlar barqarorligiga qanday omillar tahdid solmoqda?
8. Ekologik muvozanat buzilishi ijtimoiy-iqtisodiy holatga qanday ta'sir qiladi?

Amaliy savollar.

1. Mirzacho'ldagi suv ta'minoti muammolari bilan bog'liq real holatlarni tahlil qiling.
2. Sirdaryo vohasida yer sho'rlanishining tarqalish xaritasini tuzish uchun qanday manbalardan foydalanasiz?
3. Qaysi mahalliy hududlarda ekotizim buzilishining yaqqol misollarini ko'rish mumkin?

4. Mirzacho‘ldagi melioratsiya loyihalari qanday ijobiy yoki salbiy natijalar bergan?
5. Atmosfera havosining ifloslanish darajasini o‘lchash uchun qanday usullarni qo‘llash mumkin?
6. Sug‘oriladigan yerlarning holatini monitoring qilishda qanday zamonaviy texnologiyalar qo‘llaniladi?
7. Mahalliy aholining ekomuammolar yuzasidan fikr-mulohazalarini o‘rganish metodikasini ishlab chiqing.
8. Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha o‘rta maktab darajasida qanday loyihalarni taklif etishingiz mumkin?

Munozarali savollar.

1. Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi – ekologik falokatmi yoki iqtisodiy yutuqmi?
2. Ekomuammolarni hal qilishda davlat siyosati yetarli mi?
3. Sug‘oriladigan yerlar barbod bo‘layotgan bir paytda yangi yerlarni o‘zlashtirish to‘g‘rimi?
4. Tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanat qanday tiklanishi mumkin?
5. Iqlim o‘zgarishiga mahalliy siyosat ta‘sir ko‘rsata oladimi?
6. Mahalliy aholining ekologik muammolarga befarqligi – sababmi yoki oqibat?
7. Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti ekotizim hisobiga olib borilishi mumkinmi?
8. Biologik resurslardan foydalanishda cheklovlar kerakmi yoki bu iqtisodiy rivojga to‘sqinlik qiladimi?

TEST.

1. Mirzacho‘l-Sirdaryo vohasida eng keng tarqalgan ekologik muammo qaysi?
 - A) Deforestatsiya
 - B) Sho‘rlanish
 - C) Neft to‘kilishi
 - D) Sanoat chiqindilari
2. Sug‘orish tizimining noto‘g‘ri ishlashi natijasida qanday jarayon yuz beradi?

- A) Bioxilma-xillik ortadi
 - B) Yer unumdorligi ortadi
 - C) Sho'rlanish kuchayadi
 - D) Qurg'oqchilik kamayadi
3. Antropogen omillar qaysi holatda ekotizimga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi?
- A) Tog' tizmalarida
 - B) Ko'chmanchi hududlarda
 - C) Qishloq xo'jaligi faoliyati olib boriladigan zonalarda
 - D) Qorli zonalarda
4. Ekomuammolar dinamikasini tahlil qilishda qaysi yo'nalish muhim ahamiyatga ega?
- A) Falsafa
 - B) Astronomiya
 - C) Ekologik monitoring
 - D) Arxeologiya
5. Sirdaryo vohasidagi yer degradatsiyasining asosiy sababi nima?
- A) To'g'ri suv boshqaruvi
 - B) Bozorchilik faoliyati
 - C) Ortib borayotgan aholi soni
 - D) Noto'g'ri melioratsiya va sug'orish tizimi

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
3. F.E.Toshboyev. *Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi*. Toshkent – 2021.
4. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
5. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.

6. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи. Тошкент. Университет. 1995.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Аминов Б.А. Формирование населения Голодной степи (конец XIX –60 –е гг. XX в.) Авторефер. дисс. к.и.н. –Ташкент: 1970.

2. Аширбоева З.К. XIX аср охири - XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Т.ф.н...автореферати. – Тошкент: 2008.

3. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.

4. Л.Н.Гумилев. Этногенез и биосфера Земли. – Л.: 1989.

5. Голодная степь. 1867-1917. История края в документах. - М.:Наука,1981. –С.97.

6. Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press, 1998.

4-MAVZU.MIRZACHO'LNING O'ZLASHTIRILISHI VA ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI

Asosiy savollar

1. XX asr boshlarida Mirzacho'ldagi ekomuammolar va ijtimoiy turmush.
2. Mirzacho'lni o'zlashtirishda dastlabki tashkil etilgan dala tajriba stansiyalarning ahamiyati.
3. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Mirzacho'lning o'zlashtirishi.

Tayanch iboralar. Mirzacho'l, o'zlashtirish jarayoni, etnoekologik muammolar, dehqonchilik zonasi, migratsiya oqimi, antropogen ta'sir, ekologik muvozanat, yer resurslarining tanqisligi, sho'rlanish, suv tanqisligi, madaniy moslashuv, aholi zichligi, ijtimoiy-adaptatsion muhit, tabiiy resurslardan foydalanish, qishloq xo'jaligi kengayishi.

1.XX asr boshlarida Mirzacho'ldagi ekomuammolar va ijtimoiy turmush.

1915–1917-yillarda misli ko'rilmagan qurg'oqchilik kuzatildi. 1920–1940-yillarda yuz bergan Arktika isishi insoniyat tarixida og'ir oqibatlarga sabab bo'ldi. Bu davrda birinchi jahon urushi, Oktyabr to'ntarishi, fuqarolar urushi va mustaqillik harakati, shuningdek, "harbiy kommunist" siyosati natijasida yuzaga kelgan inqiroz 1923-yilgacha davom etdi. Oqibatda ocharchilik kuchaydi, Mirzacho'lning sug'orma dehqonchilik hududlarida qurg'oqchilik, botqoq-qamishzorlarning kengayishi natijasida bezgak epidemiyasi va yerning qayta sho'rlanishi sodir bo'ldi.

G. K. Rizenkampf Alekseevsk qo'rg'onida yerlarning 70% sho'rlanganini, ommaviy bezgak epidemiyasi sababli nafaqat alohida xutorlar, balki ko'plab qo'rg'onlarning aholisi hududni tark etganini qayd etgan edi. Shuningdek, shimoli-sharqiy irrigatsiya tizimlariga jiddiy zarar yetgan edi.

Mirzacho'lga ko'chirilgan rus aholisi boshqa hududlarga ko'chib keta boshladi va immigrantlarning o'troqlashuvi amalga oshmadi. Bezgak epidemiyasi tufayli ishchilarning 80–90% azob chekayotgan edi, natijada o'lka irrigatsiya-melioratsiya qurilish ishlari orqaga ketdi. 1919- 1920- va 1921-yillarda Spassk qo'rg'oni aholisining 10% bezgak xurujidan vafot etgan.

1920-yilda Mirzacho'lga Moskvadan bezgak epidemiyasini o'rganish uchun bir qancha olimlardan iborat komissiya yuborildi. Professor V. F. Bulaevskiyning eslashicha, Sirdaryo stansiyasida ularni hech kim qarshi olmagan, bitta telefonist bo'lib, u ham bezgak xurujidan azob tortib yotgan. Ekspeditsiya a'zolariga qishloq kengashi ot bergan, lekin hamma kasalligi tufayli yo'l boshlovchi bera olmagan. Sirdaryo tumanidagi Oxunboboyev, Malik va boshqa xo'jaliklarning qo'rg'onlari bezgakdan huvillab yotgan.

1920-yil seryog'in keldi, o'lkamizda kuchli suv toshqinlari, sel oqimlari bo'lib, Mirzacho'ldagi irrigatsion inshootlar ham ancha zarar ko'rdilar. Tabiiy ofat talofatlari 1923-yilda ancha bartaraf etilib, irrigatsiya ishlari yaxshilandi.

1921-yilda bezgak xurujiga qarshi kurash maqsadida mirzacho'lliklar uchun O'ratepa shahrida sihatgoh tashkil etildi. 1923-yilda ovul va qishloqlarda bezgak epidemiyasini tugatish uchun sanitariya "uchliklari" tuzildi. Bezgakka qarshi kurash ommaviy suratda avj olishi bilan epidemiyaning asta-sekin kamayib borishini quyida ko'rishimiz mumkin.

Ambulatoriyaga kasallarning kelishi	1923-yil	1925-yil
Umumiy qabul qilingan kasallar	3777 nafar	2413 nafar
Bezgak xuruji bilan	1650 nafar	612 nafar
Boshqa kasallarga nisbatan % hisobida	43,7	25,3

1914-1919-yillar davomida sug'orilgan 95 ming gektar yerning 60 ming gektari, ya'ni 2/3 qismi tashlandiq holatga kelib qoldi, faqatgina 35 ming gektar yer sug'orilib, dehqonchilik qilinar edi. 1913-1915-yillarda vohada birinchi yirik melioratsiya tarmog'i – Sho'ro'zak zovuri (63 km uzunlikda) qurildi. 1919-yilda melioratsiya

shirkatlari tuzilib, 20-yillarning boshlarida ularning faoliyati ancha kengaydi.

2. Mirzacho'lni o'zlashtrshda dastlabki tashkil etilgan dala tajriba stansiyalarning ahamiyati.

1900-yilda Mirzacho'l tajriba dalasi tashkil etildi. Mirzacho'lda sug'oriladigan yerlarning qayta sho'r bosishini N. A. Dimo (1906-yil) va M. M. Bushuyev (1908-yil) aniqladilar va unga alohida e'tibor berdilar. Ular sholi ekishning, bostirib sug'orishning oqibatlarini asoslab berishdi, almashlab ekish qonuniyatlarini ishlab chiqdilar va kollektor-drenajlar tizimi zarurligini isbot qildilar. Agronomlar S. V. Poyatovskiy, R. R. Shreder, N. N. Aleksandrov, irrigator A. I. Kryuchenko kabi mutaxassislardan iborat komissiya 1906-yilning sentyabrida 6 dalali almashlab ekishni tavsiya etgan.

M. M. Bushuyev paxta hosildorligini oshirishning asosiy sharti – almashlab ekishni to'g'ri tashkil etishda, deya beda va bir yillik donli ekinlarni paxta bilan almashlab ekib, tajriba stansiyasi dalalarida joriy qilgan. Lekin, paxtachilik bo'yicha Rossiyaning Mirzacho'ldagi instruktori Salin 1913-yildagi hisobotida qo'l mehnatiga asoslanganligi uchun “bedachilik keyingi ikki yil ichida foydasiz soha bo'lib qolgani, o'zini-o'zi oqlamayotganligi va kelgusida kengaytirilmasligi” to'g'risida fikr yuritadi. Dehqon xo'jaliklarining daromadlari paxtachilikni kengaytirishda, deb baholadi. Shu davrdan Mirzacho'lda paxta monokulturasini tashkil topa boshladi.

1915-1917-yillardagi qurg'oqchilik oqibatida Mirzacho'l aholisining tarkibi mahalliy millat vakillari hisobiga ko'paydi. Yollanma ishchilar asosan qo'shni O'ratepa va Zomin volostlaridan, Jizzax uyezdi, Ursatevsk stansiyasi, Qo'qon uyezdlaridan kelishgandi. 1918-yilda qishloq aholisi 53831 kishi bo'lib, shundan 45604 kishi mahalliy millat vakillari va 8227 kishi rusiyzabon aholi edi. 1917-1923-yillardagi ocharchilik og'ir oqibatlarga olib keldi, Turkistonda dahshatli o'lat, terlama, sing (zangila) kasalliklari ommaviy tarqaldi. Farg'ona vodiysida 1 million kishi, Samarqand viloyati Jizzax uyezdining 70% aholisi, Samarqand uyezdida esa 70 ming kishi

ocharchilikdan halok bo'lgan. T. Risqulov ocharchilik respublika aholisining yarmini, taxminan 2,5 million kishini o'z domiga tortganligini yozgan edi. Ochlik, qahatchilik tufayli yangi yerlarni o'zlashtirishda yevropaliklar bilan birgalikda mahalliy aholi, Farg'ona vodiysi va O'ratepa, Zomin atroflaridan ko'chib kelgan kishilar ishtirok eta boshladilar, 1923-yilga kelib butun Mirzacho'l aholisining 54% ni tub millatlar tashkil etdi.

Sobiq Ittifoq davrida Mirzacho'lni o'zlashtirilishi ekstensiv xarakter kasb etib, yuqoridagi xatoliklar oqibatlariga e'tibor berilmadi, aholini yangi yerlarga joylashtirish va yerdan, suvdan foydalanish tartibsiz ravishda olib borildi, agrotexnik ilg'or tajribalar keng tatbiq etilmadi, oqibatda XX asrning o'rtalarida aholi o'rtasida xavfli kasalliklar va o'lim darajasi yana ortdi, yerning sho'rланishi kuchayib bordi.

Sobiq Ittifoq davrida Osiyoning epidemiologik xastaliklariga chidamsiz rus immigrantlari o'rniga mehnat resurslarini to'ldirish maqsadida mahalliy millatlar Mirzacho'lga noan'anaviy usullarda jalb etila bordi. Masalan, Boyovut tumanidagi G'allakor, 1-Boyovut, 3-Boyovut mahallalarida istiqomat qiladigan buxoroliklar quloqlashtirilib, majburan ko'chirilgan.

1920-1940-yillardagi Arktika isishi davrida ikkinchi dahshatli ochlik 1931-1933-yillarda yuz berdi, qurg'oqchilikdan zarar ko'rgan qishloqlarning aholisi ommaviy ravishda majburan ko'chirildi, ochlikdan zarar ko'rgan ko'plab mahalliy xalq Mirzacho'lga keldi. Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylaridan aholi ko'chirildi. 1928-1929-yillarda 2600, 1929-1930-yillarda 7600 xo'jalik ko'chirilgan. Shuningdek, 30-yillarda Turkiston tog' tizmasi yon bag'ridagi Samarqand viloyati lalmikor qishloqlari aholisi Mirzacho'lga majburan ko'chirildi.

1931-1932-yillarda yerning botqoqlanishi tufayli bezgak kasali avj oldi. Meliorativ tadbirlar keng amalga amalga oshirilganiga qaramay, 1936-yilda Mirzacho'lda 53% qishloqlarning yer maydonlari botqoqlangan va quritishni talab qilardi.

Ikkinchi jahon urushi arafasi va urush yillarida Sovet davlati

paxta yetishtirishni oshirish maqsadida bir butun xalq peshonasiga “sotqin”, “xoin” kabi tamg’alarni bosib, ko’chiruvchilik siyosatini yuritgandi, koreyslar, Qrim tatarlari, mesxeti turklari, shuningdek, urush asirlari kabi turli diasporalar Mirzacho’lga o’zlari uchun mutlaqo notanish bo’lgan landshaftga ko’chirildilar.

1939-, 1940-, 1941-1942-yillarda partov yerlarni o’zlashtirish maqsadida sholi ekish surati oshib bordi, urush tufayli melioratsiya va irrigatsiya ishlari to’xtab qoldi, oqibatda yer botqoqlanib, o’tmishdagi dahshatli voqealar takrorlandi.

4. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Mirzacho’lning o’zlashtirishi.

1948-yilda Farhod GESi ishga tushishi bilan 1947-1948-yillarda qurilgan Boyovut kanaliga suv ochildi, Do’stlik kanalining suvi ko’paydi va qo’shimcha 40 ming gektar yerni o’zlashtirish imkoni tug’ildi. Sobiq Ittifoqning Mirzacho’lni o’zlashtirishda madaniylashtirilgan ko’chirish siyosatining ko’rinishi bo’lmish “komsomol yo’llanmasi” bilan yuborish, mehnat resurslari bilan uzviy ta’minlash dasturi shakllandi. 1949-yil yanvarida bir guruh andijonlik yoshlar oilasi bilan Mirzacho’lda ishlash tashabbusi bilan chiqdilar. Andijon yoshlarining tashabbusini Toshkent, Qashqadaryo, Farg’ona va boshqa viloyatlar yoshlari qo’llab chiqdilar. Madaniylashtirilgan ko’chirish siyosati uzluksiz XX asrning 80-yillari o’rtalariga qadar davom etdi va asosan mahalliy aholi paxtachilikka ixtisoslashgan xo’jaliklarga o’rnashdi.

1956-yilda Zaparojye, Smolensk, Kurgan, Kiyev va boshqa shaharlarning kasb-hunar maktablarini 12 ming bitiruvchisi Mirzacho’lda ishlash tashabbuskori bo’ldilar. Rusiyazon aholi asosan sanoat ishlab chiqarishiga jalb etildi.

XX asrning 50-yillari oxirigacha yangi yerlarni o’zlashtirishda akademik T. D. Lisenko, professor V. A. Shaumyan kabi antidrenaj nazariyasini yoqlovchilarning g’oyalari ustuvor bo’lib, melioratsiya qurilishi ikkinchi darajali hisoblangan, loyihalardan meliorativ qurilishlar chiqarib tashlangan.

50-yillarning o'rtalariga kelib, Mirzacho'lning eski suv chiqarilgan hududining shimoli-g'arbiy qismida aholi o'troqlashib, o'zlashtirildi, 1960-yil 25-dekabrda Janubiy Mirzacho'l kanaliga suv ochilishi bilan o'zlashtirishda yangi davr boshlandi. Mirzacho'lning o'zlashtirishning yangi prinsiplariga ko'ra inson omili uchun kompleks tadbirlarni qamrab oldi. Sug'orish, kollektor-drenaj tarmoqlari, gidroinshootlar qurish, yo'l, energiya ta'minoti, ichimlik suvi, gazlashtirish ihotazorlarga yaxshi uylar, maishiy xizmat ko'rsatish, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash obyektlari qurishga e'tibor berildi. 1950-yillarning o'rtalarida boshlangan Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayoni 70-yillarning ikkinchi yarmiga kelib yakunlandi. Asosiy e'tibor Jizzax cho'lini o'zlashtirishga qaratildi, 1963-yilda Sirdaryo, o'n yildan so'ng Jizzax viloyatlari tashkil etildi, Mirzacho'l o'rnida Sirdaryo vohasi shakllandi.

Madaniylashtirilgan ko'chirish oqibatida Mirzacho'lga kelgan mahalliy aholi vakillari ko'p holatlarda xalqimizga xos etnopsixologiyada bo'lib, "baribir ota yurtimga qaytib ketaman", degan fikrda edilar. Albatta, ularning o'rnashishlari, Mirzacho'lda dehqonchilik madaniyatining sir-asrorlarini o'rganishlari davrida, hukmron mafkura sharoitida ekstensiv xo'jalik yuritish oqibatida, yer-suvni e'zozlashdan yiroq bo'lib, yuqoridagi xatoliklar takrorlandi, sug'oriladigan yerlarning miqdori qancha ko'p bo'lsa, undan shunchalik xo'jasizlarcha, beparvolarcha foydalanildi, bostirib sug'orish, sholichilik va boshqalar tufayli voha yerlari sho'rlanib bordi. Shuningdek, irrigatsion inshootlar qurilishidagi xatoliklar, meliorativ inshootlarning yetarli emasligi va sifatsizligi tufayli o'zlashtirilgan yerlarning meliorativ holati yomonlashdi.

Ko'chirilgan mahalliy millat vakillarining ham, diasporalarning ham Mirzacho'lga kelgunga qadar an'anaviy xo'jalik yuritish asoslarida dehqonchilik madaniyatidan xabardor bo'lsa ham, mutlaqo boshqa bir geografik tabiiy muhitda edi. Masalan, Turkiston tog' tizmasi adirlaridan ko'chirilgan aholining xo'jalik hayotida chorvachilik yetakchi o'rin tutib, lalmikor dehqonchilik bilan ham shug'ullanishgan. Turli etnos vakillari Mirzacho'lda majburiy

o'rnashdilar va tabiat bilan munosabatda yashab qolish uchun kurashdilar.

Sug'orma dehqonchilikdagi qo'pol xatolar katta iqtisodiy va ma'naviy ziyon keltirdi. Yiliga deyarli 80-100 ming gektar yangi yer o'zlashtirilib, foydalanishga topshirilgan, lekin shu bilan bir vaqtda turli sabablarga ko'ra, 60-80 ming gektar yer yaroqsiz holga kelgan. Masalan, 1966-1984-yillarda 390 ming gektar sug'oriladigan maydon oborotdan chiqqan. 1984-yil Jizzax viloyatining Zarbdor tumanida har gektar yerdan olingan paxta hosili 7 sentnerdan oshmadi. Jizzax viloyatidagi 25% kollektorlarning ishdan chiqqani, yopiq va tik drenajlarning 1/3 qismi ishlamaganligi sabab bo'ldi. Shuningdek, voha yerlariga obi-tobi yetilganda ishlov berilmasligi, ishlov berishda balonli traktorlardan keng foydalanish oqibatida ekin unadigan madaniy qatlamdan pasti zichlashib bordi, tabiiy yog'inlar va qo'yilgan suvning sizilishi zaiflashdi, vegetatsion davr qisqardi.

1960-yillarda Ittifoq rahbariyati tomonidan paxtachilikda kimyoviy moddalar keng qo'llanila boshlandi. Xususan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bir gektar yerga o'rta hisobda ko'pi bilan 100 kg mineral o'g'it sarflansa, O'zbekistonda bu miqdor gektar hisobiga 268 kg.ni tashkil etdi. O'z o'rnida Sirdaryo vohasi yerlari ham ommaviy ravishda buzildi, yaroqsiz yerlar miqdori oshdi, dori «yemasdan» va «ichmasdan» hosil bermaslikka o'rganib qoldi. Har bir gektar ekin maydoniga mineral o'g'it solish ham oshib bordi. Masalan, agar 1980-yilda bir gektar ekin maydoniga 149 kg azot, 85,6 kg fosfat, 28,5 kg kaliy solingan bo'lsa, 1987-yilda bu raqam mos ravishda 166,8; 92,4; 46,4 bo'ldi. Mazkur mineral o'g'itlarning ma'lum qisminigina o'simliklar yuta oladi. Azotning qolgan qismi havoga chiqib ketadi, lekin fosforning o'lik zaxirasi yuz yillarga yetarlik.

60-yillarning 2-yarmida aviatsiya yordamida bajariladigan kimyoviy ishlar hajmi 34,3%ga ko'paygan. 80-yillarda jahonda bir gektar yerga 300 g. pestitsidlar solingan bo'lsa, O'zbekistonda 54 kg.ni tashkil etib, qo'llanilish normasidan 180 barobar ko'p edi.

Paxta ekiladigan maydonlarga turli xil gerbitsidlar, zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlov berilganliti oqibatida xavfli kasalliklar va o'lim darajasining ortishi yuz berdi. Ko'plab agronom olimlar, sobiq dala brigadirlari, mexanizator, suvchilarning o'rtacha umr yoshiga yetmasligi, fojeali taqdirlari paxtachilikda kimyoviy moddalar qo'llanilishi bilan ifodalanadi.

Irrigatsion inshootlar, suv omborlari va gidrouzellarning qurilishi jarayonida meliorativ inshootlarning yetarli emasligi tufayli faqatgina sug'oriladigan yerlar emas, balki shahar, posyolka, qishloqlarning ahvoli yomonlashdi. Hozirgi paytda o'nlab shaharlarda yer osti suvlari yuzaga yaqinligi tufayli daraxtlar qurib qolmoqda, binolarning poydevori ishdan chiqayapti, atrof-muhit yomonlashmoqda.

Bu hol Sirdaryo viloyatining Boyovut shaharchasi, Yangiyer va Guliston shaharlari qiyofasida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchi ming yillik boshlarida sizot suvlarining yillik o'rtacha joylashish chuqurligi Sirdaryo viloyati xo'jaliklari bo'yicha 172 sm.ni, Jizzax viloyati xo'jaliklari bo'yicha 219 sm.ni tashkil qildi. Bunda Jizzax viloyati xo'jaliklarida sizot suvlari sathining Sirdaryo viloyati xo'jaliklariga nisbatan ancha pastda joylashishi bu yerdagi geomorfologik sharoit va relyefni sizot suvlarining oqimini yaxshi ta'minlashida, deb bilash mumkin.

Akademik tuproqshunos olimlar J. Axmedov, Q. Mirzajonov, S. Azimbayev va tadqiqotchi S. Isayevlar "tarkibida 2-2,5 g/l tuz tutgan yerlar sizot suvlari sathini 1,5 metrdan pastga tushirishi hozirgi suv tanqisligi sharoitida koni zarar", deb hisoblashadi. Sizot suvlari mineralizatsiyasi kam bo'lganda 1-1,5 metr, ko'p bo'lganda 2-2,5 metr da saqlash tavsiya etilmoqda.

XX asrning 2-yarmida quyosh aktivligining oshishi, global isish, «katta qurg'oqchilik»larning tez-tez bo'lib turishi natijasida Yer sharida cho'llar maydoni yiliga 6 million gektarga kengaymoqda.

Sobiq Ittifoqda Mirzacho'lni o'zlashtirilishi tajribalari, Markaziy Osiyo Respublikalarida paxta yetishtirishning ommalashtirilishi, yangi yerlarni o'zlashtirilishi, shuningdek, Sirdaryo va Amudaryo

o'zanlarida suv omborlari, gidroelektrostansiyalar qurilishi, sanoatda suvdan keng foydalanilishi oqibatida Orol muammosi paydo bo'ldi. Sirdaryo va Amudaryo suvlaridan nazoratsiz foydalanish oqibatida 1961-1970-yillar oralig'ida Orol dengiziga har yili 42,9 kubokilometr suv quyilgan bo'lsa, 1981-1984-yillarda 4,2 kubokilometr tushib qoldi. Global isish natijasida Orol qurib bordi. Ming yillik boshlariga kelib, havzasida 35 million aholi istiqomat qiladigan dengiz quriy boshladi. Orol fojeasi mintaqaviy muammodan umumbashariy fojea darajasiga ko'tarildi. Ilgari yer yuzidagi eng yirik ichki suv havzalaridan biri bo'lgan Orol dengizining hajmi bugungi kunda 13 barobar, maydoni 7 barobar qisqardi, suv sathi 26 metr pasaydi. Dengizning qurib qolgan tubida 5 million gektardan ziyod maydonni egallagan yangi Orolqum cho'li paydo bo'ldi.

Butun jahonda dehqonchilik madaniyati bugungi kunda yerlarning sho'rlanishi, cho'llanishi muammosi bilan birgalikda «kislotali yomg'irlar»dan, tuproq eroziyasidan aziyat chekmokda. Bugungi kunda Yer yuzasining 31 million gektar qismi «kislotali yomg'irlar»dan zararlangan va bug'langan. Tuproq eroziyasi tufayli ekin maydonining 26 million gektarida har yili hosildorlik pasayib bormoqda.

«Neolit inqilobi» ziroatchilik madaniyati taraqqiysi bosqichlarida insoniyat ochlik balosidan omon qoldi, unib-o'sdi. Mil. avv. II ming yillikda Markaziy Osiyoda sug'orma dehqonchilikka o'tilishi, mil. avv. I ming yillikdan boshlab yangi yerlarga kanallar qazib, suv chiqarib, o'zlashtirilishi osiyocha ishlab chiqarish asosida qadimdan tabiatni, xususan «yediruvchi va kiydiruvchi» tuproqni» e'zozlashning amaliy-an'anaviy yumushlari shakllangan. Tuproq tarkibini boyitib, hosildorlikni oshirib borishda «tabiatdan tabiatga» qonuniyatiga amal qilingan, chorvachilikdagi chiqindilar, go'ng, xashak nushqurti, xazon chirindisi, nuragan devor kesaklari, ariq-zovurlar tozalanganda chiqadigan tuproq yerga solingan. Sirdaryo vohasi bugungi kunda irrigatsion-melioratsion inshootlarni tozalash natijasida chiqarilgan tog'-tog' rosh (balchiq tuproq) zaxirasiga ega.

Tabiatning shafqatsiz qonuniyatiga ko'ra inson undan qancha noz-ne'mat, farovonlik olsa, uni shuncha asrab-avaylasa, tabiatni tabiiy ne'matlar bilan boyitsagina boqiy umrguzaronlik qila oladi.

Sirdaryo vohasining bugungi etnodemografik, urbanizatsion, sivilizatsion taraqqiysini yuksaltirish, ekomuhitini asrash, uni boyitib, kelgusi avlodlarga yetkazib berish voha aholisining muqaddas burchidir.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Mirzacho'lning XX asr davomida «yoppasiga ekstensiv o'zlashtirilishi» xatolik bo'lib, faqat suv chiqarish mumkin bo'lgan hosildor yerlarga e'tibor qaratilmog'i, qolgan qismida tabiat saqlanib, chorvachilik va boshqa sohalar rivojlantirilmog'i zarur edi; «Boshqa bir etnosning o'rnashuvi», ya'ni Chor Rossiyasi davrida rus dehqonlarining Mirzacho'lni o'zlashtirilishida hukmron mavqega ega bo'lganliklari, meliorativ tadbirlarga e'tiborsizliklari, sho'rolar davrida quloqlashtirish, majburan ko'chirish, madaniylashgan ko'chirish siyosatining ko'rinishi bo'lmish «komsomol yo'llanmasi» bilan Mirzacho'lga yuborilgan mahalliy etnoslarning cho'l landshaftidan bexabarligi, hukmron mafkura ekstensiv xo'jalik yuritilishi oqibatida yerlarning sho'rlanishi yuz berdi;

- ekomuhitning buzilishi tufayli zararkunanda hashoratlar, epidemiologik xastaliklar keskin ko'paydi. Osiyoga xos xastaliklar, noqulay ekomuhit sababli Mirzacho'lda rus dehqonlari o'troqlasha olmadilar, ular asta-sekin Markaziy Osiyoning shaharlariga o'rnashdilar yki o'z vatanlariga qaytib ketdilar.

Bugungi kunda Sirdaryo vohasi yerlarining sho'rlanishi va mavjud ekomuhit istiqboli quyidagi xulosalarni beradi:

Guliston davlat universiteti bazasida «Sirdaryo vohasi ekologiyasi va istiqbollari» ilmiy laboratoriyasini tashkil etish, Respublikamizning yetakchi ilmiy markazlari bilan hamkorlikda barcha fan, mutaxassisliklar jabhasida ilmiy tadqiqotlarni olib borish va amaliyotga taebiq etish, voha aholisining ekomadaniyatini takomillashtirib borish;

vohadagi irrigatsion tarmoqlarni betonlashtirish yoki ma'lum o'n yilliklarga chidaydigan sun'iy, nisbatan kam xarajat talab qiladigan qoplamalar texnologiyasini ishlab chiqish va amalda tatbiq etish;

irrigatsion tarmoqlardan toza suvni to'g'ridan-to'g'ri zovur kollektorlariga tushishini oldini olish, suvdan tejab foydalanishni joriy qilish;

iqlimiy, meteorologik, ilmiy bilimlar asosida yerning sho'rini bosqichma-bosqich qochirish, sizot suvlari sathini me'yoriy kamaytirishga erishish;

almashlab ekishni keng tatbiq etish. Chorvachilik, bog'dorchilik fermer xo'jaliklarini ko'paytirish. Yerni mahalliy o'g'itlar bilan oziqlantirish, ariq, kanal va zovurlardan chiqqan roshini ekin yerlariga solib hosildorlikni oshirish;

irrigatsion tarmoqlar atrofida, ekin dalalari oralig'ida, shamol yo'nalishlari hududida, magistral yo'llar va tumanlararo yo'l shoxobchalari atrofida ma'lum maydonlar ihota daraxtzorlari tashkil etish maqsadida oilalarga ma'lum o'n yilliklarda oraliq ekin ekib foydalanishga berish, mahallalar ko'chalari, tomorqalarda manzarali hamda mevali daraxtlarni unib o'stirish;

mahalla hududlarida yog'in-sochin va oqar suvlarining to'planib qolishini oldini olish, ko'chalar atrofida rejali ariqlar bo'lishiga erishish, obodonlashtirish;

ariq, zovur va kollektorlarni muntazam tozalab borish, vohaning boy xom ashyosi – qamish, g'o'g'a kabi yovvoyi o'simliklardan sanoat xom ashyosi sifatida foydalanish, ya'ni ulardan DSP, DVP kabi qurilishbop, mebelbop mahsulotlar yoki ekin dalalari unumdorligini oshirish uchun tabiiy o'g'it ishlab chiqarishni joriy etish;

Vatanimiz kuchli seysmik hududlardan biri hisoblanishi, sizot suvi yaqin bo'lgan mintaqalarning seysmik xavfiligi inobatga olinib, yakka tartibda va tadbirkorlik sohalarida uy-joy, korxonalar qurilishini, saqlanishini seysmik konsultativ nazoratlarini joriy qilish;

biologik xilma-xillikni asrash va ko'paytirishga e'tiborni qaratish hamda hokozolar albatta vohamizning obodligi, farovonligi, gullab-yashnashi omili bo'lar edi.

Jamiyatning butun boyliklari inson mehnati bilan yaratiladi, lekin buning bir sharti bo'lib, bu atrof-muhit bilan o'zaro uzviy aloqadorlikdadir. Insoniyatning tabiat bilan hamnafaslikda erishgan madaniyatida tabiiy muhitning borlig'i yoki aksi namoyon bo'ladi.

Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayonida bu yerga ko'chirilgan, kelib qolgan aholining etnopsixologiyasida XX asrning 80-yillarigacha yagona «baribir ota yurtga qaytib ketaman», degan fikr bor edi. Bugungi kunda Sirdaryo vohasi aholisi uchun qadim Mirzacho'l yerlari o'troq Vatanga aylandi. Zero, voha yerlarining sho'rlanishini oldi olinsa, tabiati boyitib borilsa, muqim Vatan bo'lib kelgusi avlodlarga xizmat qiladi. Zotan, bugungi kunda barcha imkoniyatlar mavjud.

Mavzu bo'yicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Mirzacho'l hududining o'zlashtirilishi qanday tarixiy bosqichlarda amalga oshirilgan?
2. Etnoekologiya tushunchasi qanday izohlanadi va uning ilmiy asoslari nimalardan iborat?
3. Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayonida qanday tabiiy-geografik sharoitlar e'tiborga olingan?
4. Antropogen ta'sir natijasida vujudga kelgan etnoekologik muammolar nimalardan iborat?
5. Mirzacho'l aholisining etnik tarkibi qanday shakllangan va o'zgarib borgan?
6. Sug'oriladigan yerlarning kengayishi ekologik muvozanatga qanday ta'sir ko'rsatgan?
7. Etnoekologik muammolarni tahlil qilishda qaysi ilmiy metodlardan foydalaniladi?
8. Qishloq xo'jaligi kengayishi va o'zlashtirish siyosatining ekologik natijalari qanday?

Amaliy savollar.

1. Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayonida amalga oshirilgan suv-melioratsiya loyihalarini tahlil qiling.
2. Mahalliy aholi etnik tarkibidagi o'zgarishlar ekologik muhitga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlang.
3. O'zlashtirilgan hududlarda sho'rlanish va eroziya holatini xaritada ko'rsating.
4. Etnik guruhlar va ularning atrof-muhitga munosabatini solishtirib tahlil qiling.
5. Aholining turmush tarzi va tabiiy resurslardan foydalanish odatlari orasidagi bog'liqlikni o'rganing.
6. Sug'orish tizimining buzilishi qanday mahalliy ekologik muammolarga olib kelganini misollar bilan ko'rsating.
7. Mirzacho'lni o'zlashtirishga oid tarixiy hujjatlar asosida ekologik holatni tahlil qiling.
8. Mahalliy maktablarda ekologik ta'lim berish orqali muammolarni yengish bo'yicha takliflar tuzing.

Munozarali savollar.

1. Mirzacho'lning o'zlashtirilishi taraqqiyot uchun zarur edi, lekin ekologiyaga zarar keltirdimi?
2. Ko'chib kelgan aholining etnik o'ziga xosligi ekologik moslashuvga halaqit beradimi?
3. Sug'oriladigan yerlar barbod bo'layotgan bir vaqtda yangi hududlarni o'zlashtirish to'g'rimi?
4. Mirzacho'lning ekologik holati davlat siyosatining yutug'imi yoki kamchiligimi?
5. Ekologik zarar evaziga iqtisodiy foyda olish – bu tarixiy zaruratmi yoki xato?
6. O'zlashtirish jarayonida tabiiy resurslar emas, inson salohiyatiga ko'proq e'tibor berilishi kerakmidi?
7. Mirzacho'lda yuzaga kelgan muammolarni etnik guruhlar o'rtasidagi muvofiqlik bilan hal qilish mumkinmi?
8. Mirzacho'l ekologiyasi tiklanishi uchun aholining turmush tarzi o'zgarishi kerakmi?

TEST.

1. Mirzacho'lning o'zlashtirilishi qaysi asrda keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi?
 - A) XIX asr
 - B) XX asrning o'rtalari
 - C) XXI asr
 - D) XVIII asr
2. Etnoekologik muammolar deganda nima tushuniladi?
 - A) Qishloq xo'jaligi muammolari
 - B) Tabiiy resurslar tanqisligi
 - C) Etnik guruhlarining ekologik muhitga moslashuvidagi muammolar
 - D) Iqtisodiy tengsizlik
3. Mirzacho'l vohasida asosiy ekologik muammo qaysi biri hisoblanadi?
 - A) Suv toshqinlari
 - B) Sho'rlanish va suv tanqisligi
 - C) Deforestatsiya
 - D) Tog' siljishi
4. O'zlashtirish siyosati natijasida etnik guruhlar o'rtasida qanday jarayon sodir bo'lgan?
 - A) O'zaro ajralish kuchaygan
 - B) Etnik integratsiya va madaniy moslashuv
 - C) Aholi soni kamaygan
 - D) Urbanizatsiya pasaygan
5. Etnoekologik muammolarning barqaror hal qilinishi uchun nima eng muhim hisoblanadi?
 - A) Tabiiy ofatlar nazorati
 - B) Etnik guruhlarini ko'chirish
 - C) Hududni sanoatlashtirish
 - D) Barqaror ekologik siyosat va jamoaviy faoliyat

Adabiyotlar ro'yxati:
Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
3. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
4. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
5. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи. Тошкент. Университет. 1995.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Аминов Б.А. Формирование населения Голодной степи (конец XIX –60 –е гг. XX в.) Авторефер. дисс. к.и.н. –Ташкент: 1970.
2. Тагаев А.Р. Этнокультурные процессы в Нуротинском оазисе (первая половина XX века). Автореферат дисс.на соис. Уч.ст. к.и.н. Тошкент 2011 с.16
3. Аширбоева З.К. XIX аср охири - XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Т.ф.н....автореферати. – Тошкент: 2008.
4. Л.Н.Гумилев. Этногенез и биосфера Земли. - Л. 1989.
5. Голодная степь. 1867-1917. История края в документах. - М.:Наука,1981. –С.97.
6. Kamp, Marianne. *The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism*. University of Washington Press, 2006.

5-MAVZU.USTRUSHONA (MIRZACHO'L) AHOLISINING ETNIK SHAKLLANISH TARIXI

Asosiy savollar.

1. Ustrushona aholisning etnik tarixini o'rganilishi xususida.
2. Antik davrda Ustrushonadagi etno migratsion jarayonlar.
3. Ilk Oрта asrlar davrida etnik jarayonlar.

Tayanch iboralar. Ustrushona, Mirzacho'l, qadimgi aholi etnik tarkibi, migratsiya, ko'chmanchi qabilalar, dehqonchilik sivilizatsiyasi, sug'orish tizimlari, sosoniylar, arablar, turkiy qavmlar, eroniy guruhlar, to'qnashuv, integratsiya, madaniy ta'sir, til o'zgarishi, tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar, antropologik tadqiqotlar.

1.Ustrushona aholisning etnik tarixini o'rganilishi xususida.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi yillarida qadimiy Ustrushona davlatining o'tmish tarixi moddiy madaniyat asosida o'rganib ommalashtirishda. Qadimdan Ustrushona hududida o'zbek va tojik xalqlari hamjihatlikda mushtarak yashab kelishgan bo'lib, o'zbek xalqining mazkur hududdagi etnogenezi, uzil-kesil shakllanishi tarixiy tahlili dolzarb mavzudir. Turkiston tog' tizmalarining shimolidagi hududlar geografik o'rni, iqlimiga ko'ra inson yashashi uchun qulay bo'lib, odamlar qadimgi tosh davridan istiqomat qilishgan.

Eneolit va bronza davridanoq, aholi ijtimoiy muhitida ishlab chiqarish ehtiyojining tug'ilishi, ekologik vaziyat talabiga ko'ra, shimoli-sharqiy ko'chmanchi chorvador qabilalarining ham ma'lum qismi o'troqlashgan hayotga moslasha bordi. Ustrushonaning geografik joylashuvi va ekologik muhitga ko'ra boshqa voha va yirik suv havzalaridan farq qilib, asosiy qismi tog' va tog' oldi o'lkalari hisoblanadi. Aholi tomonidan o'lkani o'zlashtirilishi asosan «yuqoridan pastga» bo'lgan yoki dastlab suvi mo'l bo'lgan tog'li

hududlari, tog' oldi, so'ngra tekislik qismida eng dastlabki qishloqlar va shaharlar arxaik davrdan shakllangan.

Ustrushona va Farg'ona chegaralarida ikki xil ibtidoiy madaniyat izlarini ko'rish mumkin bo'lib, mil. avv. II-I ming yilliklarda Sirdaryoning o'ng sohilida ko'chmanchilar yashagan. Daryoning chap sohilida, Xo'jand va O'ratepa atroflarida esa o'troq aholi madaniyatini ko'rish mumkin. Bronza va ilk temir davriga oid mozorqo'rg'onlar Xo'jand, O'ratepa, Nov va Zomin hududlarida ham uchraydi. Qadimiy Ustrushona chegaralarida bronza davridan ilk dehqonchilik madaniyati kuzatiladi.

Arxeolog A. N. Bernshtam fikriga ko'ra, Asht bronza davri mozorlaridan topilgan ashyolar, Qozog'istondagi so'nggi bronza davri materiallariga o'xshash bo'lib «saklar madaniyati»ga yaqindir. Bugungi kunda xalqimiz tarixiga doir tadqiqotlarga ko'ra «Turkiyzabon qabilalarning O'rta Osiyoga ilk bor kirib kelishi bronza davriga borib taqaladi. Aynan mana shu davrdan boshlab o'zbek xalqi etnogenezi boshlanadi» deb e'tirof etilib, o'rganilayotgan vohaning o'zbek aholisi shakllanishini shu davr bilan bog'lanishi asoslidir.

Mil. avv. birinchi ming yillikning boshlarida vohada aholining o'troqlashuvi kuchayadi. Mil. avv. birinchi ming yillik o'rtalariga kelib Ustrushonaning sharqiy va shimoliy qismidagi adirlik va rustaklarda yashagan aholi dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaydi. Yunon manbalarida ko'rsatilishicha, mil. avv. birinchi ming yillik o'rtalarida O'rta Osiyoga kirib kelgan Ahamoniylar hukmdori Kir II tomonidan vohada chegaraviy yetti qal'a qurilgan. Demak, shu davrda shahar va qal'alar bunyod etish uchun shart sharoit yetarli bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Ustrushonada ayrim bir shaharlar mil. avv. VII va VI asrlarda shakllanib, bular Nurtepa va Qurqatlardir. A. A. Gritsinaning ta'rificha, qadimiy Sovot, Qurqat, Xo'jand, Xovos, Nurtepa, Bunjikat, Kiropol, Nurtepa va Jizzax shaharlari mil. avv. asrlardayoq, hattoki Aleksandr zamonasigacha Buyuk Ipak Yo'lida joylashgan bo'lib, antik va ilk o'rta asrlarda ham o'z faoliyatini davom ettirgan. Ustrushonada kechgan urbanizatsiya

bosqichlari haqida fikr yuritar ekan, M. X. Pardayev tojikistonlik hamkasblarining ko'p yillik tadqiqotlari xulosalariga ko'ra «Xo'jand o'rnidagi shahar antik davrdan ham avvalroq mil. av. VI-V asrlarda qad rostlagan bo'lib uning aholisi Sug'd – Ustrushona, sak-Farg'ona xalqlaridan tashkil topgan» degan yakuniy fikrga keladi.

T. O. Omonjulov «bu davrda asosiy aholi o'troqlashgan sug'diylar hisoblansada, shimoliy-sharqiy tog' yon bag'irlarida va Sirdaryo qirg'oqlarida ko'chmanchi shak (sak) qabilalari yashagan»ligini ta'kidlaydi. Sirdaryo sohillarida va janubiy dasht atroflarida yashagan aholi shaklar konfederatsiyasiga aloqador bo'lib, T. X. Xodjayovning fikricha, antropologik jihatdan yevropoid irqiga mansub bo'lishgan. O'troqlashgan aholi bilan chorvadorlar uzviy – iqtisodiy va ijtimoiy aloqada bo'lishib, bir-birlari bilan hamjihatlikda yashashgan.

2. Antik davrda Ustrushonadagi etno migratsion jarayonlar.

Bu holat vohada Aleksandr Makedonskiy bosqini va yunonlarga qarshi kurash davrida ham yaqqol seziladi. Yunon muarrixlari o'lka aholisini umumiy nom bilan «Yovvoyilar» («varvar») deb atashgan. Kvint Kursiy Ruf o'lkadagi asosiy shaharlardan biri Kiropolni qattiq turib yunon-makedonlardan himoyalagan «kuchli memakenlar qabilasi» haqida yozib qoldirgan I. V. Pyankovning fikricha, markazi Kiropol bo'lgan butun voha aholisi «memakenlar» deb atalgan. Chamasi memakenlar viloyatning qadimgi aholisi tarkibiga kirgan qabilalardan birining nomi bo'lib, keyinchalik bir-biriga yaqin bo'lgan qabilalarning umumiy nomi darajasiga yetgan va vohaning eng qadimgi elatini tashkil etganlar. Mazkur xulosalar Ustrushona davlatining hududida boshqaruv dastlab mahalliy memakenlar qo'lida bo'lganligidan dalolat beradi. Qadimshunos olimlar Nurtepa shahar manzilgohini memakenlarga xos madaniyat sifatida e'tirof etadilar.

Yunon-makedon bosqini tufayli mil. avv. IV asrda Kiropol, Gaz, Nur, Sovot, Kurkat va boshqa aholi markazlashgan qo'rg'onlari inqirozga yuz tutdi. O'troqlashgan aholining ma'lum qismi qadimgi

Choch va Davon hududlariga ko'chib ketishga majbur bo'lishgan. Mil. avv. birinchi ming yillikning oxiri va milodning boshlariga kelib, yunon-makedonlar talofati ta'siri tugagandan keyin, osoyishtalik sababli vohada hayot yanada jonlanadi. Ustrushonaning g'arb va sharq ipak yo'li savdo tarmog'ida joylashgani sababli ilk o'rta asrlar davrida yirik savdo iqtisodiy markazlar yuzaga keladi. Shu tariqa, O'rta Sirdaryo havzasida yangi bir davlatchilik boshqaruvi yuzaga keladi.

Mil. avv. II-I-asrlarda Qang' davlatining shakllanishi jarayonida vohaga sharqdan qang'arlar, Shimoliy Tyan-Shan va Oloy hududidan usunlar kirib keldi. Sarmatlar ko'proq yevropoid qiyofada, qang'arlar va usunlarda esa mo'g'uliy qorishma sezilarli darajada bo'lgan. Shu tariqa Sirdaryoning o'rta sohillarida sharqiy, janubiy va g'arbiy tomonlardan ko'chib kelgan qabilalar aralashuvi asosan xunlar davrida kuchaygan. Mil. avv. 140–130 yillarda Sharqiy Turkistondan chiqqan yuechjilar Davon, Ustrushona va Sug'duyona viloyatlari hududidan o'tib, O'rta Osiyoning janubiy mintaqalariga kirib bordilar va kushonlar saltanatiga asos solishdi.

Mil.avv. I asrdagi «Xan shu» nomli Xitoy yilnomasi ma'lumotlariga ko'ra, Kushon davlatiga asos bo'lgan ilk yer egaliklari hozirgi Xo'jand bilan Bekobod o'rtasida joylashgan ekan. Hindikushdan tortib Yettisuvgacha, Tojikistondan toki Sharqiy Turkistongacha tarqalgan «noma'lum yozuv» yodgorliklarini tadqiq qilar ekan, N. Rahmonov va B. Matboboyevlar, K. Papen va E. Ratveladzelarning «noma'lum yozuv yuechji qabilasiga mansub» degan qarashlariga asoslanib «turkiy–run yozuvlarining qadimiy vatani bugungi O'zbekiston» yoki «Turkiy yozuvni vatani bugungi O'rta Osiyo» degan fikrga keladilar.

Yozuv mavjud bo'lgan davr mil.avv. V–IV asrlardan to milodiy VII–VIII asrlarni qamrab olib, mazkur fikrlarga ko'ra yuechjilar dastlab markaziy Osiyoda yashaganlar. Farhod GESi qurilishi paytida, 1947-yilda Bekobodda Qoramozordan topilgan turkiy yozuv (milodiy V–VII asrlar) Isfara yozuvlari (milodiy VI–VIII asrlar) N. Rahmonov va B. Matboboyevlar tomonidan «Kushon davlatidagi

yoʻzuv anʼanasining davomi» sifatida qaraladi. Mil. avv. II va milodiy I asrlarda Sirdaryoning oʻrta qismi va uning shimolidagi viloyatlarda bu yerlarga kelib oʻrnashgan va sugʻdiy tilli aholining turkiylashgani hisobiga turkiyzabon xalqlar koʻpchilikni tashkil etgan.

Sirdaryoning oʻrta havzalari sugʻdiy va turkiy qabilalari chegarasi boʻlmay qoldi. Bugungi kunda mahalliy aholining antropologik qiyofasi, turmush tarzi va faoliyatini kuzatilsa hududda yevropoid, mongoloid va aralash irqiy tafovutlarni koʻramiz.

Antropolog olim T. K. Xodjayov fikriga koʻra, Mirzachoʻlning sharqiy qismida, Toshkent vohasi chegaralarida Qovunchi madaniyati vakillari mil. avv. I ming yillik oxirlari va milodning boshlarida yashagan boʻlib, ular yevropoid va qisman mongoloid qiyofada boʻlgan. Sirdaryoning janubiy sohillarida «Oʻrta Osiyo ikki daryo oraligʻi» tipiga oid qabilalar yashagan boʻlib, ularda yevropoidlik belgilari kuchliligi seziladi. Xoʻjand yaqinidagi Qayragʻoch qabristonidan topilgan suyaklar, Oʻrta Osiyo ikki daryo oraligʻi tipini eslatadi. Isfara atrofidan 6 ta qabriston ashyoviy dalillari moʻgʻuliy elementlarsiz sof Oʻrta Osiyo ikki daryo oraligʻi tipini bergan.

Professor. T. K. Xodjayovning xulosalariga koʻra, «Oʻrta Osiyo ikki daryo oraligʻi tipi» turkiy va sugʻdiy tili qabila va elatlarning qadimgi tiplari asosida, ularining uzoq davom etgan etnomadaniy qorishuvi natijasida Sirdaryoning oʻrta havzalarida antik davrda tarkib topganligi aniqlandi. Hozirgi oʻzbeklar va voha tojiklari «Oʻrta Osiyo ikki daryo oraligʻi» tipiga kiradilar. «Buyuk choʻl»dagi ogʻir ekologik sharoit, turli siyosiy voqealar natijasida, milodiy III-IV asrlardan boshlab Oʻrta Osiyoga, jumladan Ustrushona hududiga koʻchmanchi chorvador xalqlarning kirib kelishi kuzatiladi.

3. Ilk Orta asrlar davrida etnik jarayonlar.

Eftaliylar va ayniqsa Turk xoqonligi davrida bu jarayon yanada kuchayadi. Ilk oʻrta asrlarda Ustrushonada aniq hududiy chegaralanish yuz beradi. Mamlakatning maʼmuriy va madaniy markazi Bunjikat poytaxt maqomini oladi. Ustrushonada davlat

boshlig'i bo'lmish hukmdorlarni afshinlar deb atashgan. Afshinlar sulolasi hukmronligi o'lkani 893-yilda somoniylar davlati tarkibiga kirishi bilan tugatiladi.

Ustrushonaga VII asrdan boshlab Sug'd tomondan qarluq qavmi kirib kela boshladi. Arablardan quvilgan qarluqlar Badaxshon va Qorako'l hududlariga ko'chib o'tishgandan keyin, asta-sekin Buxoro orqali Samarqandga, keyinchalik O'ratepa atroflariga kelib joylashganlar. O'rta Osiyo G'arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kirgan davrda, nazariy jihatdan mahalliy aholida mo'g'uliylik oshishi kerak bo'lgan bir paytda, buning aksi kuzatiladi. Buning ikki sababi bor edi: birinchidan vohaga o'rnashgan barcha turkiylar mo'g'uliy qiyofada emas edi, ikkinchidan arab bosqini turkiy tilli qabilalarning sharqdan doimiy ravishda kirib kelishini to'xtatdi yoki susaytirdi.

Arablar istilosidan keyin o'lkada urbanizatsiya jarayonlari turg'un holatda bo'lgan. Mazkur holni M. X. Pardayev «ehtimol bunga yangi din, islomni tarqalishi, xalifalik xazinasi to'lanadigan bir yillik hiroj (50 ming fulus) va turli jangu-jadallar sababli aholining ma'lum qismini Sirdaryoning o'ng sohiliga o'tib ketganligidir» deb izohlaydi. S. T. Klyashtorniyni farazicha Sirdaryoni o'rta oqimida VII asrning o'rtalarigacha pecheneg (bijanak)lar o'rnashgan.

VIII asrning o'rtalaridan o'g'uz chorvodor qavmi vohaga kirib kela boshlaydi. Ular Sirdaryoning o'rta va quyi qismi oqimlariga, Orol dengizining janubiy-sharqiy va shimoliy-sharqidagi cho'llarida joylashgan edi. O'g'uzlar VIII-IX asrlar davomida Sirdaryo va Orol dengizi yaqinidagi hududlarda yirik qabila ittifoqini tashkil etadilar. IX asr oxirlarida bu qabilani ittifoqi asosida o'g'uz davlati vujudga keldi.

Sirdaryoning o'rta sohili Mirzacho'l hududlarida o'g'uz chorvodor qavmlari bu davrda o'rnashib hukmron mavqega ega bo'ladilar. A. A. Gritsina Gulistondagi O'lkansoylik qo'rg'onini o'g'uzlar qabilasi boshlig'ining mozori bo'lishi mumkin deb ta'kidlaydi. Somoniylar sulolasidan bo'lgan Muntasir va qoraxoniylar ilaki o'rtasidagi hal qiluvchi jang Mirzacho'l hududida Xushkat (Nurota yodgorligi) shahri yaqinida bo'lib voha aholisi anchalik

aziyat chekadi. O'lkada qoraxoniylar hukumronligi o'rnatilgandan keyin chorvador chigil, yag'mo, arg'in, tuxsi kabi qavmlar vohaga kirib kela boshladi.

O'lkada yangi manzillar shakllanib bu xol mo'g'ullar bosqiniga qadar davom etdi. K. Shoniyozovning yozishicha, bir qismi Oltoydan g'arbgga ko'chishi jarayonida Dashti Qipchoq orqali Sirdaryoning quyi va o'rta havzalariga yoyilgan qipchoqlardan iborat bo'lgan va ular o'g'uzlar bilan ixtilofiy holatda bo'lganlar. Qipchoqlarning bir guruhi «Hudud al-olam»da «andar az-qipchoq» deb atalgan. «Andar az-qipchoq»lar Sirdaryo bo'ylarida yashovchi o'g'uz qabilalariga vaqti-vaqti bilan hujum qilib turganlar. Qipchoqlar hujumiga bardosh bera olmaganlar o'g'uzlarning salmoqli qismi Sirdaryo bo'ylarini tashlab g'arbgga ko'chib ketishga majbur bo'ldilar.

XI asr boshlarida qipchoqlar Sirdaryo o'rta qismini to'liq egalab «Sirdaryo bo'yi qipchoqlari» degan etnik uyushmani tashkil etgan, ularning tarkibigi bijanak (pecheneg), arg'u, tuxsi va o'g'uz etnik elementlari ham kirgan. Bular XI asrning birinchi yarmida boshlab O'rta Osiyoning markaziy hududlaridagi etnik uyushmalarga va siyosiy tuzilmalarga o'z ta'sirini o'tqazib, ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadilar.

Aynan shu davrda Xorazmni yirik va mustahkam davlat darajasiga ko'tarishga intilgan xorazmshohlar Sirdaryo bo'ylaridagi qipchoqlar bilan ixtilofda bo'ldilar. Qipchoqlarning ayrim bo'laklari Xorazmshohlarga tobe bo'lsalarda, asosiy qismi Ayir Tukixon boshchiligida kurashni davom ettiravergan. Xorazmshoh Muhammad 1200-1220 yillarda qipchoqlarga qarshi bir necha marotaba harbiy yurishlar uyushtiradi, faqatgina 1215 yilda qipchoqlarga qattiq talofat yetkazadi va ular Sirdaryoning shimolidagi bepoyon cho'lliklarga chekinishadi.

Akademik K. Shoniyozov «O'zbek elati IX-X asrlarda shakllandi» deb hisoblaydi. Akademik A. Asqarov esa «o'zbeklarning etnogenezi XI asrgacha davom etadi. XI-XII asrlarda o'zbek xalqi uzil-kesil shakllandi» degan fikrni olg'a suradi.

Yuqorida keltirilgan tarixiy dalolatlar qadimiy Ustrushona hududida o'zbek tilida so'zlashuvchi qorluq-chigil, qipchoq va o'g'uz lahjalariga xos urug'-qabilalarning qadimdan yashaganligi, voha o'zbeklarning etnogenezida ishtirokini ko'rsatadi.

Mavzu bo'yicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Ustrushona hududi tarixiy jihatdan qanday etnik guruhlar yashagan hudud sifatida tanilgan?
2. Mirzacho'l vohasining qadimgi etnik shakllanishiga qanday asosiy omillar ta'sir ko'rsatgan?
3. Antik davrlarda Ustrushona aholisi qanday xo'jalik faoliyati bilan shug'ullangan?
4. Arab istilolari davrida aholi tarkibida qanday etnik o'zgarishlar yuz bergan?
5. Turkiy va eroniy elementlarning o'zaro ta'siri qanday izohlanadi?
6. Arxeologik manbalar Mirzacho'l hududidagi etnik guruhlar haqida qanday ma'lumot beradi?
7. Til o'zgarishlari va diniy e'tiqodlar etnik shakllanishga qanday ta'sir qilgan?
8. Ustrushona tarixida etnik qatlamlarning shakllanishi qanday bosqichlarda yuz bergan?

Amaliy savollar.

1. Ustrushona hududidagi qadimgi qabristonlar asosida aholi etnik tarkibini tahlil qiling.
2. Tarixiy xaritalardan foydalanib, Mirzacho'lning etnik tarkibidagi o'zgarishlarni ko'rsating.
3. Mirzacho'l vohasidagi yozma manbalar asosida etnik guruhlar harakatini aniqlang.
4. Turkiy va eroniy qavmlarning bir hududda yashashiga oid misollarni tahlil qiling.
5. Etnik integratsiyaning mahalliy madaniyat va urf-odatlariga ta'sirini o'rganing.

6. Antropologik ma'lumotlar orqali qadimgi Ustrushona aholisi haqida xulosa chiqaring.
7. Til o'zgarishlarini aniqlash uchun toponimik va onomastik misollar tahlil qiling.
8. Mirzacho'l aholisining etnik tarixini mahalliy folklor va og'zaki rivoyatlar asosida o'rganing.

Munozarali savollar.

1. Ustrushona aholisi ko'proq turkiylashganmi yoki eroniylashganmi?
2. Arab istilosi davrida yuz bergan madaniy va diniy o'zgarishlar – inqirozmi yoki uyg'onishmi?
3. Ko'chmanchi va dehqon aholining o'zaro integratsiyasi qanday tarixiy oqibatlarga olib kelgan?
4. Mirzacho'l aholisining etnik shakllanishini asosan migratsiya bilan izohlash to'g'rimi?
5. Tarixiy etnik tarkib bugungi demografik holatga qanday asos bo'la oladi?
6. Mahalliy madaniyat etnik o'zgarishlarga qanday darajada bardosh bera olgan?
7. Ustrushonadagi arxeologik topilmalar etnik tarixni to'liq yoritadimi?
8. Dastlabki islomlashuv etnik yodgorliklarning yo'qolishiga sabab bo'lganmi?

TEST.

1. Qadimiy Ustrushona hududida qaysi etnik guruhlar asosiy aholini tashkil qilgan?
 - A) Saklar va massagetlar
 - B) Eroniylar va turkiylar
 - C) Arablar va mo'g'ullar
 - D) Slavyanlar va yunonlar
2. Arab istilosidan keyin Mirzacho'l vohasida qanday ijtimoiy o'zgarishlar yuz bergan?
 - A) Hunarmandchilik yo'qolgan

- B) Islom dini asosiy e'tiqodga aylangan
 C) Ko'chmanchilik kuchaygan
 D) Qadimgi yozuvlar qayta tiklangan
3. Mirzacho'l aholisining etnik shakllanishida migratsiya qanday rol o'ynagan?
 A) Faqat ichki omil sifatida
 B) Muvozanatli omil bo'lgan
 C) Asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida
 D) Hech qanday rol o'ynamagan
4. Til o'zgarishlari qaysi davrda etnik shakllanishga eng ko'p ta'sir qilgan?
 A) Sovet davri
 B) Arab istilosi davri
 C) Temuriylar davri
 D) Mustaqillik davri
5. Ustrushona hududi qachon islomlashgan?
 A) VIII asrda
 B) XI asrda
 C) XIII asrda
 D) XV asrda

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
3. F.E.Toshboyev. *Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi*. – Toshkent: 2021.
4. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
5. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.

6. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи. Тошкент. Университет. 1995. –Б. 92

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Alibekov U. Y. From the ethnic history of the population of Ustrushana. Novateur Publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 - 4230, volume 7, issue 4, Apr. - 2021.
2. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
3. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
4. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
5. Л.Н.Гумилев. Этногенез и биосфера Земли. - Л. 1989.
6. Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент. Фан. 2001. 14-15 бетлар.
7. Atkin, Muriel. *The Subtlest Battle: Islam in Soviet Tajikistan*. University of Pennsylvania Press, 1993.

6-MAVZU. QADIMGI USTRUSHONA (MIRZACHO'L) AHOLISNING ANTROPOLOGIK XUSUSIYATLAR

Asosiy savollar:

1. Yurtimizda antropogenez jarayoni.
2. Ustrushona aholisining qadimgi qiyofasining shakllansishi.
3. Antik davrdagi migratsion jarayonlar va antropologik qiyofalardagi o'zgarishlar.

Tayanch iboralar. Ustrushona, qadimgi aholi, antropologiya, kraniologiya, antropometrik o'lchovlar, irqiy turlar, turon irqi, evropoid xususiyatlar, O'rta Osiyo antropologik tipi, aralash irqiy belgi, ko'chmanchilar, skif, sak davri, turkiy elementlar, suyak topilmalar, arxeologik yodgorliklar, yuz tuzilishi, bo'y, antropologik qatlam.

1.Yurtimizda antropogenez jarayoni.

Qadimshunos professor M. Jo'raqulov va antropolog professor T. K. Xodjayovlarning ilmiy tahlillariga ko'ra, neolit davri Sazag'on, eneolit davriga oid Sarazm, Bronza davri Zamonbobo, Mo'minobod va Chaka kabi manzilgohlardan topib o'rganilgan antropologik tiplar tahliliga ko'ra yevropoid irqining O'rta yer dengiz tipi vakillari bo'lishgan. Ular uzun boshliligi, betining tor va cho'zinchoqliligi, keskin suratda ko'tarilgan burunlari bilan Bronza davri Kavkaz, Old Osiyo, O'rta Osiyoning janibiy mintaqalari, shimoliy-garbiy Hindiston aholisiga o'xshaydi deb etirof etishgan tadqiqotchilar¹. Antropolog olim V. V. Ginzburgning tahlillariga ko'ra O'rta Osiyo ikki daryo oraligi qadimgi antropologik materiallari bronza davrida hozirgi Tojikiston va O'zbekiston (Farg'ona vodiysi janubiy qismi)da O'rta yer dengiz tipi aholisi yashagan bo'lib ularning kelib chiqishi (genetik) jihatdan Old Osiyo aholisi bilan bo'g'liq bo'lgan².

¹ Jo'raqulov M.J. Xodjayov T.K Zarafshon vohasining etnik shakllanishi tarixidan. Samarqan: Samdu nashriyoti, 1990,30-b

² Ginzburg V.V. ,Trafimova T.A. Paleontologiya sredniy Asii Moskva 1972.Xodjayov T.K Etnichiskei protsesi v Sredni Asii v epoxu Sredniekovya Toshkent 1987 C 51-52

Mil. avv. VI-V asrlarga taalluqli manzilgohlardan O'rta yer dengizi tipi va mongoloid xususiyatlariga ega odamlarning antropologik qoldiqlari topila boshlaydi. Bu o'zgarishlar mil. avv. V-IV asrlardan xalqlarning buyuk ko'chishi bilan bog'lanadi.

Antrapologik tadqiqotlar Sirdaryoning o'rta va quyi havzasiga g'arb o'lkalaridan kirib kelgan sarmatlar, sharqdan kirib kelgan qangarlar, shimoliy Tyan-shan va Oltoy hududidan kirib kelgan usunlar haqida ma'lumot beradi. Sarmatlarning qiyofalari ko'proq yevropoidlikka xos bo'lsa, qangarlarning va usunlarning qiyofalarida mo'g'iliy elementlar bor edi. Bekobod va Shirin shaharlarida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eramizning boshlarida bu hududda Erondan siljigan Xuroson, Ural-Oltoy guruhi, Hindiston shimolida yashagan yevropa-dravid antropologik guruhi vakillarini uchratsih mumkin bo'lgan. Shu davrda o'lkamizda yevropoid irqining o'zbeklarga xos O'rta Osiyo ikki daryo oraligi tipi shakllandi.

Janubiy Tojikiston o'zbek turklarini va qarluqlarning jismoniy qiyofasini o'rgangan antropolog L. V. Oshaninning tahlillariga ko'ra, ularning qiyofasida mongoloid belgilari yo'q. Ular tipik O'rta Osiyo ikki daryo oraligi tipiga mansub yevropoidlardir¹. L. V. Oshanin qarluqlar qiyofasida, etnograf M. F. Gavrilof shahriston turklari qiyofasida² Old Osiyo xalqlariga xos belgilarni ko'rishgan.

2. Ustrushona aholisining qadimgi qiyofasining shakllansih.

Arxeologiya fani bir qator fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan, jumladan antropologiya fani bilan. Etnik antropologiya fanida keng tarqalgan va chuqur isbotlangan nazariyaga ko'ra, biror xalqqa xos til va madaniyat, shu xalq tarqalgan hududdan kengroq maydonga tarqalishi mumkin. Bu jarayonda til va madaniyat irqiy belgilar bilan bir qatorda tarqalishi shart emas. Chunki xalqlar orasida savdo-sotiq, almashuvlar, o'zaro madaniy aloqalar natijasida til, moddiy va ma'naviy madaniyat belgilari bir-biriga o'tib, almashinib turish holati mavjud. Bu borada arxeologik va etnografik

¹ Ошанин Л.В. Антропологический состав и вопросы этногенеза таджиков и узбекских племён Южного Таджикистана. Сталинабад, 1907.

² Гаврилов М.Ф. Материалы этнографии "тюрок" Ура-Тюбинского района. Ташкент: САГУ, 1929. С. 9.

tadqiqot olib borayotgan olimlarning asosiy vazifalaridan biri qadimgi xalqlar orasidagi aloqalar madaniy aloqalarmi yoki genetik-biologik aloqalarmi? Ya'ni boshqa biror xalq vakillari mahalliy xalq yashab turgan joyga kelib qolganmi? Shuni aniqlashdir.

Shuning uchun ham arxeologik, etnografik va lingvistik izlanishlarda antropologik dalillarga suyanganda ish olib borish ancha aniq ilmiy ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Qadimgi Ustrushona aholisining antropologik tarixi to'g'risida shu paytgacha antropologlar tomonidan tarqoq holda ilmiy ma'lumotlar olingan. Shunga bog'liq holda bo'lsa kerak, umumlashgan ilmiy xulosalar hozirgacha berilmagan. 1943-yili Ustrushona hududida, Sirdaryoning chap qirg'og'ida Bekobod shahri yaqinida joylashgan Shirinsoy qabristonidan II-IV asrlarga oid anchagina odam suyaklari olib o'rganilgan. Bu ashyolarni tekshirish natijasida Bekobod aholisi tarkibida uchta irqiy guruh mavjud ekanligi asoslangan. Bu yerda O'rta Osiyoning janubida va Eronda tarkalgan Xuroson antropologik tipi Bekobod aholisi tarkibida uchta irqiy guruh mavjud ekanligi asoslangan.

Bu yerda O'rta Osiyoning janubida va Eronda tarqalgan Xuroson antropologik tipi vakillari, O'rol va Oltoy tog'lari oralig'ida yashovchi qabilalarga xos mug'uliy tip va Hindistonda yashagan qabilalarga xos yevropa-dravid tipi kiyofadagi odamlardan tashkil topgani aniqlangan. T. K. Xo'jayov esa, «bu aholi tarkibida uchta tipni ajratish nihoyatda mushkul ish, ammo qadimgi Bekobod aholisi tarkibi bir necha antropologik guruhlardan tashkil topganiga biz ham ishonch hosil qildik», deb yozadi.

A. A. Gritsina tomonidan Zomin tog' o'rmon xo'jaligi hududida o'rganilgan mil. avv. II-I asrlarga oid, tosh yashik ko'rinishida bo'lgan va yomg'ir suvi yuvib ketishi natijasida ochilib qolgan qabrdagi marhum bosh suyagi esa muallifning ta'kidlashicha, "O'rganishlar tahlilga ko'ra jasadlar bosh chanoqlarida sun'iy deformatsiyaga uchragan holatlar ko'p» shaklida bo'lgan. T. P. Kyatkina, Shahrustonning shimoliy etagida joylashgan Maydonisoy mozorqo'rg'onlaridagi, mil. II-IV asrlarga oid jasadlarning

antropologik tuzilishi yevropoid mezobraxikran ekanligini aniqlagan.

Zomin tumani, G'ulbog' mozorqo'rg'onlarida Yevropa irqining braxikefal tipi ko'p uchrasada, yevropoid mezobraxikran ko'rinishdagi aholi vakillari bosh suyaklari, Xovos yaqinidagi Sag'anoq qabrlarida esa, mezokran, O'rta dengiz bo'yi tipiga xos vakillari o'rganilgan. 2020-yilda Sh. Rashidov tumanidagi, Sayxonsoy mozorqo'rg'onlarida mil. avv. II-I asrlarga oid katakomba qabrida 5 nafar jasadning bosh chanoqlar deyarli butun holda olinib, O'z RFA Milliy arxeologiya markazining Samarqand laboratoriyasiga o'rganish uchun (S. Mustafoulovga) topshirildi. Endi o'rganilayotgan bu bosh chanoklarda ham bir qaraganda aralash xususiyatlar kuzatiladi.

Antropolog T. P. Kyatkina, A. K. Mirboboyev tomonidan o'rganilgan milodiy III-VI asrlarga oid Kurkat skleplaridagi 412 ta jasadning bosh suyaklarini o'rganib, ular haqida quyidagicha xulosa bergan «olingan kraniologik materiallarda juda ko'p sun'iy deformatsiyaga uchragan bosh chanoqlar mavjud. Ulardagi deformatsiya aylana shaklda bo'lib, turli xil tiplarning aralash ko'rinishiga ega». Demak, Ustrushonada antik davrga kelib, kishilar qiyofasida aralash (deformatsiyaga uchragan) xususiyatlar va «O'rta Osiyo ikki daryo oraligi tipi»ga xos ko'pgina belgilar yoyilgan. Bu esa, Ustrushonada o'rganilgan jasadlar bosh chanog'idagi shakl o'zgarishlarini asosiy bosqichi antik davrda sodir bo'lganligini ko'rsatadi.

To'plangan antropologik ma'lumotlar Ustrushonada mil. avv. I ming yillikning so'nggi choragida qabilalarning shiddatli harakati kechgan davr bo'lganligini va mil. avv. II-I asrlarda Ustrushonada aralash tip vakillari yashaganligini ko'rsatmoqda. Ya'ni, krionologik materiallarda dashtliklar va mahalliy aholi qiyofasini aks ettiruvchi murakkab tarkib qayd etilgan.

T. K. Xo'jayov tomonidan antik davrda yurtimizda yashagan va kirib kelgan aholining antropologik tipi va ularning o'zaro genetik aloqalari tahlil qilingan. Olimning yozishicha, sarmat qabilalari

vakillari yevropoid tipi bilan tavsiflanib, tarkibida Andronovo, Old Osiyo, O'rta yer dengizi tiplari va bundan tashqari, Pomir-Farg'ona tipi borligi aniqlangan. Ko'rib turibsizki, kelib chiqishi har xil bo'lgan guruhlar sarmat qabilalarining asosini tashkil etgan. O'rta Osiyoning mahalliy aholisi hisoblangan saklar tasviri aks etgan haykalchalar, o'rganilgan jasadlar antropologik xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, saklar chuqur ko'zli va qirraburun bo'lganlar».

3. Antik davrdagi migratsion jarayonlar va antropologik qiyofalardagi o'zgarishlar.

Antik davrda o'lkamizga kirib kelgan usunlarning tashqi qiyofasiga e'tibor qaratsak, ular ko'kko'z va qizil soch bo'lgan. G'arbiy mamlakatlar ichida usunlarning sirtqi ko'rinishi farqlanib turar edi. So'nggi yillarda topilgan usunlarning bosh suyaklarini o'rganish natijasiga ko'ra, ular saklar bilan nihoyatda yaqin bo'lgan. Usunlarning bosh suyagi yumaloq bo'lib, peshona qismi bir oz oldiga chiqqan, ko'zlari chuqur joylashgan, burni qirra, yuz qismi yo'g'on va bir oz chiqqan. Ular ekin ekmaydi, daraxt o'stirmaydi, xunlarga o'xshab, o't o'lan ko'p joylarda yashaydi. Ularning mamlakatida ot ko'p boqiladi, boylarning otlari 4-5 ming boshdan oshadi.

Yuechji ruziye (g'uzer)liklarning sirtqi qiyofasi yevropoidlarga xos, ya'ni ko'zlari chuqur, burunlari qirra, badanining rangi oq bo'lgan. Tarixiy yozma va arxeologik ma'lumotlar antik davrda Sirdaryo bo'ylariga kirib kelgan xalqlardan nufuz jihatidan ko'pchiligini xunlar tashkil etishini ko'rsatmoqda. Ko'plab xorijlik jumladan, Xitoy arxeologlari tomonidan Tangritog' etaklari, Xitoyning Shensi o'lkasining Shian va Chan'an viloyatlari, Oltoy, Mo'g'uliston, Lobnor va Turfon atroflarida topib o'rganilgan xunlarga mansub kabrlardagi mil. avv. davrga taalluqli jasadlari va ularning bosh suyagini o'rganish natijasida olingan xulosalariga qaraganda, xunlar tashqi qiyofasi yevropoidlarga o'xshash bo'lib, boshqa turk qabilalari namoyandalari kabi nihoyatda baland bo'yli, yo'g'on va suyaklari yirik odamlar bo'lgan. Ularning burni qirra, yuzlari tiniq oq kelgan. Mil. VI asrda yashagan Rim tarixchisi

Prokopiyning Orol dengizining kun chiqish tomonida yashovchi xunlarning rangi oqligiga qarab, ularni «oq xunlar» deb bejiz atamaganligi ko'rinadi. Demak antik davrda kirib kelgan xalqlarning barchasi ham mo'g'ul qiyofaga ega bo'lmaganligi anglanadi. Qangyuyliklarning ham tarkibida O'rta yer dengizi, Pomir-Farg'ona tiplari, shak qabilalariga xos yevropoid tipi va mo'g'uliy belgilarni o'zida ancha mujassamlashtirgan janubiy sibir antropologik tiplari aniqlangan.

Mashhur antropolog T. Q. Xo'jayov ko'p yillik izlanishlari mobaynida «O'rta Osiyo ikki daryo oraligi tipi»ning shakllangan zamon va makonini aniqlashga erishadi. Ushbu olimning xulosasiga ko'ra, «O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi» antik davrda, ya'ni turkiy va so'g'diy tilli qabila va elatlarning qadimgi tipi asosida, etnomadaniy ko'rishuvi natijasida mil. avv. I ming yillikning oxiri, milodiy eraning boshlarida Sirdaryoning o'rta havzasida tarkib topgan. Bu mahalliy aholi (so'g'diylar va turkiylar ajdodlari) Sharqiy O'rtayer dengizi vakillari (ko'proq dalixakefal) tarkibiga antik davrda, shimoldan juda ko'plab braxikefal bosh chanoqli yevropoid tipidagi aholi kelib qo'shilishi va etnik ko'rishuvi natijasida sodir bo'lgan. Bu jarayon xronologik jihatdan uzoq davr, ya'ni mil. avv. VI asrdan to milodiy V asrgacha davom etgan».

Ma'lumki, milodning birinchi asrlaridan boshlab Qovunchi madaniyatiga xos ashyolar hozirgi Jizzax, Samarqand, Buxoro va Qashqdaryo hududlarida uchraydi. Sug'dning barcha hududidagi antik va ilk o'rta asrlar davriga oid yodgorliklarda Qovunchi madaniyatining ta'siri kuchli seziladi. Keyingi, ilk O'rta asrlardagi tarixiy jarayonlar natijasida Ustrushonaning sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan o'troq yevropoid (dolixokefal) tipiga mansub bo'lgan aholisi antik davrda va undan oldin, kirib kelgan braxikefal tipi bilan aralashib boshlaydi. Umuman, Ustrushona aholisining antropologik qiyofasini chegaradosh hudud O'rta Sirdaryo bo'yi mintaqasidan alohida ko'rinishda shakllangan deb bo'lmaydi. Keyingi ilk o'rta asrlar davridagi (Qovunchi madaniyati) ta'sirlar natijasida

Ustrushona aholisi qiyofasi ham aniq bir ko'rinishga ega bo'lib borganligi ko'rinadi.

Shuni hisobga olish kerakki, Sirdaryoning o'rta oqimlarida tarqalgan Qovunchi madaniyati bilan Sirdaryo quyi oqimida shakllangan Jetiasar jamoalari (asosan, sarmatlar) kuchli etnik munosabatda bo'lgan va ular aholisi ham murakkab antropologik tarkibga ega. Bu yerda ham mug'uliy, qadimgi sak aholisiga xos Pomir-Farg'ona tipi va janubiy O'rta Osiyoda keng tarqalgan O'rta yer dengizi tipi vakillari ko'plab uchrab turadi. Bu esa Qovunchi va Jetiasar madaniyatlari aholisining bir-biriga yaqinligini ko'rsatish bilan bir qatorda, ikkala hudud aholisi ham bir xil etnik jarayonlarni boshidan kechirganligidan darak beradi.

Shunday qilib, Ustrushonada qadimgi davrdan boshlab turkiy qabila va elatlarning mahalliy tub aholi bilan jadal qorishib borishi kuzatiladi. Bu esa ikki til va ikki xo'jalik vakillarining yaqinlashuviga sabab bo'lgan. Keyinchalik, ilk o'rta asrlarga kelib, aksariyat turkey zamon chorvador, dehqon va hunarmand aholidan iborat yirik hududiy birlik tashkil topadi. Natijada, ungacha bu yerga kelib o'rnashib qolgan (sarmat, yuyechji, xun, usun va ilk o'rta asrlarda kirib kelgan) turkiy qabilalarning mahalliy aholi bilan aralashib ketish jarayoni tezlashdi va bu shimoliy va sharqiy mintaqalarda yaqqol ko'zga tashlandi. Arablarning O'rta Osiyoga bosqini turkiy qavmlarning mazkur hududga jadal kirib kelishini vaqtincha to'xtatdi. Lekin u etnik qorishuvni to'xtata olmadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Qadimgi Ustrushona aholisining etnik tarixi va uning asosini tashkil etuvchi antropologik xususiyatlari bugun o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb mavzulardan biridir. Bu borada umumlashgan aniq ilmiy fikr aytish uchun esa Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida joylashgan mozorqo'rg'onlarni arxeologik o'rganishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu mozorqo'rg'onlar materiallaridan jasadlar antropologik xususiyatlarini o'rganish va ilm-fan muomalasiga olib kirish esa, nafaqat Qadimgi Ustrushona tarixi balki, O'zbekiston tarixi uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Antropologiya fanining asosiy tadqiqot yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Qadimgi Ustrushona aholisining antropologik tuzilmasini qanday belgilar orqali aniqlash mumkin?
3. Turan irqi va Europoid irqiy elementlar o'rtasidagi asosiy farqlar nimalarda ko'rinadi?
4. Antropologik tahlillarda kraniologiyaning roli qanday?
5. Ustrushona hududida aniqlangan antropologik topilmalar asosan qaysi davrga oid?
6. Ko'chmanchi va mahalliy aholi o'rtasida antropologik xususiyatlar qanday farqlangan?
7. O'rta Osiyo antropologik tipining shakllanishiga qaysi irqiy guruhlar ta'sir ko'rsatgan?
8. Antropologik o'zgarishlar tarixiy migratsiyalar bilan qanday bog'liq?

Amaliy savollar.

1. Ustrushona hududida qazilgan qabristonlardagi suyak namunalarini qanday o'rganish mumkin?
2. Qadimgi aholi yuz tuzilishi va skelet tuzilmasi asosida qanday irqiy guruhga mansubligini aniqlang.
3. Arxeologik topilmalar orqali antropologik tavsiflarni taqdim eting.
4. Qadimgi antropologik qatlamni zamonaviy aholi bilan solishtirib tahlil qiling.
5. Kraniometrik o'lchovlar asosida qadimgi bosh suyaklar tipologiyasini tuzing.
6. Migratsion jarayonlar antropologik belgilar orqali qanday aniqlanadi?
7. Antropologik xarita tuzishda qaysi ma'lumotlar talab qilinadi?
8. Tarixiy va zamonaviy antropologik o'xshashliklar va tafovutlarni misollar bilan tushuntiring.

Munozarali savollar.

1. Antropologik belgilar xalqning tarixiy taraqqiyotini to'liq aks ettiradimi?
2. Irqiy tahlillarga asoslanib etnik guruhlarni aniqlash to'g'rimi?
3. Qadimgi Ustrushona aholisi turkiylashganmi yoki eroniy belgilar ustun bo'lganmi?
4. Kraniologik topilmalarni hozirgi etnik tarkib bilan bog'lash ilmiy asoslimi?
5. Antropologik tahlil ijtimoiy taraqqiyotdan mustaqil amalga oshiriladimi?
6. Odamlarning tashqi ko'rinishi ularning madaniy xulq-atvorini belgilaydimi?
7. Migratsiya antropologik belgilarni yo'q qiladimi yoki yangilaydimi?
8. Antropologik xususiyatlar o'zgarishi iqlim sharoitlariga ham bog'liqmi?

TEST.

1. Qadimgi Ustrushona aholisining irqiy tarkibida qaysi irqiy guruh ustun bo'lgan?
 - A) Mongoloid
 - B) Europoid
 - C) Avstraloid
 - D) Negroid
2. Kraniologiya fanining asosiy tadqiqot obyekti nima?
 - A) Qo'l suyagi
 - B) Tish tuzilishi
 - C) Bosh suyak tuzilishi
 - D) Yelka kengligi
3. Antropologik belgilar asosan qanday topilmalar orqali aniqlanadi?
 - A) Keramika buyumlari
 - B) Suv yodgorliklari

C) Suyak qoldiqlari

D) Qalay tangalar

4. Antropologik tiplar shakllanishiga qanday omillar bevosita ta'sir qiladi?

A) Diniy qarashlar

B) Siyosiy tizim

C) Migratsiya va tabiiy muhit

D) Yozuv va adabiyot

5. Ustrushona aholisi yuz tuzilmasi bo'yicha qanday antropologik tipga mansub?

A) Sharqiy slavyan

B) Janubiy semit

C) Turan-Europoid aralashmasi

D) Shimoliy german

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.

2. Shoniyozov, K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.

3. F.E.Toshboyev. *Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi*. – Toshkent: 2021.

4. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.

5. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.

6. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. *Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи*. Тошкент. Университет. 1995. –Б. 92

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Alibekov U. Y. From the ethnic history of the population of Ustrushana. *Novateur Publications JournalNX- A Multidisciplinary*

Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 - 4230, volume 7, issue 4, Apr. - 2021.

2. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.

3. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.

4. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.

5. Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. - Л. 1989.

6. Edgar, Adrienne Lynn. *Tribal Nation: The Making of Soviet Turkmenistan*. Princeton University Press, 2004.

7-MAVZU.QORAXONIYLAR VA XORAZMSHOHLAR DAVRIDA ETNIK JARAYONLAR

Asosiy savollar.

1. XII-XIII asr boshlariga taalluqli manbaviy ma'lumotlar tahlili.
2. Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davridagi etnik guruhlar:
 - a. Qarluqlar
 - b. Yag'molar
 - c. Qang'lilar
 - d. Qoraxitoylar
 - e. Og'uzlar
 - f. Qipchoqlar.

Tayanch iboralar. Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, etnik jarayonlar, turkiylashuv, eroniy unsur, migratsiya, siyosiy birlashuv, islomlashuv, madaniy integratsiya, ko'chmanchilar dehqonlar, o'zbeklashuv, aralash etnik tarkib, tillararo ta'sir, etnik siyosat, mahalliy elatlar, feodal kuchlar, ijtimoiy tabaqalanish.

1.XII-XIII asr boshlariga taalluqli manbaviy ma'lumotlar tahlili.

XIII asr boshlariga kelib Xorazmshohlar davlati hududi avvalgi asrlarga qaraganda ancha kengaydi. Bu o'z navbatida turli xalqlar istiqomat qiladigan yagona davlatni vujudga keltirdi. Sarhadlarning kengayishi, aholi sonining oshishiga, hamda turli xalqlarning o'zaro iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va etnik jihatdan yaqinlashishiga sabab bo'ldi.

Bu davr etnik tarixiga doir ma'lumotlar Muborakshoh, Avfiy, Juvayniy, Vassof, Juzjoni, Rashididdin kabi muarrixlarning asarlarida uchraydi. Muborakshoh qirqqa yaqin Markaziy Osiyo xalqlari tarixida o'rin tutgan urug'-qabilalar qatorida yigirmaga yaqin Voha bilan bog'liq etnonimlarni tilga olgan. Avfiy Voha va Xorazm bo'ylab sayohatlari davomida o'ndan ortiq etnonimlarni sanab o'tgan. Shuningdek, Juvayniy va Juzjoni asarlarida yigirmaga yaqin, Rashididdin asarida yigirmadan ortiq etnonimlar qayd etilgan.

Keltirilgan etnonimlarning barchasi ham yirik qabila bo'lmay, ba'zilari urug' yoki etnik guruh shaklida edi.

Bu davrda yurtimiz aholisining asosiy negizini hududda qadimdan yashab kelayotgan o'troq turkiyzabon va forsiyzabon aholi tashkil qilgan. Shuningdek, mintaqaga doimiy ko'chmanchi xalqlar kelib o'rnashgan. Ular mahalliy aholiga qaraganda kam sonli bo'lib, tezda o'troqlashgan. Xorazmshohlar davrida vohaning asosiy aholisi shahar va qishloqlarda istiqomat qilgan. XIII asr boshlarida mintaqadagi turkiy tilli etnoslar forsiy tilli etnoslarga qaraganda ko'proq bo'lgan. Buni Xorazmshohlarning o'lkamiz va Xorazm hududlaridagi qo'shini misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Ibn al-Asir, Juvayniy, Juzjoniy kabi muarrixlar yurtimiz aholisi va undan tashkil qilingan qo'shinning umumiy soni xususida ko'p o'rinlarda turkiylar ko'pchilikni tashkil qilgan, deydi. Shunga ko'ra, XIII asrda vohada istiqomat qiluvchi aholining aksariyatini turkiyzabon xalqlar tashkil etgan, degan xulosa qilish mumkin.

Ularning bir qismi qadim zamonlardan buyon o'troq hayot kechirish tarzida yashagan. Boshqa bir qismi VIII-XII asrlar mobaynida ko'chib kelgan, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi shaklda hayot kechirib, asosan chorvachilik bilan shug'ullangan. Chorvador va o'troq aholi doimo bir-biri bilan iqtisodiy, madaniy va etnik aloqada bo'lib kelgan. Mintaqadagi o'troq turkiyzabon aholi sug'd-tojik xalqi bilan qadimdan yonma-yon yashagan.

Ma'lumki, tojik va turkiy (keyinchalik o'zbek) xalqlarining aksariyati vohada joylashgan. Turkiy aholi bilan birga yashagan tojiklar turk va sug'd-tojik tillarini barobar bilganlar. Turkiy va sug'd-tojik etnoslarining har ikki tilda so'zlashishi ularning asrlar davomida bir hududda yashab, o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarni uzluksiz davom ettirishi natijasi edi. Tojiklarning ayrim guruhlari turkiy xalqlar bilan uzoq vaqt birga yashab, keyinchalik o'z tilini unutib, turkiy tilda so'zlashgan. Bu turkiylashish jarayonini yanada jadallashtirib, turkiyzabon aholini son jihatidan bir muncha ko'payishiga olib kelgan. O'z navbatida turkiy tilli etnoslarning sug'd-tojik tilini o'zlashtirishi forslashish jarayonini kuchaytirgan.

XIII-XIV asrlarda Voha va unga qo'shni o'lkalarga mo'g'ullar bilan birga ko'p sonli turkiy etnoslarning kirib kelishi avvalgi davrlarda forslashib ulgurgan etnoslarni qaytadan turklashishiga sabab bo'ldi.

2. Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davridagi etnik guruhlar.

Forsiy manbalarda qarluq, yag'mo, qang'li, qipchoq, xalaj, turk, chig'il, kujat, ig'rak, tug'o'z o'g'uz, bayot, o'g'uz, qoraxitoy kabi etnonimlar ko'p marta tilga olingan. Ular o'zbek xalqi etnogenezida ma'lum o'rin tutib, o'zbek elatining shakllanishida ham ishtirok etganlar.

a).Qarluqlar.

Bu davrda Vohadagi yirik etnoslardan biri qarluqlar bo'lib, ular Qoraxoniylarning O'zganddagi merosini va Samarqandni boshqargan. Qarluqlarning Samarqanddagi boshqaruvi Qoraxoniy Usmonning Xorazmshoh Muhammad tomonidan qatl etilishi bilan tugagan. Qarluqlarni O'zganddagi boshqaruvi XIII asr 60-70-yillarigacha saqlanib qolgan.

XIII asr o'rtalarida ulug' qoon Munkexon (1251-1259) O'zgand davlati va Farg'onani Arslonxon qarluqning o'g'liga (mo'g'ullarga xizmati evaziga) in'om qiladi. Manbalarda qarluqlarga doir ko'plab qaydlar mavjud. Qarluq hukmdorlari jabg'u va yabg'u nomini olgan. Ular urushqoq va jangari xalq bo'lib, Farg'ona, Shosh va qo'shni hududlarda yashagan. Qazviniy ularni Isfijobdan Farg'onaga qadar ulkan hududda istiqomat qilganini aytadi. Faxriddin Muborakshoh Marvaziyning yozishicha, (XII asr ikkinchi yarmi – XIII asr boshlari) qarluqlar 9 guruhga bo'lingan: uchtasi chig'il, uchtasi askali, biri bulak, yana biri gugerjin, oxirgisi tuxsi. Sa'duddin Muhammad Avfiy ham qarluqlarni 9 guruhga bo'linganini ta'kidlaydi. Ammo, Marvaziydan farqli jihatlari mavjud: uchtasi chig'illar, uchtasi xaskalilar, biri bevaviy, biri kavakiniy, biri kimaklardir. Shuningdek, ularning qishlog'i va uyi bo'lmay, o'rmonda yashagani to'g'risida ham ma'lumotlar bor.

Avfiy qarluqlarning urug'-qabila tuzilishini quyidagicha tavsiflagan: bir qancha urug' bir bo'g'inni (aymoqni), bir nechta bo'g'in qabilani tashkil etgan. Urug' boshliqlari – bek, urug' birliklarining (bo'g'in, aymoq) boshliqlari – eltibor, qabila boshlig'i – yobg'u (yabg'u), uning yordamchisi – kudarkan unvoniga ega bo'lgan. Rashididdin qarluqlarni Chingizxon davridagi yirik turk qabilasi sifatida e'tirof etgan. XIII asrda qarluqlarning bir qismi Yettisuvda yashagan. Bu yerdagi qarluqlar barcha qabilalarni birlashtirib, yirik qabila ittifoqini tashkil qilgan.

XIII asr boshlarida Yettisuvda siyosiy vaziyat keskinlashdi. Naymanlar sardori Kuchluk qoraxitoylarga hujum qilib, Qoraxitoy davlatini egallagach, qarluqlarni ham bo'ysundirmoqchi bo'ladi. Bundan xabar topgan Chingizxon barloslardan Qubilay no'yonni elchi qilib, qarluqlar xoni Arslonxon huzuriga jo'natdi. Arslonxon Chingizxonga bo'yin egib, qizlaridan birini unga tortiq qiladi. Vaholangki, biroz avval qarluqlar qoraxitoylarga ham sadoqat bildirgan edi. Qarluqlarning sadoqatsizligi uchun Kuchluk Olmaliq hokimi Buzar qarluqni o'ldiradi. Bu Chingizxonning Kuchluk ustiga yurishi uchun bahona bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, Chingizxon va mo'g'ullarga sadoqat ko'rsatgan Arslonxon boshliq qarluqlarga Munkexon Farg'ona va O'zgan boshqaruvini topshiradi.

Markaziy Osiyodagi qarluqlarning bir qismi mo'g'ullar qo'shinida xizmat qilgan. Ular mo'g'ul imperiyasida turli lavozimlarni egallagan. Rashididdinning yozishicha, qarluqlar mo'g'ul qo'shini tarkibida yirik janglarda ham ishtirok etgan. Jumladan, qarluqlar va boshqa turkiy qabilalardan iborat Malikshoh boshliq o'n ming kishilik harbiy qism 1221-yilda Xurosondagi janglarda ishtirok etgan.

b) Yag'molar.

O'rta Osiyo, xususan ikki daryo oralig'ida qarluqlar bilan yonmayon yashab kelgan etnoslardan biri – yag'molar edi. Manbalarda yag'molar to'g'risidagi ma'lumotlar nisbatan kam. Biroq bundan XIII asr boshlarida o'lkada yag'mo etnosi yashamagan, degan xulosani chiqarib bo'lmaydi. Negaki, ular XII asr oxirlarida yurtimizda,

xususan, Fargʻonaning shimoliy mintaqalarida yashagan va oʻzbek elatining etnik tarixida faol ishtirok etgan. Yagʻmolar qarluq, qangʻli, xalaj etnoslari kabi yirik qabila ittifoqiga ega edi. Ular bu davrga kelib kichik-kichik guruhlarga boʻlinib, koʻchmanchilikdan oʻtroq hayot tarziga oʻtgan boʻlishi mumkin.

Ammo Xorazmshohlar davrida yagʻmo etnosi voaha va unga qoʻshni mintaqalarda istiqomat qilgan. Manbalarda yagʻmolar toʻquzgʻuzlar tarkibida tilga olingan. Ammo, uygʻurlar tarkibida yagʻmo etnonimi uchramaydi. L. N. Gumilyov yagʻmolar teles qabila ittifoqiga kirgan, degan fikrni ilgari suradi. Biroq, olimning mulohazalari N. Y. Bichurin tarjimalarida oʻz tasdigʻini topmagan. Arab manbalarida yagʻmo aslida shaxs nomi boʻlib, keyinchalik qabilaga nisbatan qoʻllangan, deyiladi. Biroq, shunga yaqin maʼlumotlar forsiy manbalarda kuzatilmaydi. Chingizxonning ajdodlari toʻgʻrisidagi rivoyatda yagʻmo etnonimi “uymavut”, “yagʻmout” shaklida ham uchraydi. “Hudud ul olam”da “yagʻmo xalqi tarkibida 1700 qabila borligi”, aytiladi. Ammo bu maʼlumot haqiqatga toʻgʻri kelmaydi. Negaki, yagʻmolar oʻz ichiga 1700 qabilani birlashtira oladigan yirik etnos boʻlmagan. Bu davrda oʻlkamizga va qoʻshni hududlardagi biron-bir etnik guruh 1700 qabilani birlashtira oladigan kuchga ega boʻlmagan. Eng yirik koʻchmanchi etnoslar ham 100 dan ortiq qabilani birlashtirgan, xolos. VIII–XIII asrlardagi qipchoq, qangʻli, qarluq, dulu (dugʻlot), az, uz kabi koʻchmanchilarning XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Dashti Qipchoqdan oʻlkaga kirib kelgan qavmdoshlari har qancha yirik boʻlmasin, 1000 ga yaqin qabilani birlashtira olmagan. Shunga koʻra, yagʻmolar tarkibida 1700 qabilani jamlagan etnos boʻlmagan, deyish mumkin.

Haqiqatda, yagʻmolarning etnogenezi munozarali va toʻla yechim topmagan. Ular uygʻurlarga yoki teleslarga borib taqalmasin, mavjud maʼlumotlar asosida aytish mumkinki, ular XIII asrda oʻlkada, xususan, Fargʻonaning shimoliy mintaqalarida istiqomat qilgan.

c) Qanglilar.

Bu davrdagi etnoslardan biri qang'lilar bo'lib, ularning genezisini S. G. Klyashtorniy, K. Sh. Shoniyozov, XIII–XV asrlardagi holati, yashagan hududlari, salmog'i, etno-siyosiy jarayonlardagi o'rni kabi masalalarni O. Yorulmaz qator tadqiqotlarida o'rgangan. Ma'lumki, Qang' davlati parchalangach, uning tarkibidagi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi etnoslarning aksariyati Sirdaryoning quyi qismiga borib o'rnashgan. Ularning avlodlari keyingi davrlarda ham Sirdaryoning quyi oqimidagi yaylovlarni tark etmagan. Ana shu qang'lilarni Juvayniy "qipchoq xalqining bir qismi" deb ataydi.

XIII asrda qang'lilarning Dashti Qipchoqdagi qismi ham qipchoqlar tarkibiga kirgan. Shu bois G. Rubruk ularni "koman" (qipchoq) deb nomlanuvchi "qang'li"lar deydi. Sirdaryo quyi oqimidagi qang'lilar keyinchalik bir necha guruhlarga bo'linib, ba'zilar Xorazmga borib o'rnashadi.

Rashididdinga ko'ra, mo'g'ullar istilosiga qadar Xorazmda qang'lilardan tuzilgan qo'shinning soni 90 ming kishini tashkil qilgan. "Tabaqoti Nosiriy"da qang'lilardan iborat qo'shinning umumiy salmog'i 110 ming deb ko'rsatilib, ularning yetakchilari xususida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Qang'lilarning boshqa qismi bu vaqtda Zarafshon vodiysida o'rnashgan. Mo'g'ullar istilosi arafasida Samarqand shahrida qang'lilardan iborat 30 ming kishilik harbiy bo'linma mavjud edi. Ko'rinib turibdiki, qang'lilar o'lkadagi ko'p sonli etnoslardan bo'lgan va birgina Samarqandda ularning umumiy salmog'i bir necha o'n ming kishini tashkil etgan.

Juvayniyga ko'ra, mo'g'ullar Xorazmshohga xizmat qilgan va bu sulolaga qarindoshlik aloqasi bo'lgan qang'lilarni shafqatsiz qirgan. Buxoro va Samarqand qo'lga olingach, ularning har biridan 30 mingdan ziyod voyaga yetgan erkak qang'li qatl etilib, bolalar va ayollar qul sifatida boshqa o'lkalarga haydab ketilgan. Ularning qolgan qismi Chingiziyarga tobe'lik bildirgan. Asrlar mobaynida Sirdaryoning quyi oqimi va uning shimolidagi yaylovlarda yashab

kelgan qang'lilarning keyingi avlodlari Amir Temur davrida ham mintaqada istiqomat qilgan.

d) Qoraxitoylar.

Mo'g'ullar o'lkaga bostirib kelishidan avval, bu hududda qoraxitoy (kidan) qabila ittifoqiga mansub ayrim etnik guruhlar ham yashagan. Qoraxitoylar xitoy madaniyatini qabul qilgan mo'g'ul tilida so'zlashuvchi qavm sifatida qadimdan ichki Mo'g'uliston va hozirgi Mo'g'uliston hududida ko'chib yurgan. Ular X–XII asrlarda Sharqiy Osiyoda Yapon dengizidan Sharqiy Turkistongacha cho'zilgan qudratli davlatni barpo qilgan. Davlat tanazzulga uchragach, kidanlarning bir qismi qoraxitoylar nomi bilan g'arbiy Turkistonga ko'chib o'tadi. Ularning sardori Yelyuy Dashi (1130-1142) Turfon, Qucha, Bolasog'un, Qoshg'ar va Xo'tanni egallab, Samarqandni bosib oladi va o'zini g'uyurxon – go'rxon deb e'lon qiladi. Shu tariqa, yangi davlat barpo qilgan qoraxitoylar vohadagi mahalliy sulolalar ustidan ham nazorat o'rnatadi.

1208-1209-yillarda markit-nayman ittifoqi parchalangach, naymanlar sardori Kuchluk Qoraxitoy go'rxonidan yordam so'rab, uning qiziga uylanadi. Xorazmshoh qoraxitoylarni quvib, go'rxonni o'ldirgach, davlatni Kuchluk egallab oladi. Qoraxitoylar asrlar davomida mahalliy aholiga yaqinlashib, o'z tilini unutib borgan va turkiylashgan. V. Eberxard ularni 24 guruhga bo'linganini yozadi. Ularning ko'pchilik guruhlari Zarafshon vohasi va unga tutash dasht va cho'llarda, qisman Farg'ona vodiysida yashab, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Mo'g'ullar davrida qoraxitoylar parchalanib, guruhlarga bo'linadi. Chingizxon va boshqa mo'g'ul hukmdorlari davrida ularning vakillari yuqori saroy amallarini egallagan. Xususan, Chingizxonning bosh vaziri qoraxitoy Yelu-chutsay Munqa, Xubilay va Xuleguga ta'lim bergan.

d) Og'uzlar.

XIII asrda O'lkada istiqomat qilgan etnoslar orasida o'g'uzlar ham bo'lib, ularning tarixi S. G. Agadjanov, A. Jikiyev kabi olimlarning tadqiqotlaridan keng o'rin olgan. Ammo, ular asosan, o'g'uzlarning turkman xalqi etnogenezidagi rolini o'rganganlar. Ta'kidlash joizki,

o'g'uzlar o'zbek xalqi etnogenezida ham faol ishtirok etgan. Biroq, masalaning bu jihati deyarli o'rganilmagan.

Manbalarda o'g'uzlar xususidagi ma'lumotlar boshqa etnoslarnikiga qaraganda birmuncha ko'p. Xususan, Mas'udiy Sirdaryo bo'yidagi o'g'uzlarni uch guruhga (ashag'ilar, yuqorilar, o'rtalar (el-asafil, el-avali, el-avasit), Mahmud Qoshg'ariy yigirma ikki urug'ga, Marvaziy 12 urug'ga, Rashiddin 24 urug'ni o'z ichiga olgan ikki guruhga: Bozoklar (kayi, bayot, qora-vali, qora ivali, yazur, do'g'ur, durdarg'a, yaparli, yavshar, qiniq, bog'dili bekdili, bogdili, karg'in) va O'choklar (bayindir, bichna, chavuldur, chibin, salur, iymur, alayo'ntaki, o'rgiz, bikdir, bukduz, yeva, qiniq) bo'lingani xususida ma'lumot beradi. Ko'rinib turibdiki, XI– XIII asrlarda o'g'uzlarning tarkibiy tuzilishi o'zgarib borgan.

O'g'uz urug'lari bilan bog'liq etnonimlar toponimlarga aylanib, keyingi davrlarda, xususan, hozirgi kunlargacha saqlanib kelmoqda. O'g'uzlar Sirdaryo bo'yida yashab, yirik davlatga asos solgan. Ular o'lka aholisi bilan yaqindan etnik, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu davrda o'g'uzlarning ba'zi guruhlari Keles cho'li, Angren va Chirchiq daryosi vodiylari, Chotqol va Ugam tog'oldi hududlarida yashagan.

Ibn al-Asir o'g'uzlar Turkistonning eng uzoq mintaqalaridan xalifa Mahdiy davrida (775-785) o'lkaga kelib musulmon bo'lib, keyinchalik, Muqannaga ham yordam berganini yozadi. O'g'uzlar voqa aholisi, xususan, xorazmliklar bilan o'zaro urushib turgan, tinchlik vaqtida esa o'zaro savdo-sotiq qilishgan. Zarafshon vodiysidagi o'g'uzlarning bir qismi chorvachilik, boshqa qismi esa dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ularning turar joylari Nurota tog'ida, yozda esa Samarqand Sug'dida bo'lgan. Nurota tog'idagi o'g'uzlar asrlar davomida o'zbeklar bilan birga yashab, aralashib ketganidan ularning avlodlari o'zlarini o'zbek turkmanlari deb atashgan. Bular etnik, til va madaniy jihatdan o'zbeklardan deyarli farq qilmagan.

e) Qipchoqlar.

XIII asrda qipchoqlar o'lka ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida faol ishtirok etgan. Fors va arab tilidagi manbalarda ularning genezisi xususida muhim qaydlar keltirilgan. Shunga ko'ra, qipchoqlar Xorazm va unga yaqin yerlarda chig'raklar va kujatlar bilan birga yashagan.

Qipchoqlar qang'lilar bilan aralash yashagani uchun ko'p hollarda ular birga tilga olinib, "yugur (uyg'ur) o'g'illari" deyilgan. Ogur yoxud yugur nomi uyg'ur, o'g'uz, qipchoq, qang'li kabi qabilalar uchun umumiy nom bo'lgan. "O'g'uznoma"da qipchoqlar xalaj, qang'li, qarluq, agacheri qabilalari bilan birga besh-uyg'ur jamoasi deb nomlangan. Yuqorida ma'lumotlar qipchoqlar qang'li, xalaj, qarluq qabilalari bilan yonma-yon, ko'p hollarda aralash yashaganidan dalolat beradi.

Qipchoqlar bir necha guruhga bo'lingan. Ularning eng yirigi g'arbiy qipchoqlar asosan Volga va Urol daryosi oralig'ida yashab, keyinchalik, Janubiy Rus cho'llariga va Shimoliy Kavkazga ko'chib o'tgan. Qipchoqlarning boshqa guruhi Sirdaryo bo'ylarida istiqomat qilgan. Ayni vaqtda Xorazmshohlar mamlakatni mustahkamlash maqsadida Sirdaryo bo'yidagi qipchoqlarning ayrim guruhlarini o'zlariga tobe' qiladi.

Xorazmshoh Takash qipchoqlar bilan qarindoshlik aloqalarini yo'lga qo'yib, sardorning qizi Turkon Xotunga uylanadi. Turkon Xotun qipchoqlarning bayot urug'idan bo'lib, o'zi bilan Xorazmga uroniy, qarluq, ug'rak va xalaj kabi yirik qabilalarni ham boshlab keladi. Takash va Muhammad davrida qipchoqlar yanada kuchaydi. Davlatning yirik amaldorlari, hokimlar, sarkardalar qipchoqlarning vakillaridan tayinlangan. "Tabaqoti Nosiriy"da O'tror hokimi G'oyirxon - Inalxon, Xo'jand hokimi Temur Malik, harbiy amaldorlarda Qodirxon qipchoq nomi ko'p marta tilga olingan.

Sirdaryo o'rta oqimlarida qolgan qipchoqlarni bo'ysundirish uchun Xorazmshoh Muhammad bir necha bor harbiy yurish uyushtiradi va 1215-yilda ularning markaziy shahri Sig'noqni egallaydi. Omon qolgan qipchoqlar Sirdaryo shimolidagi bepoyon cho'llarga chekinadi. Dashti Qipchoqdagi qipchoqlar keyinchalik,

mo'g'ullar bilan aralashib ketadi. Qipchoqlar keyinchalik Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi harbiy yurishlarida unga ko'mak beradi. Xususan, Jaloliddin Isfaxon yaqinidagi jangdan so'ng mo'g'ullarga qarshi qipchoqlar bilan ittifoq tuzish uchun Sirjon Kishi qipchoqni ularning yoniga elchi qilib yuboradi. Qipchoqlar rozilik bildiradi va 5000 chodirlik qipchoqlar Darband tomonga yo'lga chiqadi.

Ibn al-Asirning yozishicha, 1221-yil qipchoqlar 50 ming kishilik qo'shin bilan mo'g'ullarni Darband yo'lagidan o'tkazmay, ularni shimoliy yo'lini to'sib qo'yadi. Bundan ko'rinadiki, qipchoqlar Jaloliddin davrida ham katta kuchga ega edi. Mo'g'ullar istilosi davrida Jo'ji o'lkadagi qipchoqlarni ayovsiz qirg'in qilgach, ularning omon qolgan qismi bir necha guruhga bo'linib ketadi. Xususan, mo'g'ullar qipchoqlarning bir guruhini ichki Mo'g'ulistonga asir qilib olib ketadi.

Rashididdin qipchoqlarni Chingizxon davridagi yirik qabila sifatida tilga oladi. Bu vaqtda ularga dastlab Kunjak qipchoq, undan so'ng o'g'li Kumurbish Kunji boshchilik qilgan. Kunjak qipchoq Chingizxon davrida oliy mehtar vazifasiga tayinlangan. O'lkadagi qipchoqlar Farg'ona vodiysi, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida yashab, ma'lum qismi ancha vaqtgacha o'z etnik nomini saqlab kelgan.

Mavzu boyicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Qoraxoniylar davrida qanday etnik guruhlar siyosiy va madaniy maydonda faol bo'lgan?
2. Xorazmshohlar davlatining etnik tarkibi qanday shakllangan edi?
3. Turkiy va eroniy unsurlar o'rtasidagi etnik aloqalar qanday ko'rinishda kechgan?
4. Islom dinining tarqalishi etnik o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatdi?
5. Qoraxoniylar tomonidan olib borilgan siyosiy islohotlar etnik barqarorlikni qanday ta'minlagan?

6. Eroniy aholi turkiy siyosiy elita bilan qanday munosabatda bo'lgan?
7. Etnik jarayonlar va madaniy moslashuv orasida qanday bog'liqlik mavjud edi?
8. Xorazmshohlar davridagi etnik siyosat qanday maqsadlarni ko'zlagan?

Amaliy savollar.

1. Qoraxoniylar davrida yashagan turli etnik guruhlarini tarixiy manbalar asosida aniqlang.
2. Xorazmshohlar hukmronligi ostidagi etnik aralash hududlar xaritasini tuzing.
3. Qoraxoniylar davrida yozilgan adabiy manbalarni tahlil qilib, ularda aks etgan etnik muhitni tavsiflang.
4. Qoraxoniylar tomonidan turkiy tilning rasmiy maqomga ko'tarilishi qanday etnik oqibatlariga olib kelganini tushuntiring.
5. Xorazmshohlar davrida aholi ko'chishlari qanday tarixiy hujjatlar bilan tasdiqlangan?
6. O'rta asr sayyohlarining asarlarida qayd etilgan etnik tafsilotlarni tahlil qiling.
7. Qoraxoniylar yoki Xorazmshohlar davriga oid arxeologik topilmalar asosida etnik tarkib haqida xulosa chiqaring.
8. Harbiy yurishlar va savdo yo'llari etnik tarkibga qanday ta'sir ko'rsatganini aniq misollar bilan ko'rsating.

Munozarali savollar.

1. Qoraxoniylar davrida turkiylashuv jarayoni tabiiy kechganmi yoki siyosiy bosim natijasimi?
2. Xorazmshohlar tomonidan olib borilgan siyosiy ekspansiya etnik uyg'unlikka xizmat qilganmi?
3. Eroniy va turkiy unsurlar o'rtasidagi tarixiy integratsiya kuchli madaniy sintez keltirganmi?
4. Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida boshlangan o'zbeklashuv jarayoni qachon kuchaydi?
5. Islom dini etnik farqlarni yo'qotdimi yoki ularni birlashtirishga xizmat qildimi?

6. Qoraxoniylar davrida feodal tabaqalanish etnik asosda shakllangan deb hisoblash to'g'rimi?
7. Xorazmshohlar davlatining qulashi etnik beqarorlik bilan bog'liq bo'lganmi?
8. O'rta asrdagi etnik siyosat bugungi zamonaviy millatlarning shakllanishiga asos bo'lgan deb hisoblash mumkinmi?

TEST.

1. Qoraxoniylar davrida qaysi til rasmiy va adabiy maqomga ko'tarilgan?
 - A) Arab tili
 - B) Turkcha
 - C) Forscha
 - D) Mo'g'ulcha
2. Xorazmshohlar davrida etnik jihatdan qanday aholi ustunlik qilgan?
 - A) Yunonlar
 - B) Turkiy va eroniy elatlar
 - C) Hindlar
 - D) Slavyanlar
3. Qoraxoniylar davlatining asosiy markazlaridan biri qaysi edi?
 - A) Termiz
 - B) Buxoro
 - C) Balasog'un
 - D) Xiva
4. Islomning keng tarqalishi etnik jarayonga qanday ta'sir qilgan?
 - A) Til o'zgarishiga
 - B) Tashqi siyosatga
 - C) Etnik integratsiyaga
 - D) Soliq siyosatiga
5. Xorazmshohlar davrida yuz bergan qaysi voqea etnik beqarorlikni kuchaytirgan?
 - A) G'aznaviylar bilan urush

- B) Chingizxon istilosi
- C) Arablar bosqini
- D) Tangrida dini tarqalishi

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
3. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
4. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
5. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи. Тошкент. Университет. 1995. –Б. 92
6. Ulasheva S. XIII-XV asrlarda O'lkadagi etnik jarayonlar. Toshkent. "Firdav-Shoh" 2023.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
2. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
3. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
4. Л.Н.Гумилев. Этногенез и биосфера Земли. - Л. 1989.
5. Пардаев А.Ҳ Жиззах беклиги - Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан XIX асрнинг 60-йилларигача) Т.ф.н.дисс. Автореферати.- Т., 2004. –Б.16;
6. Bregel, Yuri. *An Historical Atlas of Central Asia*. Brill, 2003.

8-MAVZU. CHINGIZXONNING MOVARUNNAHRGA BOSQINI VA TURLI ETNIK QAVMLARNING KIRIB KELISHI

Asosiy savollar

1. Chingizxonning Movorunnahrga bosqini va aholining etnik tarkibida o'zgarishlarning o'rganilishi.
2. Barloslar.
3. Naymanlar.
4. Sulduzlar.
5. Dug'lotlar.

Taynch iboralar. Chingizxon, Voha, mo'g'ullar istilosi, etnik o'zgarishlar, ko'chmanchi qabilalar, mo'g'ullar, qarluq, nayman, jaloyir, qo'ng'irot, qipchoq, integratsiya, etnik qatlamlar, o'zaro ta'sir, demografik siljish, harbiy bosqinlar, shahar vayronasi, majburiy ko'chish, turkiylashuv, madaniy o'zlashuv, tarixiy migratsiya.

1.Chingizxonning Movorunnahrga bosqini va aholining etnik tarkibida o'zgarishlarning o'rganilishi.

Chingiz yetakchiligida mo'gullar bosqini davriga taalluqli ko'plab manbalar bizgacha yetib kelgan bo'lib, Juvayniy, Juzjoni, Ibn al-Asir, Hamidulloh Qazviniy, Rashididdin Fazlulloh, keyingi davrda Xofizi Abru, Rashidiy asarlarida Movorunnahrdagi etnik jarayonlar to'g'risida ko'plab uchratishimiz mumkin.

Rashididdin Fazlulloh "Jome-at Tavorix" asariga kirish qismida qadimdan turklar nihoyatda katta hududda yashab kelganligini ta'kidlab, ularning o'z kuch, qudratiga asoslangan davlatchiligi tufayli Xitoy, Hindiston, Kashmir, Eron, Vizantiya, Suriya va Misrning katta hududlarini bosib olgani yoki keng tarqalganligini qayd etadi¹. Davrning o'tib borishi bilan ular bir qancha urug', qavmlarga bo'lingan, tashqi ko'rinishi tillari bir-biriga o'xshash va yaqin bo'lgan. Rashididdin Fazlulloh asarida og'uzlar, turkiy nomini saqlab qolgan

¹ Рашид-ад-Дин. Сборник летописей. Том I. Книга первая. Перевод с персидского Л.А. Хетагурова. Редакция и примечания А.А. Семёнова. Издательство АН СССР. Москва–Ленинград, 1952. С. 77–78.

va mo'g'ullar deb nomlanadigan turkiy qavm-urug'lar tarixini mufassal, xolislik bilan yoritib bergan. Shuningdek, asarda yerlik aholiga nisbatan "sak" termini qollanilganini ko'rishimiz mumkin.

1219-1221-yillar davomida O'lka mo'g'ullar tomonidan istilo etildi. 1227-yili Chingizxon Yettisuv, Qoshg'ar, Movorunnahr va Xorazmning sharqiy qismini, shuningdek, hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismini ikkinchi o'g'li Chig'atoyga (1227-1241).

Mubarokshoh (1266-y) va Baroqxon (1266-1271) davrida mo'g'ul hukmdorlari mahalliy aholi bilan yaqinlashish maqsadida islom dinini qabul qiladilar. Shundan keyin Chig'atoy xonlarini taxtga o'tqazish marosimi Ili daryosi vodiysida emas, balki O'lkada, Ohangaron vodiysida o'tkaziladigan bo'ldi¹. Natijada 1266-yili xon hamda ba'zi mo'g'ul urug'lari Yettisuvdan O'lkaga ko'chib o'tadilar. Bu hol o'z navbatida Chig'atoy ulusida feodal tarqoqlikka olib keladi. Jaloyirlar Ohangaron vodiysi va Xo'jand atrofida, barloslar Qashqadaryo vodiysiga, arlotlar Shimoliy Afg'onistonga o'rnashishadi².

I. Mo'minovning tahriri ostida chiqqan "O'zbekiston tarixi" kitobida Xo'jandda mo'g'ul qoshinlariga qarshilik ko'rsatgan Temur Malikning asli turkiy qavmlardan ekanligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Shuningdek, Botuxon Temur Malikning Xo'janddagi barcha mol-mulkini uning o'g'liga qaytarib berganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi³.

Chig'atoy ulusiga kelib o'rnashgan qabilalardan biri jaloyirlar edi. "Zafarnoma"da yozilishicha, ular har biri ming oiladan iborat yetmish uruqqa bo'lingan. Rashididdin jaloyirlarni XII asrda Onon va Kerulen daryolari havzalarida yashagan mo'g'ul deb ataluvchi turk qabilasi sifatida zikr etadi. Unga ko'ra, jaloyirlar asli turkiy qabila bo'lib, keyinchalik, mo'g'ul tilini o'zlashtirgan. Abulg'oziy jaloyirlar mo'g'ullarning darlagin eliga taqalishini ta'kidlab, darlagin eli nukuz

¹ Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent. "O'qituvchi" 2001. 64-b. O'zbekiston xalqlari tarixi 1-jild Toshkent fan 1992 151 bet.

² Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent. "O'qituvchi" 2001. 93-b. O'zbekiston xalqlari tarixi 1-jild Toshkent fan 1992 151 bet.

³ Axmedov B. Tarixdan saboqlar Toshkent O'qituvchi 1994 174 b

avlodi, deydi. V. V. Bartold, I. P. Petrushevskiy, P. B. Golden kabi olimlar ularni mo'g'ul tilli xalq ekanini yozadilar. S. A. Amanjo'lovning yozishicha, jaloyirlarning asosiy negizi turklar bo'lgan. Olim Rashididdinga tayanib, jaloyir qabilasi tarkibida quriqin, tulanqit, turi etnonimlari borligini aytadi.

K. Shoniyozov quriqinlar Yoqut va Yenisey qirg'izlarining ilk ajdodlari deydi. Yuqoridagilarni inobatga olsak, jaloyirlarning turkiy ekaniga shubha qolmaydi. Jaloyirlar Onon va Kerulen bo'ylarida istiqomat qilayotgan vaqtda mo'g'ul tilida so'zlashgan. Buni shu davrdagi shaxs ismlari ham isbotlaydi. Ular dastlab Dashti Qipchoqqa, keyinchalik o'lkada o'rnashgach, til jihatidan turklashadilar. Jaloyirlar Chingizxon harbiy faoliyatida muhim o'rin tutib, ularning aksariyati kidanlarga qarshi jangda halok bo'lgan. Ular Chingizxonning O'lkaga uyushtirgan janglarida ham ishtirok etgan. Xususan, Chingizxon Jaloliddin va Malikshohni ta'qib qilishni Bala boshliq jaloyirlarga topshiradi. Bala jaloyir ularni Sind daryosidan o'tib, Hindiston o'rtalarigacha ta'qib qiladi. Ammo ta'qib natijasiz yakunlanib, jaloyirlar ortga qaytadi. Ulus tashkil qilingach, jaloyirlarning bir guruhi Ili vodiysidan ko'chib, Angren havzalari va Xo'jand atroflariga joylashadi. Vohadagi jaloyirlarga Yesun no'yonning o'g'li Muka (Mungge, Muga shakllarida ham uchraydi) boshchilik qilgan. Baroqxon va uning avlodlari davrida jaloyirlar son jihatidan birmuncha ko'payib, Chig'atoy xonlarining asosiy harbiy kuchiga aylangan. Ular mo'g'ullarning boshqa uluslarida ham yirik qabila sifatida siyosiy hayotda faol o'rin tutgan. XIII asr davomida jaloyirlarning bir guruhi Ozarbayjon va Iroqqa ko'chib, o'z davlatini barpo qilgan. XIV asr o'rtalarida ularning boshqa guruhi Eronning shimolida o'rnashib, Jaloyirlar sulolasiga asos solgan. Bu vaqtda ularning yana bir qismi Oltin O'rda hududida ham istiqomat qilgan. O'rta Osiyo va Qozog'istondagi jaloyirlar keyinchalik, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va qirg'iz millatlari tarkibiga singib ketgan. Hozirda ham O'zbekiston hududida jaloyirlar nomi bilan bog'liq toponimlar uchraydi. Jaloyirlar bilan birga ulusga kelib o'rnashgan barloslarning vatani Onon va Kerulen daryolari havzalarida edi. Ular dastlab

mo'g'ul tilida so'zlashgan, keyinchalik, Dashti Qipchoqqa ko'chib, u yerdagi turkiy etnoslar ta'sirida til jihatidan turklashgan.

2.Barloslar.

O'lkaga kirib kelgandan so'ng, tamoman turklashgan. Barloslarning etnogenezi bugungi kunda ham to'la yechim topmagan va bu xususda turli qarashlar mavjud. Xususan, ularni V.V. Bartold mo'g'ul tilli xalq, Z.V. To'g'on asil mo'g'ul xalqi, P.B. Golden esa turklashgan mo'g'ul qabilasi, deb yozadi. Rashididdinning yozishicha, barloslarning ajdodlari turklar bo'lib, keyinchalik mo'g'ul nomini olgan nurun qabila ittifoqiga kirgan. Barloslar uzoq vaqt mobaynida mo'g'ullar bilan birga yashab, ularni tilini o'zlashtirgan. A.Yu. Zuyev xitoy manbalariga asoslanib, barloslar turkiy xalq, degan xulosaga keladi. Shunga ko'ra, ularning ajdodlari turkiy bo'lganiga shubha qolmasa kerak. Bizgacha yetib kelgan O'zbekistondagi barloslar o'zlarini turkbarloslar deb atashgani bunga yorqin misoldir. Chingizxon davrida barloslar yirik va ishonchli kuchga aylangan. Mo'g'ullar istilosi davrida tilga olingan Tog'ochor no'yon, Qubilay no'yon va Qorachor no'yon qabilaning yirik harbiy lavozimdagi vakillari edi. Chingizxon vorislari davrida barloslarning bir qismi Ili daryosi chap sohilida, Sharqiy Turkistonning g'arbiy hududlarida va Qoshg'arda ham o'rnashgan. Bu yerdagi barloslarning boshlig'i XV asrda Amir Mirak Mirzo edi. Mirzo Haydar bu to'g'rida "Mirzo amakimga tog'a bo'lib, barcha kengash va majlislarda ularning fikrlari asosiy hisoblangan", deydi. Ili daryosi bo'ylarida va Sharqiy Turkistonda ko'chib yurgan barloslarning bir qismi Qashqadaryo vohasiga ko'chib o'tgan. Ularga Barulatoy va Qorachor no'yon boshchilik qilgan. Barloslarning ushbu guruhi Amir Temurning qavmdoshlari bo'lib, keyinchalik, Sohibqironga sidqidildan xizmat qilgan.

3.Naymanlar

Naymanlar ham XIII asr birinchi choraklaridan Chig'atoy ulusi hududiga kelib joylashgan asosiy qabilalardan edi. Ularning kelib

chiqishi xususida turli qarashlar mavjud. Bir guruh tarixchilar nayman mo'g'ulchada "sakkiz", "sakkiz qabila" degan ma'nolarni anglatishiga asoslanib, ularni mo'g'ul deyishsa, boshqalari ularni turkiyligini isbotlamoqchi bo'ladilar.

Ma'lumki, qadimgi sharq qo'lyozmalari va O'rxun yozuvlarida "sakkiz o'g'uz" qabila ittifoqi tilga olingan. X asr o'rtalarida ular yashagan yerlarni qoraxitoylar ishg'ol qilgach, qoraxitoylar vassallariga aylangan bu xalqni naymanlar deb atay boshlaydi. XIII asrda naymanlar mo'g'ullashgan edi. Aksariyati xristianlikka e'tiqod qilgan naymanlar uyg'urlar bilan yaqin madaniy aloqada bo'lgani natijasida ularning urf-odatlarini qabul qilgan.

Naymanlar XIII asr boshlarida nayman xoni qarorgohida o'qimishli uyg'urni davlat muhrini saqlash va yozuv ishlari uchun saqlagan. U Xitoy transkripsiyasida "Ta-ta-tonga" deb atalgan. XIII asr boshlarida Nayman davlati parchalangach, ularning xoni Tayangxonning o'g'li Kuchluk avval amakisi Buyruqxondan, undan so'ng Ili daryosi sohilidagi qoraxitoylardan yordam so'raydi. Bu vaqtda naymanlar kuch-qudratda bir qancha tumandan iborat yirik qabila bo'lgan.

Chingizxon Nayman davlatini bosib olgach, xalqining katta qismini qirib yuboradi. Naymanlarning tirik qolgan qismi Chingizxonning keyingi harbiy yurishlarida ishtirok etadi. Shuningdek, Chingizxon ularni o'g'illari hamda yaqin qarindoshlari o'rtasida taqsimlaydi. Xususan, u naymanlardan onasi va kichik ukasi Otchiginga o'n ming, Jo'chiga to'qqiz ming, Chig'atoyga sakkiz ming, Ugadoyga besh ming, Tuliga besh ming, ukalari – Xasarga to'rt ming, Alchidayga ikki ming, Belgutayga bir ming besh yuz odam berdi. Naymanlar mo'g'ullar o'rtasida shu tariqa bo'lib olingach, parchalanib, yo'q bo'lib ketish darajasiga yetadi.

Chig'atoy ulusiga ko'chirilgan naymanlarning joylashgan hududi to'g'risida manbalarda aniq ma'lumot keltirilmagan. Ammo "Zafarnoma" asarida ularning bir qismi XIV asrda shimoliy Xuroson va Amudaryo bo'ylarida yashagani, yirik amirlaridan biri Muhammad Xoja Apardiy haqida so'z yuritilgan. Amir Temur

qo'shinida ham naymanlar bo'lib, ularga Oqbug'a nayman boshchilik qilgan.

Naymanlarning Amir Temur va Temuriylar davrida ham yetakchi harbiy-siyosiy kuch ekaniga qaraganda ular Chig'atoy ulusi davridanoq Voha va unga tutash hududlarda istiqomat qilganlar.

4.Sulduzlar.

Bu davrda O'lkada o'rnashgan etnoslardan yana biri sulduzlar bo'lib, ular mo'g'ul tilida so'zlashuvchi qabila edi. Abulg'oziy sulduzlarni mo'g'ul xalqi, deb ataydi. Buni P.B.Golden ham takrorlaydi. Chingizxon saroyidagi nufuzli amirlar sulduzlardan bo'lgan. Ular mo'g'ullarning Mo'g'uliston, Xitoy va Erondagi (Elxoniyalar) davlatlarida ham yuqori amallarni egallagan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mo'g'ullar davrida sulduzlar boshqa qabilalarga qaraganda bir qancha ko'proq tumanni tashkil etgan. Ular Chingizxonning turli janglarida jumladan, toyjovutlarga qarshi kurashida katta yordam bergan. Bu davrda ularga Toyju sulduz boshchilik qilgan. Sulduzlarning katta guruhi Chingizxon qo'shini tarkibida Dashti Qipchoqda, qisman Voha va shimoliy Afg'onistonda ham o'rnashgan.

Undan keyingi davrlarda sulduzlarning ma'lum qismi Ozarbayjon va Eronga ko'chib o'tadi. Vohadagi sulduzlar Amir Qazag'an vafot etgach, amir Bayon Sulduz yetakchiligida bir necha yil Samarqandni boshqargan. XIV asr o'rtalarida ularning bir qismi O'ljoy Buqo Sulduz rahbarligida Balxda yashagan.

5.Dug'lotlar

Bu davr manbalarida (Juvayniy, Rashididdin va boshq.) qavchin etnonimi tilga olinmagan. Faqatgina "Mangol-un Niucha Tobchian"da muhofiz qo'shini - harbiy gvardiya uyushmasi ekani, "Tarixi Rashidiy"da mo'g'ulcha harbiy gvardiya "qavchin" deyilgani, hamda ko'plab Temuriylar manbalarida qavchinlar mo'g'ul xonlari va Temuriy hukmdorlarning hazorayi xossasi ekani ular mo'g'ullar davrida qabila bo'lmay, turli qabilalardan tashkil topgan muhofiz

qo'shini edi, degan fikrimizga asos bo'ladi. Qavchinlar XIV asr o'rtalaridan harbiylashgan yirik qabilaga aylanadi. Qavchinlar Chingiziylar va Temuriylar qo'shinida alohida nufuzga ega bo'lgan. Mirzo Ulug'bek qo'shinining asosi ham qavchinlardan iborat edi.

Bu davrda Chig'atoy ulusi hududida o'rnashgan etnoslardan biri dug'lotlar edi. V. V. Bartold Rashididdinga tayanib, ularni mo'g'ul qabilasi deydi. N. A. Aristov xitoy manbalariga asoslanib, G'arbiy Turk xoqonligidagi yirik qabila ittifoqlaridan biri dulularni dug'lotlar bilan bir xalq ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, tulu etnonimi dulu bilan aynan. Buni inobatga olsak, dulu yoki tulu ajdodlari qadimgi xunlarga borib taqaladi. Bu etnonim keyinchalik, "dug'lat", "dulat" atamaları bilan almashgan.

Dug'lotlar XIII asr birinchi choraklaridan forsiy manbalarda tilga olingan. Bunga sabab mo'g'ullar istilosi natijasida mintaqaga boshqa etnoslar qatorida dug'lotlarning ham kirib kelishi edi. Vohadagi dug'lotlar asosan Farg'ona, Toshkent, Samarqand va Hisorda yashagan. Dug'lotlar Sharqiy Turkiston, Issiqko'lning janubi va Farg'ona vodiysining shimoliy tumanlarida ko'chib yurgan. XIV asr ikkinchi yarmi – XV asrda sharqiy Chig'atoy ulusida dug'lotlarning mavqei ancha oshgan.

Dug'lotlarning aksariyat amirlari mo'g'ul xonlariga astoyidil xizmat qilgan. Ularning ayrimlari mo'g'ul xonlaridan mustaqil siyosat yuritish uchun bosh ko'targan va amir Qamariddin dug'lot ma'lum vaqt Mo'g'ulistonni mustaqil idora qilgan. Shuningdek, Abobakr dug'lot 1427-1428-yillarda Qoshg'arni egallab, Yorkend xonligiga asos solgan va davlatni XVI asr birinchi choragigacha idora qilgan.

XIII–XIV asrlarda O'lkaga turk-mo'g'ul qabilalarining kirib kelishi yanada jadallashadi. Bular olchin, dug'lot, o'yrot, bahrin, sulduz, markit, qo'ng'iro't, nukuz, toyjiut, kerayit, nekudar kabi etnoslar edi. Ularning iqtisodiy holati, soni turlicha bo'lgan. Shu bois ularning kambag'al qismi qisqa vaqtda mahalliy aholiga singib, madaniy-xo'jalik ta'sirida o'z tilini unutgan va turkiylashgan.

O'lkada o'rnashgan etnoslardan biri bahrinlar (barin) edi. Rashiddin ularni Chingizxon davridagi mo'g'ul tilli turk qabilalari qatorida tilga oladi. Ular mo'g'ul istilosi davrida Dashti Qipchoqqa kelib joylashib, vaqt o'tishi bilan til jihatidan turklashgan. Abulg'oziyning yozishicha, mo'g'ul xoni Bachin qayonning Barin ismli o'g'li bo'lib, bahrinlar uning naslidan tarqalgan.

Mavzu boyicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Chingizxonning O'lkaga bosqini qachon va qanday tarixiy sharoitda boshlangan?
2. Mo'g'ul istilosi natijasida qanday yangi etnik guruhlar bu hududga kirib kelgan?
3. Mo'g'ul bosqini qanday demografik o'zgarishlarga olib kelgan?
4. Ko'chmanchi qabilalarning O'lkada joylashuvi qanday bosqichlarda amalga oshirilgan?
5. Etnik o'zgarishlar jarayonida mahalliy aholining ijtimoiy tuzilmasi qanday o'zgargan?
6. Mo'g'ullar O'lkada qanday siyosiy-administrativ tizim o'rnatgan?
7. Etnik integratsiyaning asosiy yo'nalishlari qanday namoyon bo'lgan?
8. Mo'g'ullar istilosining madaniy va diniy oqibatlari qanday baholanadi?

Amaliy savollar.

1. Mo'g'ul istilosi tufayli O'lkaga kelgan qavmlarni xaritada joylashtiring.
2. Arxeologik yodgorliklar asosida bosqindan keyingi aholi zichligini tahlil qiling.
3. O'lkada mo'g'ul istilosi natijasida yuzaga kelgan shahar vayronagarchiliklarini misollar bilan ko'rsating.
4. Etnik guruhlarining o'zaro aralashuvi natijasida shakllangan yangi madaniy hodisalarni tahlil qiling.
5. Mo'g'ullar davrida harbiy xizmat orqali etnik integratsiya qanday yuz berganini aniqlang.

6. Islom dinining mo'g'ullar o'rtasida tarqalish jarayonini tarixiy manbalar asosida tahlil qiling.
7. Mo'g'ul harbiy yurishlaridan keyin mahalliy aholining migratsion harakatlarini o'rganing.
8. Mo'g'ullar davrida yaratilgan tarixiy asarlarda etnik tafsilotlarni tahlil eting.

Munozarali savollar.

1. Chingizxon bosqini Voha uchun inqirozmi yoki yangi davrning boshlanishi bo'lganmi?
2. Mo'g'ul istilosi etnik xilma-xillikni kamaytirdimi yoki boyitdimi?
3. Mahalliy va kirib kelgan qabilalar o'rtasidagi munosabatlar barqaror bo'lganmi?
4. O'lkada mo'g'ul madaniyatining ta'siri chuqur ildiz otgan deb hisoblash mumkinmi?
5. Mo'g'ul harbiy elita va mahalliy zodagonlar o'rtasida qanday etnik-nizolar yuzaga kelgan?
6. Voha etnik tarixining hozirgi tarkibiga mo'g'ul istilosi qanday iz qoldirgan?
7. Mo'g'ul istilosidan keyingi etnik aralashuv mustahkam madaniy sintezga olib kelganmi?
8. Mo'g'ullarning diniy bag'rikengligi etnik barqarorlikni ta'minlaganmi?

TEST.

1. Chingizxon O'lkaga ilk bosqinini qachon boshlagan?
A) 1195-yilda
B) 1219-yilda
C) 1241-yilda
D) 1272-yilda
2. Quyidagi qavmlardan qaysi biri mo'g'ul istilosidan keyin O'lkaga kirib kelgan?
A) Kimmeriylar
B) Qipchoqlar

- C) Massagetlar
 D) Skiflar
3. Mo'g'ul istilosi natijasida qanday o'zgarishlar kuzatildi?
 A) Eroniy tillar tarqaldi
 B) Shaharlar tiklandi
 C) Shaharlar vayron qilindi
 D) Yunonlar kirib keldi
4. Mo'g'ullar tomonidan O'lkada o'rnatilgan boshqaruv shakli qanday edi?
 A) Xonlik
 B) Feodal federatsiya
 C) Ulus tizimi
 D) Viloyat hokimiyati
5. Mo'g'ullar istilosi davrida yuzaga kelgan etnik integratsiyaning sababi nima edi?
 A) Diniy urushlar
 B) Savdo-sotiq rivoji
 C) Harbiy xizmat, migratsiya va aralash nikohlar
 D) O'zbekiston mustaqilligi

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
3. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
4. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
5. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. *Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи*. Тошкент. Университет. 1995. –Б. 92

6. Ulasheva S. XIII-XV asrlarda O'lkadagi etnik jarayonlar. Toshkent. "Firdav-Shoh" 2023.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
2. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
3. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
4. Л.Н.Гумилев. Этногенез и биосфера Земли. - Л. 1989.
5. Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент. Фан. 2001. 14-15 бетлар.
6. Bacon, Elizabeth E. *Central Asians under Russian Rule: A Study in Culture Change*. Cornell University Press, 1966.

9-MAVZU. AMIR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ETNIK JARAYONLAR

Asosiy savollar

1. Amir Temur davridagi etnik jarayonlarning manbalarda yoritilishi.
2. Amir Temur va temuriylar davridagi mahalliy etnik komponentlar.
3. Arlotlar.
4. Mangitlar.
5. Yasovuriylar.
6. Qavchinlar.
7. Qo'ng'irotlar.

Tayanch iboralar. Amir Temur, Temuriylar davri, etnik jarayonlar, ko'chmanchi qabilalar, dehqonchilik aholisi, harbiy-siyosiy uyushmalar, etnik integratsiya, til siyosati, o'zbeklashuv jarayoni, turkiylik, forsiylik, davlat boshqaruvi, madaniy aralashuv, sultonliklar, elatlar, migratsiya, mahalliy xalqlar, ijtimoiy tabaqalanish, milliy ong.

1.Amir Temur davridagi etnik jarayonlarning manbalarda yoritilishi.

Amin Qazonxon barlos turklaridan bo'lgan. 771 (1369)-yilning oxirida Temurbek askarlari Sirdaryoning sharqiy qirg'oqlaridagi Qamariddin-bekning chegarasiga hujum qila boshlaydi. Qamariddinbek Ili vodiysidagi qabila beklaridan Kepektemurbek va Xojibeklar bilan birlashib, kuchli qoshin bilan Sirdayo bo'ylariga yurish qiladi. Toshkentga borganda, Xojibek bilan oralarida kelishmovchilik paydo bo'lib ittifoqlari buzilib ortiga qaytishga majbur bo'ldi. Ular ketgandan keyin Temurbek kelib, Toshkent va O'ratepa qatorlik (hudud) joylarni ishg'ol qiladi¹.

¹ Muhammad Amin Bug'ro Shariqy Turkiston tairixi 1989 Anqar 530 b

1370-yilga kelib, Temur Vohadagi hokimyatini butun amirlarga tan oldirdi. Faqat eng e'tiborli qabila sanalgan jaloyirlar va ba'zi beklar birlashib, 1375-yilda oyoqlandilar. Vohaning shimoliy sharqida joylashgan Xo'jand tevaragida yashayotgan jalayoriylar boshchisi Odilshoh Bahrom va qipchoqlar urug'i yetakchisi Sor Buqa kelishib, qo'shin tortib Samarqandga yuzlandilar. Sor Buqa va Odilshoh jaloyir Amir Temurning Qamariddinbek ustiga yurish davrida Xitoy Bahodir va O'ljabug'ini asir olib Qamariddin tarafiga o'tb ketishi kechirib bo'lmas xiyonat edi.

1376-yilda Amir Temur mo'g'ul amiri Qamariddinni mag'lub qildi. Xo'jand atrofida yashagan jaloyirlar shuningdek sulduz va boshqa qavmlar dastlab Temurga tobelik bildirib, keyin qo'zg'olon qilganliklari sababli og'ir jazo belgilanib, o'z yashash yerlaridan ko'chirilib tarqatib yuborildi.¹ Ko'chirilgan jaloyirlar markazi Bo'g'dod bo'lgan Arab Iroqi, Ajam Iroqi, Ozarbayjon hamda Kurdiston o'lkalarida o'z davlatlarini barpo qiladilar (1336-1432-yillar).

Xondamir, Jaloliddin Kosoniy ma'lumotlariga hamda akademik D.Yusupovanning ilmiy tahlillariga ko'ra Amir Temur va Temuriylar davrida qurg'ochilik, chigirtka va qora quzg'un bosqini, shuningdek vabo kabi epidemiologik hastaliklar takrorlanib turganligi, qahatchilik, ochlik bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar bor.

Amir Temur davrida Voha aholisining etnik tarkibi Amir Temur tarixi yoritilgan aksariyat manbalarda sarkardaning zafarli yurishlari, davrning siyosiy manzaralari aks etgan bo'lishiga qaramay, ularda qisman etnik ma'lumotlar ham o'rin olgan. Forsiy manbalarda Voha aholisining umumiy soni, guruhlarga bo'linish holati to'g'risida ma'lumotlar keltirilmagan. Ammo tarixiy voqealar bayonida etnoslarning nomlari, yashagan hududi, yetakchilari, ko'chirilgan yoki ko'chib o'tgan hududlari to'g'risida qaydlar mavjud. Manbalardagi etnik ma'lumotlar qisman aynan biror etnik guruh xususida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot (sulduzlar tumani, jaloyirlar

¹ Ismoil Aka Buyuk temur davlati. T.Qahhor tarjimasi. Toshken. Cho'lpon 1996 152 b

joylashuvi va boshq.) bersa, aksariyat hollarda shaxs ismlari bilan birga keltiriladi (amir Muayyad arlot, amir Bayon sulduz va boshq.).

Forsiy manbalarning barchasi ham Voha etnik manzarasini to'liq tiklash mumkin bo'lgan etnik ma'lumotlarni qamrab olmagan. Ayrim manbalarda etnik ma'lumotlar juda kam. Jumladan, G'iyosiddin Ali Yazdiy asarida Voha bilan bog'liq o'nga yaqin etnonimlar tilga olingan. Nizomiddin Shomiyda etnik ma'lumotlar birmuncha ko'proq bo'lib, yigirmaga yaqin etnonimlar aks etgan. Amir Temur davri keng qamrovda yoritilgan asar Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" sida Voha bilan bog'liq o'ttizdan ortiq etnonimlar qayd etilgan. Muiniddin Natanziyning asari ham etnik ma'lumotlarga boy bo'lib, unda yigirmaga yaqin etnonimlar sanab o'tilgan. Temuriylar davrida yaratilgan yana bir qancha forsiy manbalarda Amir Temur davridagi etnik holat xususida ma'lumotlar mavjud.

Amir Temur davri yoritilgan forsiy manbalarning aksariyatida harbiy-siyosiy jarayonlarda arlot, sulduz, barlos, jaloyir, nayman, keroyit, arkanut, qang'li, qavchin, dug'lot, nukuz, qipchoq, toyjiyut (toyjiut), apardiy, qo'ng'iroq, makrit, mang'it, bahrin, qishliq, arg'un, tag'ochi, axtachi, o'yrot, qiyot, qutchi (quchchi, qushchi), qozoq, turkman, uyg'ur, turk, tojik (tozik), mo'g'ul, yasovur, xazora, nekudar, arab, qora tatar, tatar kabi etnonimlar ko'p bor eslatilgan. Shuningdek, manbalarda ba'zi o'rinlarda aholiga nisbatan joy nomini qo'llash hollari ham uchraydi. Masalan: samarqandlik, xorazmlik va boshq.

Forsiy manbalarda Voha aholisining asosi turku tojik iborasi bilan eslatiladi. Bu nom ba'zi o'rinlarda faqat o'troq aholiga nisbatan qo'llangan holatlar ham mavjud. Shuningdek, manbalarda turku tojik mo'g'ulu tojik shaklida ham almashib kelgan. Muiniddin Natanziy amir Husaynning mag'lub etilishi voqealari bayonida "barcha amirlar va qolgan mo'g'ulu tozik amir Husayndan dilgir bo'ldi", degan ma'lumotni keltiradi. Bu yerda XIV asr 60-70-yillarida mintaqada harbiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan amirlar va ularning qo'shini nazarda tutilmoqda. Unda qo'shindagi askarlar

turkiy yoki mo'g'ul etnik kelib chiqishga ega bo'lishidan qat'iy nazar mo'g'ul etnonimi bilan ifodalangan.

2.Amir Temur va temuriylar davridagi mahalliy etnikkomponentlar.

Manbalarda turk, tojik, mo'g'ul etnonimlari alohida qo'llangan holatlar ham ko'p. Turk etnonimi manbalarda keng va tor ma'nolarda keltirilgan. Tor ma'noda biror qabilaning etnik kelib chiqishini ifodalasa, keng ma'noda xalqqa yoki qo'shinga nisbatan umumiy nom sifatida qo'llangan.

Tojiklar (tozik shaklida ham uchraydi) Vohaning asosiy aholisi sifatida mintaqaning turli hududlarida, jumladan Buxoro, Samarqandda turkiy aholi bilan yonma-yon istiqomat qilgan. Manbalar va tadqiqotlarda Amir Temur qo'shinining asosini turkiy va mo'g'ul xalqlari tashkil etgani, tojiklardan ham alohida bo'linmalar tuzilib, "Lashkari tojik" deb nomlangani to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, Amir Temurning tojiklardan maxsus ayg'oqchilari bo'lgani va ular qo'shni davlatlardagi harbiy-siyosiy vaziyat xususida ma'lumot berib turgani "Zafarnoma"da eslatiladi.

Manbalarda ba'zan biron bir shahar aholisiga yoki qo'shinga nisbatan bir etnos nomi qo'llangan holatlar ham mavjud. Xususan, Sarbadorlar jangida Samarqand xalqi "tojik" etnonimi bilan ifodalangan. Yazdiy Amir Husayn Buxoroga bostirib kiringanda shahar xalqiga nisbatan "tojik eli" atamasini ishlatgan. O'z navbatida uning qo'shini qoraunas eli, qarounas cherigi iboralari bilan ifodalangan. Bu shahar yoki qo'shinda o'sha etnosning ko'pchilikni tashkil etishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bu davrda Farg'ona, Toshkent va Xorazm aholisining katta qismi sart deb atalgan. Sart etnik nom bo'lmay, muqim yashovchi aholining yig'indi nomi bo'lgan. V.V. Bartoldga ko'ra, sart atamasi tojik ma'nosini beradi. Ammo sartlarning bir qismi kelib chiqishi turklashgan sug'diylar bo'lgan. O'rta Osiyodan sharqiy o'lkalarga savdo uchun borganlar etnik mansubligidan qat'iy nazar, sartlar deb

atalgan. Mahmud Qoshg'ariy sart atamasini "savdogar" ma'nosida izohlagan. Bobur fors-tojik tilida so'zlashuvchi xalqlar sartlardir, deydi. Demak, sart atamasini bir xalqqa tegishli deb bo'lmaydi. Umumiy ma'noda sart o'troq yashab, savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug'ullangan tojik va turkiylarga nisbatan qo'llangan.

Yuqorida aytilganidek, forsiy manbalarda arlot, sulduz, barlos, jaloyir, nayman, keroyit, arkanut, qang'li, qavchin, dug'lot, nukuz, qipchoq, toyjiyut, apardiy, qo'ng'iroq, makrit, mang'it, bahrin, arg'un, o'yrot, uyg'ur, turk, tojik, mo'g'ul, yasovur, xazora, nekudar va boshqa etnonimlar ko'p bor tilga olingan.

3.Arlotlar.

Bu davr ijtimoiy, siyosiy hayotida faol etnoslardan biri arlotlar edi. Arlotlar asosan Surxondaryo viloyatining janubi, Termiz atroflari va Afg'onistonning shimoliy mintaqalarida yashagan. "Tarixi Rashidiy"da aytilishicha, arlotlarning bir guruhi Xorazmda ham bo'lib, yetakchilari aka-uka Turkan va Turmish arlotlar 1376-yilda So'filar qo'shini tarkibida Amir Temurga qarshi janglarda ishtirok etgan. Vohadagi arlotlarning aksariyati Amir Temurga sidqidildan xizmat qilgan. Amir Temurning opasi Shirinbeka og'a va amir Muayyad arlotning turmush qurgani (ularni o'g'li amirzoda Ali arlot) ikki o'rtadagi munosabatlarni yanada iliqlashtirgan. Amir Temur sarkardalari orasida arlotlar talaygina edi. Xususan, Tilonchi arlot (mo'g'ullarga qarshi janglarda qanbulni boshqargan), Sayyid Ali arlot (Shaki viloyati (Eron) dorug'asi edi.) va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Apardiylar ham Amir Temur davrida faol etnik guruhlardan biri edi. "Zafarnoma"da aytilishicha, apardiylar naymanlar tarkibiga kiruvchi etnik guruh bo'lgan. Vohadagi naymanlar tarkibida apardiy guruhi ko'pchilikni tashkil etgan. XIV asr 50-yillar oxirida Muhammad Xoja apardiy Shibirg'onni, O'ljoytu apardiy Xuttalonni da'vo qilib chiqishi ularning katta kuchga ega ekanidan dalolat beradi. Apardiylar keyinchalik, Amir Temur

hokimiyatini tan olib, unga xizmat qilgan. Xususan, Zinda Chashm apardiy, Xoja Ali Yusuf apardiy va boshqalar.

Bu davrda eng faol etnik guruhlardan biri barloslar edi. Ularning ijtimoiy, siyosiy hayotda faolligi mo'g'ullar davridan boshlangan. Manbalarda, asosan nasabnomalar ("Muizz al-ansob", "To'rt ulus tarixi") va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafanoma" asarida barloslarning genezisi Chingizxonning ulug' momosi Alan Quvaga olib borib taqaladi. Unga ko'ra, Alan Quva naslidan Qobulxon davrida Qochulining o'g'li Erdamchiga "barlos" laqabi beriladi. Shundan keyin uning naslidan bo'lganlar – barloslar deb yuritiladigan bo'ladilar.

Barloslarning harbiy-siyosiy hayotda bir qadar faollashuvi Amir Temurning hokimiyatga kelishi bilan bevosita bog'liq. Ular mo'g'ullar davrida ham yetakchi qabila sifatida Voha boshqaruvida alohida o'rin tutgan. Barloslar XIV asr 60-70-yillaridan yanada kuchaygan. Bu davrda ular Qashqa vohasida yashab, vohani boshqarib kelganlar. Xususan, vohaning yuqori qismi, quyi qismi – Qarshida Joku Barlos hokimlik qilgan. Barloslar Amir Temur Voha hokimiyatiga kelguniga qadar asosan Qashqa vohasida yashagan bo'lsalar, XIV asr so'nggi choragi va XV asr davomida ularning turli hududlarga yoyilgani kuzatiladi. Bu mamlakat boshqaruvi va harbiy harakatlar bilan bevosita bog'liq. Amir Temur sarkardalari va mulozimlari orasida barloslar ko'pchilikni tashkil etgan. Biron-bir hududga qo'shin tortish lozim bo'lsa, sarkardalar orasida albatta barlos amirlari ham bo'lgan. Shuningdek, Amir Temur farzandlari yoki nabiralarini biror viloyatga hokim qilib jo'natsa, ularning yoniga barloslardan ishonchli beklarni ham qo'shib yuborgan. Natijada, mo'g'ullar davrida Qashqa vohasida uyushib yashagan barloslar Voha, Xuroson, Qobul, Kashmir, Hindiston, Eron kabi Amir Temur nazorat o'rnatgan sarhadlarga yoyilgan.

Ma'lumki, biron-bir amir yoki bek shahzodalarga mulozim sifatida boshqa hududga yuborilsa, o'z navbatida uning oilasi, yaqin qarindoshlari va qaramog'idagi qavmdoshlari ham u bilan birga ko'chgan. Shu bois, ular borgan hududda ham shu qavmning

guruhlari paydo bo'lgan. Bu bir jihatdan yirik qabilaning parchalanib, qisqa fursatda mahalliy aholi bilan qorishib ketishiga sabab bo'lgan. Amir Temurning barloslardan bo'lgan sarkarda va mulozimlari quyidagilar: Sulaymon barlos, Joku barlos va Hinduka barlos, Idigu barlos (Hoji Barlosning ukasi), Nurmalik barlos, To'kal Yodgor barlos, Tug'luq Hoja barlos.

Amir Temur va Hoji Barlosning qarindoshlik aloqalari xususida manbalarda turlicha ma'lumotlar keltirilgan. Aksariyat muarrixlar ularni Qorachor no'yonga borib taqaluvchi ikki shajaraga bog'lashsa, "Tarixi elchi Nizomshoh"da Hoji Barlos to'g'ridan-to'g'ri Amir Temurning amakisi edi, deyiladi. Temuriylar davri manbalarida barloslar haqida ma'lumotlar Misrga qarshi yurishda ishtirok etgan Jahongir barlos, Jaloliddin barlos, To'kal barlos, Sulton barlos, Davlat Xojai barlos, Yusuf barlos (bular Anqara jangida qatnashgan), Bahlul barlos (Gilon yurishida ishtirok etgan), Siddiq barlos, amir Husayn barlos, G'iyosiddin barlos (u Kermon dorug'asi bo'lib, Idigu barlosning o'g'li, Joku barlosning akasi), Nurmalik barlos, Yodgor barlos, Jahonshoh barlos, Jug'om barlos va b.

Amir Temur barloslarni nafaqat Temuriylarga mulozimu sarkarda qilib tayinlagan, balki ularga ma'lum hududlarni suyurg'ol ham qilib bergan. Murod barlos ibn Cho'g'om barlosga – Balx, Idigu barlosning o'g'li Muhammad Darvesh va Hoji Barlosning nabirasi Ali Darveshga – Xuroshani (Xuroson yaqinida joylashgan qishloq), Sayfal barlosga – Qandahorni, Ali barlosga – Xuttalonn.

Bu davrdagi faol etnoslardan biri bahrin (borin)lar bo'lib, ular Chig'atoy ulusi siyosiy hayotida yetakchi hisoblangan. Chig'atoy ulusi ikkiga bo'lingach, bahrinlarning aksariyati sharqiy ulusda (Mo'g'ulistonga) qolgan. Xususan, Tug'luq Temur qo'shinida bahrinlarning maxsus guruhlari bor edi. Mirzo Haydar 1365-yilgi "Loy jangi"da mo'g'ul xoni Ilyosxojaning Dumasa va Chanpu bahrin degan sarkardalari ishtirok etib, halok bo'lganini yozadi. Sharqiy ulusdagi bahrinlar Do'landan 3 kunlik yo'lda joylashgan Uruqtomda yashagan. Ular sharqiy Chig'atoy ulusida yetakchi mavqega ega bo'lib, mo'g'ul xonlariga ham xavf solishgan. Amir Temur qo'shinida

ham bahrinlarning alohida guruhlari bo'lgan. Shomiyning "Zafarnoma" sida borin qabilasidan Tumsa va Jamrodiy ismli amirlar tilga olinadi.

4. Mang'itlar.

Bu davrda O'lkada istiqomat qilgan etnoslardan yana biri mang'itlar edi. Ular mo'g'ul qabilasi bo'lib, mang'itlarning ajdodlari XIII asr boshlarida Mo'g'ulistonda yashagan. Ular XIII asr mobaynida Dashti Qipchoqqa kelib o'rnashib, XIII–XIV asrlarda kichik-kichik guruhlarda O'lkaga kirib kelgan. Shuningdek, XIV asr oxirlarida Oltin O'rda mang'itlarining bir guruhi To'xtamishdan qochib, O'lkadan panoh topgan. Vohadagi mang'itlar kam sonli bo'lib, ularning yirik guruhlari bu paytda ham Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan.

Forsiy manbalarda tilga olingan yana bir etnos naymanlar edi. Amir Qazag'an vafotidan so'ng, mahalliy hokimlar boshboshdoqligi kuchaygach, Hamidxo'ja nayman Andxo'y va Shibirg'onni qo'lga kiritadi. Bundan naymanlar harbiy-siyosiy hayotda ham barlos, sulduz, jaloyir kabi yirik etnik guruhlar qatorida ma'lum kuchga ega bo'lganini ko'rish mumkin. Amir Temur davrida naymanlar yuqori davlat amallarini egallagan. Xususan, sohibqironning ishonchli sarkardalaridan biri Oqbug'a bahodir nayman yetakchilaridan edi. Vohadagi naymanlar tarkibida apardiy guruhi ko'pchilikni tashkil etgan.

5. Yasovuriylar.

Forsiy manbalarda tilga olingan yana bir etnonim yasovuriylar bilan bog'liq. Yasovuriylar Amir Temur va Temuriylar davrida Markaziy Osiyodagi ma'lum bir xalqqa nisbatan qo'llangan. Aslida forsiy manbalarda XIV asr boshlariga qadar Chig'atoy ulusida yasovur etnonimi bilan aloqador xalq uchramaydi. Bu nom Chig'atoy naslidan shahzoda Yasovur nomi bilan bog'liq. U Chig'atoy ulusi hukmronligi uchun aka-uka Isen Buka va Kebekxonlar bilan samarasiz kurashlar olib borgan. Uning qo'shinidagilar undan keyin ham o'zlarini yasovuriylar nomi bilan atab, shu nom ostida tuman shaklida faoliyat yuritganlar. Amir Temur davriga qadar bu nom etnonimga aylanib ulgurgan. Bu etnonim yasovur, yasovuriy, yasuriy

nomlari bilan ham eslatiladi. Bu davrda ularning bir qismi Samarqandda yashagan va ularga Xizr Yasuriy boshchilik qilgan. Yasovuriylar XIV asrning 60-yillar voqealari bayonida yozilishicha, gohida Tug'luq Temur boshchiligidagi mo'g'ullar, gohida Boyazid jaloyir, keyinchalik Amir Temur tomonida bo'lganlar. Yasuriylarning boshqa bir qismiga Hoji Muhammadshoh (Mahmudshoh) Yasuriy yetakchilik qilgan. U boshliq yasuriylar Amir Temurga sadoqat ko'rsatib, uning bir qancha harbiy yurishlarida ishtirok etganlar. Shuningdek, yasuriylar Amir Temur bilan qarindoshlik aloqalarini ham bog'lab, Mirzo Jahongirga Ilyos yasuriyning qizi Baxt Malik og'a nikohlangan. Bu nikohdan Amir Temur davlatining taxt vorisi Pirmuhammad Mirzo dunyoga kelgan.

6.Qavchinlar.

Qavchinlar bu davrning yetakchi harbiy kuchi bo'lish bilan birga Vohadagi yirik qabila ham edi. Ular Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo vohasi va Buxoroda o'rnashgan. Qavchinlar Amir Temur va Temuriylarning deyarli barcha janglarida ishtirok etgan. Shu bilan birga hukmdorning shaxsiy gvardiyasi ham qavchinlardan edi. Ular Amir Temur hokimiyatga kelguniga qadar ham unga sadoqat bildirganlar. Shuning uchun, 1370-yil Alqa qavchin, Ardasher qavchin, Tamuka qavchin (unga Yazd dorug'aligi berilgan) va boshqalar qo'shinga bek qilib tayinlangan. Davlat boshqaruvi va mudofaa ishlarida ko'plab qavchin amirlari (Jangi qavchin (u keyinroq, To'xtamishga qo'shib Sig'noqqa jo'natilgan), Malik qavchin, Ali qavchin, Muhammad qavchin, Idris qavchin, Berdibek qavchin, To'ploq qavchin (bular Anqara jangida ishtirok etgan), Tabriz dorug'asi Bayon qavchin, Gilon yurishida qatnashgan Daryo qavchin, Atalmish qavchin, Durboy qavchin (bular To'xtamishxonga qarshi kurashgan), Musika qavchin (Xanki qavchinning o'g'li, Amir Temur uni Xorazmga imorat qurish uchun yuboradi), Shayx To'ybug'a qavchin, To'ra Malik qavchin, Katur jangida qatnashgan Husayn Malik qavchin, Allohodbek (Xudododi Husayniy) boshliq qavchinlar qo'shini (ular Amir Temurga sadoqat qilsalar ham,

keyinchalik, Temuriylarga xiyonat qilgan), Ray dorug'asi Bayon qavchin, Murod qavchin va boshq.) faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda qavchinning bir qismi Qoshg'arda ham istiqomat qilgan.

7. Qo'ng'irotlar.

Forsiy manbalarda tilga olingan yana bir etnos qo'ng'irotlar edi. Qo'ng'irotlarning aksariyati aslida Jo'ji ulusi hududlarida istiqomat qilgan. 1224-yil Jo'ji ulusi uchun mingliklardan iborat qo'shin ajratilganda, qo'ng'irotlar ham ulusga birlashtiriladi. Qo'ng'irotlar mo'g'ul uluslari tarixida alohida o'rin tutgan. Chunki, Chingizxonning barcha "ulug' o'g'illari" qo'ng'irotlar Day sechenning qizi Barta fujindan tug'ilgan. Rashididdinning yozishicha, Jo'ji va Chig'atoy ulusi vakillarining aksariyati ona tomondan qo'ng'irotlar bilan bog'lanadi. Chig'atoy ulusi hokimiyat talashishlar natijasida kuchsizlangach, Xorazmda o'rnashgan qo'ng'irotlar Xorazmning Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan qismini ham qo'shib oladilar. Ular Xorazmda so'fiylar sulolasiga asos soladi. Qisqa vaqt mobaynida Xorazmni qo'ng'irotlardan Husayn So'fi, Yusuf So'fi, Sulaymon So'filar birin-ketin boshqaradi. So'filar bilan Amir Temur xonadoni o'rtasida qarindoshlik aloqalari bog'langan edi. Bir necha janglardan so'ng ikki o'rtada tuzilgan sulhga So'filar amal qilmaydi. Natijada, 1388-yil Amir Temur Xorazmga beshinchi marta yurish qiladi. Sulaymon So'fi Jo'ji ulusiga qochib, To'xtamishxonning keyingi harbiy yurishlarida uning qo'shinida ishtirok etadi.

Shuningdek, O'lkada turli istilolar natijasida ko'chirib keltirilgan xalqlar ham istiqomat qilgan. Amir Temur yurishlari natijasida ko'plab xalqlarni Samarqand va uning atroflariga keltirib joylashtirgan. Ko'chirib kelinganlarning umumiy soni de Klavixoda yuz mingdan oshiqroq, deyiladi. Ularning asosiy qismi hunarmand va nomdor kishilar bo'lgan. Bu davrda O'lkadan turli istilolar natijasida mahalliy aholining chetga olib chiqilishi ham kuzatiladi. Jumladan, To'xtamishxon Kesh va Naxshabdan va mo'g'ul xoni Esan Bug'a Andijondan ko'plab asirlar olib chiqadi.

Shuningdek, Amir Temur saltanatida aholining erkin va turli sabablarga ko'ra, majburiy migratsiyasi ham kuzatiladi. O'z navbatida aholi migratsiyasi etnik jarayonlarga ham ma'lum miqdorda ta'sirini ko'rsatadi.

Mavzu boyicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Amir Temur davrida etnik tarkib qanday siyosiy va harbiy ehtiyojlar asosida shakllangan?
2. Temuriylar davrida turkiy va forsiy etnoslar o'rtasida qanday madaniy aloqalar mavjud bo'lgan?
3. Ko'chmanchi va joylashgan dehqon aholining o'zaro munosabatlari qanday shakllangan?
4. Amir Temurning harbiy yurishlari etnik o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatgan?
5. Temuriylar davrida rasmiy til va etnik siyosat qanday belgilangan?
6. Etnik guruhlarining ijtimoiy tabaqalashuvi qanday ko'rinishda edi?
7. Vohadagi qadimgi elatlar Temuriylar siyosatiga qanday javob bergan?
8. Amir Temur va uning vorislari etnik barqarorlikni qanday saqlagan?

Amaliy savollar.

1. Amir Temur yurishlaridan keyin turli hududlardan ko'chib kelgan etnik guruhlarini xaritada ko'rsating.
2. Temuriylar davrida yaratilgan yozma manbalarda etnik tafsilotlarni topib tahlil qiling.
3. Turkiylarning elita sinf sifatida shakllanish jarayonini tarixiy misollar bilan izohlang.
4. Forsiy guruhlarining madaniy hayotdagi roli Temuriylar davrida qanday bo'lganini tahlil qiling.
5. Ko'chmanchi qabilalar va mahalliy dehqonlarning ijtimoiy munosabatlarini misollar asosida ko'rsating.

6. Amir Temur tuzgan davlat boshqaruv tizimining etnik tarkibga ta'sirini baholang.
7. Mahalliy elatlarning Temuriylar davridagi adabiyot, san'at va ilmga qo'shgan hissasini aniqlang.
8. Temuriylar siyosatida aralash nikohlar va elatlararo aloqalarning rolini o'rganing.

Munozarali savollar.

1. Amir Temur davlatida turkiylik ustuvor edi degan fikr asoslimi?
2. Temuriylar davrida turli etnik guruhlar orasidagi madaniy integratsiya to'liq amalga oshganmi?
3. Temurning yurishlari etnik o'zgarishlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatganmi?
4. Temuriylar etnik siyosatni kuch bilan emas, madaniyat bilan olib borgan degan qarashga qanday baho berasiz?
5. Turkiylik va forsiylik uyg'unligi milliy o'zlik shakllanishiga xizmat qilganmi?
6. Temuriylar siyosatida ijtimoiy tabaqalanish millatga qarab belgilanganmi?
7. Temuriylar davrida shakllangan etnik tuzilma hozirgi O'zbekiston xalqi etnik tarkibiga ta'sir ko'rsatganmi?
8. Amir Temurning shaxsiy qarashlari etnik siyosatga qanchalik ta'sir qilgan?

TEST.

1. Amir Temur davlatida qaysi etnik guruh siyosiy elita sifatida ustunlik qilgan?
 - A) Forslar
 - B) Arablar
 - C) Turkiylar
 - D) Mo'g'ullar
2. Temuriylar davrida davlat tili sifatida qaysi til ishlatilgan?
 - A) Arab tili
 - B) Turkiy til

- C) Xitoy tili
 D) Lotin tili
3. Amir Temurning yurishlari natijasida qanday etnik jarayonlar sodir bo'lgan?
- A) Faqat urushlar
 B) Etnik guruhlar integratsiyasi va ko'chishi
 C) Tabiiy ofatlar
 D) Shaharlarning to'liq vayron bo'lishi
4. Temuriylar davrida Voha hududida yashagan asosiy aholi tarkibi qanday edi?
- A) Yevropaliklar
 B) Turkiy va eroniy elatlar
 C) Sharqiy slavyanlar
 D) Hind elatlari
5. Amir Temur davridagi etnik siyosatning asosiy maqsadi nima edi?
- A) Bir millatni yo'q qilish
 B) Etnik ajratish
 C) Markazlashgan boshqaruv orqali barqarorlik yaratish
 D) Mustamlakachilik siyosatini yuritish

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
3. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
4. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
5. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. *Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи*. Тошкент. Университет. 1995. –Б. 92

6. Ulasheva S. XIII-XV asrlarda O'lkadagi etnik jarayonlar. Toshkent. "Firdav-Shoh" 2023.
7. Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press, 1998.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
2. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
3. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
4. Л.Н.Гумилев. Этногенез и биосфера Земли. - Л. 1989.
5. Пардаев А.Ҳ Жиззах беклиги - Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан XIX асрнинг 60-йилларигача) Т.ф.н.дисс. Автореферати.- Т., 2004. –Б.16;
6. Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент. Фан. 2001. 14-15 бетлар.

10-MAVZU. SHAYBONIYLARNING O'LKAGA BOSQINI VA AHOLINING ETNIK TARKIBIDAGI O'ZGARISHI

Asosiy savollar

1. Dashti qipchoq Shayboniylarining O'lkaga migratsiaysining o'rganilishi.
2. Shayboniyxon bosqinida davrida kirib kelgan turkiy qavmlar va etnik jarayonlar.
3. XVI-XVII asr manbalarida etnik jarayonlarning yoritilishi.
4. Turkiston, Molguzar tog' tizmalari va Mirzacho'lga shayboniylar bosqini va etnik jarayonlar.

Tayanch iboralar. Shayboniylar, Voha, bosqin, etnik tarkib, o'zgarish, ko'chmanchi qabilalar, o'zbeklar, turkiylashtirish, siyosiy markazlashuv, mahalliy elatlar, forsiy unsurlar, harbiy kuchlar, ko'chish jarayonlari, qabilaviy uyushmalar, etnik integratsiya, ijtimoiy tabaqalanish, tarixiy migratsiya, yangi davlat qurilishi, Yettisuv, Dashti Qipchoq.

1. Dashti Qipchoq Shayboniylarining O'lkaga migratsiaysining o'rganilishi.

Markaziy Osiyo xalqlari etnik tarixida Dashti Qipchoq o'zbek qabilalarining o'rnini bugungi kungacha munozarali mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Mazkur mavzuni atroflicha va tizimli yondashuv orqali, xususan yozma manbalarga tayanilgan holda tadqiq etish zaruriy ehtiyojlardan biriga aylandi. Zero, bugungi kunda dunyoda etnik o'zlikni anglash, madaniyatlararo integratsiyalashuv jarayonlarning jadallashuvi mazkur mavzuga takror va takror murojat etishga undamoqda.

Dashti Qipchoq hududidan O'lkaga migratsiya qilgan aholi taxminiy soni va etnik tarkibi xususida fanda turli fikrlar mavjud bo'lib, shulardan T.I. Sultonov o'rta asr muarrixlari Muhammad Solih, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Muhammad Haydar va Fazlulloh ibn Ro'zbexon bergan ma'lumotlarga asoslanib, mazkur

davrlarda Dashti Qipchoq hududidan taxminan 1 mln 360 mingga yaqin aholi ko'chganligi haqida ma'lumotlarni keltiradi. Akademik K. Shoniyozov esa qabilalarning soni aniq emasligi, lekin mahalliy aholidan ham kam bo'lgan degan fikrni beradi. Muallif bu hududlarga kelib o'rnashgan turkiy va turklashgan mo'g'ul qavmlarning soni 100 mingdan kam emasligini ham ta'kidlaydi.

T. I. Sultonov «Shayboniyнома» asari muallifi Muhammad Solih keltirgan ma'lumotiga asoslanib bildirgan fikriga ko'ra, Shayboniyxon qo'shini tarkibida 19 ga yaqin urug'-qabila vakillari bo'lib, ular bilan birga O'lkaga 13 dan oshiq urug'-qabilalar aholisi ko'chib o'tgan. XVI asr boshiga tegishli «Mehmonnomai Buxoro» asari muallifi Fazlullog ibn Ro'zbexon Dashti Qipchoq o'zbeklarini uch guruhga ajratadi, ular: Shayboniyxon qo'l ostidagi qabilalar; Dashti Qipchoqning sharqiy qismiga ko'chib ketgan qozoqlar va mang'itlar. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Shayboniyxonning harbiy rejasidagi maqsad, safdoshlari uning qiziqishiga to'laqonli javob berishi kerak edi.

Ma'lumki, Dashti Qipchoqdagi etnik jarayonlarning murakkabligi tufayli Abulxayrxon tarafdorlarining ko'pchiligi qochib ketadi va Shayboniyxon aynan bobosi Abulxayrxonni qo'llab-quvvatlagan qabilalardan foydalanishga harakat qiladi. Shayboniyxon o'zining hukmronligini shiddat bilan mustahkamlaydi va harbiy jihatdan kuchli qo'shin tuzadi hamda ularni o'zining atrofida yig'adi. «Tavorixi guzida Nusratnoma» asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, u bu odamlarga o'z yaqinlarini yuborib, ularning o'z xizmatga kirishlarini taklif qiladi va ularga har qanday sharoitda yordamini ayamastligini bildiradi. Bundan ayon bo'ladiki, Shayboniyxon Dashti Qipchoqdagi qabilalar tarkibidan o'z qo'shinini tuzishga harakat qilgan.

Ammo Herman Vamberi Shayboniyxon qo'shinini turli hududlarda istiqomat qiluvchi qabilalardan bo'lganligini ta'kidlaydi. Jumladan, u bu haqda shunday yozadi: "Shayboniy qo'shinlari qayerdanligini bilmoqchi bo'lsak, bu asarda «Shayboniyнома» ba'zilar cho'lning uzoq shimolidan ekanligi, ikkinchilari Xataydan

(ya'ni Xitoydan), uchinchilari Chimboydan ekanligin ko'ramiz. Bundan Shayboniy Vutou Muhammadxon qo'l ostidagi turk elining xilma-xil vakillari jamlangan degan xulosa chiqarish mumkin» deb o'z fikrini aytib o'tadi.

2. Shayboniyxon bosqinida davrida kirib kelgan turkey qavmalr va etnik jarayonlar.

Shayboniyxonning hokimiyatni egallashda va harbiy yurishlarida uning bobosini qo'llagan qipchoq, do'rmon, nayman, qushchi, qiyot, ming, qarluq, uyg'ur, qo'ng'iroq, kenegas, ichki, o'tarchi, tangut, tuman, xitoy, mang'it, chimboy, burkut, shurqorli, mesit, yidjon, shodboqli kabi qabilalar va etnik guruhlar faol ishtirok etgan. Ularning yetakchilari quyidagilar: Shayx Murod majorlar qabilasidan, Ali Mardon uyshun qabilasidan, Mamish tatar qabilasidan, Minqay uyg'urlar Bek Ota salur qozoq qabilasidan. Asarning boshqa joylarida esa yana do'rmon, yamaliq, otaji, qiyot, nayman kabi qabilalari eslatiladi.

Shuningdek, Herman Vembari Shayboniyxonning mo'g'ullarga qarshi harbiy yurishida siyiut, qiyot, qo'ng'iroq, borqut, mang'it, nayman, do'rmon, ushun, qushchi, jaloyir, qarluq, sulduz, nukus, tatar kabi qabilalar qatnashganligini ham yozadi.

«Abdullanoma»dagi ma'lumotlarga qaraganda, XVI asrda Dashti Qipchoqdan O'lkaga ko'chib kelgan turk-mo'g'ul qabilalarning soni 40 nafarga yetgan va ular quyidagilardir: bahrin, besh yuz, do'rmon, jaloyir, kenegas, mang'it, ming, major, nayman, olchin, orlot, uyg'ur, xalaj, xitoy, shirin, utarchi, qang'li, qatag'on, qipchoq, qo'ng'iroq, qiyot, argin, yobu, mo'g'ul, sajobat, tuboyi, tama, keroit, qorliq, saroy, turk, uyshin va b. Dashti Qipchoqdan Voha hududiga so'nggi davrlarda kelgan urug'lar tuyoqli, mo'ytan, xitoy, mang'it va qo'ng'iroqlar hisoblanadi. Ular avvaliga mang'it-no'g'oy va qozoq etnik-siyosiy uyushmaga kirib, so'ngra Voha hududiga kelib o'rnashgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Dashti Qipchoq o'zbeklari Vohani egallamasdan ancha oldin bu hududga Dashti Qipchoqdagi ayrim

turkiy qavmlarning guruhleri ko'chib kelgan va boshqa guruhleri ham XVI-XVII asrlarda kelib o'rnashgan. Akademik K. Shoniyozov turkiy va turk-mo'g'ul etnik guruhlar bir vaqtning o'zida O'lkada, Xorazmda va Dashti Qipchoqda yashaganlar deb ta'kidlaydi.

Hofiz Tanish al-Buxoriy «Abdullanoma» asarida Voha va Dashti Qipchoqda yashagan ko'pgina qabila va etnik guruhlarining nomlarini keltirib o'tish bilan birgalikda ularga tavsiflar berib ham o'tadi. Shuningdek, ushbu qabilalardan chiqqan amaldorlarga ham to'xtalib o'tib, shu davrda har bir qabilaning jamiyatda tutgan o'rni haqida yozib o'tadi. Jumladan u asarida qipchoqlar haqida shunday deydi: «O'g'izxon ularning (unga qarshi isyon ko'targanlarning) zararli harakatlarining oldini olish va yomonliklarini daf' etish uchun qipchoqqa yaylovda o'tirishni va ularning (isyonchilarning) yo'lini to'sishni buyurdi». Rashiddin O'g'izxon qipchoqlarni ma'lum manzilga qo'yib, chegarani qo'riqlashni topshirganligi haqida biron fikr bildirmagan. Hofiz Tanish al-Buxoriy qipchoq qabilasining kelib chiqishi haqida bir hikoya keltiradi. Unda aytilishicha, O'g'izxon itborok qavmidan yengilib, ikki daryo oralig'ida qolib ketgan vaqtda, eri jangda o'ldirilgan bir homilador ayol katta bir daraxt kovagiga kirib o'g'il tug'adi va O'g'izxon o'sha bolani o'z bolasi o'rnida ko'rib, uni o'z tarbiyasiga oladi. O'g'izxon unga Qipchoq deb ism qo'ydi. Mazkur ism "kabak" so'zidan olingan bo'lib, turkchada kavakli daraxtni shunday ataydi. «Tavorixi guzida Nusratnoma» asarida ham qipchoqlar xususida xuddi shunday hikoya keltirib o'tiladi. Abulg'oz Bahodirxon «Shajarai turk» asarida qipchoqlar Tin (Don), Itil (Volga) va Yoyiq (Ural) daryolari orasida yashaganlari haqida ma'lumotlar mavjud. XI-XVI asrlarda Sirdaryoning quyi oqimi va Balxash ko'lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan katta hududlarda ko'chmanchi qipchoq qabilalari yashaganlar va shu bois bu hudud Dashti Qipchoq deb atalgan. V. V. Bartoldning so'zlariga qaraganda, Dashti Qipchoq aholisi 1030-yili Xorazmga qo'shni bo'lgan.

Hofiz Tanish Buxoriy «Abdullanoma» asarida u yana quyidagi qavmlar va etnik guruhlarining nomlarini keltirib o'tadi: uyg'ur, qong'li, xalaj, og'ojiri, qorliq, itbaroq, uryonqit, qo'ng'iroq, uryovut,

qunkiton, orlot, kalankut, birinjis, hushin, sulduz, ildurkin, boyovut, kingit, qayqin, saljuit, boyjuit, chinin, yumoqdin, urut, manqut, do'rmon, borin, suknut, borulos, hidurkin, juryot, budot, duqlot, nisut, suqson, kikqiyon, nirun, qiyot, burchqin. «Abdullanoma» va «Tavorixi guzida Nusratnoma» asarlarida qabila va etnik guruhlar nomlarining kelib chiqishini hamda barcha turk-mo'g'ul qabilalarning asoschisi sifatida har ikkala asar mualliflari afsonaviy O'g'izxon nomi keltiriladi.

3.XVI-XVII asr manbalarida etnik jarayonlarning yoritilishi.

XVI-XVII asrlarda yozilgan manbalarida mahalliy aholiga nisbatan «shahrinishin (shahriy)», «sahronishin (sahroyi)», «Voha xalqi» kabi nomlar bilan mahalliy aholini muarrixlar tilga olganligining guvohi bo'lamiz.

Hofiz Tanish al-Buxoriy o'zining "Abdullanoma" asarida Vohani Bobur tomonidan qayta egallanishi jarayonini tasvirlab, Voha xalqi boshda podshohning g'alabasidan mamnun bo'lsa-da, oxirda uning nomaqbul fe'llari va xulqlari tufayli uni (o'zlaridan) yiroq bo'lishini hazrati Izzidan (ya'ni Tangridan) so'radilar...», deya mahalliy aholiga nisbatan «Voha xalqi» iborasini ishlatgan. Bu esa o'sha davrgacha O'lkada hozirgi o'zbek elati allaqachon shakllanganligining yana bir isbotidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XVI asrda Dashti Qipchoqdan O'lkaga ko'plab etnik guruhlarining kirib kelishi natijasida mazkur hudud aholisi etnik tarkibining o'zgarishiga olib keldi. Bu davrga kelib o'zbek elati shakllanib bo'lganligi bois, ular o'zbek elati tarkibiga qo'shilgan navbatdagi komponentlar edilar. Ular asosan ko'chmanchilik turmush tarziga ega bo'lganliklari sabab mahalliy aholining turmush tarziga, an'analariga, madaniyatiga, xo'jalik faoliyatiga ta'sir o'tkaza olmagan. Aksincha, ular mahalliy aholi urf-odatlarini o'zlashtirib, o'troqlasha boshlagan. Bu esa Movaraunnahr aholisining son jihatdan o'sishiga olib kelgan.

4. Turkiston, Molguzar tog' tizmalari va Mirzacho'lga shayboniylar bosqini va etnik jarayonlar.

Malumki, Oq O'rda (o'zbek ulusi) kochmanchilari kopincha qish faslida Movorunnahrning o'troq aholili hududlariga hujum qilib turar edilar. Abdurazzoq Samarqandiy va Ro'zbexonning ma'lumotlariga ko'ra har qish fasli ular Buxoro, Samarqand ostonalarigacha kelib tevarak-atrofdagi hamma qishloqlarni talab qaytardilar. Amir Temur vafotidan so'ng (1405-yil 18-fevral) Toshkent, Xo'jand va Farg'onada amir Xudoydot Husayniy mustaqillik bayrogini ko'taradi. Muhammad Husayn (XVI asrda yirik tarixchi Mirzo Muhammad Haydarning otasi, turklashgan mo'g'ul urug'laridan do'g'lat (mo'g'. dog'olot – cho'loq) qabilasiga mansub)... bir vaqtlar Andijonda Umarshayx Mirzo, so'ngra Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon (1487-1508-yillar) xizmatida bo'lgan. U 1495-1503-yillari Sulton Mahmudxon nomidan O'ratepani idora qilgan. Muhammad Husayn 1503-yili xonlar (Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxon) Aysi atrofida shayboniy qo'shinklaridan tor-mor keltirilgani va asr olinganini eshitib avval Qoratepinga, undan Qunduzga so'ng Hirotga Sulton Husayn Mirzoning huzuriga qochib boradi. Bu haqida Mirzo Muhammad Haydarning "Jahonnoma" va "Tarixi Rashidiy" asarlarida ma'lumotlar bor¹. Shuningdek Boburnomaga ko'ra Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon Hofiz Muhammad do'ldoyga Jizzax bekligini in'om qilgan. 1501-1502-yillarda "Dizzakhda Hofiz Muhammadbek do'ldoyning o'g'li Tohir do'ldoy (hokim) edi dep tasdiqlaydi.

Fikrimizcha, Shayboniyxonning o'lkani bosib olish tarixi manbaviy, tarixiy tahlillarda anchalik mavhum yoritilgan. Ma'lumki, 1505-yilda Shayboniyxon Samarqand shahrini istilo qiladi. Bobur noiloj 1501-yilning ikkinchi yarmida Samarqandi tark etib, Turkiston, Molguzar tog' tizmalari va Mirzacho'l tomon chekinadi. Ayrim bir manbalar va tarixiy tahlillarda Shayboniyxonning Turkiston, Molguzar tog' tizmalari va Mirzacho'l hududini 1501-yilda bosib olgani haqida gap boradi. Aslida 1501-yilda

¹ B.Axmedov O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent. Oqituvchi, 2001. 209-210-betlar.

Shayboniyxon Samarqandni bosib olgandan so'ng sharqqa tomon yurish qilmoqchi bo'lib turgan paytda Binoiyning "Shayboniynoma" sig'a ko'ra Qorako'l, Qarshi, G'uzorda unga qarshi qo'zg'olonlar boshlanadi. Shuningdek, "Zubdat ul-asar" muallifi ma'lumotlariga ko'ra, Qunduz hukmdori Husravshoh 50 ming kishilik lashkar bilan Hisordan chiqib yurish boshlaydi. 1501-yilning kuzida Shayboniyxon mahshur Temir darvoza (Darioxanin) mavzesidan o'tib Qarshiga yursh qilishga majbur boladi.

Shayboniyxonning jangovor muvaffaqiyatlarida ukasi, lashkarboshi Mahmud Sultonning hizmatlari nihoyatda yuksak bo'lgan. Fikrimizcha, Turkiston, Molguzar tog' tizmalari va Mirzacho'l tomon 1501-yilda janglarni Mahmud Sulton davom ettiradi va jangda hayoti uchun havfli darajadagi jarohat oladi. Uni Samarqandga olib borishib hattoki dafn qilish uchun dahma tayyorlaydilar. 1510-yilda Shayboniyxon Xuroson tuprog'ida mag'lubiyatga uchrab, halok bo'lgandan keyin Samarqanda o'z birodari Mahmud Sultonni dafn qilish uchun tayyorlab qo'yilgan (1501-yil) supaga qoyadilar.

Shayboniyxon 1503-yilda Turkiston, Molguzar tog' tizmalari va Mirzacho'l tomon yurish qiladi. Abulxayr Fazlulloh Ro'zbexonning "Mehmonnomayi Buxoro" asaridagi ma'lumotlariga ko'ra Shayboniyxon Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo'shiniga qarshi katta qo'shin bilan yurish boshlaydi. Zabt etilgan hududlardagi aholini qoshinlar oldiga solib yangi shahar va qalalarni zabt etadi. Yo'l-yolakay Shohruxiya va Xo'jand, O'ratepa, Zomin atroflarini talon-taroj qilib uning askarlari aholining 200 ming bosh qo'y, 5 ming ot va 300 ming (ba'zi manbalarda 1,5 ming kishi) qulni o'lja qilib olganlar. Shuningdek, "Tavorix guzida Nustratnoma"da xuddi shunday ma'lumotlar mavjud. Ittifoqchilar qo'shinlari Sirdaryo bo'yidagi Arxion shahri yonidagi shiddatli janglarda tor-mor keltirilib, Toshkent va Shohruxiya ishg'ol qilinadi.

1504-yilning bahorida Shayboniyxon Farg'ona vodiysini bosib olidi. Bobur 1504-yilning yozida (iyun oyida) Shayboniyxon bilan

kurashishdan qaytib, O'rta Osiyoni tark qiladi va Afg'onistnga boradi. Shayboniyxon 1503-yilda O'ratepani egallagach, unga Xo'ja G'ozimang'itni hokim etib tayinlaydi. Manbashunos olim A. Muxtorovning ta'kidlashicha bu davrda Zomin, Yom, Peshog'ar, Jizzax va O'ratepa Xo'ja G'ozimang'itga boysungan.

1451-, 1462-yillarda Abulxayrxon va ko'chmanchi o'zbeklar Temuriylarning toju-taxt talashib qilgan kurashlariga aralashib O'rta Osiyoga katta yurishlar qilgan, ming-minglab kishilarni asir qilib olib ketganlar va ularni qulga aylantirganlar.

Ro'zbexon 1508-yili Qozoq sultonlaridan Ahmad Sultonning Samarqand va Buxoro atroflarini talab u yerdan 50 mingdan ortiq kishini asr qilib olib ketganligini hikoya qiladi.

Qozoq sultonlari Shig'oyixon va uning o'g'li Tavakkal sultonlar Abdullaxonning Toshkent va Turkiston hukmdori Boboxon avlodlariga qarshi kurashda ko'rsatgan yordamlari uchun 1581-yili Xo'jand viloyatini iqto tarzida oladilar.

Mavzu boyicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Shayboniylar Vohani qanday tarixiy sharoitda egallagan?
2. Shayboniylar bosqinidan oldin O'lkada qanday etnik guruhlar mavjud edi?
3. Ular O'lkada qanday yangi etnik tuzilmalarni shakllantirgan?
4. O'zbek nomi Shayboniylar davrida qanday etnik ma'noga ega bo'lgan?
5. Shayboniylar siyosati orqali turkiy unsurlar qanday kuchaygan?
6. Aholining etnik tarkibida yuz bergan o'zgarishlar qanday manbalar orqali tasdiqlanadi?
7. Forsiy madaniyat va mahalliy elatlarning Shayboniylar davridagi holati qanday bo'lgan?
8. Shayboniylar harbiy-siyosiy siyosatining etnik barqarorlikka ta'siri qanday?

Amaliy savollar.

1. Shayboniylar davrida O'lkaga kirib kelgan etnik guruhlarini xaritada ko'rsating.
2. Tarixiy manbalar asosida etnik tarkibdagi o'zgarishlarni jadvalda tahlil qiling.
3. Shayboniylar harbiy yurishlaridan keyin o'zbek qabilalari qanday hududlarda joylashtirilganini aniqlang.
4. Mahalliy aholining siyosiy tizimdagi o'rni qanday o'zgarganini misollar bilan tushuntiring.
5. Shayboniylar yozma merosidan foydalanib etnik siyosatga oid g'oyalarni ajrating.
6. Ko'chmanchi turkiy qabilalarning mahalliy dehqon aholiga ta'sirini tahlil qiling.
7. O'zbeklashuv jarayonini arxeologik va lingvistik belgilar asosida izohlang.
8. Shayboniylar tashkil etgan boshqaruv tizimida etnik guruhlarning vakilligi qanday edi?

Munozarali savollar.

1. Shayboniylar bosqini Vohani etnik birlashishga olib kelganmi yoki parchalanishga?
2. Ular tomonidan olib borilgan o'zbeklashtirish siyosati tarixiy zarurat edimi?
3. Shayboniylar davrida forsiy madaniyat va tillarning mavqei susaygan deb hisoblash mumkinmi?
4. O'lkada yashagan qadimiy elatlar Shayboniylar davrida ijtimoiy hayotdan siqib chiqarildimi?
5. Shayboniylar davrida etnik jihatdan aralash oilalar va nikohlar ko'payganmi?
6. Turkiy va forsiy unsurlar o'rtasidagi madaniy integratsiya haqiqatda amalga oshganmi?
7. Shayboniylar istilosi – Voha tarixida etnik uyg'unlikka sabab bo'lgan davrmi?
8. "O'zbek" nomi faqat etnik tushunchami yoki siyosiy tushunchami? Buni qanday asoslash mumkin?

TEST.

1. Shayboniylarning O'lkaga kirib kelishi qaysi yilda boshlangan?
 - A) 1380
 - B) 1451
 - C) 1500
 - D) 1526
2. Shayboniylar istilosi natijasida qanday etnik jarayon kuchaygan?
 - A) Arablashuv
 - B) Turkmanlashuv
 - C) O'zbeklashuv
 - D) Mo'g'ullashuv
3. Shayboniylar tomonidan o'zbek nomi qanday qo'llanilgan?
 - A) Faqat siyosiy atama sifatida
 - B) Faqat etnik tushuncha sifatida
 - C) Ko'chmanchi qabilalarning umumiy nomi sifatida
 - D) Shahar aholisi uchun ishlatilgan nom sifatida
4. Shayboniylar bosqinidan oldin O'lkada kimlar asosiy etnik guruh bo'lgan?
 - A) Mo'g'ullar
 - B) Forsiylar va turkiylar
 - C) Arablar
 - D) Hindlar
5. Shayboniylar O'lkada qanday siyosiy tizim o'rnatgan?
 - A) Shohona monarxiya
 - B) Viloyatlarga asoslangan harbiy-federal boshqaruv
 - C) Qabila konfederatsiyasi
 - D) Xalifalik tizimi

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
3. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.

4. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lining o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
5. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи. Тошкент. Университет. 1995. –Б. 92
6. Ulasheva S. XIII-XV asrlarda O'lkadagi etnik jarayonlar. Toshkent. "Firdav-Shoh" 2023.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
2. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
3. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
4. Л.Н.Гумилев. Этногенез и биосфера Земли. - Л. 1989.
5. Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент. Фан. 2001. 14-15 бетлар.
6. Султонов. Т.И. Кочевие племена Приаралья в XV-XVIII вв. Москва: Наука, 1982.
7. Sabol, Steven. *Russian Colonization and the Genesis of Kazakh National Consciousness*. Palgrave Macmillan, 2003.

11-MAVZU. XVIII-XIX ASRNING BIRIRNCHI YARMIDA TURKISTON, MOLGUZAR TOG‘ TIZMALARI VA MIRZACHO‘LDA ETNO-SIYOSIY JARAYONLAR

Asosiy savollar

1. XVIII-XIX asrning birinchi yarmidagi migratsion jarayonlarning etnologik nuqtai nazardan o‘rganilishi.
2. Turkiston, Molguzar tog‘ tizmalari va Mirzacho‘l etno-siyosiy jarayonlar markazida.
3. Migratsion jarayonlarning ma‘naviy madaniyatdagi namoyon bo‘lishi.

Tayanch iboralar. Turkiston vohasi, Molguzar tog‘ tizmalari, Mirzacho‘l, etnik tarkib, siyosiy jarayonlar, ko‘chmanchi qabilalar, dehqonchilik aholisi, chorvachilik xo‘jaligi, qabila ittifoqlari, mahalliy boshqaruv, xonliklar siyosati, yer-suv munosabatlari, ijtimoiy tabaqalanish, o‘zbek urug‘lari, qirg‘iz-qalmoq yurishlari, dasht hududlari, etnik harakatlanish, ziyorat joylari, tarixiy-madaniy makonlar, tarixiy migratsiyalar.

1.XVIII-XIX asrning birinchi yarmidagi migratsion jarayonlarning etnologik nuqtai nazardan o‘rganilishi.

Markaziy Osiyodagi etnosiyosiy jarayonlarni shuningdek, zamonaviy o‘zbek xalqi istiqomat qilayotgan hududlarning batafsil etnik xaritasini chizish uchun XVIII-XIX asrning birinchi yarmi etnosiyosiy jarayonlar tarixini mintaqaviy jihatdan maxsus o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyodagi ikki ming yildan ziyod tarixga ega Samarqand, Buxoro, Toshkent, Jizzax, Zomin, O‘ratepa, Xovos, Xo‘jand kabi shaharlar o‘tmishda kamida yetti-sakkiz bor halokatga yuz tutgan bo‘lib, undan uch-to‘rttasi tabiiy ofatlar tufayli kelib chiqqan bo‘lsa, qolganlariga antropogen omillar sabab bo‘lgan.

Buxoro va Qo‘qon xonliklari o‘rtasida tutash mintaqada o‘zbeklarning yuz urug‘i tomonidan O‘ratepa hokimligiga asos

solinib, mustaqil boshqarildi. Hozirgi kunda O'ratepa hokimligining tog'lik hududlari Tojikiston Respublikasiga, Mirzacho'l qismi O'zbekiston Respublikasiga qaraganligi sababli, sobiq sovet davri mafkuraviy qarashlariga ko'ra, akademik B. G'ofurovning "Tadjiki" monografiyasida O'ratepa hokimligining tarixi, mintaqa xalqlarining uzviy taqdiri, etnik jarayonlari ochilmay qolgan. Akademik N. Tursunov mavzu doirasida shimoliy Tojikiston qishloq va shahar aholisining tarkibi, etnik jarayonlari masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, akademiklar K. Shoniyozov va A. Asqarovlarning tadqiqotlarida Mirzacho'ldagi etnik jarayonlar atroficha tahlil qilingan. Elshunos T. Salimovning Zomin tumani aholisining shakllanishiga taalluqli tadqiqot tahlilida tuman aholisi etnik tarixiga doir ma'lumotlar umumlashtirib berilgan.

Bugungi kunda mintaqada yashayotgan xalqlarning etnik tarkibining shakllanishini o'rganishda XVIII-XIX asrning birinchi yarmiga taalluqli manbaviy, ilmiy va axborotchilar ma'lumotlari hamda turli hudud, qishloqlar va o'zbek urug'lariga doir zamonaviy ishlanmalarni umumlashtirish, fikrimizcha, ma'lum ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohadagi dastlabki ma'lumotlar tahlili U. Alibekov tomonidan "Samarqand shahri XVIII asr Markaziy Osiyo etnosiyosiy jarayonlari markazida" maqolasida umumlashtirilgan.

O'ratepa hokimligining siyosiy-etnik tarixini ikki davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'lib, XVIII boshlaridan asr oxirlariga qadar bo'lgan birinchi davrida o'zbek yuzlarining siyosiy hukmronligi o'rnatiladi va yuksaladi; ikkinchi davrda - XVIII asrining oxirlaridan to 1866-yilga qadar hudud Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida bahsli maydonga aylanadi. Hududiy etnik jarayonlarning, tutash mintaqalar bilan bog'liqligi bir yarim asrlik etnik jarayonlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Har qanday hudud aholisining etnik mansubligini ular yashagan mahalla yoki qishloq nomlaridan, shuningdek, asl yurtlari to'g'risida avloddan-avlodga o'tib kelgan ma'lumotlardan ham bilish mumkin. Etnolog olima B. Karmishevaning ma'lumotiga ko'ra, qarog'aliklar, varzobilar, ko'histonliklar asl kelib chiqishini Samarqand va uning

atrofida yashovchi elatlar bilan bog'laydi. Shimoliy Tojikiston shahar, qishloqlari aholisining etnik tarkibini o'rgangan akademik N. Tursunov Xo'jand, O'ratepa shaharlari atrof qishloqlarida asli samarqandlik yoki buxorolik qatlamlar mavjudligini, xususan barloslar Samarqand atrofidan kelganini bayon qilgan. Shuningdek, samarqandlik urganjilar, Farg'ona vodiysida ham urganjilar borligi qayd etilgan.

2. Turkiston, Molguzar tog tizmalari va Mirzacho'l etno siyosiy jarayonlar markazida.

XVIII asrning birinchi yarmida O'rtatepa hokimligi nisbatan tinch mintaqaga bo'lib, Zarafshon vohasi aholisining katta qismi bu yerga kelib o'rnashgan. Bugungi kundagi etnologik kuzatuvlarga ko'ra, Samarqand – Xo'jand shaharlari orasidagi qishloqlarda ham ular ko'pchilikni tashkil etib, Yangibod tumanidagi Mo'g'ol, Uchturgan qishloqlarining barcha aholisi, Sovot qishlog'i aholisining ma'lum bir qismi, Zomin tumanidagi Quchchi qishlog'i ahlining barchasi o'zlarining kelib chiqishini Samarqand shahri va atrof qishloqlari bilan bog'laydilar. Masalan: quchchiliklar asli Urgut tumani Jartepa qishlog'idan kelgan bo'lib, bugungi kungacha Samarqand shahri va atrof qishloqlardagi qarindoshlari bilan quda-andachilik, bordi-keldilari saqlanib qolgan.

Akademik K. Shoniyo'zovning tahlillariga ko'ra, Amir Temurning Xorazmga qilgan oxirgi yurishida (1388), Shayboniyxonning Xorazmni egallaganida (1501, 1502) Buxoro amirlarining Xorazmga yurishlari davrida, Zarafshon daryosining o'rta va quyi qismlariga ko'chirilgan urganjilar joylashtirilgan. XVIII asr boshlarida urganjlarning bir qancha qismi ko'chib, Baxmal tumani Teraklisoy hududiga, Jizzax tumanidagi Robot qishlog'i hududlariga o'rnashadi. Zomin, O'ratepa atrofidagi qishloqlarda naymanlar istiqomat qilib, o'zlarini kelib chiqishini Samarqand tomonlar bilan bog'laydilar. Naymanlar XVIII asrgacha Surxondaryo vohasining Termiz tumanida qo'ng'irotlar bilan birgalikda yashab kelganlar. Zominning Jontut

qishlog'i naymanlari katta urug' bo'lib cho'yin, risto'pi, boyto'pi, beyto'pi, toshto'pi va hokazolarga bo'lingan.

XX asr davomida olib borilgan etnologik tadqiqotlarda Janubiy O'zbekiston qo'ng'irotlari shajarasi Markaziy Osiyoning turli hududlarida yashovchi (Qorqalpoq, Xorazm, Buxoro vohasi) qo'ng'irotlari bilan qiyoslab ko'rish natijasi ularning umumiy etnik tarixga ega ekanligini isbotlaydi. Turkiston tog' oldi, Sirdaryoning chap sohili qishloqlarida qo'ng'irotlar, (uning shoh tarkibida) Qo'shtamg'ali, Qonjig'ali, Vaxtamg'ali, shuningdek urug' to'plarida uyuvli, ishqili, taroqli, boymoqli, ochamayli, qoraqalpoq, balg'ali, qorako'sak, kenagaslar istiqomat qilgan. Shuningdek, Nayman, Achamayli, Qiyot qishloqlari mavjud.

A. Maksheyev ma'lumotlariga ko'ra, qo'ng'irotlar tarkibiga kiruvchi aholi o'zlarini Surxondaryo tomondan ko'chib kelganliklarini ta'kidilashgan. Aslida, naymanlar va qo'ng'irotlar qadimdan jangovor qabilalar bo'lib, Hisor bekligi ularning ma'lum qismini O'ratepa, Jizzax, Samarqand atrofi muzofotlarini Buxoro xonligi (keyinchalik amirlik) hamda Qo'qon xonligi tajovuzidan qo'riqlash uchun strategik muhim bo'lgan chegara hududlarga ko'chirgan. Bu tadbir turli dushmanlardan qo'riqlash bilan birga, ularning an'anaviy xo'jaligi – chorvachilik uchun keng hududlar zaruratidan kelib chiqqan.

Qadimgi Banokat o'rniga Amir Temur Shohruxiya shahriga asos solgan bo'lib, XVIII asrning oxirgi choraklarida Sirdaryo suv sig'imining ortib borishi natijasida shaharning katta qismi yuvilib ketgan. Shohruxiya ahli "uyimizni ilon bosdi", deb atrof mintaqalarga ko'chigan hamda Turkiston tog' tizmasining shimolidagi bir qancha shahar, qishloqlarga borib o'rnashganlar. Sirdaryoning so'l sohilidagi Qo'riq, Qo'rg'oncha, O'ratepa yaqinidagi Topqoq qishloqlaridagi shohruhiyalik o'zbek quramalarining beshkalla va topqoq to'plari vakillari antropologik jihatdan, O'rta Osiyo ikki daryo orlig'i tipiga mansub bo'lib, qarluq lahjasida so'zlashganlar. XVIII asrning birinchi choragida jo'ng'orlar bosqini tufayli Toshkent shahri, voha aholining ma'lum bir qismi janubiy mintaqalarga ko'chgan.

Toshkentliklar mahallalari O'ratepa, Samarqand shaharlarida shakllangan. Yangiobod tumanining markaziy qo'rg'oni Balandchaqir aholisi tarkibida parkatilar to'pi mavjudligi, XVIII asr boshlarida parkentliklarning nisbatan tinch hududga ko'chib kelganliklari bilan izohlanadi. Akademik N. Tursunov ma'lumotlarga ko'ra, O'ratepa shahrining Mullajar, Bog'ot mahallalarida sayramliklar istiqomat qilib og'lik, boy, to'ng'iz, yayiq, yashik, po'stak to'plariga bo'lingan. Sayramliklar Toshkentga yaqin bo'lgan Sayram shahri (Janubiy Qozog'iston) dan XVIII asr boshlarida jo'ng'orlar hujumi sabab ko'chib kelganlar. Yangiobod tumanidagi Qo'shqand, Jizzax yaqinidagi Rabot qishlog'ida qo'shqandliklar istiqomat qilishib hozirgi avlodlar ham o'zlarinngi asl ota yurtlari o'sha tomondan, deb biladi.

Turkiston tog' tizmalarining shimoliy yonbag'rida qadimdan o'zbeklar va voha tojiklari yashab kelgan. XVIII asrning birinchi yarmida voha tojiklari tarkibiy qismi tog'lik tojiklar hisobiga ko'payib bordi. Matcho, Yag'nob, Falg'ar, Qorategin, Darvoz, Hisordan har yili kelib mavsumiy ishlarida ishlab ketadigan tojiklarning ma'lum bir qismi voha shaharqishloqlarida qolib, mahalliy aholiga singib bordilar. Buni tog'li hududlarda yashovchi xalqlar chorvachilikka asoslangan xo'jalik hayoti, turmush qiyinchiliklari bilan izohlash mumkin. Bunday jarayonlar o'z navbatida demografik o'zgarishlarga olib kelgan. Samarqand, Buxorodan ko'chib kelgan voha tojiklari asosan O'ratepa, Xo'jand shaharlariga o'rnashib, o'z mahallalarini tashkil qilgan. Axborotchilardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, buxorolik tojiklarining ma'lum qismi Sangzor daryosining yuqori oqimidagi Tojik qishlog'iga joylashgan. Yoki tojik tilida so'zlashuvchi aholiga yaqin bo'lgan hududlarni tanlagan.

3. Migratsion jarayonlarning manaviy madaniyatdagi namoyon bo'lishi.

O'rganilayotgan hudud aholisining o'tmishdagi migratsion jarayonlari tarixini, aholining ma'naviy madaniyatini turli jabhalarda

ham kuzatish mumkin. Hudud aholisi, xo'jaligi, turmush tarzi, ijtimoiy dunyoqarashiga ko'ra, ular e'tiqodida so'fiylikning ta'siri nisbatan kuchli bo'lgan. Ayrim hollarda urug' qabilalarning yaqinligi – qarindoshligi ular “sig'ingan pirlar”iga nisbatan ham belgilangan. Etnologik tadqiqotlarda o'roqlilar pirlari – Sardobada, boyovutliklarning pirlari – Samarqandda yashaganligi, barcha turklarning eshonlari O'ratepa yoki Samarqanddan borganligi aytib o'tilgan.

Tarnov qarapchilarning eshonlari Piskentdan yoki Xo'janddan bo'lsa, ba'zi bir etnik komponentlarning eshonlari Qo'qon tomonidan ekanligi ma'lum bo'lib, bu holatlar yaqin o'tmishimizning migratsion jarayonlari xususida darak beradi. Ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek xalqining turmush tarzida inson xotirasi bilan bog'liq bo'lgan qa'da marosimlari katta ahamiyat kasb etib kelgan. Qabriston–qo'yindilar hamda muqaddaslashtirilgan mozor-ziyoratgohlar bilan bog'liq udumiy an'analar zamirida migratsion jarayonlarning davomiyligi namoyon bo'ladi. Buni Tarnov qarapchilarining Piskent tomondagi Mozor bobo, Turkiston tog' oldi mintaqasida Xo'jamishkent va Qorasoqol bobo ziyoratgohlarini ulug'lashlarida, ularni ziyorat qilish Makka hajiga tenglashtirilganligida ko'rinadi.

O'zbek tuyoqli urug'i Oqqo'rg'on tumanidagi qabriston–qo'yindi va Yangiobod tumani markazi bo'lgan Balandchaqir shaharchasi sharqiy qismidagi Varqin azizlar mozorbobosini muhim ziyoratgoh sifatida bilganlari ularning Toshkent vohasidan Turkiston tog' tizmasi tomon ko'chib o'tgani bilan izohlanadi. Demak, ziyoratgohlar o'tmishdagi migratsion jarayonlarni yaqqol aks ettiruvchi moddiy madaniyat yodgorligi sifatida tariximizning yashirin sahifalarini o'rganishga xizmat qiladi.

Manbashunos A. Muxtorovning ma'lumotlariga ko'ra, XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida O'ratepa hokimligi hududlarida tabiat hodisalaridagi o'zgarishlar, ya'ni bahorning kech kelishi, qishning erta tushishi, qurg'oqchilik, hosilsizlik, yer qimirlashlari, chigirtka bosqini, epidemiologik xastaliklar o'z navbatida shafqatsiz kechgan siyosiy jarayonlarga sabab bo'lgan. Oqibatda O'ratepa hokimligi

aholisi sezilarli darajada kamaygan. Qo'qondan Xo'jand orqali O'ratepaga borgan F. Nazarov "Yo'l bo'ylab har 15 verstda qishloqni uchratar edik, lekin u yerda ko'rganlarini bayon qilganligi ham o'z navbatida mavjud holat haqida ma'lumot taqdim qiladi. XVIII asr oxirida O'ratepa hokimligi aholisi soni Xo'jand va Jizzax shaharlari aholisi soni bilan qo'shib hisoblaganda 100 ming kishidan ko'p bo'lganligi, ammo tinimsiz urushlar, ekoomillarning yomonlashgani tufayli Rossiya imperiyasi bosqini arafasida 36,6 ming kishiga tushib qolganligini ko'rsatadi.

1866-yilda O'ratepa hokimligining bahsli yerlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinadi. Tez orada Mirzacho'l bag'rida yangidan qazilayotgan kanallardagi ishlarga o'sha hududda yashayotgan mahalliy aholi majburan jalb etiladi. 1917-yildan Rossiya imperiyasining vorisi bo'lgan sovet davlati deyarli butun tarixi davomida yangi o'zlashtirilgan yerlarga aholini majburan ko'chirgan. Kuchli migratsion hududda yashagan Turkiston, Molguzar tog' tizmalari shimoliy qismi aholisini keyingi davrlarda majburan ko'chirish siyosati to mustaqillikkacha bo'lgan davrlarda ham davom etganligini, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari qo'riq va cho'l hududlarini o'zlashtirilishi tarixida kuzatilib, yangidan shakllantirilgan tumanlar aholisining salmoqli qismini tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Mavzu boyicha savollar.

Nazariy savollar.

1. XVIII–XIX asr boshlarida Turkiston mintaqasidagi asosiy etnik guruhlar qaysilar edi?
2. Molguzar tog' tizmalari va ularning atrofidagi aholi etnik tarkibining shakllanish omillari qanday bo'lgan?
3. Mirzacho'l hududida yashagan ko'chmanchi va dehqonchilik aholisi o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar qanday edi?
4. Qaysi tarixiy manbalar XVIII–XIX asr boshlaridagi etnik-siyosiy holatni aks ettiradi?

5. Xonliklar o'rtasidagi raqobat etnik guruhlar o'rtasidagi aloqalarga qanday ta'sir ko'rsatgan?
6. Ko'chmanchi turmush tarzining siyosiy boshqaruvdagi roli qanday bo'lgan?
7. Mahalliy urug' va qabila ittifoqlari qanday shakllangan va ularning siyosiy ta'siri qanday edi?
8. Qalqonli, mustaqil yoki bog'liq elatlar qanday harakat qilganlar va ularning roli qanday baholanadi?

Amaliy savollar.

1. XVIII–XIX asr boshlarida Mirzacho'lda joylashgan etnik guruhlar tarqalishini xaritada ko'rsating.
2. Molguzar tog' tizmalari hududida mavjud bo'lgan tarixiy qishloqlar va ularning etnik tarkibini aniqlang.
3. Qirg'iz, qozoq va o'zbek qabilalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tarixiy hujjatlar asosida tahlil qiling.
4. Xonliklar siyosatining mahalliy aholi tarkibiga ta'sirini misollar asosida baholang.
5. O'sha davrda savdo yo'llarining etnik guruhlar harakatiga ta'sirini ko'rsating.
6. Urug' va qabila nomlarini bildiruvchi toponimlarni aniqlang va ularning etnik tarixiy ahamiyatini tushuntiring.
7. Tog'li va dasht hududlarda yashovchi aholining siyosiy loyihalardagi ishtirokini solishtiring.
8. Mahalliy tarixchilar va manbahunoslar tomonidan yozilgan asarlar asosida etnik-siyosiy jarayonlarni tahlil qiling.

Munozarali savollar.

1. Xonliklar o'rtasidagi raqobat Voha etnik birliklariga zarar yetkazganmi yoki uyg'unlikni kuchaytirdimi?
2. Tog'li hududlarda yashovchi qabilalar siyosiy mustaqil bo'lganmi?
3. Ko'chmanchi aholining siyosiy faolligi doimiy boshqaruvga to'sqinlik qilganmi?
4. XVIII–XIX asrlardagi urushlar va talon-tarojlar etnik muvozanatni buzgan deb hisoblash to'g'rimi?

5. O'zbek, qirg'iz va qozoq qabilalari o'rtasida etnik chegaralar qanday belgilangan edi?
6. Qabilaviy birlashmalarning siyosiy kuch sifatida mavjudligi markazlashuvga to'sqinlik qilganmi?
7. Tog' va dasht aholisi o'rtasidagi tafovut etnik nizolarni kuchaytirganmi?
8. Mirzacho'l hududining o'zlashtirilmaganligi etnik aloqalarning sukunatga uchrashiga sabab bo'lganmi?

TEST.

1. XVIII–XIX asr boshlarida Mirzacho'l hududida yashagan asosiy etnik guruhlar qaysilar edi?
 - A) Arablar va eroniylar
 - B) O'zbeklar va qozoqlar
 - C) Hindlar va xitoylar
 - D) Slavyanlar va ruslar
2. Molguzar tog' tizmalari atrofi qaysi turdagi xo'jalik faoliyati bilan mashhur edi?
 - A) Dengizchilik
 - B) Chorvachilik
 - C) Tog'-kon sanoati
 - D) Daryo baliqchiligi
3. Qaysi qabila guruhlari XVIII asrda Turkiston hududiga ko'chib kelgan?
 - A) Qipchoqlar
 - B) Qirg'izlar va naymanlar
 - C) Slavyanlar
 - D) Massagetlar
4. Xonliklar siyosatining etnik guruhlar harakatiga ta'siri qanday edi?
 - A) Etnik mustaqillikni kuchaytirgan
 - B) Harakatni cheklagan va markazlashtirishga xizmat qilgan
 - C) O'zaro urushlarni to'xtatgan
 - D) Diniy nizolarni kuchaytirgan

5. Dasht va tog'li hududlarda yashovchi aholi o'rtasidagi asosiy tafovut nimada edi?

- A) Til farqlari
- B) Etnik kelib chiqishi
- C) Turmush tarzi va xo'jalik shakllari
- D) Din va madaniyat

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
3. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
4. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
5. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи. Тошкент. Университет. 1995. –Б. 92
6. Alibekov U. Buxoro va Qo'qon xonliklari tutash hududlarida siyosiy-etnik jarayonlar. Toshkent. "Methodist nashriyoti". 2025

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
2. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
3. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
4. Л.Н.Гумилев. Этногенез и биосфера Земли. - Л. 1989.
5. Пардаев А.Ҳ Жиззах беклиги - Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан XIX асрнинг 60-йилларигача) Т.ф.н.дисс. Автореферати.- Т., 2004. –Б.16;

6. Султонов. Т.И. Кочевие племена Приаралья в XV-XVIII вв. Москва: Наука, 1982.
7. Almanov Q. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibi va uning etno-toponomikada aks etishi. Tfd,(DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2025.
8. Sabol, Steven. *Russian Colonization and the Genesis of Kazakh National Consciousness*. Palgrave Macmillan, 2003.

12-MAVZU. O‘ZBEK XALQI ETNIK TARIXIDA “OQ UYLI” KOCHIRMACHILIK SIYOSATI

Asosiy savollar

1. Etno migratsion jarayonlarda aholining majburiy ko‘chirish siyosatining o‘rni
2. XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida Turkiston Molguzar tog tizmlari va Mirzacholda “oq uylik” ko‘chirish siyosati.
3. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida “oq uyli” ko‘chirish siyosati.
4. Oq uyli ko‘chirish siyosatining oqibatlarini

Tayanch iboralar. O‘zbek xalqi, etnik tarix, Oq uyli siyosat, ko‘chirmachilik, ixtiyoriy ko‘chirish, majburiy migratsiya, aholini joylashtirish, qabila siyosati, chorvachilik ko‘chmanchiligi, o‘zbek urug‘lari, davlat markazlashuvi, hududiy boshqaruv, demografik muvozanat, siyosiy nazorat, tarixiy manbalar, qabila uyushmalari, ijtimoiy muvozanat, yer-suv siyosati, mahalliy elatlar

1.Etno migratsion jarayonlarda aholining majburiy ko‘chirish siyosatining o‘rni

Markaziy Osiyo hududlari bir necha ming yillar davomida etnomadaniy aloqalar maydoni bo‘lib kelgan. Geografik o‘rniga ko‘ra, o‘zbek xalqi shakllangan makon “yirik migratsion ko‘chishlar yo‘lida joylashgan, o‘zga etnik bosqinchilarning talonchilik urushlari maydoniga aylangan, mintaqaning aholisi favqulodda murakkab ijtimoiy iqtisodiy va etnik jarayonlarni boshidan kechirgan”. Bashariyat xalqlari qatori, o‘zbek xalqining etnogenezi, etnik tarixida antropogen va ekoomillarning ahamiyati beqiyos. Antropogen omillarga ko‘ra Vatanimizga bir qancha yog‘iy bosqinlari uyushtirildi, mintaqaviy, etnik tahlikalarni boshdan kechirdi. Antropogen omillarga ko‘ra aholini ko‘chirilishi yoki ko‘chishi tarixiy manbalarda muhojirat, oq uyli, avlodan-avlodga o‘tib kelgan o‘g‘itlarda “Jov keldi” iboralarida saqlanib qolgan. Ekoomillar zilzila, vulqonlar, yong‘in, suv bosqini, daryo o‘zanini o‘zgarishi, chigirtka

bosqini kabilarda namoyon bo'lib, xalqimizda "Uyimizni ilon bosdi", "Yer yutdi", "Chigirtka bosdi", kabi tushunchalarda ifodalanib, maxsus tadqiqotlarni talab qiladi.

2.XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida Turkiston Molguzar tog tizmlari va Mirzacholda "oq uylik" ko'chirish siyosati.

Ma'lumki, Muhammad Rahimxon markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun Samarqand, Shahrisabz atroflariga yurish qilib, yuz, kenegas, burgut, baxrin va saroy kabi qavmlarni Hisor viloyatiga majburan ko'chirib yuborgan edi. Bunday ko'chirishlar ko'plab sodir bo'lgan.

O'.Duvlayevning yozishicha, uning ota-bobolari – 40 oila saroylik dastlab Bekobod yaqinida Sirdaryo sohillariga o'rnashgan, keyinchalik asta-sekin Paymartga, shuningdek, Sangzor (Gulgun) daryosi bo'yidagi Qoraqishloqqa va boshqa qishloqlarga kelib o'rnashgan. Albatta, G'allaorol, Baxmal tumanlariga Hisor beklari aholsining ko'chirilishi shimoli-g'arbiy chegaralar mustahkamlash uchun bo'lgan harakatlar edi.

XVIII asrning oxirlaridan toki Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar O'ratepa hokimligi hududi Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida bahsli maydonga aylandi. Aynan, 1800-1866-yillarda O'ratepa hokimligiga Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi hukmdorlari tomonidan 54 marta hujum uyushtirilgan. Urush harakatlari tufayli qishloq, shahar atroflari aholisi zarar ko'rgan. O'rta asrlar davri o'zbek davlatchiligi tarixida "akobiru ashraflar" bir hududdan boshqa hududga ko'chirma qilinishi "oq uyli", deb atalgan, "oq uyli" qilingan elatlarga yangi ko'chgan yerlarida yetti yilgacha uy-joy qurish taqiqlangan. Ular chodirlarda yashaganligi uchun "oq uyli" deyilgan. Mazkur atama o'tmishda bir hukmdor tomonidan, ikkinchi hukmdor uning shartini bajarguniga qadar "ushlab turilgan" ishonchli arboblarga nisbatan ham ishlatilgan.

1799-yilda Amir Shohmurod O'ratepa hokimligiga yurish qilib, shahar va qishloqlarni ishg'ol qildi. Shu davrga kelganda Jizzax

shahar va uning atroflari inqirozga yuz tutgan bo'lib, aholi soni siyraklashib qolgan edi. Shu munosabat bilan Jizzax shahri va uning atroflarida oqqo'rg'onlik, o'ratepalik, toshkentlik, xayrobodlik, xovoslik, g'alchalik, yaxtanlik kabi mahallalar shakllandi. Amirlikning markaziy shaharlariga ko'chirish siyosati davom etib, Xo'jand, Xovos, Navkat, Zomin, Yom, O'ratepa, Kultepa, Urmitan (yuqori Zomin), Fan (yuqori Zarafshon) qishloq-shaharlari aholisi, o'zbeklarning qirq va yuz urug'i, o'zbek boyovutlari kabi O'ratepa hokimligining aholisini katta qismi Samarqand va Buxoro shaharlariga ko'chirilib "oq uyli" qilingan.

Geografik jihatdan muhim strategik o'ringa ega bo'lgan O'ratepa hokimligi hududi Qo'qon xonlarining doimo diqqat e'tiborini tortib turganligi sababidan Olimxon 1805-1806-yillarda O'ratepani bosib olib, Qo'qon xonigi hududlariga 5000 odamni ko'chirtirgan. 1816-1817-yillarda O'ratepa hokimligiga Qo'qon xoni Umarxon hujum qilib, 13 400 asirni markaziy Chorsu ko'chasiga to'plaganligi manbalarda qayd etilgan.

Dilshod Barnoning ma'lumotlariga ko'ra, "O'ratepalik yuz qabilasi oqsoqollari xonning zo'rliklariga qarshi isyon ko'targan, darg'azab bo'lgan Umarxon, aholiga ibrat bo'lishi uchun asirga olinganlardan 1213 nafarini, boshqa manbalarda 400 nafar kishini osib o'ldirishga hukm qilganligi", qolganlari Farg'ona vodiysiga ko'chirilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'ratepa hokimligidan "oq uyli" qilib ko'chirilgan aholi, Andijon tomonda Umarxon sharafiga yangi tashkil etilayotgan Shahrixon shahri va uning atroflariga joylashtirilgan. Umarxon 1818-yilda yangi shahar qurilish ishlarini qurish uchun bir muddat Shahrixonga kelib, hattoki o'ratepalik Bahodirxonning Xonposhsho oyim ismli qiziga uylanganligi ma'lum.

Shahrixon ahlining ko'pchiligi asli O'rtatepa tomonlardan kelganligi manbashunos olim A. Muxtorov tomonidan qayd etilgan. Keyinchalik sovet davrida Mirzacho'lni o'zlashtirilishi bilan bog'liq jarayonlarda Farg'ona vodiysidan kelgan aholisi bir qismining asli ota-bobolari O'ratepa tomonlardan ekanligi ma'lum bo'ladi.

Fikrimizning isboti sifatida cho'lquvar, rahbar xodim bo'lgan Abulxay Toirovning o'g'li o'ratepalik bo'lib, Shahrixonga ko'chirma qilingan davrida borib qolganli haqidagi ma'lumotlarni keltiramiz, bu boshqa axborotchilar tomonidan ham tasdiqlagan.

Xonlik va amirlik o'rtasidagi doimiy kurashlar davom etib, 1828-1829-yillarda amir Nasrulloh Jizzaxni bosib olib, shahardan o'zbek yuzlarini Samarqandga ko'chirgan. 1848-yilga kelganda Qo'qon xoni Xudoyorxon O'ratepani egallab, shahar himoyachilarini qirg'indan o'tkazgan, bu voqea sodir bo'lgan tepalik bugungi kunda "kalla minora" nomi bilan yuritiladi. Qo'qon xonligiga javoban Buxoro amiri Nasrulloh 1850-yildan urush harakatlarini boshlab, 1852-yilda O'ratepani bosib olgan va olti ming kishining yostig'ini quritgan. O'ratepa hokimligining muttasil Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi bosqinchilariga qarshi olib borgan urushlari natijasida bu mintaqa hududlarida aholining kamayishi kuzatiladi. O'ratepa hokimligi mudofaviy ahamiyatga ega hududlarga o'zbek yuzlari, qirq urug'lari aholisini "oq uyli" qilib ko'chirishlariga sabab bo'ldi.

3.O'zbek xalq og'zaki ijodida "oq uyli" ko'chirish siyosati.

O'zbek yuzlarining Qo'qon xonligi bilan bog'liq voqealari Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan yozib olingan "To'lg'onoy" dostonida ham aks ettirilgan. Doston O'ratepa begi Oqbo'taning mudofaa uchun atrofdagi qishloqlardan qo'shin to'plash haqidagi buyrug'ini bayon qilish bilan boshlangan va "oq uyli" qilingan Oqtepa atrofi aholisi Sirdaryo bo'yidagi mudofaa janrlarida ishtirok etganligi ma'lum bo'ladi. Ayrim qavmlar nisbatan tinch hududlarga ko'chib keta boshlaydi. Keyinroq, Dashti Qipchoqdan kirib kelgan o'zbek tuyoqlilari Panjikent tomon yo'nalib, to So'fin qishlog'igacha bo'lgan joylarga borib o'rnashganligi hudud mintaqa notinchligini namoyon etadi.

Ta'kidlab o'tish joizki, o'z navbatida keyingi Qo'qon xonlari davrida ham O'ratepa hokimligi hududlariga ko'plab xonlikning markaziy hududlarida yashovchi aholi ko'chirib kelib o'tkazilgan. Shimoliy Tojikistonning shahar va qishloqlarida chustlik,

namanganlik, qo‘qonlik, marg‘ilonlik, asakaliklar; Zomin atrofidagi qishloqlarda andijonlik, qo‘qonliklar, Tovoqbuloq qishlog‘i o‘zbek turklari tarkibida yarash to‘bi (qo‘qonlik)lar, Sirdaryo sohilidagi Qiyot qishlog‘ida qo‘qonlik, oltiariqliklar kabi etnik komponentlar qayd etiladi. Mirzacho‘l bag‘ri (hozirgi Yangiyer shahri atroflari)da istiqomat qilib, chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan o‘zbek qarapchilari tarkibiga, chegara sarhadlarni qo‘riqlash uchun yuborilgan qo‘qonliklarni qo‘shilishi bilan ular qo‘qoni qarapchi nomini olganligi A.Biyto‘rayev tomonidan qayd etib o‘tilgan.

4.Oq uyli ko‘chirish siyosatining oqibatlarini.

XVIII asr boshlarida O‘ratepa hokimligining nisbatan tinch mintaqa ekanligi kuchli “demografik portlash”ga, ya‘ni aholining ko‘payishiga olib keldi. Qadimshunos A. Gritsinaning tadqiqotlari tahliliga ko‘ra ko‘plab zamonaviy qishloqlarning bugungi o‘rni XVII-XVIII asrlarda shakllangan. Shu sababli bugungi kunda ham hududda: Yangiqo‘rg‘on, Yangiobod, Nav, Navobod nomli qishloqlar ko‘plab uchraydi. Asr o‘rtalariga kelib, mazkur hudud Buxoro amirligi va Qo‘qon xonliklarining o‘zaro bahsli hududiga, ekomuammolar makoniga aylanishi oqibatida aholi ko‘chib, ko‘chirilib: “pastdan-yuqori”ga – Turkiston tog‘ tizmasi bag‘ridagi qishloqlarga o‘rnashib borgan. Kuchli integratsion jarayonlar tufayli nafaqat shaharlar, balki qishloqlar aholisining ham etnik tarkibi sur‘atlari o‘sib ketdi. Buni birgina “qiyot” etnonimi nomi bilan ataladigan qishloqda o‘zbek qiyotlari qavmi umuman istiqomat qilmay, balki marqa uyas, achamayli, parchayuz, merkit, boymoqli, buxorolik, zomin, poshshi, uvoq, tuyoqli, qo‘qoni, keroyit, xos, oltiariqliklar kabi elat vakillari yashaganligida ko‘rish mumkin.

Mintaqada assimilatsion va konsolidatsion jarayonlar chuqurlashib borgan. Qipchoq dialektida gapiruvchi o‘zbek urug‘laridan parchayuz, boyovutlar tarkibida to‘lak to‘pi mavjud bo‘lib, to‘lak deb – onasi tojiklardan bo‘lgan kishilarga nisbatan aytilgan. Parchayuz va boyovutlar tarkibida to‘lak to‘pi vakillarining ko‘pchilikni tashkil etishi boshqa millat vakillari bilan aralash nikoh

ko'p bo'lganligidan dalolat beradi. Shimoliy Tojikiston va Jizzax oralig'ida qolgan o'zbek tuyoqlilarining bir qismi mulla kesik hamda mirza kesik shohlari vakillari, o'zbek yuzlari, o'zbek qirqlari, shuningdek, o'zbek turklari tarkibiga singishib ketdi.

Zomin, O'ratepa, Toshkent va Farg'ona vodiysida yuzlar va turklarning hududiy joylashuvi bir-biriga yaqin bo'lgan. Farg'ona vodiysida o'zbek yuzlari, o'zbek turklari tarkibiga singishib ketgan bo'lsalar, Turkiston tog' oldi mintaqalarida bu kabi holatlar kam seziladi. O'ratepa Jizzax oralig'i o'zbek yuzlari tarkibiga, obu davrda tashqaridan kirib kelgan qipchoq dialektli etnik komponentlar kuchli singishib ketgan bo'lib, maxsus tadqiqotni taqozo etadi.

Xalqimiz tarixini fidoiylilik bilan o'rgangan etnolog olim B. Karmisheva "Migratsiyalar shubhasiz, etnik qarishuvga sabab bo'lgan", degan fikri mintaqaga ham xos. Demak, yuqoridagi manba va adabiyotlar asosida keltirilgan ma'lumot va axborotlar yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: XVIII asrdan to 1866-yilgacha bo'lgan davrdagi etnosiyosiy jarayonlar – kuchli migratsion ko'chishlar tufayli, Dashti Qipchoqdan Shayboniyxon davridan kirib, ulus tizimi asosida o'rnashgan urug' qavmlarining geografik chegara hududlari mahalliy va yangi kirib kelgan etnik komponentlar bilan qarishib ketdi. O'ratepa hokimligi va Mirzacho'l qadimdan transkontinental mintaqasi sifatida kuchli etnomuloqot hududi hisoblangan.

Mavzu boyicha savollar.

Nazariy savollar.

1. "Oq uyli" ko'chirmachilik siyosati atamasi nimani anglatadi va u qachon shakllangan?
2. Ushbu siyosat kim tomonidan va qanday maqsadlarda amalga oshirilgan?
3. Ko'chirmachilik siyosatining asosiy bosqichlari qanday bo'lgan?
4. "Oq uyli" ko'chmanchilar deganda qanday ijtimoiy qatlam nazarda tutiladi?
5. Ushbu siyosat O'zbek xalqining etnik shakllanishida qanday o'rin egallagan?

6. Qaysi tarixiy manbalar “Oq uyli” ko‘chirmachilik siyosatini yoritadi?
7. Davlat markazlashuvi va siyosiy nazorat nuqtai nazaridan bu siyosat qanday foyda keltirgan?
8. Ko‘chmanchi qabilalarning joylashtirilishi qanday hududiy taqsimotga olib kelgan?

Amaliy savollar.

1. “Oq uyli” ko‘chmanchilarning Voha bo‘ylab ko‘chirilgan hududlarini xaritada belgilang.
2. Ko‘chirilgan aholi qaysi iqlim va xo‘jalik sharoitlariga moslashtirilganini tahlil qiling.
3. “Oq uyli” ko‘chmanchilarning mahalliy aholiga ko‘rsatgan iqtisodiy ta‘sirini aniqlang.
4. Ko‘chmanchi va mahalliy dehqonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni misollar bilan tushuntiring.
5. Ko‘chirmachilik siyosati orqali qanday demografik o‘zgarishlar ro‘y berganini aniqlang.
6. Ko‘chmanchilarni joylashtirish orqali yaratilgan yangi qishloq yoki tumanlarning nomlarini sanang.
7. Mahalliy madaniyatga ko‘chmanchilar qanday ta‘sir ko‘rsatganini tarixiy misollar bilan ko‘rsating.
8. Davlat siyosatida ko‘chmanchilarning harbiy-siyosiy roli haqida dalillarga asoslanib izoh bering.

Munozarali savollar.

1. “Oq uyli” ko‘chirmachilik siyosati ixtiyoriy asosda amalga oshirilganmi yoki majburiy edi?
2. Bu siyosat ko‘chmanchilarni ijtimoiy nazorat ostiga olish vositasi sifatida qaralganmi?
3. Ko‘chmanchi qabilalarning joylashtirilishi mahalliy etnik muvozanatni buzganmi?
4. “Oq uyli” siyosati etnik birlashuvga xizmat qilganmi yoki etnik ziddiyatlarga sabab bo‘lganmi?
5. Ko‘chirmachilik siyosati orqali siyosiy markazlashuvni kuchaytirish adolatlami edi?

6. Ko'chmanchilarning o'z tarixiy yashash hududlaridan uzilishi madaniy yo'qotishlarga olib kelganmi?
7. Bu siyosatning uzoq muddatli ta'siri ijobiymi yoki salbiy?
8. Etnik tarixni o'rganishda "Oq uyli" siyosatiga baho berishda qaysi omillar ustuvor bo'lishi kerak?

TEST

1. "Oq uyli" ko'chirmachilik siyosatining asosiy maqsadi nima edi?
 - A) Shahar qurilishi
 - B) Aholining ishsizligini kamaytirish
 - C) Qabilalarni siyosiy nazoratga olish va joylashtirish
 - D) Diniy islohotlarni amalga oshirish
2. "Oq uyli" ko'chmanchilar asosan qanday xo'jalik turi bilan shug'ullangan?
 - A) Dehqonchilik
 - B) Savdogarlik
 - C) Chorvachilik
 - D) Dengizchilik
3. Ushbu siyosatning amalga oshirilishi natijasida nima yuz berdi?
 - A) Hududiy bo'linish kuchaydi
 - B) Etnik guruhlar ko'chib ketdi
 - C) Etnik tarkibda yangi qatlamlar shakllandi
 - D) Shaharlarda sanoat rivojlandi
4. "Oq uyli" degan atama tarixan qanday qabila qatlamiga nisbatan ishlatilgan?
 - A) Forsiy dehqonlarga
 - B) Harbiy elita guruhiga
 - C) Ko'chmanchi o'zbeklarga
 - D) Qalmoqlarga
5. "Oq uyli" ko'chirmachilik siyosati natijasida O'lkada qanday jarayon tezlashdi?
 - A) Arablashuv
 - B) Turkiylashuv va o'zbeklashuv
 - C) Xristianlashuv
 - D) Yevropalashtirish

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyo'zov, K. (2001). *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 464 b.
3. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
4. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
5. Alibekov U. Buxoro va Qo'qon xonliklari tutash hududlarida siyosiy-etnik jarayonlar. Toshkent. "Metodist nashriyoti". 2025

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
2. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
3. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
4. Пардаев А.Х. Жиззах беклиги - Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан XIX асрнинг 60-йилларигача) Т.ф.н.дисс. Автореферати.- Т., 2004. –Б.16;
5. Султонов. Т.И. Кочевие племена Приаралья в XV-XVIII вв. Москва: Наука, 1982.
6. Салимов Т. Некоторые вопросы формирования населения Зааминского района (конец XIX–XX вв.). Древний Заамин. – Ташкент: Фан, 1994.
7. Almanov Q. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibi va uning etno-toponomikada aks etishi. Tfd,(DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2025.
8. Sameron, Sarah. *The Hungry Steppe: Famine, Violence, and the Making of Soviet Kazakhstan*. Cornell University Press, 2018.

13-MAVZU. TURKISTON MOLGUZAR TOG' TIZMALARI VA MIRZACHO'LGA TURKIY XALQLAR MIGRATSISIYASI

Asosiy savollar

1. Qozoqlarning Turkiston, Molguzar tog' tizmlari va Mirzacho'lga kirib kelishi va etnik jarayonlar.
2. Turkiston, Molguzar tog' tizmlari va Mirzacho'lga qirgizlarning kirib kelishi.
3. Turkiston, Molguzar tog' tizmlari va Mirzacho'lga qoraqalpoqlar migratsiyasi.
4. Turkiston, Molguzar tog' tizmlari va Mirzacho'lga boshqa turkiy etnik guruhlarining migratsiyasi.

Tayanch iboralar. Turkiston, Molguzar tog' tizmlari, Mirzacho'l, turkiy xalqlar, migratsiya, ko'chish jarayonlari, tarixiy harakatlanish, qabilaviy ittifoqlar, joylashuv hududlari, etnik o'zgarishlar, siyosiy omillar, tabiiy-geografik sharoitlar, etnik shakllanish, demografik siljish, madaniy ta'sir, ko'chmanchi chorvadorlar, tarixiy manbalar, ijtimoiy moslashuv, hududiy o'zlashtirish.

Bayon. Tarixiy shart-sharoit, shuningdek tabiiy va antropogen omillar o'troq aholi etnik tarkibiga kuchli ta'sir qilib, ba'zan yangi etnik komponentlar qo'shilishiga sabab bo'lsa, ba'zan tub aholining ko'chib ketishiga yoki majburan ko'chirilishiga olib kelgan. Tarixiy ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qaysi bir davlat, mintaqa tinch, barqaror, to'kin-sochin bo'lsa, unda o'troq madaniyat rivoj topgan, aholisi tarkibi yangi etnik qatlamlar hisobiga boyib borgan. Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida kechgani kabi, XVIII – XIX asrning o'rtalarida O'rta Sirdaryo havzasida ham kuchli migratsion jarayonlarni kuzatishimiz mumkin.

“Kichik muzlik davri”ning tugashi arafasida iqlimning o'zgaruvchan bo'lishi munosabati bilan xo'jalik hayoti uchun ko'plab muammolar vujudga kelib, ozuqabop o'simliklarning pishib

yetilmaganligi sababidan chorva mollari qirilib ketgan, buning oqibatida chorvador qavmlar harbiy o'ljalardan keladigan mulklarni qo'lga kiritish uchun harakat boshlaganlar. Buning natijasida, Turkiston tog' tizmalari bag'ridagi qishloqlarga qirg'izlar, Mirzacho'l etaklari, tog'oldi hududlariga qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar va uyg'urlar kabi turkiy xalqlar ko'chib kelib o'rnashgan.

1.Qozoqlarning O'lkaga kirib kelishi va etnik jarayonlar.

XV asr boshlarida Abulxayrxon (1428-1468) davlatining sharqiy chegaralarida paydo bo'lib, uning qo'shinlarini 1457-yilda mag'lubiyatga uchratib, vaqti-vaqti bilan Dashti Qipchoq va hatto O'lkaga talonchilik yurishlari qilib kelgan jung'or (oyrat, qalmiq)larning qozoqlar ustiga yurishlari XVIII asr o'rtalaridan boshlab an'anaviy tus oldi. 1683-1684-yillarda jung'orlar Sayram shahrini vayron qilib, hatto Farg'ona vodiysiga tahdid soldilar.

1723-yilda Jung'oriya-Xitoy tinchlik shartnomasining tuzilishi qozoqlarga qarshi jiddiy urush harakatlari boshlanishiga olib keldi. Mazkur yil qozoq og'zaki rivoyatlarida "Aqtaban shubirindi" ya'ni, "Buyuk musibatlar yillari"ning boshlanishi sifatida tilga olingan. Jung'orlarning qo'qqisdan shavqatsiz hujumi, ularning harbiy ustuvorligi tufayli qozoqlar mol-hollar, o'tovlari va buyumlarini tashlab qochishga majbur bo'ladilar. Shimoliy Qozog'iston aholisi Rossiyaning janubi, G'arbiy Sibir hududlariga kirib borishdi. Janubda katta juz, o'rta juzning ayrim qavmlari Sirdaryo va uning irmog'ini kechib o'tib, Xo'jand shahri tomon chekingan. O'rta juz qavmlarning ko'p qismi Samarqandga, Kichik juz esa Sayramni aylanib o'tib, Xiva va Buxoro tomon yo'nalgan.

Jung'orlar bosqini tufayli ko'p xalq qirilgan. Talos, Borolday, Aris, Chirchiq, Sirdaryo kechuvlarida minglab qozoqlar daryoga cho'kib ketgan. Katta va o'rta juz qozoqlari "Aqtaban shubirindi" yillari haqida so'z ketganda "Alqa ko'l sulama" ya'ni ochlikdan va charchoqdan Alqa ko'l bo'yida sulayib yotib qoldi, degan iborani ishlatishadi. Qozoqlar jon saqlash uchun Markaziy Osiyoning shahar va qishloqlariga kirib kelib, o'troq aholi hayotiga ziyon yetkazib,

o'zlari ham sargardonlik azobini tortgan. A. N. Levshin bu haqida o'z tadqiqotida "Qozoqlar bu yillarda ochlikdan qirildi, erkaklar hatto yosh bolalari va ayollarini tashlab ketardi" deb yozgan. Zamonaviy tadqiqotchilarning axborotchilardan olingan ma'lumotlari tahliliga ko'ra, Markaziy Osiyoga jung'orlar bosqini yillarida qozoqlar Sirdaryoning o'rta oqimi, Chimkent va Chordara hududlariga o'rnashgan. Qozoqlarning ko'pchiligi XIX asrning 50-yillariga kelib ekomuhit va siyosiy vaziyatning yaxshilanish munosabati bilan Qozog'istonga o'tib ketgan.

Keyinchalik Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayonida janubiy Qozog'iston (Hozirgi Turkiston viloyati) hamda O'zbekistonning markaziy hududlariga (Sirdaryo, Jizzax viloyatlariga) ko'chgan. Akademik N. Tursunov tadqiqotlariga ko'ra, shimoliy Tojikiston qishloqlariga o'rnashgan qozoqlar ushbu hududdagi etnik tarkibdan kelib chiqib yo "tojiklashib", yoki "o'zbeklashib" ketgan. Zamonaviy axborotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, dastlab Sirdaryo sohilida qishlab, qozoq dashtlarida yozlab yurgan kerey uvoqlar, keyinchalik Xovos yaqinidagi Yangimozor hududi atrofida joylashadilar, vaqt o'tishi bilan Sarmich atrofida qishlab qolishadigan bo'ldi. O'ratepa hokimi Rustambekka qiz berib, quda-anda bo'lgandan keyin, bek tomonidan ularga O'ratepaning eng g'arbiy chekka qishlog'i – Uvoq hadya etilgan.

Axborotchilar ma'lumotlariga ko'ra, Rustambek mahv etilgandan keyin uvoqlarning bir qismi hozirgi Bulung'ur tumanidagi Uvol qishlog'iga ko'chib kelib, shu yerda istiqomat qilishadi. Uvoqlar rus manbalariga ko'ra, Abulxayrxon davridan o'rta juzlarning bir bo'lagi hisoblanib, kerey urug'i tarkibida bo'lgan. Uvoq "o'sak" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "mayda" (uvoq) yoki kam sonli xalq ma'nosida qo'llangan. Kerey uvoqlar do'rva va karkarali shohlariga bo'linib, do'rva – muratali va eshali to'plariga, karkalalilar esa – Eshmurot va uning besh farzandlari to'plariga bo'lingan. Zamonaviy axborotchilarning ma'lumotlarga ko'ra, uvoqlar quyidagi shohlarga bo'linadi: do'rva va o'tbosar. Do'rvalar asl kelib chiqishini katta aka Botir bilan bog'lab, quyidagi to'plarga bo'lingan: Nodir to'p, Sarson

to'p, O'yvli to'p, Oymoq to'p, Durim to'p , Ko'rpa to'p, Olabaytal to'p, Qo'noqxo'r to'p, Mulla to'p. Shuningdek, kichik uka (yo'lda tug'ilgan) O'tbosardan ikki to'p tarqalgan bo'lib, ular: Uruqxo'r va Boqimachoyi to'plaridir.

XX asrning 50-yillarida Mirzacho'lni o'zlashtirish munosabati bilan uvoqlar Sirdaryo viloyatining Boyovut, Xovost, Mirzaobod tumanlariga o'rnashgan, hamda Toshkent-Chinoz yo'nalishidagi bir qancha aholi qo'nalg'alarida istiqomat qilganlar. Ular Ohangaron vohasi Uvoq qishlog'idagi Uvoq ota ziyoratgohiga "sig'inadi"lar. Uvoq otaning asl ismi Ubaydulla Ota bo'lib, u shayx Sulaymon Boqirg'oni (xalq tilida Hakim Ota)ning muridi (shogirdi) bo'lgan. 1903-yilda agronom Ponyatovskiyning hisobot tahlilida qarapchilarning Sirdaryo bo'yidagi yettita qishlog'i o'rganilib, uning tarkibida jetti urug'lar ovuli sanab o'tilgan. "Jeti uru" kichik qozoq juzlarining uch etnik urug'laridan biri bo'lib, tabiyin, tama, kerderi, kerayit, jag'albayli, tilav, ramazan to'plariga bo'linadi. Bugungi kunda Sirdaryo sohilidagi Jettiuru qishlog'ida asosan o'zbek o'yuvlilari istiqomat qilgan va mazkur etnotoponim XIX asr 50-yillarida bu yerdan ko'chib ketgan qozoq urug'i nomi bilan atalishini tushunmoq lozim.

Akademik K. Shoniyozovning ma'lumotlariga ko'ra, choproshli asli katta juz qozoqlarining bir urug'i bo'lib, XVII-XVIII asrlarda Markaziy Osiyoga kirib kelgan va o'zbeklarning turli urug' qavmlari tarkibiga kirgan. Kuzatishlarga ko'ra, choproshlilar, sirg'ali, qorasiyroq yoki qozoq to'plari, o'zbek boyovutlari, o'zbek qirqlari, paymardliklar va boshqa etnik guruhlarining tarkibida uchraydi. Yangidan-yangi etnik qatlamlar hisobiga, o'troq aholining etnik tarkibining boyib borishi jarayoni kuchli etnomuloqotlar hududi bo'lgan Nurota vohasiga doir tadqiqotlarda yoritilgan, O'ratepa hokimligi va Mirzacho'ldagi etnosiyosiy jarayonlar bilan mos tushib, qozoq, qoraqalpoq va boshqa etnik qatlamlari mahalliy aholi tarkibiga singishib ketganligini ko'rsatadi.

XVI-XIX asrlar davomida O'lkada markaziy davlat boshqaruvining zaiflashuvi tufayli Dashti Qipchoqdan va janubiy

hududlardan talonchilik, bosqinchilik yurishlari tinimsiz avj olib bordi. 1580-1581-yillarda qozoqlar yurish qilib, Toshkent va Samarqand shaharlarini oladi. Abdullaxon qozoqlarni yengib, chekinishga majbur qiladi. Hofiz Tanish Buxoriyning “Sharafnomai shohiy” asarida keltirilgan ma’lumotlarga ko’ra, Buxoro xoni Abdullaxon II (1557-1598) qozoq sultonlari bilan do’stona aloqada bo’lgan. O’rtadagi shartnomaga muvofiq, qozoq sultonlari xavfli raqibdan, kuchli ittifoqchiga aylangan, shimoldan O’lkaga hujum xavfi pasaygan.

Toshkent hukumdor qozoq sultonlaridan bo’ysunmas Baroqxonlarga qarshi kurashda foydalangan. Amaliy yordami uchun Abdullaxon II 1581-yilning iyunida qozoq sultoni Shigayxonga Xo’janddan ulus beradi. 1598-yilda Abdullaxonning vafotini eshitgan Tavakkalxon yurish qilib, Axsi, Andijon, Toshkent, Farg’onaning bir qismini bosib olgan hamda Samarqanddan Miyonqolgacha borgan. Tavakkalxon 70-80 ming qo’shin bilan Buxoroga yurish qiladi. Pirmuhammadxon 15 ming qo’shin bilan unga qarshi chiqib, mag’lub etadi va qozoqlarni O’lkadan quvib chiqadi.

2.O’lkaga qirgizlarning kirib kelishi.

Markaziy Osiyoda kechayotgan bunday migratsion jarayonlarni qirg’izlar yashaydigan hudud misolida ham ko’rish mumkin. Qirg’izlarning asosiy qismi, o’rta asrlarda Yenisey atroflarida istiqomat qilgan. Ular janubiy-g’arb tomon harakat qilgan hamda XVI asrning boshlarida hozirgi etnos nomidagi davlat hududiga yetib kelgan va Oloy tog’ tizmalari hududlariga kelib o’rnashgan.

XVII asr oxirlari va XVIII asr boshlarida qalmiqlar kuchli talonchilik, bosqinchilik yurishi bilan qirg’izlar yerlariga kirib kelgan va ularning katta qismi Farg’ona vodiysiga ko’chib o’tgan. U. Abdullayev tahlillariga ko’ra, qirg’iz urug’ qabilalari uchta yirik guruhga birlashgan. Bular o’ng (“on”) qanot, so’l (“sol”) qanot, hamda “ichkilik” qirg’izlari deb nomlanib, ular Farg’ona vodiysi bo’ylab urug’chilik tizimi prinsiplari asosida joylashganlar. Farg’ona vodiysi sharqiy qismida “ichkilik” qirg’iz urug’ining bo’ston, qipchoq,

tayit, nayman, mang'ush, avot, kesak, "o'ng" ("on") va "so'l" ("sol") guruhlariga kiruvchi bag'ish, mo'g'ol, munduz, basiz kabi guruhlari joylashgan.

Jung'or ko'chmanchilarining 1756-1758-yillarda xitoyliklar tomonidan mag'lubiyatga uchratilishi sababli, qirg'izlarning ko'pchiligi Tyanshanning shimolidagi o'z yaylovlari (hozirgi Qirg'iziston Respublikasi) hududiga qaytib ko'chib kelgan. Farg'ona vodiysi tog'li mintaqalariga Turkiston, Molguzar tog' tizmalariga o'rnashgan qirg'izlarning ma'lum bir qismi shu yerlarda yashab qolgan. Farg'ona vodiysidagi qirg'izlarning ayrim bir etnik guruhlari qo'shni hududlarga ham keng yoyilgan. Shimoliy Tojikiston aholisining etnik tarkibini tadqiq qilgan elshunos olimlar N. Tursunov va V. Bushkov, Zomin tumani aholisining shakllanishini o'rgangan elshunos olim T. Salimovlar ilmiy ishlarining qiyosiy tahlili bugungi kunda Shahriston, Zomin, Baxmal (Jadi, Teraklisoy qishloqlari) tog'li tumanlarida istiqomat qiluvchi qirg'izlarning urug' tarkibi, Farg'ona vodiysi sharqiy hududlarida yashovchi qirg'iz urug'lari bilan mos keladi va aynan bu hududlarda ham migratsion jarayonlarning kuchli kechganligini ko'rsatadi.

Qirg'izlar Turkiston tog' tizmasidagi qishloq va uning atrofilariga yuz yillar (XVIII-XIX asrlar) davomida kelib o'rnashgan. Qirg'izlarning bugungi kunga qadar etnik birligi, tili va madaniyatlarning ko'plab jabhalarida saqlab qolganligida ko'rinadi.

3. Turkiston, Molguzar tog' tizmlari va Mirzacho'lga qoraqalpoqlar migratsiyasi.

Tarixiy bosqichning shu davriga kelib, hududga yana bir etnik komponent – qoraqalpoqlar kirib kelgan. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, XVI asrda qoraqalpoqlar Sirdaryoning o'rta oqimida o'rnashgan. XVIII asrning birinchi choragida jung'orlar bosqini tufayli Sirdaryoning o'rta oqimida istiqomat qilayotgan qoraqalpoqlar tinchlik istab, Toshkent vohasi janubi, Xiva xonligining shimoli-g'arbiy, sharqiy mintaqalariga va boshqa hududlarga ko'chib ketishlariga sabab bo'ldi. Mavjud vaziyatda

qoraqalpoq yetakchilari “vassallikka olish to‘g‘risida” Pyotr I hukumati bilan muzokaralar olib borishga majbur bo‘lgan. Bundan norizo bo‘lgan qozoq xoni Abulxayr 1743-yilda Sirdaryoning quyi oqimiga yurish qilib, qoraqalpoqlarni butunlay tor-mor qilgan. Bor-yo‘g‘idan ayrilgan qoraqalpoqlarning katta qismi Orol dengizining janubiy sohillariga ko‘chib o‘rnashgan bo‘lsa, bir qismi Sirdaryo bo‘ylab Zarafshon vohasi, Nurota tog‘ining janubiy yonbag‘irlari, yana bir qismi Toshkent vohasi va Mirzacho‘lga kelib yashagan.

Qozoq va qoraqalpoqlar bilan bir vaqtda Sirdaryo sohillarida va unga tutash yo‘llarda yashovchi qipchoqlar ham qalmiqlardan qochib kelib, Mirzacho‘lda o‘rnashgan. Buxoro xonligining aholi tig‘iz Zarafshon vohasida, ayni holda Miyonko‘lda (Samarqand va Buxoro oralig‘i) ko‘pchilikni tashkil etgan xitoy-qipchoqlar istiqomat qilgan. 1745-yil Miyonko‘lda xitoy-qipchoqlar Iboydulloh biy yetakchiligida Abulfayzxonga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan. Qo‘zg‘olonchilarni bostira olmagan Abulfayzxon Nodirshohdan yordam so‘raydi. Nodirshoh yuborgan Muhammad Rahimxon yetakchiligidagi kichik jazo ortyadi artilleriya kuchiga tayanib, qo‘zg‘olonchilarni yengib, Farg‘ona vodiysi chegaralarigacha quvib brogan.

Elshunos L. S. Tolstovanning tahliliga ko‘ra, “yuqori qoraqalpoqlar”ni asosiy qismi XVIII asr davomida Farg‘ona vodiysiga ko‘chib o‘tgan bo‘lsa–da, bu jarayon to XIX asr boshlarigacha davom etgan. Jung‘orlarning hujumi, Nodirshohning jazo ortyadi quvg‘ini, shuningdek, mintaqaviy mojarolar tufayli qoraqalpoqlar, qozoqlar va qipchoqlarning, pashshiliklar bir qismi Mirzacho‘l hududidan Turkiston tog‘ yonbag‘ri tomon kirib borgan.

Zomin tumanidagi Yakkatut (Jakkatut) qishlog‘ida avvallari qoraqalpoqlar istiqomat qilgan bo‘lib, Mirzacho‘lni o‘zlashtirish jarayonida qishloqning butun aholisi cho‘lga ko‘chirma qilingan. Shuningdek, Xovos tumanidagi Chiyali qishlog‘ida qoraqalpoqlarning besh juz urug‘i vakillari jung‘orlar hujumi sabab ko‘chib kelganlar. Ular o‘zlarini o‘zbek yuzlarining Rajab avlodi bilan bog‘laydi. Besh juzlar uch tarmoqqa bo‘linadi: qoraqalpoqlar, miyon kallar va chag‘oniyonlar. Besh juzlar dastlab Xo‘jand shahri yaqinidagi

Samg'ar qishlog'iga o'rnashgan, keyinchalik 28 xonadon Yangiobod tumanidagi Balandchaqir qishlog'i atrofiga, undan keyin Chiyali qishlog'iga ko'chib joylashgan.

4. Turkiston, Molguzar tog' tizmlari va Mirzacho'lga boshqa turkiy etnik guruhlarining migratsiysi.

Markaziy Osiyodagi kuchli etnosiyosiy jarayonlar tufayli XVIII asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Xitoy hukmdorlariga qarshi kurashda yengilgan Sharqiy Turkiston musulmon aholisining katta qismi Farg'ona vodiysi va yurtimizning boshqa hududlariga o'rnashgan. Qo'qon xonligi hududlari orqali Sirdaryo sohilidagi Kal qishlog'ida uyg'ur to'pi, Paymard qishlog'idagi qashqarli to'plari shuningdek, ba'zi qishloq, shaharlar aholisi tarkibidagi oxunlar to'plari Sharqiy Turkistondan kirib kelgan etnik komponentlardir.

Demak, jung'orlarning Markaziy Osiyoga bosqinida Qozoq xonligi hududi platsdarm vazifasini o'tagan. Jung'orlarning bosqini Markaziy Osiyoda og'ir oqibatlariga olib keldi, g'oyatda murakkab etnosiyosiy jarayonlarga sabab bo'ldi. "Kichik muzlik davri"ni tugashi arafasida iqlimning o'zgaruvchanligi sababli xo'jalik hayoti uchun ko'plab muammolar vujudga kelib, ozuqabop o'simliklarning pishib yetilmaganligi sababidan chorva mollari qirilib ketib, chorvador qavmlar harbiy o'ljalardan keladigan mulklarni qo'lga kiritishga uringan. Buning natijasida, Turkiston, Molguzar tog' tizmalari, tog'oldi hududlari, Mirzacho'l etaklaridagi qishloqlarga qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar va boshqa turkiy xalqlar ko'chib kelib o'rnashgan va etnodemografik jarayonlarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan. Albatta, tarixiy jarayonlar aynan biz o'rganayotgan hududning tinch va osoyishta hudud ekanligini ko'rsatadi.

Mavzu bo'yicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Turkiston va Molguzar hududlariga turkiy xalqlarning migratsiyasi qanday tarixiy sharoitlarda yuz bergan?
2. Migratsiyalarning asosiy omillari nimalardan iborat bo'lgan?

3. Mirzacho'lga ko'chgan turkiy guruhlar orasida qanday qabila nomlari tarixda qayd etilgan?
4. Tabiiy-geografik sharoitlar bu hududlarga etnik ko'chishlarga qanday ta'sir ko'rsatgan?
5. Turkiy xalqlar migratsiyasining siyosiy natijalari nimalarda namoyon bo'lgan?
6. Etnik tarkibning o'zgarishi demografik muvozanatga qanday ta'sir ko'rsatgan?
7. Tarixiy manbalarda ushbu hududlarga ko'chgan xalqlar haqida qanday ma'lumotlar keltirilgan?
8. Molguzar tog' tizmalari orqali o'tgan yo'llarning migratsion harakatlanishdagi roli qanday?

Amaliy savollar.

1. Tarixiy xaritada turkiy xalqlarning Mirzacho'lga ko'chish yo'nalishlarini belgilang.
2. Migratsiya jarayonlari haqida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalarni tahlil qiling.
3. Molguzar tog' tizmalari va atrofidagi etnik guruhlar haqida arxeologik topilmalarni tavsiflang.
4. Mirzacho'l hududidagi turkiy qabilalarning joylashuviga oid tarixiy misollarni sanang.
5. Ko'chib kelgan turkiy qabilalarning mahalliy madaniyatga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qiling.
6. Migratsiyaga sabab bo'lgan iqlimiy o'zgarishlar haqida tarixiy misollar keltiring.
7. Ko'chmanchi chorvadorlarning bu hududdagi xo'jalik faoliyatiga ta'sirini aniqlang.
8. Molguzar tog' tizmalari orqali o'tgan qadimiy yo'llarni tahlil qiling va ularning strategik ahamiyatini tushuntiring.

Munozarali savollar.

1. Turkiy xalqlarning migratsiyasi – tabiiy ehtiyojmi yoki siyosiy bosim natijasimi?
2. Ko'chmanchi qabilalar hududga madaniy boylik olib kirganmi yoki madaniy bosim o'tkazganmi?

3. Turkiy xalqlarning joylashuvi mahalliy aholi bilan ziddiyatli bo'lganmi yoki uyg'unlashganmi?
4. Etnik aralashuv mustahkam madaniy uyg'unlikka olib kelgan deb hisoblash mumkinmi?
5. Mirzacho'lning etnik tarkibi asosan migratsiya tufayli shakllangan degan fikr asoslimi?
6. Turkiy xalqlarning harakatlanishi tarixiy-geografik muhitni o'zgartirganmi?
7. Qadimiy ko'chmanchi hayot tarzi zamonaviy ijtimoiy tizimlarga ta'sir qilgan deb hisoblash mumkinmi?
8. Migratsiya tarixini aniqlashda afsonalar va og'zaki rivoyatlar asos bo'la oladimi?

TEST.

1. Molguzar tog' tizmalari orqali o'tgan tarixiy migratsiya yo'llari qanday etnik harakatlarga sabab bo'lgan?
 - A) Arablar yurishi
 - B) Turkiy xalqlarning dasht hududlariga siljishi
 - C) Yevropaliklar bosqini
 - D) Hindlar ko'chishi
2. Qaysi turkiy qabilalar XVIII–XIX asrlarda Mirzacho'l hududida istiqomat qilgan?
 - A) Nayman va qipchoqlar
 - B) Massagetlar
 - C) Sarmatlar
 - D) Slavyanlar
3. Mirzacho'l hududining ko'chmanchilar uchun maqbulligi nimaga bog'liq edi?
 - A) Dengiz bo'yida joylashgan
 - B) Sug'oriladigan dehqonchilik uchun
 - C) Chorvachilikka mos ochiq dashtlar mavjudligi
 - D) Keng savdo shaharlariga yaqinligi
4. Molguzar tizmasi atrofida yashagan turkiy qabilalar qanday xo'jalik faoliyati bilan shug'ullangan?

- A) Tog' konlari
 - B) Chorvachilik va yarim-ko'chmanchilik
 - C) Baliq ovlash
 - D) Savdogarlik
5. Turkiston va Mirzacho'l hududlariga turkiy xalqlarning kirib kelishi qanday oqibatlarga olib kelgan?
- A) Madaniy boyish va etnik uyg'unlashuv
 - B) Tabiiy ofatlar ko'payishi
 - C) Ko'hna shaharlar tark etilishi
 - D) Dengiz savdosining pasayishi

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. (2001). *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 464 b.
3. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
4. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
5. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи. Тошкент. Университет. 1995. –Б. 92
6. Alibekov U. Buxoro va Qo'qon xonliklari tutash hududlarida siyosiy-etnik jarayonlar. Toshkent. "Methodist nashriyoti". 2025

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
2. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
3. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.

4. Пардаев А.Ҳ Жиззах беклиги - Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан XIX асрнинг 60-йилларигача) Т.ф.н.дисс. Автореферати.- Т., 2004. –Б.16;
5. Султонов Т.И. Кочевые племена Приаралья в XV–XVII вв. – Москва: Наука, 1982.
6. Салимов Т. Некоторые вопросы формирования населения Зааминского района (конец XIX–XX вв.). Древний Заамин. – Ташкент: Фан, 1994.
7. Keller, Shoshana. *To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia, 1917–1941*. Greenwood Press, 2001.

14-MAVZU. ROSSIYA BOSQINI VA XIX ASR OXIRIDA MIRZACHO'LDA ETNIK JARAYONLAR

Asosiy savollar

1. Rossiya imperyasining O'rta Osiyoga bosqini.
2. Rossiyadan rus va boshqa millat vakillarining Markaziy Osiyoga emigratsiyasi sabablari.
3. Mirzacho'lga rusiyzabon aholining ko'chib kelishi.
4. Rossiya imperyasi tomonidan diniy sektantlarning ko'chirilishi.

Tayanch iboralar. Rossiya bosqini, XIX asr oxiri, Mirzacho'l, etnik jarayonlar, aholi tarkibi, ruslashtirish siyosati, migratsiya, ko'chib kelgan dehqonlar, o'zbeklar, qozoqlar, rus muxojirlari, qishloq xo'jaligi islohoti, demografik siljish, ijtimoiy tabaqalanish, mustamlaka boshqaruvi, harbiy-siyosiy nazorat, mahalliy elatlar, yer-suv munosabatlari, millatlararo munosabatlar, ixtiyoriy va majburiy ko'chirishlar.

1.Rossiya imperyasining O'rta Osiyoga bosqini

Turkiston xalqi rus bosqiniga bo'lgan davrda uch xonlik o'rtasida bo'lib turgan nizolar, yer talashishlar, xonlik taxti uchun kurashlar va mahalliy feodallar zulmi ta'sirida ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni o'z boshidan kechirdi. Xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar tufayli iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasi juda past edi. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishning yo'qligi, aholining asosan mayda hunarmandchilik, kosiblik bilan kun kechirishga majbur etar edi.

Cho'l va dashtliklarda ko'chmanchi chorvador aholi istiqomat qilar, o'z mahsulotlarini atrofdagi dasht-tog' aholisi yetishtirgan don mahsulotlari bilan ayirbosh qilib kun kechirganlar. Sirdaryo, Zarafshon xavzalarida cho'l atrofida kattagina maydonlar esa ko'chmanchi qirg'izlar va qozoqlar uchun yaylov vazifasini o'tar edi.

2.Rossiyadan rus va boshqa millat vakillarining Markaziy Osiyoga emigratsiyasi sabablari.

Rossiyada yerlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat krepostnoychilikning bekor qilinishiga olib keldi. Hali sanoat tarmoqlari rivojlanmagan Rossiya uchun mamlakatda yersiz ozod dehqonlarning ko'payib ketishiga olib keldi. Yangi yelar izlab dehqonlar bir hududdan ikkinchi hududga, bir guberniyadan ikkinchisiga ko'chib o'ta boshladilar. Ukraina, Belorussiya va Polsha dehqonlari Don, Dnepr, Volga sohillariga kelib o'rnashdilar. 1860-1870-yillarda Don harbiy viloyatiga 157, 8 ming aholi ko'chib kelgan va shundan 57,6 ming kishi qayta ko'chib ketgan.

XVIII asrning 60-yillari va XIX asrning 20-yillari mobaynida Rossiyaga 100 ming nemis kolonistlari kelib o'rnashgan edi. 1878-1915-yillar mobaynida Rossiyaga ko'chib keluvchi chet elliklar Germaniya, Vengriya, Polsha, Avstriya, Turkiya aholisi va Eron ozarbayjonlari evaziga 3,5 million nafarni tashkil etdi. O'z navbatida, Rossiyadan chegara o'lkalarga – Sibirga, O'rta Osiyoga, Kavkazga ruslar va Rossiyadagi boshqa millat aholisi ko'chib ketdilar.

Turkisgonga ko'chib keluvchi ruslar va boshqa millat vakillari Yettisuv, Sirdaryo, Farg'ona, Samarqandga kelib o'rnasha boshladilar. Ko'chib keluvchilarning aksariyati rus harbiylari, kazak zobitlari, dvoryanlar, savdogarlar, meshchanlar, dehqonlar va qisman temir yo'l ishchilaridan iborat edi.

3.Mirzacho'lga rusiyabon aholining ko'chib kelishi.

Mirzacho'lga tashkil etilgan rus qishlog'i Duxovskiydan Romanovskiy qishlog'iga ko'chib o'tgan 45 xo'jalikning (jami 198 kishi) Rossiyaning qaysi guberniyalaridan ko'chib kelganligini ko'rib chiqsak, ular asosan Samara guberniyasidan (50 kishi), Novorossiysk shahridan (31 kishi) va Ko'kchatov uyezdidan (56 kishi) bo'lganligi aniqlanadi. Qolganlari Saratov, Poltava, Orenburg, Tambov, Tula, Astraxan, Chernomorsk guberniyalaridan ko'chib kelgan.

Bu kabi ko'chib o'tishlar Mirzacho'ldagi barcha, ya'ni 12 ta yangi tashkil etilgan rus qishloqlariga aloqador edi. 1900-1903-yillarda Zaporozskiy, Konnogvardeyskiy, Nadejdinskiy va boshqa qishloqlardan ko'chib o'tgan aholi Axmonko'l va Sirdaryoda o'zlarining o'zboshimcha holdagi qishloqlarini shakllantirdilar. Rossiyadan ko'chib kelgan aholining O'rta Osiyo, ayniqsa Mirzacho'l iqlimiga moslashish jarayoni og'ir kechdi. Shuning uchun knyaz Romanov ko'chib kelgan aholini uy-joy va ish bilan ta'minlashga harakat qildi.

1885-yili Bekobod hududlaridagi «Xush-Tuyoq» qishlog'iga qarashli yerlardan 50 desyatinasi bog' uchun va 19 desyatinasi hovli qurish uchun sotib oladi. Birinchi qurilgan Zaporozskiy qishlog'ida 1 yil davomida, 1896-yilgacha, 300 ga yaqin oila yashab keldi. 1897-yilda kanal qurilishi yakuniga yetishi tufayli aholi yangi ish izlab, boshqa qishloqlarga ko'chib keta boshladi. 1906-1908-yillarda 40 dan ortiq oila uy-joy bilan ta'minlanmaganligi sababli, 1908-1913-yillar davomida qishloqdan boshqa yerlarga ko'chib ketishdi.

1886-yilda kanal qazish ishini chap sohilda boshlanishi bilan Shaltuqay soyliги atrofida yana bir qishloq barpo etildi. Dastlab 3 ta oila ko'chib kelgan bo'lsa, 1888-yilga kelib ko'chib kelgan oilalar soni 30 ga yaqinlashgan. 1892-yili hovlilar soni 50 taga yaqin bo'lgan.

Mirzacho'lda barpo etilgan rus qishloqlarida aholining doimiy yashab qolishi uchun sharoit yetishmas edi. Bezgak, tif kasalliklari hamda chigirtka hujumining takrorlanishi sababli aholi qulay joy izlash bilan ovora bo'lar edi. Bu haqda V. F. Karavayev ham yozgan edi. 1903-1907-yillarda Nadejdinskiy qishlog'ida qishloq-xo'jalik ishlarining izga tushishi aholini o'troqlashishi uchun imkon tug'dirdi. 1907-yilga kelib xo'jaliklar soni 60 taga yetdi. 1914-yilda esa ular 160 tani tashkil etgan edi.

1887-yili tashkil etilgan Romanovskiy qishlog'ida dastlab 13 ta oila uy-joy bilan ta'minlandi. 1892-yili 20 oila kelib qo'shildi. 1899-yilda general-gubernator S. M. Duxovskiy taklifi bilan yana 41 ta oila joylashtirilgan. Shu tariqa birin-ketin Mirzacho'l hududida o'ndan ortiq qishloq va stansiya posyolkalari tashkil etila boshlandi.

1885-1899-yillar aholining Mirzacho'lgaga kelib o'rnashishi, uy-joylar qurilishi, odamlarning muhit va sharoitga moslashishi davri bo'ldi. Bu bosqichda ko'chib kelgan rus aholisi mahalliy aholidan (ularni chorizm ma'murlari «tuzemetslar» deb atashgan) butkul ajralgan holda yashagan va hayot kechirgan. Ponyatovskiyning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Mirzacho'ldagi rus qishloqlarida dastlabki 10-15 yillar mobaynida aholining ko'payishi kuzatilmagan. Dinamik o'sish darajasi juda past bo'lgan. Eng ko'p aholi yashagan qishloq Sretenskiy bo'lib, unda 660 ta jon, Nadejdinskiyda 315 ta jon, Nikolskoyeda 313, Zaporojskiyda 210, Volinskiy-II da 180, Romanovskiyyda 106, Obetovaniyda 91, Volinskiy-I da 82, Konnogvardeyskiyda 53 ta jon, jami 1986 kishi istiqomat qilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Mirzacho'lda aholining o'sish darajasi Rossiya Yevropasi, Sibir, Kavkaz va O'rta Osiyo mahalliy aholisiga nisbatan kam foizni tashkil etgan. Zaporojskiy, Volinskiy-I, Konnogvardeyskiy, Sretenskiy qishloqlarida har bir hovliga o'rtacha hisobda 5 kishi, Romanovskiyy, Nadejdinskiy, Obetovaniy va Volinskiy-II qishloqlarida esa har bir hovliga o'rtacha 3 kishi to'g'ri kelgan. Rus qishloqlarining barchasida har bir hovliga o'rtacha hisobda 2 ta bola to'g'ri kelgan. Aholining 50-55% ni erkaklar tashkil etgan. Ko'chib kelgan aholi Rossiyaning turli guberniyalaridan bo'lib, ularning diniy e'tiqodlari ham turli oqimlarga aloqador edi.

4.Rossiya imperyasi tomonidan diniy sektantlarning ko'chirilishi.

Dindorlar ichida pravoslavlar ko'pchilikii tashkil etgan bo'lib, deyarli 76 % ga teng edi. Qolganlari molokanlar (4,0%), baptistlar (8,86%), raskolniklar (8,46%) va boshqalardan (2,6%) iborat edi. Tabaqa tarkibiga ko'ra esa, dehqonlar – 78 %, harbiy va kichik amaldorlar – 14,2 %, savdogarlar va tadbirkorlar – 5,0 %, yirik amaldor va boy zodagonlar –0,34%, ruhoniylar – 0,14 % ni tashkil etgan. Molokanlar Verxne-Volinskiy, Romanovskiyy qishloqlarida, baptistlar Nijne-Volinskiy, Nikolskoye qishloqlarida, raskolniklar

Nikolayevskiy, Nadejdinskiy va Sretenskiy qishloqlarida yashaganlar.

Ko'chib kelgan aholi dastlabki yillarda asosan ichki xo'jalik hayoti bilan band bo'lgan. O'z xo'jaliklarida meva daraxtlari, sabzavot ekish, chorva boqish bilan shug'ullanishgan. Sretenskiy qishlog'i aholisi ko'proq chorvaga e'tibor qaratgan, jamoa uchun umumiy podachi yollashgan. Chorvani sotishdan olingan daromad evaziga cherkov va mahalliy boshqarmaga soliq to'lovi joriy etilgan. Nikolskoye va Obetovanniya jamiyat ishlariga e'tibor kam bo'lgan. Buyuk knyaz arig'idan butun qishloq foydalanish imkoniga ega bo'lganiga qaramay, dehqonlar yerning hosildor emasligidan, sharoit yomonligidan doimo noligan.

Volinskiy qishlog'i aholisi esa, aksincha, sud; yetarlicha bo'lmasa-da, xo'jaliklarini mustahkamlash, daromadni oshirish, hatto bir necha oila birgalikda jamoa yerlarida ishlashni ma'qul ko'rganlar. Konnogvardeyskiy aholisi 9 ta hovli, 11 oiladan iborat bo'lib, o'z oqsoqolini saylagan. Qishloqda yer taqsimoti, suvdan foydalanish, uy-joy qurish, mol boqish va chorvaga qarash, ichki tartib-qoidalarga rioya qilish kabi ishlar doimo oqsoqol rahbarligida umumjamoa nazorati ostida bo'lgan.

Qishloq jamoasi kelishuviga ko'ra, aholi suv keltirishda, yerga ishlov berishda, hovli va uy-joylarni rejalashtirishda umumiy yig'ilish qaroriga bo'ysunishgan. Qishloq ko'chalari keng, har bir xonadon oldidan ariq o'tkazilgan. 1897-yilda suv tanqisligi sababli, ekilgan daraxtlar quriy boshlagan. Aholi kelishgan holda navbat bilan o'zaro yordam ishlarini amalga oshirishga harakat qilgan. Qishloqda biron-bir xonadon ahli kasal bulib qolsa, jamoa oqsoqoli maslahati bilan navbat tariqasida qo'shnilar yordam berar, sigiri sog'ilar, yeriga ishlov berilar edi.

Konnogvardeyskiy qishlog'i erkaklari hunarmandchilikda ham usta bo'lishgan. Ularning ko'pchiligi biron-bir kasb egasi va o'qimishli bo'lgan.

Volinskiy-I va Volinskiy-II qishloqlaridagi ijtimoiy hayotga kelsak, bu yerda boshda qishloqlardan farqli o'laroq artellar tashkil

etilganligi bilan ajralib turardi. Bir necha hovli artelga birlashib, qishloq xo'jaligi mehnat qurollariga birgalikda egalik qilishgan, qurilish, temiryo'lda ishlash uchun jamoa tuzishgan, ayollar bichish-tikish ishlarini ham artel tarkibida olib borishgan. Shunday bo'lsa-da, jamoa orasida tabaqalanish kuchli bo'lgan. Qishloqda yirik qo'rg'on egasi bo'lgan badavlat oilalar va yerto'lada faqirona hayot kechirayotgan oilalar ham bo'lgan. Iqtisodiy baquvvat baptist yoki molokan ikki qavatli uy egasi bo'lsa, uning yon qo'shnisi uy qurish imkoniga ega bo'lmagan pravoslav oilasi bo'lgan.

Ayrim baptist oilalarda 20 bosh qoramol, qishloq xo'jalik aslahalari, bir qancha desyatina yeri bo'lgan bo'lsa, yonydagi mujik yozi bilan temiryo'l stansiyasida ishlagan, yaxshi daromad ko'rmasdan, kulbasida qishni o'tkazishga majbur bo'lgan. Og'ir sharoitga tushib qolgan rus oilalarida bolalar soni ko'p bo'lgan.

Nikolskoye, Sretenskiy va Nadejdinskiy qishloqlarida cherkov bo'lgan. Cherkovlar knyaz Romanov va hukumat mablag'i evaziga bunyod etilgan. 1886-1897-yillarda Sretenskiy qishlog'ida hukumat maktabi bo'lgan, qolgan qishloqlarda bolalar ta'limni o'z oilalarida olishgan. Arxiv ma'lumotlarida bu davrga oid maktab qurilishi va moddiy ta'minot haqida ma'lumot uchramaydi.

Demak, Mirzacho'lga rus aholisini ko'chirib keltirish jarayonida chorizm hukumati bu yerda kanal qazish, suv chidarish, yangi yerlarni o'zlashtirish, paxta ekishni rivojlantirishni asosiy maqsad qilgan.

Samarqand viloyat boshqarmasi Xo'jand va Jizzax uyezdlariga qarashli bo'lgan Mirzacho'ldagi yangi qishloqlarda aholi ko'payganini hisobga olib, 1898-yil dekabrda Mirzacho'lda yangi – Irjar volostini tashkil etishga ruxsat berdi. 1899-1914-yillar Mirzacho'lga suv chiqarishning yakunlanishi, temiryo'l qurilishi, ko'chib kelgan rus aholisining utroqlashib qolishi bilan izohlanadi. Temiryo'l yoqasida yangi stansiyalar paydo bo'ldi; Veliko-Alekseyevskiy, Samsonovo, «Zolotaya Orda», Chernyayevo, Xilkovo va boshqa qishloqlar barpo qilindi. Turkistonda rus hukumatining

ta'sirini kuchaytirish va ruslar mavqeini oshirish madsadida Mirzacho'l ham mustamlaka hududlardan biriga aylaitirildi.

Mavzu boyicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Rossiya imperiyasining Mirzacho'l hududiga qaratilgan ekspansiyasi qanday boshlangan?
2. XIX asr oxirida Mirzacho'lning etnik tarkibida qanday o'zgarishlar kuzatilgan?
3. Rus muhojirlari Mirzacho'lga qanday yo'llar bilan joylashtirilgan?
4. Mahalliy aholining yer va suv resurslariga egalik huquqi qanday o'zgargan?
5. Rossiyaning kolonial siyosati etnik muvozanatga qanday ta'sir ko'rsatgan?
6. Migratsiya siyosatining ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari qanday bo'lgan?
7. Etnik guruhlar o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlarning sabablari nimalarda edi?
8. Rossiya mustamlakachiligi jarayonida Mirzacho'lning siyosiy boshqaruvi qanday tashkil etilgan?

Amaliy savolar.

1. XIX asr oxirida Mirzacho'lga ko'chib kelgan rus dehqonlarini joylashuv xaritasida belgilang.
2. Mahalliy aholi va ko'chib kelgan muhojirlar o'rtasidagi yer nizolarini tarixiy misollar bilan ko'rsating.
3. Arxiv hujjatlari asosida Rossiya hukumatining migratsiya siyosatini tahlil qiling.
4. Ruslashtirish siyosatining madaniy oqibatlarini mahalliy maktablar misolida ko'rsating.
5. O'zbek, qozoq va rus aholisi o'rtasidagi xo'jalik va ijtimoiy tafovutlarni jadvalda taqqoslang.
6. Mirzacho'l vohasida ko'p millatli jamiyat shakllanishining tarixiy shart-sharoitlarini tahlil qiling.

7. Harbiy mustahkamlangan posyolkalar va ularning joylashuvi etnik tarkibga qanday ta'sir qilganini aniqlang.
8. O'zbek va qozoq aholisi ijtimoiy-iqtisodiy cheklovlarga qanday munosabatda bo'lganini yozma manbalar asosida baholang.

Munozarali savollar.

1. Rossiyaning Mirzacho'lga yurishi – taraqqiyotmi yoki etnik mustamlaka jarayonining boshlanishimi?
2. Muhojirlar siyosati mahalliy aholiga nisbatan adolatsiz bo'lgan deb hisoblash mumkinmi?
3. Yer-suv siyosati orqali Rossiya imperiyasi etnik ustuvorlikni qo'lga kiritganmi?
4. O'zbek va rus aholisi o'rtasidagi madaniy tafovutlar ijtimoiy ajrimga olib kelganmi?
5. Rus dehqonlarining joylashtirilishi Mirzacho'l iqtisodiyotini rivojlantirdimi yoki siqib chiqardimi?
6. Millatlararo ziddiyatlar asosan siyosiy siyosatning oqibatimi yoki xo'jalik raqobatidan kelib chiqqanmi?
7. Rossiya imperiyasi Mirzacho'l hududida etnik uyg'unlikka erishishga intildimi?
8. Ko'chib kelganlar va mahalliy aholi o'rtasidagi ijtimoiy ierarxiya mustamlakachilik mahsulimi?

TEST.

1. XIX asr oxirida Mirzacho'lga qaysi etnik guruhlar asosan ko'chib keltirilgan?
 - A) Arablar
 - B) Ruslar
 - C) Xitoyliklar
 - D) Forslar
2. Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan ko'chirmachilik siyosatining asosiy maqsadi nima edi?
 - A) Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish
 - B) Etnik ustuvorlikni o'rnatish va siyosiy nazoratni kuchaytirish
 - C) Diniy islohotlar o'tkazish
 - D) Savdo yo'llarini yopish

3. Rus muhojirlarining joylashtirilishi qanday oqibatga olib kelgan?
- A) Qishloq xo'jaligi inqirozi
 - B) Etnik guruhlar o'rtasida resurslar uchun raqobat kuchayishi
 - C) Urbanizatsiyaning kuchayishi
 - D) Diniy nizo
4. Mahalliy aholi Rossiya ko'chirmachilik siyosatiga qanday munosabat bildirgan?
- A) To'liq qo'llab-quvvatlagan
 - B) Xayrixohlik bilan kutib olgan
 - C) Norozilik va qarshilik ko'rsatgan
 - D) E'tiborsiz bo'lgan
5. Rossiya imperiyasi Mirzacho'l hududini qaysi yillarda faol bosib ola boshlagan?
- A) XVIII asr o'rtalari
 - B) XIX asr oxiri
 - C) XVII asr
 - D) XX asr boshi

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. (2001). *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 464 b.
3. Xodjiyev M., Quدراتov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
4. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
5. Alibekov U. Buxoro va Qo'qon xonliklari tutash hududlarida siyosiy-etnik jarayonlar. Toshkent. "Metodist nashriyoti". 2025

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Аминов Б.А. Формирование населения Голодной степи (конец XIX –60 –е гг. XX в.) Авторефер. дисс. к.и.н. –Ташкент: 1970.
2. Аширбоева З.К. XIX аср охири - XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Т.ф.н....автореферати. – Тошкент: 2008.
3. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
4. Голодная степь. 1867-1917. История края в документах. - М.:Наука,1981. –С.97.
5. Салимов Т. Некоторые вопросы формирования населения Зааминского района (конец XIX-XX в.в.). Древний Замин. – Ташкент: Фан, 1994.
6. Almanov Q. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibi va uning etno-toponomikada aks etishi.Tfd,(DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.2025.
7. Салимов Т.У. Современные этнографические процессы в целенных районах Узбекистана. Автореферат к. и.н М .1986.
8. Keller, Shoshana. *To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia, 1917–1941*. Greenwood Press, 2001.

15-MAVZU. MIRZACHO‘LDAGI O‘ZBEK URUG‘LARI (TURKLAR, BOYOVUTLAR, JALOYIRLAR, YUZLAR)

Asosiy savollar

1. O‘zbek turklari.
2. O‘zbek boyovutlari.
3. O‘zbek jaloyirlari.

Tayanch iboralar. Mirzacho‘l, o‘zbek urug‘lari, turklar, boyovutlar, jaloyirilar, yuzlar, etnik shakllanish, urug‘-qabila tuzilmasi, ko‘chmanchi chorvadorlar, dehqonchilik madaniyati, mahalliy aholi, tarixiy migratsiyalar, ijtimoiy ierarxiya, qabila boshqaruvi, hududiy joylashuv, urug‘lararo munosabatlar, tarixiy manbalar, oraliq integratsiya, siyosiy rol, urf-odatlar, etnik mustahkamlik.

1. O‘zbek turklari.

Turk – o‘zbeklar tarkibidagi etnik guruhlaridan biri bo‘lib qarluq lahjasida so‘zlashgan. O‘zbek turklari to‘rtta yirik qabila (turk, musobozori, kaltatoy va barlos) dan iborat bo‘lgan. Tadqiqotchilarning ma‘lumotlariga ko‘ra, ular VI-XVI asrlarda hozirgi O‘zbekiston hududiga kelib joylashgan qadimgi va o‘rta asrlardagi turkiy qabilalarning qoldiqlaridan tarkib topgan. O‘zbek turklari tarkibiga turklashgan mo‘g‘ul qabilalarining ayrim guruhleri ham kirgan. Ular Zarafshon va Farg‘ona vodiysida istiqomat qilib, asosan chorvachilik, qisman dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar.

Ma‘lumki, eneolit va bronza davrining boshlarida yurtimizda yevropoid irqining o‘rta yer dengiz tipi vakillari istiqomat qilishgan. Shahrison turklarini o‘rgangan etnograf M. F. Gavrilovning fikriga ko‘ra, “eshon to‘pi” turklarining qiyofasida mo‘g‘illarga xos belgilar kuzatilmagan. Ularda braxitsefal belgilar kuchli bo‘lib, o‘rta yer dengiz tipi vakillari bo‘lishgan. Bunday ma‘lumotlarni rus taqdiqotchilaridan I. I. Zarugin, V. I. Massalskiy, N. A. Aristovlar ham tasdiqlashadi.

O'zbek turklari "Qayerda tog' bo'lsa, o'sha yerda turklar bor" deyishadi. O'zbek turklari tarkibidagi "yalpoq boshlar" to'pi tipik o'rta yer dengiz tipi vakilidir. Aksaryat tadqiqotchilar o'zbek turklarini: turklar, barloslar, musobozorilar va kaltatoylarga bo'lishadi. Turklar Yaxsuv, Qizilsuv daryolari vodiylarida, Xonaqadaryo, Kofirnihon daryolarining yuqori qismida, Zarafshon tog'ining g'arbiy yon bag'irlarida, ayrim guruhlar esa Buxoro vohasida Shohrud daryosi bo'yida joylashgan. Barloslar Qashqadaryo, Surxondaryo va qisman Zarafshon vodiysiga o'rnashishgan. Musobozorilar Xonaqadaryo, Qarshi vohasi va Qashqadaryoning yuqori qismlarida yashashgan. Kaltatoylar esa asosan Surxondaryo vohasida tirikchilik qilganlar. Manbaviy ma'lumotlarga ko'ra, turklar, kaltatoylar, musabozorilar va barloslar davlat ishlarida faol ishtrok etganlar, bekklik kabi lavozimlarda ishlaganlar.

Qadimdan Beshbuloq yoyilmasida o'zbek qavmiga mansub bo'lgai turk urug'ining bir necha to'plari vujudga keladi. Bular o'zbek qavmining turk urug'iga mansub bo'lgan Toshpo'lat, Begat, Chuvulloq, Sulutki, Oftovra, Lolaki, Chillamozor, Qovunkesti, Ovlo'pka, Choltosh, Chervoy, Qurg'on to'plariga bo'lingan. Toshpo'lat to'pi asosan toshli joylarga joylashgan va qurgan uylari po'latdek mahkam toshdan tiklanganligi uchun Toshpo'lat nomi bilan atalgan. Begatliklar esa Begat boboning xeshidan (avlodidan) tarqaganliklari uchun Begat nomi bilan atalgan.

Toshpo'lot, Begat, Chervoy to'plari, umuman zovqo'tanliklar Chuvulloq to'piga birlashadi. Ular 1934-yilga qadar turk-barloslar deb atab kelingan. Keyinchalik so'zni qisqartirib, urug'ining Chuvulloq to'pi deb atashgan. Sulutki to'pining asl nomi Zulukli bo'lgan. Buloqlarida zuluk ko'p bo'lganligi uchun shunday deyilgan. Keyinchalik Sulutki to'pi deb atalgan. G'azna to'pi yashash hududida g'alla ekinlari yaxshi ungani, bug'doyga serob bo'lganligi uchun G'azni deb atalgan. Oftovra to'pi quyosh nuri mo'l-ko'l tushadigan oftobro'ya betkayiga joylashgani uchun Oftovra deb atalgan. Lolaki to'pi lolaga boy bo'lgan joy. Shuning uchun Lolaki deb atalgan.

Chillamozer to'pi qabriston, qo'yindi, saygoh yaqinida o'rnashgani uchun chillali ayollar, umuman Chillamozer deb atalgan. Qovunkesti to'pi joylashgan joy qovundek kesilganligi uchun Qovunkesdi deyilgan. Ovlo'pkalik to'pida mergan ovchilar ko'p bo'lgan. Ovda otilgan jonzotlarning o'pkalarini uyning oldidagi ilgakka osib qo'yganliklari uchun Ovlo'pka deb atalgan. Choltosh to'pi joylashgan joydagi chag'ir toshli qirlarda cholga o'xshab egilib turgan toshlar bo'lganligi uchun Choltosh deb atalgan. Chervoy to'pi chorva mollariga boy bo'lganligi uchun chorvaga boy degan ma'nodan kelib chiqib, Chervoy deb nomlangan. Qo'rg'on to'pi esa toshdan qurilgan devor bilan o'ralganligi uchun Qo'rg'on to'pi deb atalgan.

Etnograf olimi B. X. Karmisheva Zominning Beshbulog'idagi turklar turk-barlos, turk-kaltatoy, turk-musobozori gruppalariga bo'linishini yozadi¹. Demak, beshbuloqliklar turk-barlos, turk-kaltatoy, turk-musobozori gruppalaridan, ya'ni yig'indisidan tashkil topgan. Bular orasida turk-kaltatoylar mahatzamoni, mahattari va mirzoqaltatoylar tarmog'iga bo'linishini ham ta'kidlagan. Shular orasida turk-kaltatoylar, ya'ni mahattari to'pi ota-bobolari XVI asr boshida Hisor yoyilmasidan bu yerga kelganlar.

G'azna, ofrto'vra, chervoy, sulutki, to'plari XVII asrning o'rtalarida ro'y bergan qimmatchilikda Andijon viloyatidagi Marhamat tumanidan kelganlar. Ular yaqin davrlargacha marhamatliklar bilan bordi-keldi qilganlar.

1841-yiliing ko'klamida qo'qonlik diniy bilim sohibi bo'lgan mullo Valixon Komilov Beshbuloqning Zovqo'tansoy yoyilmasiga keladi. Yashil maysalar bilan qoplangan qirlarni ko'rib hayratlangan Valixon Komilov «O'lsang, jasading shunday toza tuproqli joylarda qolsa, yerning ostida ham pokiza yotasan» - deydi. Bu uning odamlarga aytgan oxirgi so'zlari edi. Nogohon betoblikka chalinib, oradan ikki kun o'tgach bandalikni bajo keltiradi. Uni Chuvulloqdagi hozirgi mozorga dafn etadilar. Bu keyinchalik katta xilxonaga aylangan joydagi birinchi qabr edi. Shundan keyin bu joy olamdan

¹ Кармышева Б.Х. Этнографическая группа "тюрк" в составе узбеков (Историко-этнографические данные) // Советская этнография. 1960.-С 3-22.

o'tganlarning qabristoniga aylanadi. Zomin turklaridan bo'lgan Ahmadbek sakkiz yil davomida O'ratepaga beklik qilgan. Beklik davrida yetim-yesirlarning boshini silagan, ularga kiyim-kechak ulashgan, qorinlarini to'yg'azdirgan. Qambag'allarga muruvvatda bo'lgan. Hozirgacha odamlar Ahmadbekni «Sahovatpesha edilar» deb eslashadilar.

Bu yerda qabriston paydo bo'lishidan oldin Beshbuloq yoyilmasida olamdan o'tganlar bir necha o'n yillar davomida O'ratepadagi Toshmozor qabristoniga dafn etib kelingan. Keyinchalik olamdan o'tgan beshbuloqliklarning bir qismi bir necha o'n yillar davomida Xo'jamushkentdagi qabristonga dafn etilganlar.

1862-yilning yozida bir guruh beshbuloqlik otaxonlar Qo'qon xoni Xudoyorxonning akasi Shomurodxon huzuriga borib, Beshbuloqdagi yerga egalik qilish huquqini so'rab, xonning muhri bosilgan vasiqa qog'ozini olishga muvaffaq bo'ladilar. Bunday qilinishining sababi shundaki, Beshbuloq yoyilmasi goho Buxoro amrligiga, goho Qo'qon xonligi tasarrufiga o'tib turgan. Vasiqa qog'ozi olingandan keyin beshbuloqliklar yashagan 34 ming gektar yer ularning ixtiyoriga o'tgan.

1898-yilda Begat to'pidan bo'lgan Boboyor Boboyev, To'raqul Boboyevlar (ularning ikkalovi ham 96 yil umr ko'rgan) hozirgi Oqqo'rg'on tumaniga qarashli bo'lgan Sulton Segizboyev xo'jaligining 2-bo'limiga (Shomilqaroga) ko'chib keladilar. Bular beshbuloqliklarning yangi yerlarni o'zlatirish ishi bilan mashg'ul bo'lganlarining birinchi qaldirg'ochlari edilar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan aridizatsiya jarayonining keng ko'lamli kasb etishi, iqlimning isib ketishi, tez-tez takrorlanib turadigan sikllik qurg'oqchilik, xususan 1915-1917-yillar, 1920-yil, XX asrning 30-yillardagi qurg'oqchiliklar, ijtimoiy-siyosiy tizimdagi o'zgarishlar o'zbek turklarining xo'jalik turmushi, o'troq hayotiga putur yetkazdi va mirzacho'lning yangi o'zlashirilgan hududlariga ko'chishga majbur bo'ldilar.

1913-yilda G'azna to'pidan Jabbor Shomurodov o'sha paytda Nadejdinskoe deb atalgan hozirgi «Beshbuloq» mahallasiga ko'chib

keladi. Avvaliga chorva mollarni ko'paytirish, keyinchalik yer ochib paxta ekish ishlari bilan shug'ullanadi. Shu o'rinda g'aznaliklarni "yalpog' boshlar" deb ataganligini aytib o'tish zarur.

Olima B. X. Karmishevaning yozishicha, 1926-yilda aholi ro'yxatiga binoan O'rta Osiyoda o'zbek qavmining turk urug'iga mansub bo'lgan kishilari soni 66 ming 578 nafar bo'lgan. O'zbekiston hududida yashovchilarning soni 20 ming 179 nafar bo'lgan. Qirg'izistondagilarning soni 4 ming 216 nafar bo'lgan¹. Ana shu paytda beshbuloqliklar ming uyli (oilali) bo'lgan.

1920-1925 hamda 1934-1939-yillarda beshbuloqliklarning bir guruhi Mirzacho'lga: XX asrning 20-30-yillaridagi Sirdaryo tumanining «Yangi hayot», «Istiqlol», «Haqiqat» xo'jaliklariga, Malek xo'jaligining Hamza bo'limiga, Guliston tumanidagi «Beshbuloq» jamoa xo'jaligiga, «Farhod» xo'jaligiga, Boyovut tumanidagi bir qator xo'jaliklarga, Piskent tumanidagi hozirgi «Turkiston» xo'jaligiga, Oqqo'rg'on tumanidagi hozirgi Sulton Segizboyev xo'jaligiga, Yangiyo'l tumanidagi hozirgi Hamroqul Tursunqulov xo'jaligiga ko'chib keladilar. Ayniqsa, ularning Mirzacho'lga yalpi holda ko'chib kelishlari II Jahon urushi tugagandan keyin, aniqrog'i 1945-1951-yillarga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda beshbuloq turklari Mirzaobod tumani "Haqiqat", Oqoltin tumanidagi "Bo'ston", "Shodlik", "Andijon", Guliston tumanidagi «Beshbuloq», "Chortoq", "Inoqlik", "Birlashgan", Xovos tumanidagi «Gulbahor», Boyovut tumanidagi "Markaz", "Istiqlol", "Boboyurt", "Iftixor", "Amir Temur", Sirdaryo tumanidagi "Beshbuloq", "Orzu", "Ahillik", "Turkiston", "Ulug'bek", Sayxunobod tumanidagi «Guliston», «Yangihayot», «O'rikzor», Piskent tumanidagi «Oqtapa», Oqqo'rg'on tumanidagi "Hosildor" mahallalarida, Guliston, Sirdaryo, Baxt, Shirin shaharlarida, shuningdek Jizzax viloyatining yangi o'zlashtirilgan bir qancha yangi xo'jaliklarida yashamoqdalar va yaratuvchilik mehnati bilan faol shug'ullanmoqdalar.

¹ Кармышева Б.Х. Этнографическая группа "тюрк" в составе узбеков (Историко-этнографические данные) // Советская этнография. 1960.-С 3-22.

2.O'zbek boyovutlari.

Sirdaryoning chap qirg'og'ida Golodnostepye qishloq aholi punktlari tarkibida uyas, parchayuz, achamayli, qo'shtamg'ali, tentak, boyovut, nayman, qo'qoni qorapchi, turkman va boshqa etnonimlar shakllangan. Hozirda "Boyovut" etnonimi asosan Guliston tumanidagi Boyovut qishlog'i bilan, atrof hududlardagi aholi punktlari bilan bog'liq. "Boyovut" etnonimi qadimgi turkiy urug'lardan birining nomi. S. P. Tolstov, I. M. Magidovich, R. G. Kuzeev boyovutlarning vujudga kelishini va boyovut etnonimining paydo bo'lishini turkiy xalqlarning qabila tarkibidan bo'lgan boy, bo'ydor, bayot, boylar etnonimlari bilan bog'laydilar.

Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'atit turk" asarida Bayot urug'ini O'g'uz urug'i tarkibiga kiritgan. Rashid ad-Dinning yozishicha, Boyovut turkiy xalqlarning mo'g'ul deb atalgan qabila urug'laridan biridir. Rashid ad-Din XII asrda Mo'g'ulistonning shimolida yashovchi boyovutlar ikki guruhga bo'linganligini ta'kidlagan: cho'l qismida yashovchi "boyovut-keherinlar" va daryo bo'yida yashovchi boyovut-jadaylar. Tarixchi ularning ijtimoiy tuzilishi, turmush tarzi haqida ham ma'lumot beradi.

Chingizxon faoliyatining boshida tayjutlar mo'g'ullar ittifoqi tarkibiga kirgan. Chingizxon o'z qo'shinini 13 tarmoqqa bo'lganida, boyovutlar bir qismdan tashkil topgan va shu davrdan boshlab "uteku" deb nomlangan bir qancha qabila urug'lariga kirgan. Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul bosqinlari davrida boyovutlar turkiy urug'lar bilan bir qatorda barlos, kaltatoy, naymanlar kabi Sirdaryo vodiylari va vohalariga joylashdilar.

XVI asrdan boshlab ko'pgina manbalarda boyovutlar o'zbek urug' va qabilalarining bir qismi sifatida qayd etilgan. XVI asrda Farg'onada mulla Sayfiddin, Domullo Shayx-Abbos Axsikatiy va uning o'g'li Nur (yoki Navro'z) Muhammad tomonidan yozilgan "Majmu at-tavorix" asarida, Avaz Muhammadning Qo'qon xonligi tarixini aks ettiruvchi asarida, XIX asrning ikkinchi yarmida noma'lum muallif tomonidan yozilgan asarda, shuningdek,

Ch. Valixonov tadqiqotlarida o'zbek urug'laridan biri sifatida boyovutlar ham ko'rsatilgan.

Agar bu asarlarda keltirilgan fikr-mulohazalar asosi Rashid ad-Din ma'lumotlari bo'lsa, yana bir qancha tushunchalar ham kuzatiladi. Jumladan, Abulg'ozzi Bahodirxon boyovutlarning ikki guruhga bo'linishini "Jadain va Mekrin nomlari ostida oqadigan ikkita katta suv" bilan bog'lab, ularning "Mo'g'uliston Darlagin urug'idan" ajralib turishini yozadi. Biroq, bu talqinlar ichida eng to'g'risi Rashid ad-Dinning boyovutlar haqidagi fikridir, deb hisoblaymiz.

Boyovut o'zbeklari O'rta Osiyoning ko'plab hududlariga tarqalgan. Etnolog N. O. Tursunovning yozishicha, boyovutlar boshqa elat va urug'lar bilan birgalikda Shimoliy Tojikistonning O'tkamsoy, Sarmisoqdida, Qal'achay kalon (yoki Qal'achay gulisurx), Yaxta (yoki Yaxdon), Qal'achay, Qo'rg'oncha, Bekobod (Kanibodam yaqini), Qushqak va boshqa qishloqlarida yashagan. Samarqand shahrida bu etnonim nomi bilan atalgan ko'cha bo'lgan.

Ayni paytda O'zbekistonning Sirdaryo viloyatining Boyovut va Guliston tumanlarida yashovchi boyovut o'zbeklari Istaravshan (Sobiq O'ratepa, Tojikiston)ning Navgandi qishlog'idan kelgan, deb hisoblashadi. Ma'lumotlarga ko'ra, tarixiy "jov keldi" (yov keldi, so'zma-so'z "dushman keldi") davrida boyovutlar uch guruhga bo'lingan, ulardan biri Navgandida qolgan, ikkinchisi Sirdaryoning chap sohiliga ko'chib o'tib, o'z qishlog'ini tashkil etgan, uchinchisi Farg'ona vodiysiga ko'chib o'tgan va shu yerda hududidagi Novkat qishlog'iga asos solgan.

O'tmishda suv manbalari, vohalar va yaylovlar yirik yer egalari va ko'chmanchi chorvador qabilalar o'rtasida bo'lingan. Jov keldi davridan oldin bayovutlar Sirdaryo va O'ratepa oralig'idagi yerlarda chorvachilik bilan shug'ullangan. Ustrushonadagi mo'g'ullar bosqinidan so'ng faqat ikkita shahar tezda o'zining avvalgi maqomini tiklay oldi: Jizzax va O'ratepa. Shu sababdan keyingi tarixiy davrda bu shaharlar negizida beklar boshqaruvi vujudga kelgan. N. O. Tursunov qayd etganidek: "Boyovutlar qo'y va otlarni boqib,

qishlash joylari Sirdaryoning chap qirg'og'i bo'lgan; XVIII asr boshlarida markaziy hokimiyatning zaiflashishi, yirik mulkdorlar o'rtasidagi o'zaro nizolar, qozoq feodallari va jung'or ko'chmanchilarining bosqinlari Movarounnahrning ko'pgina hududlarida atrof-muhitning yomonlashishiga olib keldi. Biroq Jizzax, O'ratepa va Xo'jandda ijtimoiy taraqqiyot ancha barqaror edi. Bu davrda Turkiston tizmasining shimolidagi adir zonalariga boshqa viloyatlar aholisi ko'chib kelib o'rtnashib qolgan.

1745-yilda qalmoqlar Farg'ona vodiysiga tushib, Qo'qon shahrini qamal qilganlarida, O'ratepa hukmdori Fozilbek qo'shini bilan qo'qonliklarga yordamga shoshildi. Janglar natijasida qalmoqlar Farg'ona vodiysidan quvib chiqarildi. Amir Shohmurod davrida (1785-1800) Samarqand shahrini tiklash maqsadida bu yerga yaqin atrofdagi qishloq va shaharlardan, xususan, Xo'jand, Xovos, Toshkent, Zomin, Yom, O'ratepadan aholi ko'chirildi. Ko'chirilgan aholi orasida boyovut o'zbeklari ham bor edi. Bayoviyalar Samarqand shahridagi 24 guzardan biriga asos solganlar. Tarixiy adabiyotlarda Samarqandda Bayovut ko'chasiga asos solingani Amir Shohmurodning ko'chirish siyosati davri bilan bog'liq. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Qo'qon xonligining Xo'jand va O'ratepaga bosqinchilik yurishlari, XIX asr o'rtalarida esa Xo'jand va Jizzax o'rtasidagi yerlarning Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi bahsli hududga aylantirilishi Qo'qon xonligining tinchligini buzishga olib keldi. Bu siyosiy jarayonlar bu yerlarning Rossiya imperiyasi tomonidan tortib olinishi bilan yakunlandi. XVIII asr oxiridan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davr tinch bo'lmagan va uni Sirdaryo bo'yida yangi qishloqlar paydo bo'lishiga olib kelgan "jov keldi" davri deb ham atash mumkin.

Bayovut qishlog'idagi "Yermachit" xarobalari bu yerda qishlagan chorvadorlarning qazilma uylari, namoz o'qish uchun qazilgan masjidleri qoldiqlari sifatida baholanishi mumkin. Boyovut qishlog'i yaqinida, Jahongir Mirzo qabri atrofida barpo etilgan qabriston bu qishloqning o'tmishidan dalolatdir.

Rossiya mustamlakasi davrida Sirdaryoning chap sohilidagi qishloqlar Sovot volosti tarkibiga kirgan. 1903-yilda volost ma'muriyati mulla Narziqul Kenjaboyev bu yerda mahalliy aholi bir necha avloddan beri yashab kelganligini ma'lum qilgan. XVIII asr oxirigacha yarim ko'chmanchi, yarim o'troq turmush tarzini olib borgan bayoviylar, XX asr boshidan boshlab ular butunlay o'troq turmush tarziga o'tdilar. 1905-yilda Boyovutda 38 oila yashagan, umumiy aholisi 386 kishi edi. 1913-yilga kelib Boyovut qishlog'i kengayib, Bovoko'l, Sarmon, Tentak ovullaridan iborat bo'lgan. 1920-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Boyovut qishlog'ida 233 ta xo'jalik bo'lib, aholisi 1077 kishini tashkil qilgan. 1920-yillarda Penkov ismli bir kishi suv tortdi va Boyovut qishlog'i yaqinidagi yerni ijaraga oldi. 1927-yilda yangi o'zlashtirilayotgan yerlarda "Bayaut-1" sovxozi tashkil etildi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, mazkur xo'jalik ushbu sovxoz tarkibiga kirgan Boyovut qishlog'i (hozirgi Guliston tumanidagi Boyovut qishlog'i) aholisi sharafiga "Boyovut-1" deb atalgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin yangi o'zlashtirilayotgan yerlarda "Boyovut-2", "Boyovut-3", "Boyovut-4" davlat xo'jaliklari tashkil etildi. 1956-yil 25-yanvarda ushbu davlat xo'jaliklari negizida Boyovut tumani tashkil etildi.

B. Aminovning tadqiqotlariga ko'ra, XX asrning 60-yillarida Boyovut urug'i 2 tarmoqqa: kirsadoq va choprashlilarga bo'lingan. Axborotchilar Kirsadoq va Choprashlining aka-uka ekanligi, Choprashlining kenja ukasining farzandi yo'qligi yoki Choprashli bo'limi hech qanday guruhga bo'linmaganligi haqida xabar berishdi.

Darhaqiqat, Choprashli Qozoq Ulug' Juz urug'laridan biri bo'lib, etnolog, akademik K. Shoniyozovning yozishicha, bu urug' O'rta Osiyoga XVII-XVIII asrlarda kelib, turli o'zbek qabila va urug'lari tarkibiga kirgan. K. Shoniyozov o'zbek urug'larining guruhlarga bo'linishi laqablar - "laqablar" shaklida saqlanib qolganligini ta'kidladi, bu Kirsadoq shoxchasining guruhlarga bo'linishida ko'rish mumkin. Boyovut-Kirsadoqlar Durbatubi, Qushmaydon, Xayton,

Oydincha, Shaytonto'p, To'lak, Moychi va boshqa guruhlariga bo'lingan.

Boyovut-Kirsadoqlarning taxalluslarga ko'ra bo'linishini quyidagi rivoyatda ko'rish mumkin: bir o'ratepalik to'yida ko'pkarida nizo kelib chiqadi. Ikki taraf bahslashib qozonga yaqinlashganda, Nur degan bir boyovut yigit qo'qonliklarning ustiga bir chelak issiq sho'rva quyib, tomonlar tarqalib ketadi. Shu paytdan boshlab unga Shaytonnur degan laqab qo'yilib, uning avlodiga Shaytonto'p nomi berilgan.

Boyovutlar orasida to'lak guruhi (To'lak to'pi) vakillari ko'pchilikni tashkil qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, onasi boshqa millatdan bo'lgan odamlarni To'lak to'pi deb atashgan. To'lak (To'lak to'pi) guruhiga mansub bayovlarning ko'p bo'lganligi ularning o'tmishda boshqa millat va elatlar bilan assimilyatsiyasi kuchli bo'lganidan dalolat beradi.

O'zbek xalqining milliy mentalitetiga ko'ra, oilalarda bolalarni buzish, erkalashda boshqa nom bilan murojaat qilishgan. Marosim an'analariga ko'ra, kelin erining aka-uka va opa-singillarini ulug'lash va erkalashda ularga boshqa ism bilan murojaat qilgan. Shuningdek, kelinning erining kenja akasiga "oydinda" yoki "oydincha" degan mehri murojaatidan "oydinda" (oydinda to'pi) guruhi tashkil topgan.

Ilgari barcha o'zbek qabila va urug'larining o'z tamg'asi bo'lgan. Barcha mol-mulkini o'zlari o'zlarining tamg'asiga ko'ra bo'lishdilar. Boyovut o'zbeklari orasida cho'chqa shaklidagi tamg'aning mavjudligini Durbato'bi urug'ining paydo bo'lishi haqidagi rivoyatda ham ko'rish mumkin: Bir boyovut qizi uzoq qishloqqa kelin bo'libdi. Vaqti-vaqti bilan ota-onasi uning oldiga kelishardi. Ikki farzandli bo'lganida eri qattiq qishda vafot etdi. Kichkina bolalar va uy ishlarini yolg'iz o'zi boshqarish unga qiyin bo'ldi. Keyin u o'z ona qishlog'iga ota-onasiga qaytishga qaror qiladi. Bozorga borib, peshonasida cho'chqasi bor otni topib, uning xo'jayiniga Boyovutga ahvoli va qarorini aytib yuboradi. Boyovut savdogar katta bolasini xurjingga, kichigini ot qopiga solib, ayol bilan birga qishloqqa yo'l oldi.

Qishloqqa yetib kelganlarida, qopdagi bola o'lik bo'lib chiqdi, lekin xurjundada o'tirgan bola tirik qoldi. Bu hikoyadan keyin qopga kelgan bolaning avlodi durbato'bi to'pi deb ataladi.

A. G. Mitirovning qayd etishicha, bu qabilaning ikki tarmog'i ma'lum bo'lgan: biri Jaday yoki Boyovut deb atalgan, ikkinchisi esa Keherin-Boyovut, ikkinchisining qarorgohi Selenga daryosi bo'yida joylashgan edi. Boyovutlar «Chingizxon naslidan bo'lgan kishilarga qiz berish huquqiga ega edilar».

Boyovutlar Yevroosiyoning boshqa mintaqalarida ham uchraydi. Qrimning tatar va no'g'ay oykonimiyasida turkiy va mo'g'ul tillaridan bo'lgan yuzlab qabila nomlari o'z aksini topgan bo'lib, ularning aksariyati Qipchoq cho'lining keng hududida shakllangan turkiy xalqlar etnonimiyasida uchraydi. Qipchoqlar no'g'aylar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, ko'chmanchi o'zbeklarning shakllanishida etnik asos bo'lib, Volgabo'yi va Qrim tatarlari, boshqirdlar, qorachaylar, bolqarlar, qumiqlar, oltoylar va qirg'izlarning etnogeneziga katta hissa qo'shgan. Qipchoq etnonimi sanab o'tilgan xalqlar etnonimiyasida ifodalangan va yigirma Qrim qishloqlari nomlarida o'z aksini topgan. Qrimning oykonimiyasi va turkiy va mo'g'ul xalqlarining etnonimiyasi mo'g'ullar tomonidan bosib olingan va ular tomonidan parchalanib ketgan ko'plab o'rta asr qabilalari va xalqlarining nomlarini o'z ichiga oladi, yangi 158 qabila birlashmalari tarkibiga alohida bo'linmalar sifatida o'zlarining sobiq etnik nomlarini saqlab qolgan: Alaniks-Yats. Qrimdagi no'g'aylardan boshqirdlar va o'zbeklar urug'i;

3.Jaloyir.

Jaloyirlar – turk-mug'ul qabilalarining aralashishi natijasida tashkil topgan yirik qabilalar uyushmasi hisoblanadi. Rashididdin “Jome' at-tavorix” nomli asarida jaloyirlar XII asrda Onon va Kerulen daryolari bo'yida yashaganligini yozadi. Ular o'n bo'lakka (qabilaga) bo'lingan, har bir qabilaning o'z sarkardasi (qabila boshlig'i, oqsoqoli) bo'lgan. Jaloyirlarning katta bir qismi kidonlar bilan bo'lgan jangda yengilgach, kuchsizlanib Chingizxon ajdodlariga tobe

bo'lib, ularga xizmat qiladi. Chingizxon hukmronligi davrida Jaloyirlardan bir qancha e'tiborli beklar va lashkarboshilar yetishib chiqqan. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida jaloyirlarning ko'plari Yettisuv va O'rta Osiyoning ayrim viloyatlariga ko'chib kelib joylashadilar. Jaloyirlarning katta bir guruhi XIII–XIV asrlarda Ohangaron vodiysi va Xo'jand hududida yashagan. Jaloyirlar Xo'jandda makon topishgan va urug' sardori "go'yo, o'z viloyatining ulus begi bo'lgan".

Bu guruh 1370–yilda Amir Temurga tobe bo'ladi. Ammo, jaloyirlar Amir Temur hukmronligidan chiqish niyatida tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turadi. 1376–yildagi qo'zg'olon bostirilgach, ular bir qancha guruhlarga ajratiladi, bir bo'lagi Toshkent vohasida qoldiriladi, qolganlari bir qancha hududlarga (asosan Zarafshon bo'ylariga) ko'chiriladi. Shu tarzda Amir Temur jaloyirlarning Ohangaron va Xo'jand ulusini tarqatib yuboradi.

Shunga qaramay, Jaloyir qabilasi amirlari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mirxondning "Ravzat-ussafo" asarida Amir Temur va Sulton Husayn qo'shini tarkibida xizmat qilgan mingta "Jaloyir qabilasidan bo'lgan chavandozlar" bo'lganligi aytiladi. Jaloyir qabilasining etnogenezi va etnik tarkibini o'rganish bo'yicha ilmiy-tarixiy asarlar turli davrlarda turli xil millat vakillari tomonidan o'rganilib tadqiq qilingan. Misol uchun mo'g'ullar hukmronligi davrida ijod qilgan Rashiduddin "Jome' at-tavorix" asari, Xiva xoni shayboniylar sulolasidan Abulg'oz Bahodirxon qalamiga mansub "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima", Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asari, "Abdullanoma", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarlari, Karmisheva B. X., Petrushevskiy I. P., Sultonov T. I., Barold V. V., Hasan Ato Abushiy va boshqalar. Mustaqillik davrida bu mavzuda A. Asqarov, K. Shoniyozov, A. Ashirov va boshqalar shug'ullangan. MDH davlatlaridan Qozog'istondan S. A. Amanjolov, M. T. Tinishpayeva, Rossiyadan V. A. Abramov, A. Y. Yakubovskiy, Y. A. Zuyev, N. A. Aristov va boshqalar ijod qilgan.

Bobur tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlarga binoan, jaloyir qabilasidan bo'lgan Alibekning ta'siri shunchalik kuchli bo'lganki, "Undan yuqori turuvchi kishi bo'lmagan". Uning o'g'li Xasan Ali-bek Sulton Husayn davrida qo'shbegi sifatida bo'lgan. O'zbek jaloyirlarining oqsoqollari Buxoro saroyida taxtning chap tomonidan joy egallashgan.

Jaloyirlar Qozoqlarda Ulug' juz tarkibiga kiradi. Jaloyirlar etnonimi qozoq, qirg'iz, buryatlarning urug'-qabila nomlari orasida uchraydi. Ushbu qabilaning alohida urug'larining nomlari qoraqalpoqlarning urug'-qabilaviy nomlari orasida uchraydi (bolg'ali urug'i). Qozoq geneologik rivoyatlarining ma'lumot berishicha, jaloyirlar – uysun qabilasining eng asosiy tarmog'i, bo'g'ini bo'lgan.

Qozoqlarning jaloyir qabilasi o'z birlashmasiga 13 ta urug'ni birlashtiradi, ularning har biri tarkibiga o'z o'rnida ko'plab urug'lar, bo'linmalar kiradi (ya'ni, ular ham o'z o'rnida mayda urug' va bo'linmalarga bo'linadi). XIII asr davomida jaloyirlarning katta bir guruhi Ozarbayjon va Iroqqa ko'chib, o'z davlatlarini barpo etadi. Bir qancha tarixiy manbalarning guvohlik berishicha (misol uchun o'zbek urug'larining nomlari keltirilgan Axsikenti ro'yxatida) jaloyir qabilasi oqsoqollari ming, yuz, qirq qabilalari oqsoqollari bilan bir qatorda XVI- XVII asrlarda mamlakat siyosiy hayotida juda katta o'rin tutgan.

Ma'lumki, XIV asrda ko'chmanchi turk-mug'ul qabilalari vohaning o'ziga ko'chib kela boshladi, ya'ni uning madaniylashgan (shaharlashgan) vohalariga ko'chib kela boshlaydi. V. V. Bartoldning ta'kidlashicha, aynan XIV asrda bu yerda oldingilaridan farq qiluvchi ulus tizimi vujudga keladi. Uluslar endi xon avlodi vakillariga emas, balkim davlatning harbiy kuchini tashkil etuvchi asosiy turk-mo'g'ul qabilalariga tarqatilgan. Chingizxon tomonidan o'g'li Chig'atoyga ulus ajratilganda to'rt ming kishidan iborat to'b (asl) mo'g'ul qo'shinini berganligi va ularning uluslari joylashgan joylar ma'lum. Ibn Arabshohga binoan, Chig'atoy ulusidagi asosiy urug'lar to'rtta bo'lgan: Orlot, Jaloyir, Qavchin, Barlos.

Shunday qilib, jaloyirlar ulusi Sirdaryo havzasida joylashgan bo'lib, asosiy shahri Xo'jand bo'lgan. Barloslar ulusi Qashqadaryo vohasida joylashgan bo'lib, asosiy shahri Shahrisabz bo'lgan. Qavchinlar ulusi – Saroykamar hududida Panjning o'ng qirg'og'ida, orlotlar ulusi bo'lsa Amudaryoning chap qirg'og'i Balx hududlarida hamda Termiz hududlarida bo'lgan. V. A. Abramovning “Река Каратал с её окрестностями” kitobida (“Qoratol daryosi uning atroflari bilan”. Sankt-Peterburg, 1867) qayd etilishicha, jaloyirlar Qoratol bo'ylarida chorvadorlik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan ham shug'ullanishgan.

Rashididdin va Abulg'ozil Bahodirxonning yozishlaricha, jaloyirlarning ilk ajdodlar Mo'g'ulistonning Onon daryosi havzalarida yashaganlar. XIII asrning birinchi choragida ularning bir qismi Ili daryosi havzasiga kelib o'rnashadi. Shu asrning 60-yillarida esa ulardan ming oila O'lkaga kirib kelgan. Rashididdin jaloyirlarni turkiylashgan mo'g'ul deydi. V. V. Bartold va I. P. Petrushevskiyalar jaloyirlar mo'g'ul tilli xalq bo'lgan, deydi. Tilshunos olim S. A. Omonjonov esa Rashididdinga suyanib, jaloyir qabilasi tarkibida quriqin (bo'ri), tulangit urug'lari bo'lganligini qayd qiladi. K. Shoniyozov: quriqin, yoqut va yenisey – qirg'izlarning (xakaslar) ilk ajdodlari, turkiy xalqlar edilar, deydi.

Jaloyirlar XIII asrning 60–yillarida Angren vohasiga kelib o'rnashganlarida turkiyda so'zlashar edilar. Amir Temurning nabirasi Jahongir qo'shini tarkibida jaloyirlar boshlig'i Bahromning o'g'li Odilshoh mulozim sifatida (harbiy qo'shin boshlig'i) xizmat qilgan. Ammo u xiyonat yo'liga o'tib, Saribug'a qipchoq bilan birga Amir Temurning Xorazm yurishlari chog'ida Samarqandga yurish qiladi. Temuriyzoda Jahongir ularni Karmana yaqinida uchratib, qaqshatqich zarba bergach, jaloyirlar va qipchoqlar Dashti Qipchoqqa qochib jon saqlaydilar. Amir Temur esa jaloyirlar ulusini tarqatib yuboradi. Boshliqlari xiyonatidan norozi bo'lgan bir qism jaloyirlar Angren vohasida qolib, Amir Temurga sidqidildan xizmat etishda davom etadilar.

Voha va unga tutash qo'shni hududlarga ayrim etnik guruhlar XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab kela boshlaydilar. Bu davrda jaloyir, barlos, qavchin va arlat etnik guruhlari birinchilardan bo'lib kelganlar. Chingizxonning o'g'li Chig'atoy aka-ukalari qatori (Tuludan tashqari) otasidan 4 ming kishilik harbiy qismni meros qilib olgan edi. Chig'atoyga berilgan qo'shin shu (jaloyir, barlos, qavchin, arlat) etnik guruhlaridan tashkil topgan. Tilga olingan har bir etnik guruhlarda mingtadan kishi bo'lib, mingboshilari bilan birga Chig'atoy davrida oilalari va urug'doshlari bilan Ili daryosining chap sohillarida, Yettisuv va Sharqiy Turkistonning g'arbiy hududlarida joylashgan edilar.

Jaloyirlar Angren havzasiga va Xo'jand atroflariga kelib o'rnashadilar. XIV asrning o'rtalarida jaloyir qabilasining bir guruhi Eronning shimoliy hududlariga borib o'rnashib, bu yerda Jaloyirlar sulolasini (1356-1411) tashkil etganlar.

Rashididdin jaloyirlarni mo'g'ul deb ataluvchi turk qabilalari qatorida tilga olgan. Muarrixning aytganlariga asoslanadigan bo'lsak, jaloyirlar – qadimda turkiy qabilalardan bo'lib, keyin mo'g'ul tilini qabul qilganlar, degan fikrga kelishimiz mumkin. Ammo yirik olimlar V. V. Bartold va I. P. Petrushevskiylar jaloyirlarni mo'ng'ul tilli xalq bo'lgan deydi. Tilshunos olim S. A. Amanjulov qator dalillar asosida jaloyirlarning asosiy negizi turklar degan xulosaga kelgan. Darhaqiqat, muallifning aytganlarida jon bor.

Markaziy Osiyoda yashovchi jaloyirlar keyinchalik o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va qirg'iz xalqlari tarkibiga kirganlar. XX asrning boshlarida Qozog'iston asosan Yettisuv viloyatining Kapal va Verniy uyezdlarida, Sirdaryo viloyatining Avliyoota uyezdida yashagan. Qozoqlar tarkibidagi jaloyirlar yirik urug'larga bo'lingan: - sirmanak (sirmonoq) - ariktinim (oriqtinim) - baychigir (boychegir) - qaychili - siirshi (sigirchi) - balgali (bolg'ali) - kuchuk, qorachapan, andas, qalps, mirza - oraqti (o'roqli) - oqbiyum (oqbo'yim). Qirg'izlar tarkibida jaloyirlarning kuchuk, ming'itay, supatay urug'lari bo'lgan.

1920- va 1926-yillarda aholi ro'yxatida O'zbekistonda yashovchi jaloyirlarning soni 25 ming kishiga yaqin ekanligi aniqlangan. Ular

Toshkent, Buxoro vohasida, Nurota tog' etaklarida, Jizax, Kattaqo'rg'on, Karmana, Qorako'l tumanlarida va Xorazm (Chimboy)da yashaganlar.

O'zbeklar tarkibida jaloyirlarning ikkita yirik qaychili va bolg'ali urug'lari hamda bir qancha kichik urug' bo'linmalari bo'lgan (qarg'ali, boshqird, qaroabdual, qorako'li, qorachopon, chuvuldoq, jastaban va boshqalar). XX asr boshlariga kelib O'zbekistonda yashovchi jaloyirlar o'z urug' va qabila xususiyatlarini yo'qotgan edilar (o'zbeklarga aralashib ketganlar). Jaloyirlar o'tmishda chorvachilik bilan shug'ullangan. Ammo XIX asr oxiri va XX asrning birinchi o'n yilligida ularning asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan. Jaloyir qabilasi vakillari B. X. Karmiysheva tomonidan 1945–1971–yillar mobaynida janubiy Tojikiston va O'zbekiston hududlarida o'tkazilgan etnologik tadqiqotlar jarayonida Surxondaryoning o'ng qirg'og'ida (Sho'rchidan janubda) gi bir xil nomdagi qishloq (manzilgoh) dagina ro'yxatga olingan. Surxonning o'ng qirg'og'ida jaloyir nomli yana bir qishloq bor edi. Biroq XX asr boshlarida uning aholisi turkman–jo'zlardan iborat bo'lgan.

Amir Temurning chig'atoylardan chiqqan eng obro'li sarkardalari ham mo'g'ullarga xos soch turmaklasalar ham (sochlarini o'stirib, o'rib yurganlar) faqat turkiycha gaplashganlar. A. Y. Yakubovskiy esa "O'zbekiston xalqlari tarixi" kitobining birinchi nashriga yozgan so'z boshida xuddi shu fikrni takrorlaydi. Tahririyatning izohida esa "Barloslar va jaloyirlarning kelib chiqishi hali fanda o'z isbotini topgani yo'q" deyiladi. A. Y. Yakubovskiy bunda balkim Rashiddinning "Barloslar mo'g'ullarga borib taqaladi" degan satrlariga tayanib shunday fikr bildirgan bo'lsa ajabmas.

Hozirgi kunda Y. A. Zuyevning izlanishlari sharofati bilan jaloyirlar kelib chiqishlariga ko'ra haqiqatan ham mo'g'ullarga emas, balkim turkiylarga borib taqalishi isbotlangan. Jaloyirlar, agar ko'pgina tarixchi olimlarning tadqiqotlari natijalariga murojaat qiladigan bo'lsak, ularning tarkibida quriqin (bo'ri) , tulangit, turi (bo'ri) etnonimlarini tilga olinadi. Yuqorida nomi zikr qilingan qabila

nomlarining barchasi kelib chiqishiga ko'ra qadimgi turkiy xalq – qabilalarga borib taqaladi. Ushbu qabilalar ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan Buyuk Turk xoqonligi, Turgesh xoqonligi, keyinchalik esa "Xoqon o'lkasi" nomini olgan Qarluqlar davlati yoki Qoraxoniylar davlatining siyosiy hayotida faol ishtirok etgan. Va ayniqsa, bo'ri totemi ko'proq qadimgi turkiy xalqlarga borib taqalishi fanda isbotlangan. Bundan kelib chiqadiki, jaloyirlar ham etnik kelib chiqishiga ko'ra qadimgi turkiy xalqlardan biridir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, jaloyir qabilasi alohida urug' bo'linmasi sifatida qardosh o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur, mo'ng'ul, tatar, boshqird va hokazo xalqlar tarkibiga singib ketgan. Hattoki ularning etnik urug' nomlari ham bir xil. Misol uchun, sirmanak (sirmonoq), ariktinim (oriqtinim), baychigir (boychegir), qaychili, siirshi (sigirchi), balgali (bolg'ali), kuchuk, qorachapan, andas, qalps, mirza, oraqti (o'roqli), oqbiyum (oqbo'yim), va boshqa urug' nomlari Markaziy Osiyoning barcha qardosh xalqlari tarkibiga kiruvchi jaloyir qabilasi urug' tarkibiy qismiga kiradi va ularning etnik tarkibi o'zaro mos tushadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Markaziy Osiyo xalqlari o'zaro qon-qarindosh, qardosh xalqlardir. Ularni yagona tarix, turmush, hudud va umumiy ajdodlar birlashtiradi.

Mavzu boyicha savollar.

Nazariy savollar.

1. Mirzacho'lda yashagan asosiy o'zbek urug'lari qaysilar va ularning tarixiy ildizlari qanday?
2. Turklar, boyovutlar, jaloyirilar va yuzlarning kelib chiqish tarixida qanday umumiyliklar mavjud?
3. Har bir urug'ning Mirzacho'ldagi asosiy yashash hududlari qayerda joylashgan?
4. Bu urug'lar qanday ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullangan?
5. Urug'larning boshqaruv tizimi va ijtimoiy tuzilmasi qanday bo'lgan?

6. Mirzacho'ldagi o'zbek urug'larining madaniy merosi qanday shakllangan?
7. Tarixiy manbalarda bu urug'larning roli qanday yoritilgan?
8. Urug'lararo o'zaro aloqalar va integratsiya qanday shakllangan?

Amaliy savollar.

1. Xaritada turklar, boyovutlar, jaloyirilar va yuzlar joylashgan hududlarni belgilang.
2. Tarixiy hujjatlar asosida bu urug'larning migratsiya yo'llarini tahlil qiling.
3. Har bir urug'ning ijtimoiy mavqei va siyosiy roli haqida misollar keltiring.
4. Mirzacho'ldagi urug'lar orasidagi urf-odatlar farqlarini taqqoslab ko'rsating.
5. Jaloyirilar va boyovutlarning dehqonchilikka o'tish bosqichini tarixiy dalillar asosida tushuntiring.
6. Mahalliy aholining bu urug'lar bilan o'zaro ta'siri qanday kechganini o'rganing.
7. Urug'lar asos solgan qishloq va joy nomlarini to'plang va ularning kelib chiqishini tushuntiring.
8. Etnografik materiallardan foydalanib, har bir urug'ning yashash tarzi va kiyim-kechagi haqida tasvir bering.

Munozarali savollar.

1. Mirzacho'ldagi o'zbek urug'lari ijtimoiy barqarorlik omili bo'lganmi yoki ichki ziddiyatlar manbaimi?
2. Urug'chilik tizimi zamonaviy ijtimoiy birliklarga mos keladimi?
3. Turklar va boyovutlarning tarixiy ustuvorligi – siyosiy kuchmi yoki madaniy ta'sirmi?
4. Urug'lararo o'zaro aralashish etnik birlashuvga olib kelganmi yoki madaniy yo'qotishlarga?
5. Urug'lar mahalliy boshqaruvda qanday rol o'ynagan? Davlat siyosatiga ta'siri bormi?
6. Qabila tuzilmasi – tarixiy zaruratmi yoki ijtimoiy cheklovmi?
7. Urug'lararo ziddiyatlarning asosiy sabablari xo'jalik raqobatimi yoki siyosiy ustuvorlikmi?

8. Zamonaviy o'zbek xalqi etnogenetik jihatdan aynan shu urug'larga tayanadimi?

TEST

1. Quyidagi urug'lardan qaysi biri Mirzacho'lda keng tarqalgan?

A) Kimeklar

B) Yuzlar

C) Saxarlar

D) Qarluqo'ylilar

2. Boyovut urug'ining asosiy turmush tarzi qanday edi?

A) Tog' konchiligi

B) Savdogarlik

C) Chorvachilik va dehqonchilik

D) Dengizchilik

3. Mirzacho'ldagi jaloyirilar tarixda qanday davlat tuzilmalarida ishtirok etgan?

A) Buxoro amirligi

B) Xorazmshohlar davlati

C) Mo'g'ullar imperiyasi

D) Eron shohligi

4. Urug'lararo o'zaro aloqalar qanday asosda shakllangan?

A) Harbiy ziddiyat

B) Nikoh, ittifoq va yer egaligi

C) Til o'zgarishi

D) Mustamlaka siyosati

5. Turklar va yuzlarning o'zaro farqlanuvchi asosiy belgilari nimada edi?

A) Tillar

B) Diniy e'tiqod

C) Urf-odat va ijtimoiy boshqaruv

D) Yozuvlar

Adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. Toshkent, 2015.
2. Shoniyo'zov, K. (2001). *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 464 b.
3. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. *Sirdaryo tarixi*. Guliston, 2020.
4. Omonjulov T., Mirzaeva N. *Mirzacho'lning o'tmish tarixi*. Guliston, 2011.
5. Alibekov U. Buxoro va Qo'qon xonliklari tutash hududlarida siyosiy-etnik jarayonlar. Toshkent. "Metodist nashriyoti". 2025

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Аминов Б.А. Формирование населения Голодной степи (конец XIX –60 –е гг. XX в.) Авторефер. дисс. к.и.н. –Ташкент: 1970.
2. Тагаев А.Р. Этнокультурные процессы в Нуротинском оазисе (первая половина XX века). Автореферат дисс.на соис. Уч.ст. к.и.н. Тошкент 2011 с.16
3. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
4. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
5. Пардаев А.Ҳ Жиззах беклиги - Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан XIX асрнинг 60-йилларигача) Т.ф.н.дисс. Автореферати.- Т., 2004. –Б.16;
6. Султонов Т.И. Кочевые племена Приаралья в XV–XVII вв. – Москва: Наука, 1982.
7. Салимов Т. Некоторые вопросы формирования населения Зааминского района (конец XIX–XX вв.). Древний Заамин. – Ташкент: Фан, 1994.

8. Almanov Q. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibi va uning etno-toponomikada aks etishi. Tfd, (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2025.
9. Бушков В.И. Население северного Таджикистана (формирование и расселение). Автореферат кандидатской диссертации. – Москва, 1998.
10. Салимов Т.У. Современные этнографические процессы в целенных районах Узбекистана. Автореферат к. и.н М. 1986.
11. Keller, Shoshana. *To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia, 1917–1941*. Greenwood Press, 2001.

Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar Sirdaryo vohasida etnik jarayonlar fanidan maruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida ilmiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada talabalarning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

“Sirdaryo vohasida etnik jarayonlar” fani bo'yicha seminar mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

№	Seminar mavzusi	Qisqacha tavsif
1	Sirdaryo vohasining qadimiy aholisi va ilk etnik shakllanishlar	Qadimgi davrlardagi etnik tarkib, qabilaviy birliklar va arxeologik dalillar asosida o'rganiladi.
2	Antik davrda Sirdaryo bo'yidagi aholining tarkibiy o'zgarishlari	Antik asrlarda voha orqali o'tgan sivilizatsiyalar ta'siri tahlil qilinadi.
3	Kushonlar davrida etnik tarkib va madaniy o'zgarishlar	Kushon imperiyasi davrida etnik guruhlar va ularning integratsiyasi muhokama qilinadi.
4	Arablar istilosi va islomning ta'siri	Arab bosqini va diniy omillar etnik tarkibga ta'siri o'rganiladi.
5	Turkiy qabilalarning ko'chishi va joylashuvi	O'rta asrlarda turkiy urug'larning vohaga ko'chib kelishi va joylashuv xususiyatlari.
6	Chingizxon istilosi va Sirdaryodagi demografik siljishlar	XIII asr istilolari natijasida yuz bergan etnik o'zgarishlar yoritiladi.
7	Temuriylar davrida voha aholisi va etnik tarkibi	Temuriylar davrida aholi tarkibi, ijtimoiy qatlamlar va etnik guruhlar muhokama qilinadi.
8	Shayboniylar davrida o'zbek urug'larining joylashuvi	XVI asrda o'zbek qabilalari (yuz, qong'iroq, jaloyir va b.) joylashuvi

№	Seminar mavzusi	Qisqacha tavsif
9	XVIII–XIX asrda ko‘chmanchi chorvadorlarning migratsiyasi	tahlil qilinadi. Ko‘chmanchi xalqning vohadagi harakati va etnik tarkibga ta’siri.
10	Rossiya imperiyasi davrida demografik o‘zgarishlar	XIX asr oxiri – XX asr boshidagi rus siyosati, ko‘chib keluvchilar va deportatsiyalar.
11	Sovet davrida etnik siyosat va aholining majburiy ko‘chirilishi	XX asrda deportatsiya, kolxozlashtirish va etnik tarkibdagi o‘zgarishlar tahlili.
12	Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi va yangi etnik guruhlar kirib kelishi	XX asrda vohaning sug‘orilishi va bu hududga aholi ko‘chirish siyosati yoritiladi.
13	Mustaqillikdan keyingi etnik holat va milliy siyosat	O‘zbekiston Respublikasi siyosatida etnik guruhlarining roli va holati tahlil qilinadi.
14	Sirdaryodagi o‘zbek urug‘larining etnik xususiyatlari	Boyovut, jaloyir, yuz, qang‘li kabi urug‘larning kelib chiqishi va madaniyati o‘rganiladi.
15	Etnik madaniyatlarning uyg‘unlashuvi va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar	Hozirgi davrda turli etnik guruhlararo totuvlik, madaniy muloqot va ijtimoiy integratsiya.

MUSTAQIL TA'LIM

Mustaqil ish mashg'ulotlari

№	Mustaqil ta'lim mavzusi	Qisqacha tavsif
1	Sirdaryo vohasida ilk qabilaviy tuzilmalar va arxeologik topilmalar	Qadimgi turar joylar, qabilaviy jamiyatlar va ularning yashash tarzini o'rganish.
2	O'rta asrlarda Sirdaryo bo'yida yashagan etnik guruhlarining tarixi	O'rta asrlarda vohada yashagan turli elatlar, ularning kelib chiqishi va o'zaro munosabatlari.
3	Shayboniylar davrida Sirdaryo vohasidagi urug'-qabilalar	XVI asrda vohada yashagan o'zbek urug'lari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi roli.
4	Ko'chmanchi chorvadorlarning Mirzacho'lga kirib kelishi va joylashuvi	XVIII–XIX asrda vohaga kelgan ko'chmanchilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va ahamiyati.
5	Rossiya mustamlakachilik siyosatining etnik tarkibga ta'siri	XIX asrda Sirdaryo vohasida aholi tarkibidagi o'zgarishlar va rus siyosatining ta'siri.
6	Sovet deportatsiyalari va ularning demografik oqibatlari	XX asrda boshqa hududlardan majburan ko'chirilgan xalqlarning joylashtirilishi va uyg'unlashuvi.
7	Mirzacho'lni o'zlashtirish siyosati va yangi aholi qatlamlari	1950–1980-yillarda yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liq aholi migratsiyasi.
8	Mustaqillik yillarida Sirdaryo viloyatida milliy siyosat	1991 yildan keyingi siyosiy jarayonlar, etnik totuvlik va fuqarolik jamiyati rivoji.
9	Sirdaryo vohasidagi o'zbek urug'larining tarixi va tarqoqligi	Boyovut, yuz, jaloyir, qang'li kabi urug'larning kelib chiqishi va tarqalish hududlari.
10	Etnik jarayonlarda til, din va	Sirdaryo viloyatida yashovchi turli

№ **Mustaqil ta'lim mavzusi**
urf-odatlarining o'rni

Qisqacha tavsif
etnik guruhlar madaniyatining
uyg'unlashuvi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent, 2015.
2. Shoniyozov, K. (2001). O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 464 b.
3. Toshboyev F.E. Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi. – Toshkent: 2021.
4. Xodjiyev M., Qudratov S., Samadov B. Sirdaryo tarixi. Guliston, 2020.
5. Omonjulov T., Mirzaeva N. Mirzacho'lning o'tmish tarixi. Guliston, 2011.
6. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи. Тошкент. Университет. 1995. –Б. 92
7. Ulasheva S. XIII-XV asrlarda O'lkadagi etnik jarayonlar. Toshkent. "Firdav-Shoh" 2023.
8. Alibekov U. Buxoro va Qo'qon xonliklari tutash hududlarida siyosiy-etnik jarayonlar. Toshkent. "Methodist nashriyoti". 2025

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Аминов Б.А. Формирование населения Голодной степи (конец XIX –60 –е гг. XX в.) Авторефер. дисс. к.и.н. –Ташкент: 1970.
2. Тагаев А.Р. Этнокультурные процессы в Нуротинском оазисе (первая половина XX века). Автореферат дисс.на соис. Уч.ст. к.и.н. Тошкент 2011 с.16
3. Alibekov U. Y. From the ethnic history of the population of Ustrushana. Novateur Publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 - 4230, volume 7, issue 4, Apr. - 2021.
4. Almanov Q. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibi va uning etno-toponomikada aks etishi. Tfd,(DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2025.

5. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –321 б.
6. Ахмадеев Н.А. Тюркоязычное население Северного Таджикистана. (Расселение и хозяйство). АКД. -М.: 1982. – 25 с.
7. Аширбоева З.К. XIX аср охири - XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Т.ф.н....автореферати. – Тошкент: 2008.
8. Бушков В. И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. –Москва: 1995. –202 с.
9. Л.Н.Гумилев. Этногенез и биосфера Земли. - Л. 1989.
10. Голодная степь. 1867-1917. История края в документах. - М.:Наука,1981. –С.97.
11. Пардаев А.Ҳ Жиззах беклиги - Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан XIX асрнинг 60-йилларигача) Т.ф.н.дисс. Автореферати.- Т., 2004. –Б.16;
12. Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент. Фан. 2001. 14-15 бетлар.
13. Султонов. Т.И. Кочевие племена Приаралья в XV-XVIII вв. Москва: Наука, 1982.
14. Салимов Т. Некоторые вопросы формирования населения Зааминского района (конец XIX–XX вв.). Древний Заамин. – Ташкент: Фан, 1994.
15. Салимов Т.У. Современные этнографические процессы в целенных районах Узбекистана. Автореферат к. и.н М .1986.
16. Golden, Peter B. Central Asia in World History. Oxford University Press, 2011.
17. Kamp, Marianne. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. University of Washington Press, 2006.
18. Atkin, Muriel. The Subtlest Battle: Islam in Soviet Tajikistan. University of Pennsylvania Press, 1993.
19. Edgar, Adrienne Lynn. Tribal Nation: The Making of Soviet Turkmenistan. Princeton University Press, 2004.

GLOSSARIY

Etnik jarayon – Etnik guruhlarning shakllanishi, o'zgarishi va o'zaro ta'sir jarayoni.

Voha – Sug'oriladigan hududdagi yashash va dehqonchilik uchun qulay yer maydoni.

Migratsiya – Aholining ixtiyoriy yoki majburiy ko'chishi.

Urug' – Etnik yoki nasl-nasab jihatidan mushtarak bo'lgan ijtimoiy birlik.

Qabila – Yaqin qarindoshlik asosida tuzilgan tarixiy-etnik birlik.

Ko'chmanchilar – Doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan, chorvachilik bilan shug'ullangan aholi.

Chorvadorlik – Hayvonlarni boqish va ulardan foyda olishga asoslangan xo'jalik shakli.

Mahalliyashtirish – Tashqaridan kelgan aholini mavjud etnik muhitga moslashtirish.

Assimilyatsiya – Bir etnik guruhning boshqa guruhga singib ketishi.

Etnik tarkib – Muayyan hududda yashovchi turli elat va millatlarning nisbati.

Deportatsiya – Davlat siyosati asosida aholining boshqa joyga majburan ko'chirilishi.

Sug'oriladigan yerlar – Sun'iy yo'l bilan suv bilan ta'minlanadigan dehqonchilik yerlari.

Kolonizatsiya – Tashqaridan kelgan aholining yangi hududlarga joylashuvi.

Sharqiy Eroniyalar – Tarixiy vohada yashagan ilk hind-eroniy elatlar.

Sug'dlar – Qadimda Sirdaryo vohasi yaqinida yashagan etnos.

Qang'li – O'rta asrlarda Sirdaryo bo'yida yashagan turkiy etnik birlik.

Boyovut – O'zbek urug'laridan biri, Sirdaryo viloyatida keng tarqalgan.

Jaloyir – Mo'g'ulcha kelib chiqishga ega tarixiy o'zbek urug'i.

Yuz urug'i – O'zbeklar tarkibidagi yirik urug'lardan biri.

Sirdaryo – O'zbekistonning shimoliy qismidan oqib o'tuvchi daryo va tarixiy voha.

Arxeologik madaniyat – Qadimgi jamiyatlarning moddiy boyliklarini aks ettiruvchi madaniyat.

Toponomika – Joy nomlari va ularning kelib chiqishini o'rganuvchi fan sohasi.

Nomadizm – Ko'chmanchi hayot tarzi.

Yozma manbalar – Tarixiy voqealarni yozib qoldirgan hujjatlar va kitoblar.

Oral tarix – Og'zaki ravishda avloddan avlodga o'tgan tarixiy ma'lumotlar.

Etnogenez – Etnik guruhlarining paydo bo'lishi va shakllanish jarayoni.

O'zbeklar – Sirdaryo vohasining asosiy etnik guruhlaridan biri.

Rus ko'chmanchilari – XIX–XX asrlarda vohaga joylashtirilgan slavyan aholisi.

Dehqonchilik – Yerni haydab ekin ekish bilan shug'ullanish.

Aralash nikohlar – Turli etnik guruhlar orasida tuzilgan oilaviy birliklar.

Etnik totuvlik – Turli millat vakillarining o'zaro tinch va do'stona yashashi.

Islom dini – Sirdaryo vohasida keng tarqalgan asosiy din.

Mahalla – O'zbek jamiyatidagi ijtimoiy boshqaruv va madaniy birlik shakli.

Diaspora – Asl vatani tashqarisida yashovchi etnik guruhlar.

Shayboniylar – XVI asrda O'lkada hukmronlik qilgan sulola.

Turkiston – Tarixiy-geografik mintaqa, jumladan, Sirdaryo vohasini ham o'z ichiga olgan.

Rossiya imperiyasi – XIX asrda Sirdaryo hududini bosib olgan davlat.

Sovet davri – 1924–1991 yillarda Sirdaryo O'zSSR tarkibida bo'lgan davr.

Qishloq xo'jaligi koloniyalari – Sovet davrida tashkil etilgan qishloq aholi punktlari.

Mirzacho'l – Sirdaryo viloyatining o'zlashtirilgan keng dasht hududi.

O'zlashtirish – Ilgari foydalanilmagan yerlardan foydalanishni boshlash.

Demografik o'sish – Aholi sonining ortib borishi.

Etnik identiklik – Shaxs yoki guruhning o'z etnik guruhiga mansubligini anglash hissi.

Milliy siyosat – Davlat tomonidan yuritiladigan etnik guruhlararo munosabatlar siyosati.

Etnos – O'zaro umumiy madaniyat, til, tarixga ega ijtimoiy guruh.

Ko'chib keluvchilar – Tashqi hududlardan vohaga doimiy yashash uchun kelgan aholi.

Urush yillari deportatsiyalari – II jahon urushi davrida boshqa hududlardan ko'chirib keltirilgan xalqlar.

Madaniy uyg'unlashuv – Turli madaniyatlar o'zaro aralashuvi va birlashuvi jarayoni.

Jamiyat sotsiologiyasi – Aholining ijtimoiy tuzilmasini o'rganadigan fan sohasidir.

Tarixiy geografiya – Muayyan hududdagi tarixiy o'zgarishlarning geografik xususiyatlari bilan bog'liqligi.

MUNJARIJA

MUQADDIMA.....	3
1-MAVZU. SIRDARYO VOHASI ETNIK TARIXI O'RGANISHNING AHAMYATI.....	5
1.Sirdaryo vohasi tarixini o'rganilishi va muammolari	5
2.Sirdaryo vohasida etnik jarayonlar	8
3.O'zbekistonning mustaqillik yillarida o'zbek xalqining etnik tarixining o'rganilishi va istiqbollari.....	9
4.O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi muammolari.	11
2-MAVZU. ETNIK TARIXNI O'RGANISHDA TABIIY VA ANTROPOGEN OMILLARNING O'RNI	18
1.Tabiiy muhit va etnik tarix.....	18
2.Tabiiy ofatlar va ijtimoiy jarayonlar.....	19
3.Samarqand shahrining qayta tiklanishida Turkiston, Molguzar tog' tizmalari va Mirzacho'ldan ko'chirilgan aholining o'rni.....	20
4.Tabiiy va antropogen omillarning o'zaro ta'siri.....	23
3-MAVZU. MIRZACHO'L - SIRDARYO VOHASINING EKOMUAMMOLARI DINAMIKASI	29
1.Mirzacho'lning shakllanish tarixi.....	29
2.Mirzacho'lning suv resurslari va sugorilishi.....	30
3.Mirzacho'lning o'zlashtirishi natijasida shakllangan ekomuammolar	31
4-MAVZU.MIRZACHO'LNING O'ZLASHTIRILISHI VA ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	39
1.XX asr boshlarida Mirzacholdagi ekomuammolar va ijtimoiy turmush	39
2.Mirzacho'lni o'zlashtirishda dastlabki tashkil etilgan dala tajriba stansiyalarning ahamyati.....	41
4.Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda	43
5-MAVZU.USTRUSHONA (MIRZACHO'L) AHOLISINING ETNIK SHAKLLANISH TARIXI.....	54
1.Ustrushona aholisining etnik tarixini o'rganilishi xususida.	54
2.Antik davrda Ustrushonadagi etno migratsion jarayonlar.....	56

3. Ilk Orta asrlar davrida etnik jarayonlar	58
6-MAVZU. QADIMGI USTRUSHONA (MIRZACHO'L) AHOLISNING ANTROPOLOGIK XUSUSIYATLAR	65
1. Yurtimizda antropogenez jarayoni	65
2. Ustrushona aholisining qadimgi qiyofasining shakllanishi	66
3. Antik davrdagi migratsion jarayonlar va antropologik qiyofalardagi o'zgarishlar	69
7-MAVZU. QORAXONIYLAR VA XORAZMSHOHLAR DAVRIDA ETNIK JARAYONLAR	76
1. XII-XIII asr boshlariga taalluqli manbaviy ma'lumotlar tahlili	76
2. Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davridagi etnik guruhlar	78
8-MAVZU. CHINGIZXONNING MOVARUNNAHRGA BOSQINI VA TURLI ETNIK QAVMLARNING KIRIB KELISHI	89
1. Chingizxonning Movarunnahrga bosqini va aholining etnik tarkibida o'zgarishlarning o'rganilishi	89
2. Barloslar	92
3. Naymanlar	92
4. Sulduzlar	94
9-MAVZU. AMIR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ETNIK JARAYONLAR	100
1. Amir Temur davridagi etnik jarayonlarning manbalarda yoritilishi	100
2. Amir Temur va temuriylar davridagi mahalliy etnik komponentlar	103
3. Arlotlar	104
4. Mang'itlar	107
5. Yasovuriylar	107
6. Qavchinlar	108
7. Qo'ng'irotlar	109
10-MAVZU. SHAYBONIYLARNING O'LKAGA BOSQINI VA AHOLINING ETNIK TARKIBIDAGI O'ZGARISHI	114
1. Dashti Qipchoq Shayboniylarining O'lkaga migratsiysining o'rganilishi ..	114

2.Shayboniyxon bosqinida davrida kirib kelgan turkey.....	116
qavmalr va etnik jarayonlar.	116
3.XVI-XVII asr manbalarida etnik jarayonlarning yoritilishi.....	118
4.Turkiston,Molguzar tog‘ tizmalari va Mirzacho‘lga shayboniylar bosqini va etnik jarayonlar.....	119
11-MAVZU. XVIII-XIX ASRNING BIRIRNCHI YARMIDA TURKISTON, MOLGUZAR TOG‘ TIZMALARI VA MIRZACHO‘LDA ETNO-SIYOSIY JARAYONLAR	125
1.XVIII-XIX asrning birinchi yarmidagi migratsion jarayonlarning etnologik nuqtai nazardan o‘rganilishi.....	125
2.Turkiston, Molguzar tog tizmalari va Mirzacho‘l etno siyosiy jarayonlar markazida.....	127
3. Migratsion jarayonlarning manaviy madanyatdagi namoyon bo‘lishi.....	129
12-MAVZU. O‘ZBEK XALQI ETNIK TARIXIDA “OQ UYLI” KOCHIRMACHILIK SIYOSATI.....	136
1.Etno migratsion jarayonlarda aholining majburiy ko‘chirish siyosatining o‘rni	136
2.XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida Turkiston Molguzar tog tizmlalari va Mirzacholda “oq uylik” ko‘chirish siyosati.	137
3.O‘zbek xalq og‘zaki ijodida “oq uyli” ko‘chirirsh siyosati.....	139
4.Oq uyli ko‘chirirsh siyosatining oqibatlar.	140
13-MAVZU. TURKISTON MOLGUZAR TOG‘ TIZMALARI VA MIRZACHO‘LGA TURKIY XALQLAR MIGRATSISYASI	145
1.Qozoqlarning O‘lkaga kirib kelishi va etnik jarayonlar	146
2.O‘lkaga qirgizlarning kirib kelishi	149
3.Turkiston, Molguzar tog‘ tizmlalari va Mirzacho‘lga.....	150
qoraqalpoqlar migratsiyasi.....	150
4. Turkiston, Molguzar tog‘ tizmlalari va Mirzacho‘lga boshqa turkiy etnik guruhlarining migratsiysi.....	152
14-MAVZU. ROSSIYA BOSQINI VA XIX ASR OXIRIDA MIRZACHO‘LDA ETNIK JARAYONLAR	157

1.Rossiya imperyasining O'rta Osiyoga bosqini.....	157
2.Rossiyadan rus va boshqa millat vakillarining Markaziy Osiyoga emigratsiyasi sabablari.....	158
3.Mirzacho'lga rusiyzabon aholining ko'chib kelishi.....	158
4.Rossiya imperyasi tomonidan diniy sektantlarning ko'chirilishi	160
15-MAVZU. MIRZACHO'LDAGI O'ZBEK URUG'LARI (TURKLAR, BOYOVUTLAR, JALOYIRLAR, YUZLAR)	167
1. O'zbek turklari	167
2.O'zbek boyovutlari.....	172
3.Jaloyir.....	177
MUSTAQIL TA'LIM.....	190
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	192
GLOSSARIY.....	194

UMURZOK ALIBEKOV

SIRDARYO VOHASIDA ETNIK JARAYONLAR

O'QUV QO'LLANMA

O'quv qo'llanma muallifning tahririda taqdim etilgan.

O'quv qo'llanmada keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma'lumotlarning aniqligiga hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik muallifning zimmasidadir

Toshkent - "TA'LIM PRINT" - 2026

Muharrir: Abdullayeva D.

Bosishga 13.01.2026.da ruxsat etildi.

Bichimi 60x90. "Times new roman" garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 13. Nashr bosma tabog'i 12.75

Adadi 100 nusxa.

Nashriyot roziligisiz chop etish taqiqlanadi.